

**ABDUSALIM ERKABOYEVICH KENJABOYEV  
KENJABOYEVA DILAFRO'Z ABDUSALOMOVNA**

# **PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIK**



**TERMIZ 2021**

Sizga taqdim etilayotgan ushbu o'quv qo'llanmada pedagogika fanining asosiy qismi bo'lgan "Pedagogik deontologiya va kompetentlik" kursi mazmunida pedagog faoliyatini samarali tashkil etish, ta'lim subyektlari o'rtasida ijobiy munosabatni yo'lga qo'yish, ularning pedagogik mahoratini shakllantirish, pedagogning bugungi kompetentligi va uning tarkibiy qismlari mazmuni yoritib berilgan. O'quv qo'llanma mazmuniga pedagogik kadrlarni tayyorlashga nisbatan qo'yiladigan bugungi kun talablaridan kelib chiqib yondashgan, unda har bir mavzuga oid tayanch so'zlar, rejalar asosida adabiyotlarga tayanib mavzular yoritilgan. Har bir mavzuga oid amaliy mashqlar ham, interfaol usullar yordamida tavsiya qilingan.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishlaridagi talabalarga, pedagogik yo'nalishdagi texnikumlar talabalariga, ta'lim sohasidagi barcha magistrantlar va o'qituvchilarga mo'ljallangandir.

**Mas'ul muharrir:      Pedagogika fanlari doktori, professor B.X.XODJAYEV**

**Tuzuvchi:              Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent A.E.KENJABOYEV**

**Taqrizchilar:        Pedagogika fanlari doktori, professor I.CHORIYEV  
Pedagogika fanlari doktori, professor SH.OLIMOV**

**Ushbu uslubiy qo'llanma Termiz davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan, \_\_ - \_\_\_\_\_ 2021 yil \_\_\_\_\_ - sonli bayonnomasi asosida**

Fan/modul kodi PKM2004	O'quv yili 2020-2021	Semestr 1	ECTC - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim(soat)	Jami yuklama (soat)
	Pedagogik deontologiya va kompetentlik	60	60	120
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – magistrnlarni pedagogik deontologiya va kompetentlik fanining ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik deontologiya va kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va kasbiy etikaning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati va o'rni, kasbiy etika me'yorlari haqida ma'lumotlar berishdan iborat</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – magistrnlarning pedagogik deontologiya va kompetentlikning mazmun mohiyatini yoritib berish, pedagogik faoliyatning kasbiy etik normalari haqida tasavvur hosil qilish, pedagogik faoliyatida kasbiy etika va kompetentlikga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-Mavzu: Pedagogik deontologiya va kompetentlik fanining maqsadi va vazifalari</b></p> <p>“Deontologiya” tushunchasi. Deontologiyaning prinsiplari. Pedagogik deontologiya – kasbiy xulq-atvor haqidagi fan. Pedagogik deontologiya va kompetentlik fanining maqsadi va vazifalari. Pedagogik kompetentlikning boshqa pedagogik fanlar bilan aloqadorligi. Pedagogik kompetentlik, professional kompetentlik va o'qituvchi kasbiy etikasiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.</p> <p><b>2-Mavzu: Pedagogik deontologiya va kompetentlik faning nazariy – metodologik asoslari</b></p> <p>Pedagogik deontologiya va kompetentlik faniga metodologik yondashuvlar. Kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv, fanlararo yondashuv, ma'lumotli yondashuv. Kompetensiya tizimi, amaliy va nazariy tayyorgarlik holati.</p> <p><b>3-Mavzu: Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik deontologiya va kompetentlikning rivojlanishi</b></p> <p>Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimida pedagogik deontologiya va kompetentlikning ahamiyati. Pedagogik deontologiya va kompetentlik ilmiy izlanishlar. Mamlakatimizda pedagogik deontologiya va kompetentlikning</p>			

rivojlanishi.

#### **4-Mavzu: Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish aspektlari**

Kompetensiya tushunchasi; kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv, kompetensiya egasi, bu atamaning mazmuni. Kompetensiyaning jamiyatdagi o'rni. Kompetensiya lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilida "munosib", "to'g'ri keladi" yoki "mos keladi" ma'nolarining o'ziga xos jihatlari.

#### **5-Mavzu: O'qituvchi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish tizimi**

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tizimi – pedagogik mahorat orqali namoyon bo'lishi. Kasbiy tayyorgarlik modelini shakllantirish. Fakt va hodisalarni nazariy jihatdan tahlili. Tahlil etishni nazariy darajaga olib chiqish mahorati. Kasbiy kompetensiya va uning shakllanish bosqichlari. Shaxsiy kompetensiya; maxsus va didaktik kompetensiya; kommunikativ kompetensiya; informatsion kompetensiya; muammolarni hal eta olish; rivojlantiruvchi muhitni yaratish.

#### **6-Mavzu: Pedagogik mahorat va kompetensiya mezonlari**

Pedagogik mahorat; kasbiy tayyorgarlik; professionalizm; pedagogik kompetensiya; kasbiy kompetensiya; zamonaviy pedagog; zamonaviy o'qituvchi; zamonaviy model; pedagogik kompetensiya modeli; professional tayyorlashning zamonaviy modeli. Pedagogik professionalizm. Professionalizm – o'z kasbining ustasi degan ma'noni beradi. Kompetensiya esa o'z kasbiga munosib, o'z kasbini har tomonlama uddalay oladi degan ma'noni anglatadi. Pedagogik kasbiy kompetensiya professionalizm bilan mahoratli yoki pedagogik mahorat O'rtasida turuvchi tushuncha ekanligi. o'zbek tilida "professionalizm"ni "master"– "usta", "masterstvo" - "mahorat" so'zlari xalqaro andozalardan kirib kelgan "professionalizm" va "kompetensiya" tariqasida qo'llayshni maqsadga muvofiq deb belgilanishi. Professionalizimga erishish uchun istak, izlanuvchanlik, doimo o'qish-o'rganishga tayyorgarlik va o'z mahoratini oshirib borish kabi qobiliyatlar zarur bo'ladi.

#### **7-Mavzu: Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy aspektlari**

Mamlakatimizda va boshqa bir qator xorijiy mamlakatlarda "Pedagogika", "Pedagogik psixologiya", "Pedagogik mahorat asoslari" va nihoyat "Pedagogik kompetensiya" kabi o'quv kurslari mavjud bo'lib, ular bir-birini ko'p hollarda takrorlaydilar. Ularning barchasi tomonidan ilgari surilayotgan nazariyalar pedagogik kompetentlik fanida to'laligicha berilgan.

#### **8-Mavzu: Oliy ta'lim o'qituvchisi malakasiga ega bo'lish uchun qo'yiladigan talablar. Professiogramma.**

Professiogramma – kasb tavsifnomasi. Kasb egalarini tayyorlash bo'yicha

davlat ta'lim standartlari va o'quv rejaları hamda o'quv fanlari bo'yicha dasturlar yaratishda professiogrammalarning ahamiyati. Professiogramma: oliy ta'lim o'qituvchisi vazifalari; oliy ta'lim o'qituvchisi faoliyatining mazmun-mohiyati; noo'quv ishlari; o'quv-metodik ishlar; o'qituvchining ilmiy-tadqiqot ishlari; o'qituvchining tarbiyaviy ishlari; tashkiliy-metodik ishlar; o'qituvchi shaxsiy tavsifi va o'ziga xosligi; o'qituvchining maxsus tayyorgarligi; maxsus bilimlar; maxsus bilish, ko'nikma; o'qituvchining psixologik-pedagogik tayyorgarligi; psixologik-pedagogik bilimlar; pedagogik bilimlar: diagnostika, prognostik, loyihalash, konstruktivlik, kommunikativlik, tashkilotchilik, tahlil qilish.

### **9-Mavzu: Pedagoglik kasbining sathlarini tashkil etuvchi kompetensiyalar**

Insonni faoliyat va muloqot ob'ekti sifatida tavsiflovchi kompetensiyalar. Insonning ijtimoiy hamkorligini va ijtimoiy muhitni ta'minlovchi kompetensiyalar. Inson faoliyatini ta'minlovchi kompetensiyalar. Kasbiy faoliyatning tanlangan sohasida muvaffaqiyatli ishlash ko'nikmalari va malakalari.

### **10-Mavzu: Pedagogik kreativlik.**

Kreativlik negizida aks etuvchi muhim sifatlar, shaxs kreativ faoliyatining ikki jihatini yorituvchi test turlari, pedagog kreativlik potensialiga ega bo'lishi lozim bo'lgan qoidalar, pedagogning kreativlik potensialini rivojlantiruvchi metodlar, pedagogik kreativlik malakalari, kreativ potensialining tarkibiy asoslari, kreativlik potensialining ustuvor tamoyillari, pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar.

### **11-Mavzu: Hamkorlik pedagogikasining tasnifiy belgilari.**

Mashg'ulotlarni on-line tizimida video anjumanlar va seminar-treninglar asosida tashkil etish; talabalar o'rtasidagi kommunikatsiyani jadallashtirish; talabalarning o'quv fanini o'rganish va o'zlashtirishga qiziqishlarini oshirishga yo'naltirilgan xususiy-metodik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish; talabalarni tyutorlik, fasilitatorlik faoliyatiga faol jalb etish va boshqalar.

### **12-Mavzu: Pedagoglik, tyutorlik, fasilitatorlik qobiliyatlari asosida loyihaviy faoliyatni tashkil etish amaliyoti**

Loyihalar ustida ishlash tartibi va qoidalari. Individual loyiha ishlarini bajarishda tyutorning o'rnini. Guruhiy loyihalarni amalga oshirish yo'llari va fasilitatorlik faoliyati.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

#### **(Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg'ulotlari), (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim) o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi.**

Amaliy mashg'ulotlarida magistrlarda pedagogik deontologiya va kompetentlikga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:  
 Pedagogik deontologiya uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni.  
 Pedagogik kompetentlikda metodologik yondashuvlar.  
 Kompetensiyaning jamiyatdagi o'rni va pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish aspektlari.  
 O'qituvchi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish tizimi.  
 Pedagogik mahorat va kompetensiya mezonlari.  
 Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy aspektlari.  
 Oliy ta'lim o'qituvchisi malakasiga ega bo'lish uchun qo'yiladigan talablar.  
 Professiogramma.  
 . Pedagogik kasbining sathlarini tashkil etuvchi kompetensiyalar.  
 . Pedagogik kreativlik.

10. Hamkorlik pedagogikasining konseptual g'oyalari. Hamkorlik pedagogikasining tasnifiy belgilari.

11. Pedagogik tuyutrlik fasilitatorlik qobiliyatlari asosida loyihaviy faoliyatni tashkil etish amaliyoti.

Amaliy mashg'ulotlar mul'timediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Izohli lug'atlar bilan ishlash va o'qituvchi atamasi haqida ma'lumot to'plash.

2. «Barkamol avlod orzusi» kitobini o'qib chiqish va asosiy fikrlarni konspekt qilish.

3. Sharq mutafakkirlari, chet el va Yevropa, O'zbekistonlik pedagog olimlarning o'qituvchi va uning kompetentligi haqidagi fikrlarini o'rganish va to'plash.

4. Fakultetdagi dars va mashg'ulotlarda o'qituvchilar tomonidan auditoriya diqqatini jalb etish, magistr'larga ta'sir etish, ular bilan munosabatga kirishish, o'rnatish bo'yicha qo'llanilayotgan usullarni o'rganish, to'plash, yozib borish.

5. Oliy o'quv yurti o'qituvchisi kompetensiyalari.

6. «Muallim - qalb me'mori» (Malla Ochilov) kitobini o'qish, asosiy fikrlarni o'rganish va konspekt qilish.

7. Fakultetda dars jarayonida uchraydigan nizolarni o'rganish va yechimini tahlil qilishda o'qituvchining kompetentligi.

	<p>8. Kasb va ish ijrochisi matrikullari.</p> <p>9. Kasblar tasnifi.</p> <p>10. Fakultet (o'rta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji) o'qituvchilarining darslarini kuzatish va dars fragmentini yaratish.</p> <p>11. Tanlangan mavzu asosida jamoaviy ijodiy ishning rejasi, senariysini tuzish.</p> <p>12. O'z-o'zini tarbiyalash yoki o'z ustida ishlash shaxsiy dasturini tuzish.</p> <p>13. Universitetda o'qituvchining ish tajribasini o'rganish va umumlashtirish.</p> <p>Magistrant mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi, darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha fan boblari va mavzularini organish, tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish, maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash, masofaviy ta'lim. Mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi.</p>
	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida magistr: pedagogik deontologiya va kompetentlikning nazariy asoslarini va prinsiplari, kasbiy pedagogik faoliyatning etik norma va me'yorlari haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; pedagogik faoliyat jarayonida muammolarni pedagogik deontologiya qoidalariga rioya qilish asosida yechim topish, pedagogning ma'naviy qiyofasini namoyon eta olish, pedagogik etikasi, kasbiy tayyorgarlik modelini shakllantirish, zamonaviy pedagogga qo'yiladigan talablarga oid <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; pedagogik me'yor va stantartlarga rioya qilish, kasbiy pedagogning etikasiga ega bo'lish, pedagogik kompetensiya doirasida ilmiy-nazariy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>.</p>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari :</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar ;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun magistrlar:</b></p>

	<p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
<p>6.</p>	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘ll. -T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006. -159 b.</li> <li>2. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma. -T.: BROK CLASS SERVIS, 2016. – 84 b.</li> <li>3. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. O‘quv qo‘llanma. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2017. – 320 b.</li> <li>4. Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. O‘quv qo‘ll.-T.: TIB-KITOB, 2009. -183 b.</li> <li>5. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kopetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.</li> <li>6. Muslimov N.A. va boshqalar. Professionalnaya kompetentnost budущego uchitelya: teoriya i texnologiya obucheniya Uchebnoe posobie . -T.: TDPU, 2014</li> <li>7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik-T.: Iqtisod-moliya, 2011. - 420 b.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo‘shimcha adabiyotlar.</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>8. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.</li> <li>9. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017yil, 6-son,70-modda.</li> <li>10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.</li> <li>11. Bolotov V.A., Serikov V.V. Kompetentnostnaya model: Ot idei k obrazavatelnoy programmoy. Pedagogika. 2003. № 3.</li> <li>12. Bondorevskaya Ye.V., Kulnevich S.V. Pedagogika. 2004. № 10.</li> <li>13. Drujilov S.A. Professionalnaya kompetentnosti i professionalizm pedagoga. Psixologicheskiy podxod. Sibir. Filosofiya. Obrazovanie. Almanax. S.O.RAO. IPK, g., Novokuznevsck –2005. № 8.</li> <li>14. Bermus A.G. Проблемы i perspektivy realizatsii kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. <a href="http://www.yeidoc.ru">www.yeidoc.ru</a>. 2005, 09, 10.</li> <li>15. Kuzmenix J.O. Proffesionalno pedagogicheskaya podgotovka budущix uchiteley v shkolax proffesionalnaya razvitiya v SShA. Yoshkar-ala. 2007.</li> </ol>



	<p>16. Vdovina S.A. Professionalno pedagogicheskaya kompetentnost i yee struktura. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Perm – 2009.</p> <p>17. Yelegina V.S., Poxlebaev S.M. Kompetentnosnyy podxod k organizatsii obucheniya studentov v pedagogicheskim vuze. Fundamentalnoe issledovanie. 2012 № 3.</p> <p>18. Lebedev O.Ye. Kompetentnosnyy podxod v obrazovanii. www.nekrasovepb.ru</p> <p>19. Zimnyaya I.A., I.A. Klyuchevnyx. Kompetensii – novaya paradigma rezultata obrazovaniya. quality.petrus.ru</p> <p>20. Olsson, Thomas; Martensson Katarina and Roxa, Torgny. Pedagogical competence. Swedish, Division for Development of Teaching and Learning, Uppsala University, 2010.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <p>20. www. tdpu. uz</p> <p>21. www. pedagog. uz</p> <p>23. www. Ziyonet. uz</p> <p>24. www. edu. uz</p>
7.	<p>Fan dasturi Oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi yoʻnalishlari boʻyicha Oʻquv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 _-yil “ ____ ” ____ dagi ____ -sonli bayonnomasi bilan maʼqullangan.</p> <p>Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2020_-yil “ ____ ” ____dagi ____-sonli buyrugʻi bilan maʼqullangan fan dasturlarini tayanch oliy taʼlim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun maʼsullar :</b></p> <p>F.O.Mirzaeva TDPU, “Pedagogika ” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.</p> <p>M.T.Axmedova TDPU, “Pedagogika ” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Mirsolieva M.T. - Nizomiy nomidagi TDPU pedagogika fanlari doktori.</li> <li>- Safarova R.Gʻ. Qori Niyoziy nomidagi OʻzPFITI laboratoriya mudiri, p.f.d.prof.</li> </ul>

## **Kirish**

Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligini tamomlagan magistrantlar professional ta'lim, oliy ta'lim muassasalari, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida pedagogik fanlardan dars beradilar. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogika madaniyat va zamonaviy o'qituvchi shaxsi, pedagogik kompetentlik asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirishda mazkur fan alohida ahamiyatga ega.

Ushbu dastur zamonaviy pedagogikaning asosiy yetakchi tendensiyalari, pedagogik masalalar hamda ularning tadqiq etilishi, pedagogik konsepsiyalar hamda pedagogika fani rivojining ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab olgan.

### **Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:**

- pedagogik deontologiya va kompetentlikning nazariy asoslarini va printsiplari, kasbiy pedagogik faoliyatning etik norma va me'yorlari haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;

- pedagogik faoliyat jarayonida muammolarni pedagogik deontologiya qoidalariga rioya qilish asosida yechim topish, pedagogning ma'naviy qiyofasini namoyon eta olish, pedagogik etikasi, kasbiy tayyorgarlik modelini shakllantirish, zamonaviy pedagogga qo'yiladigan talablarga oid *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;

- pedagogik me'yor va standartlarga rioya qilish, kasbiy pedagogning etikasiga ega bo'lish, pedagogik kompetentsiya doirasida ilmiy-nazariy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

### **Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

Pedagogik deontologiya va kompetentlik asoslari fani mutaxassislik fani hisoblanib, 1 semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan umummetodologik (ilmiy-tadqiqot metodologiyasi), mutaxassislik (pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi, pedagogik fikrlar tarixi, pedagogik menejment, pedagogik diagnostika va korreksiya) fanlari bilan o'zaro aloqada olib boriladi.

### **Fanning ta'limdagi o'rni**

Pedagogik deontologiya va kompetentlik asoslari pedagogik fanlarning asosini tashkil etib, bo'lajak mutaxassislarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Pedagogikaning konseptual asoslariga doir bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish magistrarga kelajakdagi ilmiy-pedagogik faoliyatlarini yo'lga qo'yishda muhim o'rin tutadi.

## **Fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Pedagogik deontologiya va kompetentlik asoslari fanini o‘rganish davomida mashg‘ulotlar paytida kompyuter, axborot va ta’limning boshqa zamonaviy texnologiyalari qo‘llaniladi. Bundan tashqari darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ma’lumotnomalar, pedagogik ensiklopediyalar va lug‘atlar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallardan foydalaniladi.

## I MAVZU: PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIK FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

### Reja:

1. *Pedagogik deontologiya tushunchasi va uning pedagogik etikadagi o`rni.*
2. *Pedagogik deontologiya – kasbiy xulq-atvor haqidagi fan.*
3. *Kasbiy axloqiy normalarning burch kategoriyasi sifatida ifodalanishi va uning qoidalari.*
4. *“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati.*
5. *Pedagogik kompetentlik fanining predmeti va obyekti, maqsadi va vazifalari*
6. *O`qituvchining kasbiy kompetentligi.*
7. *Pedagogik kompetentlik, professional kompetentlik va o`qituvchi kasbiy etikasiga qo`yilayotgan zamonaviy talablar.*

Tayanch tushunchalar: *“Deontologiya” tushunchasi. Deontologiyaning prinsiplari. Pedagogik deontologiya – kasbiy xulq-atvor haqidagi fan. Pedagogik deontologiya va kompetentlik fanining maqsadi va vazifalari. Pedagogik kompetentlikning boshqa pedagogik fanlar bilan aloqadorligi. Pedagogik kompetentlik, professional kompetentlik va o`qituvchi kasbiy etikasiga qo`yilayotgan zamonaviy talablar.*

Deontologiya – so`zi yunoncha “deontos”-“shart” “burch”, logos-“ta`limot”, “o`rganish” degan ma`noni anglatadi.

Deontologiya - etika fanining bir qismi sifatida mutaxassis o`rnining bir sohasiga nisbatan xulq-atvor normalari yoki burch haqidagi ma`noni anglatadi.

Burch va majburiyat (axloqiy burch mutaxassis uchun ishlatiladi) meditsina xodimi, o`qituvchi-pedagog, jamiyat ishlarida davlat boshqaruvida rahbarlar oldida va shu bilan har bir shaxs oldida ham uni burch, vazifasi va avtoritetini xalq oldidagi burchi, mas`uliyatini ifodalaydi.

### **O`qituvchining axloqiy fazilatlar.**

Umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlar barcha kishilar barcha kasb egalari, jumladan o`qituvchi-tarbiyachilar uchun zaruriy, axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga soluvchi qoidalar, davlatning turli qonunlari, me`yorlari va normalari bilan shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy

voqelik shaxs oldiga ma`lum axloqiy talablar qo`yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi.

O`qituvchi umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlarni o`zlashtirib olishi, o`z tajribasida qo`llashi o`zining dunyoqarashi va mafkurasi hamda axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash, his etish, turmushda sinab ko`rish natijasida umuminsoniy va milliy, axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar, o`qituvchining o`z axloqiy fazilatlariga e`tiqodiga aylanadi. O`qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilatlariga va e`tiqodiga aylanishi lozim.

Pedagogik takt - o`qituvchi axloqining aqliy ko`rinishlaridan biridir.

O`qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlar tushunchalarga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog`liq tarzda oydinlashtiradi.

Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g`urur, baynalminalchilik, adolat, yaxshilik, burch qadr-qimmat, mas`uliyat, vijdon, halollik, rostgo`ylik va talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o`qituvchi odobida pedagogik faoliyati bilan birgalikda tahlil qilinadi.

### **O`qituvchilik burchi.**

Umuminsoniy va milliy axloqda burch tushunchasi har bir kishining o`z vazifasini to`liq bajarishi boshqalarga to`g`ri munosabatda bo`lishini ifodalaydi.

Burchda shaxsning jamiyatga bo`lgan munosabati namayon bo`ladi. O`z burchiga sodiqlik har bir kishiga yuksak obro` va shon-sharaf keltiradi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida fuqarolarning huquqlari bilan bir qatorda, burchlari ham belgilangan. Qonunlarga rioya qilish, boshqa kishilarning huquq va erkinliklari, sha`ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, ma`naviy merosimizni asrab-avaylash, atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo`lish har bir fuqaroning burchidir. Burchga sodiqlik har bir fuqaroning odobi va axloqini ko`rsatadi.

Katta yoshdagi kishilarni hurmat qilish yoshlarning burchidir. Ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash o`qituvchining axloqiy fazilatidir. Har bir muallimning o`quvchilarga o`rgatadigan g`oyalari, ularning qalbidan joy olishi lozim. O`qituvchi yosh avlodga ta`lim-tarbiya berish sohasidagi o`z burchini zo`rlik tufayli yuksaltirgan majburiyat emas balki, o`z hayotining ma`nosi, ishonch va vijdon da`vati deb, hisoblaydi fuqarolik burchini his etish xalq va butun mamlakatimizning ertangi kelajagi to`g`risida g`amxo`rlik qilishni taqoza etadi.

Davlat oldidagi burchni anglamoq barkamol muallim insonga izzat-hurmatli yoshlarga g`amxo`r bo`lish, boshqalarga yordam qilishni o`z insoniy burchi deb hisoblovchi insondir.

O`qituvchi axloqidagi burch hissi Vatanni sevish, uning porloq kelajagi uchun g`amxo`rlik qilishni talab etadi. **O`qituvchilik odobi** - vatanparvarlik burchi

baynalminalchilik tuyg'usi bilan chambarchas bog'liqdir. Ba'zi pedagoglar boshlagan ishlarini oxirigacha yetkaza olmaydilar, irodasi yetishmaydi. O'qituvchining eng muhim burchlaridan biri – o'z bilimini muntazam oshirib borishdir.

O'zbekiston Respublikasi hukumati o'qituvchilar hurmatini qadrlab har tomonlama ular mehnatini e'tiborga olib har tomonlama g'amxo'rlik qilmoqda. Bizning nazarimizda **zamonaviy o'qituvchi qiyofasida quyidagi fazilatlar bo'lishi kerak;**

1. O'qituvchi jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar va islohatlar mohiyatini chuqur anglab yetishi lozim.

2. O'qituvchi zamonaviy axborat texnologiyalaridan, yuqori darajada xabardor bo'lishi zarur.

3. O'qituvchi o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi zarur.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali usul va vositalardan foydalana olishi lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor, tashkilotchi bo'lishi lozim.

7. O'qituvchi yuksak darajada mahorat egasi bo'lishi lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi lozim.

**O'qituvchilik burchi** aql bilan hissiyotning birligidan iborat. Muallim kasbiga nisbatan qo'yiladigan talablarning mohiyati va mazmunini bilsa, uning shaxs va jamiyat uchun muhimligini anglasa, bu vazifalarni bajarish uchun o'zida qobiliyat borligini sezsa, pedagog uchun zarur fazilatlarni tarbiyalash yo'llarini belgilab olsa, shundagina unda kasbiy burch shakllana boshlaydi. Demak, unda burch shakllangan deyish mumkin.

O'qituvchining eng muhim burchlaridan biri o'z bilimlarini muntazam oshirib borishdan iboratdir. Muallim o'quvchilarga chuqur nazariy bilimlar berish, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi darkor. Shu bilan birga, u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy fazilatlar o'stirishi lozim. O'qituvchining mas'uliyati uning xulqini tarbiyalashga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o'quvchilarga ta'sir o'tkazish darajasining asosiy mezonini hisoblanadi.

O'qituvchi odobida yaxshilik fazilatlariga pedagogik faoliyat bilan bog'liq holda, o'qituvchining yaxshilik shaklida aniqlik kiritiladi. Unda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi manfaatlari birligi, muallim va o'quvchi maqsadining birligi, ta'lim va tarbiyaning samarasi uchun kurashning birligi aks etadi. Yaxshilik fazilati muallimning ham, o'quvchilarning ham, ota-onalarning ham yaxshi niyatli, xayrixoh va mehribon bo'lishini taqozo etadi.

O`qituvchilik qilayotgan yoki muallimlik kasbini tanlagan kishilar o`z zimmalariga qanchalik yuksak, sharaflı mas'uliyat olayotganliklarini tasavvur etishlari lozim.

### **O`qituvchilik sha`ni va qadr-qimmmati.**

Kishilarning umumiy ishga qo`shayotgan hissasining salmog`i u qaysi vazifani bajarayotganligida emas, balki o`z ishini qanchalik yaxshi, sidqidildan bajarishiga bog`liq. Insonning qadr-qimmmati uning mansabi, kasb-koridan ko`ra ham ko`proq o`z kasbini qanday bajarishiga, uning odobi va xulq-atvoriga bog`liq. Bu fazilat o`qituvchi odobida muallimning qadr-qimmmati, sha`ni deb ataladi. U avvalo, o`qituvchidan o`z ishining ustasi, kamtar bo`lishni, shu bilan birga pedagoglar va o`quvchilar jamoasida o`zini tuta bilishni talab etadi. Muallim maktab rahbarlari, hamkasblari va boshqalar bilan muomalada, munosabatda manmanlik va laganbardorlik qilmasa, uning o`quvchilar oldida obro`si, qadr-qimmmati ortadi.

Pedagoglik ishida boshqa kasblarga nisbatan subyektiv faktlar har bir kishining har bir kishining sha`ni va shaxsiy qadr-qimmmatini e`tiborga olishni ko`proq talab etadi.

Pedagoglar jamoasidagi urf-odatlar, an`analar, axloqiy munosabatlar ham o`qituvchilik sha`ni va qadr-qimmmatini asrashga qaratilmog`i lozim. O`qituvchi odobida sha`n, qadr-qimmmat tushunchasi o`qituvchining pedagoglar jamoasida egallagan hurmatini bildiradi, shu bilan birga o`quvchilar va ota-onalar orasidagi hurmatini ham ifodalaydi.

### **O`qituvchilik vijdoni**

Pedagogik faoliyatda o`qituvchining vijdoni ta`lim-tarbiya jarayonida axloqiy, yo`l-yo`riqlarni va kasbiy burchlarni qanday bajarayotganliklarni nazorat qiluvchi ma`naviy kuchdir. O`qituvchi faoliyatida, axloqida, xulqida vijdon o`z-o`zini nazorat qilish vositasidir.

O`qituvchilik vijdoni muallimning o`z bilimi, tajribasi va qobiliyatini to`la ishga solib boshqalarni o`qitish, tarbiyalash va ma`rifatli qilishga da`vat etadi. Abdulla Avloniy: "Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta`sir qiladurg`on hissiyot, ya`ni sezuv-to`ymakdan iborat ma`naviy quvvatni aytiladur" deb ta`rif bergan edi.

### **Talabchan va adolatli bo`lish**

O`qituvchining kasbiy - axloqiy fazilatlaridan biri talabchan va adolatli bo`lishdir. Muallimning talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo`lgan ishonchi ifodalanadi.

O`quvchilar loqaydlikni yoqtirmaydilar, aksincha yaxshi niyat bilan oqilona qilingan talabchanlik ularning muallimga hurmatini oshiradi. Muallimning talabchanligi adolatlilik bilan uzviy bog`liq bo`lmog`i zarur.

O`qituvchi odobida adolatlilik fazilati pedagogik faoliyatning o`ziga xos xususiyatlari bilan bog`liq holda namoyon bo`ladi. Bolaning bilimini baholashda muallimning adolatliligini o`quvchilar ham o`zlaricha baholab boradilar. Muallim o`z fanidan biror bolaga “ikki” yoki “uch” baho qo`yaversa, bu bilan o`quvchini qobiliyatsizlikka chiqarib qo`ygan bo`ladi. Muallim o`qitish jarayonida boladagi o`zgarishlarni yutuqlarni payqab uni ruhlantirib borishi zarur. Shuningdek, bilimdonlik, halollik, rostgo`ylik hamda o`quvchilar va ularning ota-onalari o`rtasidagi muomala odobi ham o`qituvchining muhim axloqiy fazilati va ma`naviy boyligi hisoblanadi.

Oliy o`quv yurtini bitirib, muallimlik faoliyatini boshlagan kishi barcha o`quvchilarga o`zini yaqin tutishi, odobi, odilligi bilan bolalarga ijobiy-axloqiy namuna ko`rsatishi zarurligini yoddan chiqarmasligi lozim.

Zamonaviy ta`limning asosiy maqsadi – jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o`z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta`lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo`lish degan xulosaga kelinadi. **“Kompetentlik”** so`zining ma`nosi xabardorlik, obro`, o`z sohasi bo`yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo`lish bilan belgilanadi. **Kompetensiya** - shaxsiy sifat bo`lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko`nikma va malaka hisoblanadi.

Ta`lim va tarbiya jarayoni o`zida aks etiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta`lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to`plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko`nikmalarini o`zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o`zining munosib o`rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo`ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo, pedagogning o`zida yangicha bilim berish, o`zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug`ullana olish ko`nikmalari tarkib topgan bo`lishi lozim. Shu nuqtai–nazardan Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Tarbiyachilarning o`ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma`lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo`lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta`lim – tarbiya tizimini o`zgartirishdagi asosiy muammo shu yerda. O`qituvchi o`quvchilarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o`zi ana shunday bilimga ega bo`lishi



kerak” deb ta’kidlaydi. Shaxs Kadrlar tayyorlash milliy modelining muhim tarkibiy qismi, kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekt, ta’lim sohasidagi xizmatlarining iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida belgilab berilgan. Bu esa Respublikamizda shaxsga yo’naltirilgan ta’limning yo’lga qo’yilishi uchun zarur asoslarni yaratib berdi.

**“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati.** Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish, har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

**Kompetensiya** inglizcha **“competence”** tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita **“qobiliyat”** ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa, **“faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”**ni yoritishga xizmat qiladi.

**“Kompetentlik”** tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli, kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, **kompetensiya** mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

**Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:**

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda

**Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:**

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;

- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi

## **2. Pedagogik kompetentlik fanining predmeti va obyekti.**

Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddabiron, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash Respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir. Hozirgi zamon pedagogika fani va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassisliklarga, fan va uslublarga, o'qitish metod va usullari, texnologiyalariga juda ko'p e'tibor qaratilganligi seziladi. Ammo ana shu pedagogik usul va metodikani tushunish, ularni amaliy faoliyatda qo'llash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ta'kidlash mumkin. Pedagogika fani ham boshqa gumanitar va tabiiy fanlar qatori bu muammolardan holi emas. Muammo bu sohadagi pedagogik nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchilarda amaliyot va kasbiy faoliyat jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish mahoratining yetishmasligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Demak, ko'plab o'qituvchilar, pedagoglar eskirib qolgan nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmoqda. Ularda zamonga xos tub o'zgarishlarga mos kelish, munosib bo'lish kabi sifatlar etishmaydi. Huddi shu sifat kompetensiya - kompetensiya egasi bo'lish, kompetentli pedagog nomini olish masalasi hisoblanadi. Kompetentlikning o'zi pedagogda umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqoriligi, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi va ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari bo'yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o'z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga layoqatlilik, ijtimoiy va psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko'nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo'lishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik kasbiy bilim va ko'nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo'llash va takomillashtirishga layoqatlilik bilan belgilanadi, ya'ni kompetentlik - bu faqatgina o'zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi va salmoqli hajmi bo'libgina qolmay, balki ularni kerak vaqtda ishga sola bilish va o'zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ulardan foydalana olish demakdir. **Kompetentlik quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:**

- har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o'z o'rnida va tezkorlik bilan to'g'ri qo'llay bilish;

- qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish;

- ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish;

- faoliyat doirasida boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko'zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o'rnata olish imkonini beradigan kommunikativ ko'nikmalar;

- muayyan ma'naviy qadriyatlarga, dunyoqarashga, umummadaniy va axloqiy sifatlarga egalik, faoliyatga intilish hissining mavjudligi;

- o'zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga, faoliyatning yangi usullarini egallashga intilish.

### **Pedagogika kasbi boshqaruvchi va shakllantiruvchi xususiyatga ega.**

Shaxs shakllanishini boshqarish kompetentlikni talab qiladi. Bu o'zida o'qituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligini jamlagan holda uning kasbiy mahoratini namoyish qiladi. U yoki bu kasb yo'nalishi bo'yicha o'qituvchining malakaviy tasnifi pedagog kompetensiyasi modeli me'yorlari bilan o'lchanadi.

**V.S.Elegina va S.M.Poxlebaevlar** o'zlarining ilmiy maqolasida quyidagi fikrlarni bildiradilar: "Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida talaba o'z faoliyatidan ijodiy natija oladi va shu bilan birgalikda, muvaffaqiyat qozonishning usullari, yo'llari, metodlari, yondashuvlari va uslublarini o'zlashtirib oladi. Aynan talaba tomonidan yaratilgan ijodiy natija talaba bilan o'qituvchining hamkorlikdagi ijodiy natijasi hisoblanadi. Talabaning o'zlashtirishiga baho berishdan maqsad, berilgan ta'limning qanchalar samarador bo'lganligi darajasini aniqlash, bu birinchidan, maktabda olgan nazariy bilimlari darajasini bilish, ikkinchidan undagi kompetensiya shakllanishi, amaliyot paytidagi muvaffaqiyatli faoliyati yanada tezlashadi".

Pedagog o'z ixtisosligi bo'yicha ta'lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas'uldir. U muntazam ravishda o'z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o'qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo'lishi, aniqrog'i, kasbiy kompetensiya egasi bo'lishi lozim. Endilikda o'qituvchi uchun o'zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta'lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o'z faoliyatida qo'llay olishi, bir so'z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo'lishi lozim.

Buning uchun oliy ta'lim tizimida ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlarida belgilangan tartib qoidalar, vazifalar va talablarni o'z vaqtida bajarish lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq Respublikada idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun

majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi. DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni, ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini, o'quv yuklamasining zarur hajmini; ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydi.

DTS ta'lim jarayonini va ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi. **Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:**

- ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

- mamlakatning ijtimoiy va ijtimoiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirishning vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi

**3. Kasbiy kompetentlik sifatleri.** Kasbiy kompetentlik mohiyati qisqacha yoritiladi.

**1. Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**2. Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

**1) psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan

ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) **metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3) **informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

4) **kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) **innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

6) **kommunikativ kompetentlik** – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

3. **Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. **Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

### 11-jadval. Kasbiy rivojlanish shkalasi

Kasbiy kompetentlik sifatleri	Shkala ko‘rsatkichlari									
<b>1. Ijtimoiy kompetentlik</b>										
ijtimoiy tashkilotlar va sub’ektlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘la olish ko‘nikma, malakalariga egalik										
kasbiy muloqot va xatti-harakat uslublarini o‘zlashtira olganlik										
<b>2. Shaxsiy kompetentlik</b>										

doimiy ravishda kasbiy o'sishga erishish va kasbiy malakani oshirib borish																				
kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olish																				
<b>3. Maxsus kompetentlik</b>																				
mustaqil ravishda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish																				
odatiy kasbiypedagogik vazifalarni to'g'ri hal qilish va o'zmehnatining natijalari real baholash malakasiga egalik																				
mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmlarini mustaqil ravishda izchil o'zlashtirib borish qobiliyatiga egalik																				
<b>4. Texnologik kompetentlik</b>																				
kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatiga egalik																				
zamonaviy didaktik vositalar (texnik vositalar, o'quv qurollari)dan foydalanish malakasiga egalik																				
<b>5. Ekstremal kompetentlik</b>																				
favqulotda holatlarda (tabiiyofatlar sodir bo'lganda, texnologik jarayon ishdan chiqqanda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik																				
muammoli vaziyatlarda (pedagogik ziddiyatlar yuzaga kelganda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik																				

Bir qator, xususan, A.K.Markova hamda B.Nazarovlarning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari qayd etib o'tilgan. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o'quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog o'z-

o‘zini izchil rivojlantirib borishga e‘tiborni qaratishi zarur. O‘z-o‘zini rivojlantirishda pedagogga “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo‘lgan kompetentlik sifatleri va rivojlantirish zarur bo‘lgan sifat, BKMni aniq, xolis ifodalash mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; “Sharq”.2020 yil, 20-29 betlar.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonuni. //Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent; “Sharq”, 1997, 31-61 betlar,

3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

4.Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.56 B.

5.Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 B.

6.Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 B.

7.Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent –“O‘zbekiston” -2017.104 B. .2009.-176 b.

8.Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O‘qituvchi, 2000.

9.Ochilov M., Ochilova N. O‘qituvchi odobi. //Saylanma. - T.: O‘qituvchi, 1997. - 118 b.

10.Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomli TDPU, 2005,- 149 b.

11.Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘Hanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). - T.: “O‘qituvchi”, 1991. - 376 b.

12.Bozorov A.B universitet o‘qituvchilari uchun kasbiy etika qoidalari kerakmi?

13.Ochilov M. Muallim qalb memori “O‘qituvchi” 2001 yil.

14.[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

## II MAVZU: PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIK FANINING NAZARIY – METODOLOGIK ASOSLARI.

### Reja:

1. *Pedagogik deontologiya faniga metodologik yondashuvlar.*
2. *O'qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar.*
3. *O'quvchilarning odob-axloqqa oid majburiyatlari.*
4. *Pedagogik kompetentlikning nazariy – metodologik asoslari..*
5. *Kompetensiya tizimi, amaliy va nazariy tayyorgarlik holati.*
6. *O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligining o'ranilishi.*
7. *Pedagogning o'z ustida ishlash modeli.*

**Tayanch tushunchalar:** *Pedagogik deontologiyaning metodologik asoslari, pedagogik kompetentlikning boshqa pedagogik fanlaridan farqi. Pedagogik kompetentlik, kasbiy kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, individual kompetentlik, pedagogik deontologiya va kompetentlik faniga metodologik yondashuvlar. Kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv, fanlararo yondashuv, ma'lumotli yondashuv. Kompetensiya tizimi, amaliy va nazariy tayyorgarlik holati.*

**Deontologiya**<sup>1</sup> – ( “shart” ) ma`nosida ifodalaniib, XVII-asrda ingliz faylasufi **J.Bentam (1748-1832)** yilda kiritilgan.

Dastlabki vaqtlarda bu termin tor ma`noda ifodalandi. Insonni xudoga ishonishi kiyinchalik keng ma`noda ishlatilib, umuman insonning majburiyatlarini ifodalaydi. Asosan deontologiya fani rivojlanishi nemis faylasufi **I.Kant (1724-1804)** bilan bog`liq. I.Kant etikasi –bu burch etikasidir. Faylasuf fikriga inson odob-axloqi noma`lum axloqiy qonunlarda ifodalangan bu qonunlarni inson bajarishi talab etiladi.

### **I.Kant tomonidan asosan ikkita qonun tavsif etiladi.**

1. Shunday kelishilgan (qoida) bilan omon qil, shu bilan bir qatorda boshqarishda rahm qil, u xuddi kelajakda qonun to`sis qolsin.

2. Shunday harakat qil, sening oldinga inson gavdalansin, sening oldingda inson bir vosita sifatida shakllansin.

Bugungi kunda deontologiya fani alohida shaxs va jamoaning, kishilarning turli hayot tarzidagi xulqini o`rganadigan fan sifatida shakllantirildi. **Deontologiya** – inson tomonidan talab darajasida xulq normalarini bajarilishi norma va qoidalarni

<sup>1</sup> Jeremy Bentham. “Deontology or the science of morality”. London. 1834. 119 p.



o`rganuvchi fandır. **Deontologiya** – tushunchasi kasbiy etikada keng qo`llanilib har bir kasb doirasida kasbning odob, xulq normalari haqida nazariy jihatdan tushuncha beradi. **Xususan**, meditsina, qonunchilik, sud, pedagog, quruvchi hamda davlat boshqruvi tizimida burch, odob, axloq normalari mavjud. Barchamizga ma`lumki, davolovchi shifokorlarning kasbiy burch (Gippokrat) qasamyodi mavjud. Qasamyodiga tayanib har bir davolovchi shifokor jonini fido qilib bo`lsada, bemorni davolash uchun harakat qiladi. **Pedagogik deontologiya –bu pedagogning turli holatlarda o`zining kasbiy foliyatida sodiqligini ifodalaydi.**

**Har bir pedagog quyidagi deontologik amal qilishi lozim.**

1. O`quvchining yutug`i pedagogning faoliyatiga bog`liq va shu bilan bir qatorda jamiyat bilan bog`liqdir, shu sababli bu o`quvchidan o`zining kasbiy burchlarini sifatli bajarishini talab etadi.

2. Ba`zan o`qituvchi bajaradigan ishlari uning uchun qiziqarli bo`lmasligi mumkin (bunda o`qituvchi muloqoti mehnati uchun ish haqi, jamoa bilan muloqoti va boshqalar).

**Deontologiya quyidagilarga e`tibor beradi:**

- a) O`qituvchilik kasbining asosiy burchi va uning mazmuniga;
- b) Qo`yilgan talablarning bajarilishida pedagogik xulq-atvorga.

Har bir vazifaning bajarilishi uning axloqiy qonun qoidalari va axloqiy me`yorlariga mos bo`lishi zarur. **Axloq** – ijtimoiy ong shaklanishidan biri sifatida inson turmushining barcha sohalarida kishilarning xulqi, xatti-harakatlarini tartibga soluvchi, boshqarib turuvchi qoidalar, tamoyillar, yo`l-yo`riqlar, mezonlar, normalar hamda pand-nasihatlar majmuidan iborat.

Axloq umuminsoniy va milliy xarakterga ega bo`lib, kishilarning tarixan qaror topgan va har bir inson egallashi lozim bo`lgan axloqiy ideallar, orzu-umidlar to`g`risidagi tasavvurlar, tushunchalar, bilimlar va me`yoriy qonun-qoidalarni o`z ichiga oladi. **Odob** deganda – xulq-atvor, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum taqozosi tufayli odamlar o`rtasida paydo bo`lgan muomala munosabatlarining xususiyatlari tushuniladi.

Kishilik jamiyatidan barchamizga ma`lumki, insonlarga yaxshilik qilish rost gapirish, botirlik, kamtarlik, halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlar doimo e`zozlangan. Inson mehnat faoliyatini ma`lum bir soha bilan shug`ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar mavjud. Bunday axloq **kasb (professional) axloq** deyiladi. Har bir jamiyatda mavjud axloq kasb axloqi bilan ma`lum bir munosabatda bo`ladi. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalarini, tamoyillarni va tushunchalarining afzalliklarini va kamchiliklarini o`zida mujassamlashtiradi. Ayrim kasblar xususan, o`qituvchi, vrach, tijoratchi, huquqshunos, ayrim rahbar xodimlar uchun inson mehnati obyektini hisoblanadi.

Bunday kasb egalari faoliyat obyekt bo`lgan odamlar bilan o`zaro muomala munosabatlarini tartibga soluvchi axloqiy normalarga qat'iy amal qilish talab etiladi.

Jamiyatning bunday kishilariga ishonch ham boshqacha bo`ladi. **O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirzoyoyevning** 2020-yil 1-oktyabrda "O`qituvchilar va murabbiylar" kuni bilan qilgan ma`ruzasida "Men o`qituvchilarga ishonaman, o`qituvchilar bizning tayyorlovchi fidoiy jonkuyar kishilardir", deb katta baho berdi. Muallimlik ana shunday kasblardan bo`lganligi uchun o`qituvchi odobi boshqa kasb egalaridan farq qilishi lozim. Bu pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Kasbiy axloqqa oid asarlarda professional etika ma`lum bir jamiyatda ayrim kasb uchun xarakterli bo`lgan axloqiy normalar tushunchalar, ideallarning majmuidan iborat. Turli kasb egalari axloqiy ongining rivojlanish darajasidagi rang – baranglik bozor iqtisodiyotiga asoslangan.

Hozirgi davrda turli kishilarga bo`lgan axloqiy talablar darajasida farqlar mavjud. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatimiz fuqarolariga ilm olish huquqi va buning uchun zaruriy sharoitlar yaratishini ifodalaydi. Agar o`qituvchining umuminsoniy va miliy-axloqiy qadriyatlar sohasidagi bilimlari sayoz, tasavvurlari tor bo`lsa, uning fikri, so`zi, amaliy ishlari yomon bo`lsa, O`zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi jamiyat qonunlariga javob bera olmaydi. Pedagogik amaliyotda o`qituvchi odobi tushunchasi tor va keng manoda qo`llaniladi. O`qituvchi odobiga ta`rif berganda tanqidiy tafakkur qonuniyatlari buzib ko`rsatilishi va xatolikka yo`l qo`ymaslik uchun o`qituvchi odobi kasb axloqining bir qismi sifatida o`rganilishi zarur.

**O`qituvchi odobining muhim asosiy belgilari qatoriga quyidagilarni kiritish lozim:**

-- Umuminsoniy va mililliy axloqning qonuniyatlari, tamoyillari, tushunchalari va mezonlarida belgilangan talablrga amal qilish;

-- Pedagogik jarayon va pedagogik faoliyatning o`ziga xos bo`lgan xususiyatlarga binoan ulani oydinlashtirish va aniqlashtirish;

**Demak, o`qituvchi odobi umuminsoniy va miliy axloqiy qonuniyatlari, tushunchalari, talablari, mezonlari ta`lim-tarbiya jarayonida oydinlashadi.**

- O`qituvchi odobining xarakterli ijtimoiy taraqqiyotining har bir bosqichida shu jamiyatda mavjud bo`lgan ijtimoiy ehtiyojlari bilan belgilanishi va davlat hujjatlarida ijtimoiy muammo sifatida ifodalanishi;

- O`qituvchi odobining maqsadi, mazmun va usullarining birligi;

- Yaxlit pedagogik jarayonda jarayonda axloqiy ma`rifat, axloqiy tarbiya va o`qituvchi odobi birligi;

**O`qituvchi odobining o`ziga xos xususiyatlari:**

a) o`qituvchilik kasbi va bolalarni sevishi;

- b) o`qituvchi dars beradigan fanni va o`qitish nazariyasi va metodikasini, psixologiya, pedagogik bilimga xos yuksak ma`naviyatga ega bo`lishi;
- c) o`qituvchi shaxsining axloqiy pokligi;
- d) jamiyat oldida burchini his etish, o`quvchilarni ulg`ayib jamiyat uchun foydali kishilar qilib shakllantirish.
- e) pedagogik muomala madaniyatiga rioya qilish;
- f) barcha o`qituvchilarga nisbatan xolis niyat, talabchan va adolatli bo`lish;

### **O`qituvchi odobining manbalari.**

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma`ruzalari.

Ta`lim to`g`risidagi Qonun.

Oliy Majlis qonunlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

Qu`roni Karim, Hadis ilmi.

Milliy axloqiy qadriyatlar.

Xalq pdagogikasi maktablari.

Ta`lim tarbiyaga oid zamonaviy paradigmalari.

### **O`qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo`yiladigan talablar.**

Respublika ta`lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta`minlash, ta`lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o`qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma`naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog`liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo`lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O`zbekiston Respublikasida o`qituvchi kadrlarning ma`naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo`ymoqda. Chunonchi, bu borada O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: “Tarbiyachi – ustoz bo`lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o`stirish, ma`rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo`lishi kerak”.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o`qituvchisi shaxsiga nisbatan qo`yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. **Zamonaviy o`qituvchi qanday bo`lishi zarur?**

O`qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo`nalishlari bo`yicha maxsus ma`lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta`lim muassasalarida faoliyat ko`rsatuvchi shaxs sanaladi.

O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risida”gi Qonunning 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta`lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogic faoliyat

bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi. Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi bakalavr qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarini ifodalaydi):

**1.** O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

**2.** Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

**3.** O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

**4.** O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

**5.** O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

**6.** O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

**7.** O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

**8.** O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

**a)** nutqning to'g'riligi;

**b)** nutqning aniqligi;

**v)** nutqning ifodaviyligi;

**g)** nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kotselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan xoli bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

**d)** nutqning ravonligi;

**j)** nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

**9.** O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin,

kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi.


**10.** O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O'qituvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'qituvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'qituvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

**O'qituvchi va o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyatlari.** O'qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Ta'lim muassasasi (umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari)da tashkil etiluvchi ta'lim jarayonida o'qituvchining faoliyati o'qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O'qituvchi faoliyatining vazifasi o'qituvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

### TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISH BOSQICHLARI:



#### **1-rasm. Ta'lim jarayonini boshqarish bosqichlari.**

O'qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishlash kerak bo'ladi. O'qituvchi o'qituvchilarning tayyorliklari

darajasi, ularning o'quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materialini mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini o'ylab chiqishi kerak bo'ladi.

O'quvchilar faoliyatini tashkil etish o'quvchilar oldiga o'quv masalalarini qo'yishni va uni bajarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat bo'ladi.

O'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabati xarakteriga ko'ra **muammoli ta'limni shartli ravishda 4 darajaga ajratish mumkin:**

**Muammoli ta'lim darajalari** *O'qituvchi va o'quvchi faoliyati;*

**Mustaqil bo'lmagan (odatdagi) darajasi** *faollik O'qituvchi tushuntirganini o'quvchi tomonidan idrok etilishi muammoli vaziyatlar sharoitida aqliy mehnat;*

**Yarim mustaqil faollik darajasi** *Ilgarigi bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash va o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan qo'yilgan o'quv muammolarining echish usullarini izlashda ishtirok etish;*

**Mustaqil darajasi** *faollik Reproductiv – izlanish tipidagi ishlarni bajarish, bunda darslik matni bilan o'quvchining o'zi ishlaydi, ilgarigi bilimlarini yangi vaziyatda qo'llanadi, konstruksiyalaydi, o'rtacha murakkablikdagi masalalarni yechadi, o'qituvchining ko'magi bilan gipotezalarni isbotlaydi va h.k.;*

**Ijodiy faollik darajasi** *Ijodiy tasavvurni talab etuvchi, mantiqiy tahlil qilish va o'ylab topishni, o'quv muammolarini yechishning yangi usullarini kashf etishni, mustaqil isbotlashni: mustaqil xulosa va umumlashmalar chiqarishni, kashfiyot va badiiy insholar yozishni talab qiladigan mustaqil ishlarni bajarish;*

Didaktik jarayonni tashkil etishda o'qituvchi o'quv-bilish faoliyatining tashkiliy shakllarini (5-element) ham ta'lim mazmuniga mos holda tanlay olishi kerak. PTni loyihalash shartlaridan biri ham "tashkiliy shakllar"ni to'g'ri tashkil etish

sanaladi. Pedagogikada o'qitishning tashkiliy shakli deganda o'quvchi(talaba)lar o'qitish jarayonida qo'yilgan tashqi shart-sharoitlar yig'indisi tushuniladi.

Ma'lumki, ta'lim tizimida bilish faoliyati auditoriyada (ma'ruza, seminar, laboratoriya, o'quv maslahati, sinov, imtihon) va auditoridan tashqarida (uyda, kutubxonada tayyorgarlik, loyihalash, tadqiqotchilik, to'garak va boshqa) tashkil etiladi.

Pedagog o'quv faoliyati shakllarini tanlashda quyidagi savollarga javob topishi kerak: didaktik jarayon ishtirokchisi kim (o'quvchi, talaba, tinglovchi) va u qanday boshqarilishi kerak (o'quv faoliyatini o'qituvchi boshqaradi, avtomatlashgan sinf yordamida yoki boshqa texnik vositalar yordamida: kino-diafilm, kompyuter, modeli ta'lim va hokazo).

Didaktik jarayon u yoki bu texnik vositalardan ta'lim mazmuniga mos holda uzluksiz qo'llashni taqozo etadi. Bu yo'nalish PTning mavjudlik shartlaridan biridir.

### **O'quvchilarning odob-axloqqa oid majburiyatlari.**

#### **a) Ta'lim muassasasi hududida:**

- maktabga mashg'ulotlar boshlanishidan 10-15 daqiqa oldin, toza va orasta kiyingan holda kelish;

- hududni ifloslantirmaslik va chiqindilarni faqat maxsus belgilangan joylarga tashlash;

- ustozlar va maktab mehmonlari bilan uchrashganda salom berish;

- o'quv mashg'ulotlari vaqtida hududda sababsiz yurmaslik;

- ta'lim muassasasi mulki (ko'char va ko'chmas mulki, o'simlik va hayvonot dunyosi va hokazolar)ga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

- maktab yo'laklarida tinchlikni saqlash;

- maktabga «Ustav»da belgilangan o'quvchilar formasida kelish (o'quvchilarning kiyim boshi toza va ozoda bo'lishi, o'quvchi qizlarning sochlari tekis turmaklangan, kalta yubka va oldi haddan tashqari ochiq ko'ylak kiyimasligi, o'g'il bolalarning sochlari tekislangan, maktabga shortik va maykada, «zamonaviy moda» deb tizzasi yirtilgan shim, g'arbning jangari film qahramonlari aks ettirilgan kiyimlarda kelmasligi);

- maktabga o'quv-qurollari, dars jadvalida belgilangan o'quv darsliklari bilan kelish (o'quvchilar uchun mo'ljallangan papka tutishi, kundalik daftarining bo'lishi, darsga to'liq o'quv darsliklari bilan qatnashishi, ma'naviyatga zid hamda sifatsiz daftarlardan foydalanmasligi);

- narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishi hamda tarqatilishiga qarshi kurashish.

#### **b) Dars vaqti (sinf xonalari)da:**

- dars jarayoniga xalal beradigan harakatlar qilishdan saqlanish;

- uyali aloqa vositalarini olib kelmaslik;

- dars vaqtida o‘rinsiz gaplashmaslik;
- jihozlarni asrab-avaylash, partalarga yozmaslik;
- qog‘oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketmaslik;
- ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik.
- navbatchi o‘quvchi tomonidan o‘quvchilar davomatini aniqlash va darsga kelmagan o‘quvchilar haqida o‘qituvchiga ma’lumot berish.

**v) Tanaffusda:**

- tanaffusdan unumli foydalanish;
- o‘z o‘qish joyini toza saqlash va tartibga solish;
- navbatdagi dars bo‘ladigan xonaga ko‘chish;
- pedagog ko‘rsatmasi bo‘yicha sinfni kelgusi darsga tayyorlash;
- sinf navbatchisi tanaffus vaqtida sinfda bo‘ladi, sinf xonasida tozalik va tartib saqlaydi, mashg‘ulotlar yakunlangandan so‘ng sinf xonasini toza holatga keltiradi va kelgusi kun mashg‘ulotlariga tayyorlaydi.

**g) Maktab oshxonasida:**

- umumiy ovqatlanish shaxobchasida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish;
- taomlarni olishda «Navbat» tartibiga rioya qilish;
- tirbandlik holatida ustozlar, ayollar, yoshi kattalarga hurmat ko‘rsatish;
- ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik.
- issiq va suyuq ovqatlarini tanovvul etishda ehtiyotkorlik ko‘rsatish;
- oshxonadan olingan ovqat va ichimliklarni shu yerda iste’mol qilish;
- ovqatlangandan so‘ng stolni tozalab qo‘yish.

**d) Maktab kutubxonasi va axborot resurs markazida:**

- kutubxona va ARM xodimlari bilan xushmuomalada bo‘lish;
- kitoblar va jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
- baland ovozda so‘zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslik;
- qog‘oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;
- kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilish.

**e) Sport majmualarida:**

- sport majmuasiga xos bo‘lgan kiyim va poyabzallarda kirish;
- sport inventarlariga nisbatan madaniy munosabatda bo‘lish;
- mashg‘ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish;
- sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilish.

**j) Shuningdek, turli davralarda:**

- o‘zining namunaviy xulqi va bilimi bilan o‘quvchilik odobi haqida yuksak ijobiy taassurot hosil qilishga intilish;
- ko‘cha-ko‘yda bemaqsad yurmaslik, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo‘lish, jamoat transportlarida kekxa va yosh bolali yo‘lovchilarga joy berish;



- doimo komillikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarini chuqur anglash;

- o‘z maktabi manfaati, uning sha’ni va nufuzi to‘g‘risida qayg‘urish, ularni saqlab qolishga jonkuyarlik qilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

### **Jamoa a‘zolarining odob-axloqiga oid umumiy qoidalar.**

1.1. Umumta’lim maktablarida hamjihatlik, o‘zaro ishonch, hurmat, bir-biriga g‘amxo‘rlik qilish hamda ahil-inoqlik jamoa a‘zolarining o‘zaro munosabatlaridagi muhim shartlardir.

1.2. Umumta’lim maktablarida o‘zaro munosabatlarning asosiy tamoyili– bir shaxsning huquqi boshqa shaxsning huquqini paymol qilmasligi lozim. **Jumladan:**

- jamoa a‘zosining so‘z erkinligi – unga birovga tuhmat qilish, uni haqorat qilish, o‘zaro munosabatlarda umum e’tirof etilgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi behayo so‘zlardan foydalanish huquqini kafolatlamaydi;

- e’tiqod erkinligi – ta’lim muassasalarida ibodat qilish, dars vaqtida masjidlarga borish huquqini kafolatlamaydi;

- kiyinish erkinligi – ta’lim muassasalariga diniy marosim liboslarida hamda tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ochiq-sochiq liboslarda kelish huquqini kafolatlamaydi va hokazo.

1.3. Jamoa a‘zolari umumta’lim maktabiga orasta bo‘lib, unga monand kiyimda kelishi lozim. Ularning ta’lim muassasasiga odamlar diqqatini tortadigan, yelka, ko‘krak va qorin, shuningdek tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimda yoki diniy ibodat libosida, metall zanjirlar, to‘g‘nog‘ichlar, tanaga turli munchoqlar qadagan holda, sport kiyim va poyabzalida kelishi ta’qiqlanadi.

1.4. Ta’lim muassasasida jamoa a‘zosining sha’ni va qadr qimmatini hurmat qilinishi, o‘zaro munosabatlarda «Siz» deb murojaat qilish odat tusiga kirishi lozim. Ularning bir-biriga nisbatan hurmatsizlik qilishi, behayo so‘zlar ishlatishi qat’iyan taqiqlanadi.

1.5. Jamoa a‘zolari umumta’lim maktablari hududida yurganda bir-biriga o‘zaro hurmatda bo‘lishi, yo‘lning o‘ng tomonidan yurishlari, bir-biriga duch kelganda albatta salomlashishlari kerak. Bunda o‘quvchilar o‘qituvchilarga, erkaklar xotinqizlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo‘lib salom berishlari tavsiya etiladi. (Ushbu holatda qo‘l berib so‘rashish istisno bo‘lib, yoshi katta shaxslar birinchi bo‘lib qo‘l uzatganidan keyingina unga javoban qo‘l uzatish mumkin).

1.6. Binolarga kirish joylarida tirbandlik yuzaga kelsa, o‘quvchilar o‘qituvchi va xodimlarni, erkaklar esa ayollarni o‘zlaridan oldin o‘tkazib yuborishlari lozim.

1.7. Milliy va umumbashariy qadriyatlarga xos bo'lmagan yoki umumta'lim maktabining ichki muammolariga taalluqli masalalarni Internet tarmog'iga joylashtirish yoki undan turli maqsadlar yo'lida foydalanish ta'qiqlanadi.

1.8. Kompyuterlarda ta'lim muassasasiga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy diniy ma'lumotlar, behayo suratlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ'ib etish qat'iy man etiladi.

1.9. O'qituvchilar va o'quvchilar tasdiqlangan mashg'ulotlar jadvali asosida ishga va darsga o'z vaqtida kelishi shart va ijodiy yondoshgan holda ish kunidan va dars jarayonidan unumli foydalanishlari lozim.

1.10. Ta'lim muassasasida har qanday huquqbuzarlik sodir etish ta'qiqlanadi. Jumladan, tuhmat qilish, haqorat qilish, jamoa a'zosiga ma'naviy yoki moddiy zarar etkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotni tarqatish, tan jarohati etkazish, fuqorolik muomalasidan chiqarilgan vositalarga oid munosabatlarga kirishish (giyohvand moddalar, psixotropik vositalar va hokazo), ichkilikbozlik, kashandalik, maishiy tinchlikka tajovuz qilish, janjallashish, qimor va tavakalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'ynash qat'iy man etiladi.

- **Pedagog-tarbiyachilarning o'zaro munosabatlari**

2.1. Pedagog-tarbiyachilarning o'zaro munosabatlarida – yagona jamoa, o'zaro hurmat va e'tibor, do'stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillari amal qilishi lozim.

2.2. Pedagog-tarbiyachilar va o'quvchilar o'zaro munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik qilish, shaxsiyatini kamsitish, o'zganing moddiy va intellektual mulkini o'zlashtirib olish, qo'pollik, behayo so'zlar ishlatish, mushtlashish, o'zgalarga ma'naviy, moddiy yoki jismoniy ziyon yetkazish qat'iy man etiladi.

2.3. Maktab ma'muriyati va o'qituvchi-xodimlarning ish faoliyatiga doir masalalar bo'yicha hamkorlik qilishida bir tarafning boshqa tarafga tazyiq o'tkazishiga yoki unga harakat qilishiga, shuningdek adolat tamoyillariga va ta'lim muassasasi manfaatlariga zid bo'lgan qarorlar tayyorlanishiga yo'l qo'ymaydi.

2.4. Jamoada biror bir masala bilan ma'muriyatga murojaat qilish tartibi o'rnatilgan tartibda tashkil etiladi.

2.5. O'qituvchi va xodimlarning ta'lim muassasasida ma'naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash bo'yicha tashabbus va g'oyalari rag'batlantiriladi.

2.6. Ma'muriyat o'qituvchilar va xodimlarning kasbiy va intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun qulay ish joyi, zamonaviy kompyuter, internet tarmog'i, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanish, shuningdek hordiq chiqarishlari, dam olishlari, jismonan chiniqishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi.

## **O'qituvchilarning odob-axloqqa oid majburiyatlari**

- odob-axloq qoidalariga rioya qilishda o'quvchilarga ibrat bo'lish;
- maktab manfaatlariga zid bo'lgan xatti-harakatlardan o'zlarini tiyish;
- biror-bir noxush voqea yoki hodisa ro'y bersa, zudlik bilan u haqida ma'muriyatga bildirish;
- umumta'lim maktabining sha'ni va nufuziga dog' tushiradigan har qanday holatlarning oldini olish;
- umumta'lim maktabi to'g'risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro'siga ziyon etkazish uchun yoki o'z manfaatlari yo'lida foydalanmaslik;
- dars jarayonida o'quvchilarga odob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni targ'ib qilish;
- yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda jamiyatimiz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan, past saviyali «ommaviy madaniyat» xurujlaridan ogoh etib borish;
- ta'lim oluvchilarni ma'naviy – axloqiy tarbiya ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqishga ko'maklashish.

## **O'qituvchi va o'quvchilar odob-axloqida man etiladigan holatlar**

### **O'qituvchiga:**

- jamoa a'zolarining shaxsiyatini va qadr-qimmatini kamsitish, o'zgalarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilish;
- jamoa a'zolari va boshqalar ustidan turli ig'vo, g'iybat va bo'htonlar uyushtirish;
- o'quvchilar bilan o'z hamkasabalarining kasbiy va shaxsiy kamchiliklarini muhokama qilish;
- o'quvchilarni o'quv mashg'ulotlardan asossiz chiqarib yuborish;
- o'quv mashg'ulotlarida diniy tashviqot olib borish;
- o'quv mashg'ulotlariga mast, soch-soqol olinmagan va kiyinish odobiga rioya qilmagan holda kelish;
- maktab hududida spirtli ichimliklar ichish va tamaki mahsulotlarini chekish kabilar qat'iy man etiladi.

### **Rag'batlantirish va chora ko'rish tartibi.**

3.1. O'quv yili davomida «Qoidalar»ga to'la rioya qilgan, ta'lim muassasasida yuksak ma'naviy-axloqiy muhitning yanada qaror topishiga va mustahkamlanishiga xizmat qilgan jamoa a'zolari, ma'muriyat tavsiyasiga binoan amaldagi qonun va qoidalarga binoan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilib boriladi. Namunali xulqi va bilim olishda alohida yutuqlarga erishgan o'quvchilar (ota-onasining ish joyiga, turar joyidagi mahalla qo'mitasiga minnatdorchilik xatini yuborish, ertalabki

saflanishlarda faxriy yorliq yoki iliq soʻz bilan alohida eʼtibor koʻrsatish kabi) ragʻbatlantiriladi.

3.2. Jamoa aʼzolari ushbu «Qoidalar»ni buzganida, taʼlim muassasasi ichki tartib qoidalarining «Intizomiy taʼsir choralari» boʻlimida keltirilgan holatlar boʻyicha choralar koʻriladi.

Shuningdek, jamoa aʼzosining xulq-atvori ustidan jamoat nazoratini taʼminlash maqsadida, mazkur qoidalarga rioya etilmaganligi holatlari taʼlim muassasasidagi Birlashgan kasaba uyushma qoʻmitasi, Xotin-qizlar va «Ota-onalar» Kengashlarida ham muhokama qilinishi va ularning qaroriga binoan jamoa aʼzosining xulq-atvori toʻgʻrisida u yashab turgan mahalla fuqarolar yigʻiniga maʼlumot tariqasida yozma xabar yuborish amaliyoti ham joriy etilishi mumkin.

Oʻzbekiston mustaqilligi yillarida taʼlim tizimining barcha boʻgʻinlari, shu jumladan, taʼlim muassasalari pedagog kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini isloh qilish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Darhaqiqat, doimo yangilikka intilib yashaydigan, oʻz kasbiy salohiyatini oshirish uchun intiladigan, zamon bilan hamnafas boʻlib yashaydigan, jahon ilgʻor tajribalaridan keng foydalanadigan, millat, xalq, oʻz jamoasi manfaatlarini har tomonlama muhofaza eta oladigan kadrlar, shuningdek pedagog kadrlar jamiyat ravnaqini taʼminlashga qodirdir.

Jumladan, bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 2015 yil 1 oktyabr oʻqituvchilar kuni munosabati bilan yoʻllagan tabriklarida shunday fikrlarni bayon etadi: “Bu borada oliy oʻquv yurtlari rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish maqsadida shu yil qabul qilingan Farmon bu ishlarni yangi sifat bosqichiga koʻtarishga zamin boʻladi, deb ishonaman.

Taʼlim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar davomi sifatida yana shuni aytishimiz mumkinki, **Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning** “Yoshlarni maʼnaviy – axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga taʼlim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarish chora – tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2018 yil 14 avgustdagi PQ 39-07 sonli qarori qabul qilinib, unga muvofiq 2018 yil 1-sentyabrdan boshlab umumtaʼlim maktablari oʻqituvchilarining oylik maoshlari oshirildi.

SHuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 05.09.2018 yildagi **“Xalq taʼlimini boshqarish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”** gi PF-5538 Farmoni Xalq taʼlimi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, oʻsib kelayotgan yosh avlodni maʼnaviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga

ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi.

**O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ta'lim va fan sohasini rivojlantirish muammolari ko'ndalang qo'yilgan.**

O'z davrida buyuk alloma **Alisher Navoiy** o'zining **"Mahbub-ul qulub"** didaktik asarida o'qituvchi xalq oldida obro'ga, hurmat va izzatga sazovor bo'lishi kerakligini, u xalq g'ami bilan yashashini, xalqqa yordam beruvchi, xalq bilan birga bo'lishi lozimligini aytadi. Nodon, mutaasib, johil mudarrisami tanqid qilib, **mudarris olimlar** orasidagi eng sara **"malak qiyofali" kishi** bo'lishi, ya'ni sof ko'ngilli, pok qabli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng yaxshi va oliyjanob hislatlarini o'zida aks ettiruvchi bo'lishi kerak deydi. Ayniqsa, madrasalarda ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi mudarrislariga jiddiy talablarni qo'yadi: "Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni unga bosh o'rin bo'lmasa, yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa...

... nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilish mumkin, balki halol desa, qilmas ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa, bu mudarris emas, yomon odatni tarqatguvchidir".

Demak, mudarris bilimli, fozil va donishmand bo'lishi, kishilikning eng yaxshi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan oliyjanob va kamtarin bo'lishi, har qanday yaramas ishlardan xoli va pok bo'lishi, o'z xulqi va odobi bilan boshqalarga namuna bo'lishi lozim.

Ushbu vazifalarning hal etishi pedagogdan yuksak kompetentlikni talab etadi.

Ta'limda yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan kompetentli yondashuvning paydo bo'lishi hamda **xorijiy pedagogik va metodik manbalarda «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalari 1960 yillarning oxiri 1970 yillarning boshlarida paydo bo'ldi va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi.**

**Kompetentlik** - deganda ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko'nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo'naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni

namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo'lishi kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq.

Kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompetentlikning asosiy elementlari Davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan. Rahbar va pedagog xodimlari bilan o'zaro to'g'ri munosabatlarni, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi tilni o'zlashtirish, jamoada ishlash ko'nikmalari, jamoada turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishni bilishni o'z ichiga oladi.

**Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim** amerikalik tilshunos **N.Xomskiy** (1965 yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan «kompetensiya» atamasining umumiy ma'nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha **Bern shahrida bo'lib o'tgan simpoziumda** (1996 yil) «kompetensiya» tushunchasi «uquv», «kompetentlik», «qobiliyat», «mahorat» singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta'lim vazirlari **Boloniya deklaratsiyasida** (1999 yil) ta'lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondoshuv e'tirof etildi.


**Pedagogning kompetentligi** – bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O'z sohasini, ishining ustasi bo'lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir.

#### **Pedagogik kompetensiyaning shakllanish bosqichlari:**

1. Qobiliyatni aniqlash
2. Tarbiyalash va shakllantirish
3. Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish)
4. Ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish)
5. Rahbarlik cho'qqisi

#### **O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligining o'rganilishi**

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga **A.K.Markova** va **B.Nazarovalar** tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O'z tadqiqotlarida **A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi** quyidagi **tarkibiy asoslardan** iborat ekanligi aytiladi (2-rasm):



**Pedagogning kasbiy kompetentligi.** O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'ranilgan bo'lib, ular orasida **B.Nazarova** tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi.

**Autokompetentlik** (o'zini ijtimoiy rivojlantirish)    **Ekstremal kasbiy kompetentlik** (kasbiy rivojlantira olish) (kutilmagan vaziyatlarda ishlay olish)


Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda **o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish** muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari **o'zini o'zi tahlil qilish** va **o'zini o'zi baholash** orqali aniqlanadi.

**O'z ustida ishlash** – pedagogning izchil ravishda o'zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishi

**O'z ustida ishlash** quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarini o'zlashtirish.

**Pedagogning o'z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi.** Ular quyidagicha:



### 3-rasm. Pedagogning o'z ustida ishlash bosqichlari.

#### Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish;
- ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo'lida olib boradigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagoglarning o'z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo'l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o'z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o'tish imkonini beradi. Ma'lum bosqich vazifalari hal etilgach, pedagog bu holatni alohida bandda qayd etadi (1-jadval):

### 3. Pedagogning o'z ustida ishlash modeli



## 1-jadval. Pedagogning o‘z ustida ishlash modeli

Bosqichlar	Ularda amalga oshiriladigan vazifalar	Qaydlar
1-bosqich		
2-bosqich		
3-bosqich		
4-bosqich		
5-bosqich		

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishida o‘zini o‘zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi.

**O‘zini o‘zi tahlil qilish** - pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir

O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini o‘zi ob‘ektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

**O‘zini o‘zi baholash** (O‘O‘B) – shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi. **O‘zini o‘zi baholash** subyekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga obyektiv baho berish, o‘zidan qoniqishni ta’minlaydi .

**O‘z-o‘zini baholash** shaxsning qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi pedagogning ham o‘zini o‘zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi.

### **O‘zini o‘zi samarali baholash omillari:**

1. O‘zini tushunish (o‘zi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish).
2. Shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash (o‘zi to‘g‘risidagi ijobiy ma’lumotlarni to‘plash).
3. O‘zini-o‘zi nazorat qilish (o‘zi to‘g‘risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi).

**O‘z-o‘zini baholash darajasi** shaxsning o‘z-o‘zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O‘zini o‘zi oshirib yoki pasaytirib

ko'rsatish o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

Ko'plab manbalarda shaxs tomonidan **o'z-o'zini baholash** quyidagi **formula** asosida aniqlanishi ko'rsatilgan:

$$\text{O'O'B} = \text{yutuqlar} / \text{o'zini yuqori baholashga intilish} \\ (\text{yoki O'O'B} = \text{Yu} / \text{O'YuBI})$$

**Formulaga ko'ra**, qandaydir yutuqqa erishgach, shaxs tomonidan o'zini o'zi yuqori baholash (yutuqlar hissasini oshirish) yoki o'ziga nisbatan qo'yayotgan talablarni pasaytirish ro'y beradi.

Bizning fikrimizcha, O'O'Bda xolislikka erishishda quyidagi formula ham qo'l keladi:

$$\text{O'O'B} = \text{yutuqlar} / \text{o'z o'zini rivojlantirish vazifalari} \\ (\text{yoki O'O'B} = \text{Yu} / \text{O'O'RV})$$

**Ushbu formula bilan ishlashda pedagog quyidagi o'zini-o'zi baholash modeliga tayanib ish ko'rishi mumkin (2-jadval):**

**2-jadval. O'zini-o'zi baholash modeli**

<b>№</b>	<b>Mavjud yutuqlar</b>	<b>O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari</b>
1.		
2.		
3.		
...		

**Ushbu model asosida** o'z-o'zini baholash nihoyatda oson kechadi. Bordi-yu, erishilgan yutuqlar soni o'z-o'zini rivojlantirish vazifalariga nisbatan ko'p (1 dan katta) bo'lsa, u holda pedagog yuqori darajada kasbiy kompetentlikni namoyon etadi. Bordi-yu, yutuqlar va belgilangan o'zini o'zi rivojlantirish vazifalari o'zaro (1 ga) teng bo'lsa, u holda u o'zida o'rta darajadagi kasbiy kompetentlikni ifodalaydi. Agarda, yutuqlar soni belgilangan rivojlantirish vazifalaridan kam (1 dan kichik yoki 0 ga teng) bo'lsa, u holda pedagogning kasbiy kompetentlik darajasi past hisoblanadi va bu holat pedagogdan o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirishga jiddiy e'tibor berishini talab qiladi.

Formulada "o'zini o'zi rivojlantirish vazifalari" jumlasini qo'llanilgan ekan, eng avvalo, o'zini o'zi rivojlantirish nima ekanligini tushunish olish lozim.

**O‘z- o‘zini rivojlantirish** – shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi

Bir qator tadqiqotlarda mutaxassis, shu jumladan, pedagogning o‘zo‘zini rivojlantirishida “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l kelishi aytiladi.

**Individual rivojlanish dasturi (IRD)** – har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma‘lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur.

Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan BKM hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Har qanday mutaxassis kabi pedagog ham o‘zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega “Individual rivojlanish dasturi”ni ishlab chiqa olishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yishi zarur.

**Pedagogning individual rivojlanish dasturi** – mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi Pedagog tomonidan ishlab chiqiladigan **“Individual rivojlanish dasturi”** quyidagi **tarkibiy elementlardan** tarkib topadi:

- 1) pedagogik bilimlar;
- 2) psixologik bilimlar;
- 3) mutaxassislik bilimlari;
- 4) didaktik malakalar;
- 5) tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- 6) ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
- 7) o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari;
- 8) o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar

Quyidagi pedagogning **“Individual rivojlantirish dasturi”**ning namunasi keltiriladi (3-jadval):

**3-jadval. Individual rivojlantirish dasturi**

<b>Bilim, malaka va shaxsiy sifatlar</b>	<b>Mavjud daraja</b>	<b>Istiqbol vazifalar</b>
Pedagogik bilimlar		
Psixologik bilimlar		
Mutaxassislik bilimlari		

Didaktik malakalar: bilishga oid (gnostik) loyihalash ijodiy-amaliy (konstruktiv) tadqiqotchilik muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) tashkilotchilik izchillikni ta'minlovchi (protsesssual) texnik-texnologik malakalar		
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari: bilishga oid (gnostik) loyihalash malakalari ijodiy-amaliy (konstruktiv) tadqiqotchilik muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) tashkilotchilik izchillikni ta'minlovchi (protsesssual)		
texnik-texnologik malakalar		
Ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar: pedagogik fikrlash tizimlilik moslashuvchanlik mobillik ijodkorlik hozirjavoblik hissiy rivojlanganlik pedagogik refleksiya		
O'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari		
O'z-o'zini rivojlantirish uchun topshiriqlar		

**Pedagogning kasbiy jihatdan rivojlanish darajasini yana quyidagi shkala yordamida ham aniqlash mumkin.**

Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug'aviy jihatdan "qobiliyat", mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" ma'nosini anglatuvchi kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. // “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. -Toshkent; “Sharq”. 2020 yil, 20-29 betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonuni. //Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent; “Sharq”, 1997, 31-61 betlar,
3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
4. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.56 B.
5. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 B.
6. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 B.
7. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent –“O‘zbekiston” -2017.104 B. .2009.-176 b.
8. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O‘qituvchi, 2000.
9. Ochilov M., Ochilova N. O‘qituvchi odobi. //Saylanma. - T.: O‘qituvchi, 1997. - 118 b.
10. Sulstonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomli TDPU, 2005,- 149 b.
11. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘lma qo‘l (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). - T.: “O‘qituvchi”, 1991. - 376 b.
12. Bozorov A.B universitet o‘qituvchilari uchun kasbiy etika qoidalari kerakmi?
13. Ochilov M. Muallim qalb memori “O‘qituvchi” 2001 yil.
14. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

### III MAVZU: RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIKNING RIVOJLANISHI.

#### Reja:

1. *Sharq va G`arb mutafakkirlarining pedagogik deontologiya va kompetentlik haqidagi g`oyalari.*
2. *Rivojlangan mamlakatlari pedagogik deontologiya va kompetentlikning pedagogik asoslari .*
3. *Pedagogik deontologiya va kompetentlikning jamiyatda tutgan o`rni.*
4. *Mamlakatimizda pedagogik deontologiya va kompetentlikning rivojlanishi.*

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Ushinskiy, Yan.Komenskiy va Gerbartlarning pedagogik qarashlari. Yevropa mamlakatlari ta’lim tizimida pedagogik kompetentlikning holati, Rossiya pedagogikasida pedagogik kompetentlikka oid ilmiy izlanishlar. Mamlakatimizda ta’lim tizimi.*

**Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.** Bugungi kunda, umumiy e’tirofga ko‘ra, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo‘q, albatta.

Bunday sharoitda inson kapitaliga yo‘naltirilayotgan investitsiya va qo‘yilmalarning o‘rishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o‘zining asosiy ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘yadigan davlatgina o‘zini namoyon eta olishi mumkin. Avvalo shuni ta’kidlash zarurki, bundan 15 yil oldin qabul qilingan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi deb nom olgan Ta’lim sohasini isloh qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrjijiy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning biz tanlagan «o‘zbek modeli» - o‘z taraqqiyot yo‘limizning ajralmas tarkibiy qismidir. Ushbu dastur jiddiy izlanish va tadqiqotlarning, jahondagi taraqqiy topgan ilg‘or mamlakatlar tajribasini umumlashtirishning natijasi sifatida o‘tmishda majburan singdirilgan kommunistik mafkuraning qolip va andozalaridan butunlay voz kechish, odamlarning, birinchi navbatda, unib-o‘rib kelayotgan avlodning ongida demokratik

qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, qisqacha aytganda, bu dastur o'z fikriga, o'zining qarashlari va qat'iy fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan.

Uzoq yillar davomida vujudga kelgan eski ta'lim tizimini tubdan qayta qurmasdan va isloh etmasdan turib bu maqsadga erishish aslo mumkin emas edi.

Agarki O'zbekistonda aholining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo'lgan bolalar, 60 foizdan ziyodini esa 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, bu islohotlarning roli va ahamiyati o'z-o'zidan tushunarli va ravshan bo'ladi.

Mustaqillik yillarida ta'lim jarayonini yangicha talablar asosida tashkil qilish, takomillashtirish bo'yicha olib borilgan jiddiy izlanishlar natijasida avvallari faqat aholining umumiy savodxonligini ta'minlash bilan cheklangan ta'lim mazmuni tubdan yangilandi.

MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va joriy etildi. Amaliyot jarayonida ta'lim turlariaro uzviylikni, uzluksizlikni ta'minlash maqsadida o'quv fanlari bo'yicha DTS hamda o'quv dasturlari takomillashtirilmoqda, muvofiqlashtirilmoqda.

Ta'lim muassasalarida 9875 ta fizika, 9487 ta kimyo laboratoriya xonalari, 9390 ta biologiya xonalari tashkil etilib, zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari bilan to'ldirildi. Shuningdek, barcha ta'lim muassasalaridagi «Ma'naviyat va ma'rifat», kasbga yo'naltirish, chizmachilik, tasviriy san'at va rassomlik, chet tili xonalari hamda faollar zali, tibbiyot xonasi, ma'muriy-metodik xona va barcha turar joylar zamonaviy mebel va maxsus jihozlar bilan bekamu-ko'st ta'minlandi.

O'tgan yillar mobaynida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo'yicha miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning deyarli barchasi yangitdan qurildi, kapital rekonstruksiya qilindi va zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari bilan ta'minlandi. O'quv jarayonini sifat va metodik jihatdan butunlay yangilash bo'yicha ulkan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda maktab ta'limi 7 ta tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda.

Mamlakatimizda 1500 dan ortiq yangi kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi. Siz, konferensiya qatnashchilarining ko'pchiligi ushbu bilim maskanlari bilan tanishar ekansiz, ular o'z me'moriy qiyofasi va texnik ta'minotiga ko'ra eng yaxshi oliy ta'lim muassasalaridan aslo qolishmasligiga ishonch hosil qilishingiz mumkin. Kasb-hunar kollejlariidagi zamonaviy o'quv-laboratoriya, kompyuter va ishlab chiqarish asbob-uskunalari o'quvchilar uchun umumiy fanlar bo'yicha nafaqat to'liq

bilimlar hajmini egallash, ayni vaqtda ushbu o'quv yurtlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini ham beradi.

Ta'lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari muhim o'rin egallamoqda. O'tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o'quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda.

O'zbekistonda Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti kabi yuksak xalqaro obro'-e'tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan Yevropa va Osiyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalarining filiallari tashkil etildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu oliy ta'lim muassasalarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda va biz uchun g'oyat muhim jihati shundaki, ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo'lmoqda.

Ta'lim tizimini tubdan isloh etish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va grajdanlik faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi shundaki, bizning yangi avlodimiz, bilimli, o'tmishning har qanday illatlaridan ozod bo'lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda.

Shu borada o'tgan davr mobaynida kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni 2 million 300 mingdan ziyod o'g'il-qizlarimiz bitirib chiqqani, joriy yilda esa 500 mingdan ortiq o'quvchi o'rta toifadagi mutaxassis diplomini olib, o'qishni tamomlashini aytib o'tish kifoya. Bu yoshlar nafaqat iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning, ayni vaqtda mamlakatimiz kadrlar tarkibini sifat jihatidan yangilashning qudratli omili hisoblanadi.

Pedagog o'zi tarbiyalayotgan bolaning oldiga shunday maqsad qo'yishi lozimki, bola ham o'sib katta bo'lganidan keyin o'z oldiga shunday maqsadlar qo'ya bilsin. Mana shu bo'lajak maqsadlar: 1) ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlar va 2) zarur maqsadlar deb ikkiga bo'linishi mumkin.

Odam bir vaqti kelib muayyan ixtisos sohasida o'z oldiga qo'yishi mumkin bo'lgan maqsadlar ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlardir.

Zarur maqsadlar deb shunday maqsadlarga aytiladiki, bu maqsadlar odamga o'z faoliyatining har qanday sohasida kerak bo'ladi.



Tarbiya ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlarni o'z oldiga qo'ygach, u odamda xilma-xil, har tomonlama idrok qilish qobiliyatini o'stirishi, qiziqish doirasini kengaytirishi va to'laroq qilishi lozim, mana shuning o'zi ichki erkinlik g'oyasiga, takomillik g'oyasiga muvofiq bo'lib tushadi. Zarur maqsadlarga kelganda tarbiya bo'lajak arbobning axloqini xayrixohlik g'oyasi, huquq va adolat g'oyasi asosida tarkib toptirishga yoki Iogann Fridrix Gerbartning so'zi bilan aytganda, bu arbobda barqaror axloqiy xarakter vujudga keltirishga majburdir.

**Iogann Fridrix Gerbart** Germaniyada tug'ildi. Gerbart dastlab lotincha klassik maktabda, so'ngra esa Iyen universitetida o'qidi.

Gerbart o'zining «Tarbiya maqsadlaridan kelib chiqqan umumiy pedagogika» (1806), «Psixologiya darsligi» (1816), «Psixologiyani pedagogikaga tatbiq qilish to'g'risidagi xatlar» (1831), «Pedagogikaga doir leksiylalar ocherki» (1835) degan kitoblarida pedagogikaga doir g'oyalarni keng bayon qilib berdi.

Gerbart tarbiyaning mohiyati bolaning ko'nglini tasavvurlar bilan boyitishdan iborat deb hisoblab, bolaga fazilatli xulq g'oyalarni va sabablarini singdirishni va shu asosda unda axloqiy xarakter vujudga keltirishni istaydi.

Gerbart tarbiya jarayonini boshqarish, o'qitish va axloqiy tarbiya berish, deb uch bo'lakka bo'ladi.

Gerbart axloqiy ta'limning nihoyat darajada intelluktualizm ruhi bilan sug'orilgan tizimini ishlab chiqdi. Uning pedagogika tizimida o'qituvchining o'qitish vositasi bilan o'quvchi ongiga axloqiy tushunchalarni singdirishga katta ahamiyat beriladi.

Gerbart axloqiy tarbiya prinsiplari boshqarish prinsialariga qarama-qarshidir. Boshqarish bolaning irodasi va ongini tartibga solib turadi. Axloqiy tarbiya tizimida esa tarbiyalanuvchida mavjud bo'lgan yaxshi belgilarning hammasi axloqiy tarbiya metodlariga tayanch bo'lishi lozim. Axloqiy tarbiya «tarbiyalanuvchining yaxshi xislatlarini chuqur ma'qullash vositasi bilan uning «o'z shaxsini» o'zining nazarida ulug'lashga» intilishi lozim. Tarbiyachi hatto yo'ldan ozgan tarbiyalanuvchining ham yaxshi belgilarini topishi va bunga darhol erisha olmasa, umidsizlikka tushib qolmasligi zarurdir. Axloqiy tarbiya tizimida «bir uchqun shu ondayoq ikkinchi uchqunni chaqnatishi mumkin».

**Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi.** Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Adolf Disterverg (1790-1866) XIX asr o'rtalarida demokratik pedagogikaning taraqqiyparvar namoyandasidir. Uning fikricha, maktabning vazifasi «chinakam prussiyaliklar» emas, balki insonparvar kishilar va ongli fuqarolar tarbiyalab etishtirishdir. Odamlarda insoniyatga va o'z xalqiga bo'lgan muhabbat bir-biriga chambarchas bog'langan holda rivojlantirilishi lozim. Disterveg «inson – mening nomim, nemis – mening laqabimdir» deydi.

Disterveg o'qituvchilar bolalar diqqati, xotirasi, tafakkurining o'ziga xos belgilarini sinchiklab o'rganishlari kerak, deb aytdi: u psixologiyani "tarbiya to'g'risidagi fanning asosi" deb bildi. Distervegning katta xizmati shundaki, u pedagoglik tajribasini pedagogikani taraqqiy ettirishning manbai deb hisobladi. U mohir pedagoglarning bolalarni tarbiyalash va bu sohadagi ish tajribalarini o'rganish zarurligini ko'rsatib berdi.

Disterveg tabiatga uyg'un bo'lish tamoyiliga qo'shimcha ravishda tarbiya madaniyat bilan uygun tavsifda bo'lishi ham kerak, deb talab qildi. U bunday deb yozadi: "Tarbiyalash chog'ida odamning tug'ilgan va u yashashi kerak bo'lgan joy hamda vaqt sharoitini, xullas, keng va umumiy hajmdagi butun zamonaviy madaniyatni e'tiborga olishi zarur".

**Distervegning fikricha,** bolalarda tashabbuskorlikni o'stirish zamonaviy voqealik olg'a surayotgan asosiy talablarning biri bo'lishi lozim. Lekin bolalarda tashabbuskorlikni o'stirish tarbiyaning obyektiv tomoni bo'lgan muayyan maqsadga erishishga yo'naltirilgan taqdirdagina ijobiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Disterveg tarbiyaning oliy maqsadini belgilab, bu "haqiqatga, go'zalikka va yaxshilikka xizmat qilishga qaratilgan tashabbuskorlikdir", deb aytdi.

O'qituvchi ko'rsatmali o'qitish yuli bilan bolalardagi barcha sezgi organlarini o'stirishga alohida e'tibor berishi lozim.

Disterveg boshlang'ich maktabning o'quv rejasiga tabiyotni, fizikadan boshlang'ich ma'lumotlar, amaliy geometriya, geografiyani kiritib, bu rejani kengaytirishni talab etdi. U o'rta maktabda real bilimlarni o'qitish tamoyilini qizg'in himoya qildi va o'z zamonidagi klassik gimnaziyaning qoraladi.

Disterveg rivojlantiruvchi ta'lim didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta'limning 33 qonuni va tarikasida bayon qilib berdi. Disterveg, avvalo tabiatga uyg'un tarzda bola idrokining xususiyatlariga muvofiq o'qitishni talab etdi. U misollardan koidalarga: buyumlar va bu buyumlar to'g'risida konkret tasavvurlardan shu buyumlarni ifodalovchi so'zlarga o'tishni taklif kiladi. Disterveg bolalarni ularning sezgi organlari bevosita his qila oladigan buyumlar bilan tanishtirishga juda katta ahamiyat berish bilan bir vaqtda, bolaning o'z sezgi organlari bilan idrok qilayotgan butun materialni o'ylab ko'rishi va anglab olishi zarurligini uqtirib o'tdi. Disterveg taklif qilgan ko'rsatmali ta'lim "uzoqqa", "oddiy narsalardan murakkab narsalarga", "osonroq narsalardan, qiyinroq narsalarga", "ma'lum narsadan, noma'lum narsaga" o'tish kerak degan qoidalar bilan bog'langan ta'limdir. O'z vaqtida Komenskiy ta'riflab bergan bu koidalarni Disterveg yanada taraqqiy ettirdi, pedagog bu koidalarni formal ravishda qo'llanmasligi kerak, deb xaqli ravishda ogohlantirdi.

Distervegning fikricha, "Yomon o'qituvchi haqiqatni aytib berib qo'ya koladi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni topishga o'rgatadi».

**Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.** Mashhur donishmand, chexoslaviyalik gumanist-pedagog Ya.A.Komenskiy demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida bashariyat tarixidan o'rin oldi.

Komenskiy Leshnoda maktab ochib o'qituvchilik qildi. 1632-38 yillarda bu asarni qayta ishlab lotin tilida tarjima qiladi va uni "Buyuk didaktika" deb ataydi. Komenskiy 1631 yilda "Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi" 1633 yilda "Fizika"? 1632 yilda "Astronomiya", 1632 yilda "Onalar maktabi" kabi asarlarini yaratdi. Komenskiy Shvesiyada borib maktab islohoti o'tkazishga kirishdi va maktablarda lotin tili o'qitish metodikasini ishlab chiqdi.

Hamma bolalar uchun yagona tipda maktab bo'lishi kerak. Jinsi, tabaqasi, ota-onasining mol mulkidan qat'iy nazar hamma bolalarga umumiy majburiy ta'lim berish kerak degan talablari uning ruhiga singigan demokratizm ifodasidir. U o'g'il va qiz bolalarni ham o'z ona tilida o'qitishini talab qildi.

Komenskiy o'rta asr pedagogikasidan farqli o'laroq bolaga aqliy tarbiya berishni muhim ish, deb hisoblaydi.

Komenskiy tarbiyaning rolga yuksak baho bergan. Inson faqat tarbiya tufayligina insonga aylanadi, insonga bolalik chog'idan tarbiya berilishi lozim.

**Komenskiy** maktabning aniq tartibini tabiatdan olmoq kerak, tabiatni ham o'z harakatlarida namoyon qilayotgan jarayonlarini kuzatishga asoslanib bilish lozim, deb ta'lim beradi. **Ta'lim-tarbiya "Bolaning tabiiy qobiliyatlariga moslansa, yengil va osonroq o'qitish mumkin"**.

1. O'qishni o'z vaqtida, ya'ni kishining fikri boshqa narsalarga bo'linmasdan turib boshlash kerak.

2. Bolaning aqli o'qitish uchun yetarli darajada tayyorlagan bo'lishi lozim.

3. O'qitishda umumiydan xususiyga qarab borishi lozim.

4. Osonroq narsalarni o'rgatishdan qiyinroq narsalarini o'rganishga o'tish kerak.

5. O'rganiladigan material ko'plik qilib, bolani qiynab qo'ymas.

6. Hamma narsani sekin-asta o'rgata borish lozim.

7. Bolaning yoshiga to'g'ri kelmaydigan narsalarni unga majburan o'rgatmaslik kerak.

8. Hamma narsa tashqi sezgi organlari orqali idrok etilishi zarur.

9. O'qitishni har doim bir usulda olib borish kerak.

Komenskiy bolalarni 6 yoshga qadar Onalar maktabida tarbiyalashni taklif qiladi. Bolalik davrida jamoalar va qishloqlarda ona tilida olti yillik boshlang'ich maktab bo'lishi lozim. O'smirlar uchun shaharlarda lotin maktabi yoki gimnaziya bo'lishi kerak.

Komenskiy hamma uchun umumiy maktab bo'lishi lozim degan fikrni ilgari surdi. Uning fikricha onalar maktabida bolalar boshlang'ich ma'lumot, tabiat ilmi

sohasida suv yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o'simlik, qush, ho'kiz va hokazolar nima ekanligini bilib olishlari kerak.

Komenskiy shunday yozadi: **“Agar kishi biror marta qand yegan bo'lsa, tuyani bir ko'rgan bo'lsa, bulbul xonishini bir marta eshitgan bo'lsa, bularning hammasi xotirada mustahkam qoladi va esdan chiqib ketmaydi”**. Ko'z bilan ko'rilgan narsani isbotlashning hojati yo'q. Shuning uchun Komenskiy maktablar va muallimlar darslarda ko'rsatma qurollarni ko'proq ishlatishi zarur deb bildi.

Komenskiy butun dunyoda pedagogik fikrlar va maktablar taraqqiyotida juda katta ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun ham butun insoniyat Komenskiyni qadrlaydi.

### **K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'grisida.**

K.D.Ushinskiy 1824 yil 19 fevralda Tula shahrida tug'ildi. 1860-1861 yillarda «Xalq maorifi ministrligi» jurnaliga rahbarlik qildi, quruq, kishilarni qiziqitirmaydigan umumiy jurnalni ilmiy pedagogika jurnaliga aylantirdi.

K.D.Ushinskiyning tarbiya nazariyasi falsafa, filologiya, pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, tarix fanlari qonuniyatlariga asoslanadi.

Uning fikricha, tarbiyaning vazifasi yoshlarni har tomonlama rivojlantirishdan iborat: tarbiyachi va o'qituvchilar tarbiyaning prinsipini, qoidalarini o'rganishlari kerak va shu bilan birga ana shu qoida va qonunlarni amaliyotga qo'llay bilishlari kerak.

Ushinskiy kishi kamolga etgan bo'lishi uchun uning aqliy, jismoniy va axloqiy o'sishi bir-biriga uyg'un bo'lishi kerak deb bildi.

Ushinskiy insonning to'g'ri rivojlanishida zarur shart mehnat deb biladi. Mehnat moddiy boylik yaratadi, insonning aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan takomil-lashtiriladi, qadr-qimmatini oshiradi. U jismoniy mehnat bilan aqliy mehnatning birlashtirilishini talab qildi. “O'qish ham mehnatdir va mehnat bo'lib qoladi, ammo to'la ma'noli mehnat bo'lishi lozim” – deb hisoblaydi.

**Ushinskiy ta'lim jarayonida ikkita bosqich borligini ko'rsatdi:** birinchidan, bolalar o'qituvchining rahbarligi bilan buyum yoki hodisani kuzatadilar va shu buyum yoki hodisa xaqida umumiy tushuncha hosil qiladilar. Buning o'zi uchga bo'linadi: 1. Bolalar o'qituvchining rahbarligida buyum yoki hodisani bevosita o'zlashtiradilar. 2. O'qituvchining rahbarligida o'rganilayotgan buyum yoki hodisa to'g'risida olgan tasavvurlarini bir-biridan ajratadi, farq qiladi, solishtirib ko'radilar ular to'g'risida tushuncha hosil qiladilar. 3. O'qituvchi o'zi izoh berib, bolalar olgan tushunchalarni to'ldiradi, asosiy jihatlarini ikkinchi darajali jihatlardan ayirib, tushunchalarni bir tizimga soladi.

Ushinskiy “Rus tilining dastlabgi o'qitish” nomli maqolasida zarur metodik ko'rsatmalar berdi. **Uning fikricha o'qitishning uch vazifasi bor:** 1. Bolalarning

nutqini o'zlashtirish. 2. Bolalarni o'z tilidan foydalanishga o'rgatish. 3. Tilning mashqini o'zlashtirish. Bu vazifalar bir vaqtda bajariladi.

K.D.Ushinskiy o'qitish prinsipiga asoslangan holda boshlang'ich ta'limga doir darsliklar ham tuzdi:

1. Ona tili darsligi – bu alifbedan boshlanadi, bunda bolalarning fikrini o'zlashtirish va tasavvurlarini kengaytirish ko'zda tutilgan.

2. Bolalar dunyosi darsligi – bu 3-4 sinfga mo'ljallangan bo'lib, bunda bolalarga geografiya va tabiyotdan boshlang'ich ma'lumot berishi ko'zda tutilgan.

Ushinskiyning fikricha, o'qituvchi xalq orasida chiqqan bo'lishi kerak: u pedagogika va psixologiyani bilishi, pedagogik odob va mahoratlarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi o'z ustida mustaqil ishlab, ongini turli yangiliklar bilan boyitib borishi lozim.

Ushinskiy 1861 yilda “O'qituvchilar seminariyasining proekti” maqolasida boshlang'ich maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlash tizimini taklif etdi. Xulosa qilganimizda, Ushinskiy Rossiyada maorif sohasida ko'p xizmat qildi. U «Rus dumboqchalarining do'sti», «Rus muallimlarining muallimidir».

**Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi.** Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol tasir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligining e'tirof qilingani haqiqatdir. Shu tufayli ham rivojlangan mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Masalan, yaponlarda “maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli”gina bo'lib qolmay, “u insonlarni barkamollashtiradi”, degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risida g'amxo'rlik qilish taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun ham AQShning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Frantsiya Prezidenti F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni “Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch” deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni ikki mingdan ortiq. Frantsiya, AQSh, Yaponiyada ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQShda xalqaro ta'lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga qaratilgan.

XX asrning 80-yillaridan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQShdagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti,

matematika va tabiiy fanlar o'quv jadvalining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan o'quv fanlarini tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

«Yangi dunyo»ning pedagogik g'oyalari Frantsiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etayotir.

Germaniyada to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy o'quv fanlari bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Frantsiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi o'quv fanlariga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinoq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida bir qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda XX asrning 60-80-yillarida tabiiy-ilmiy ta'lim dasturi tarkibiga fizika, ximiya, biologiya, ba'zi hollarda astronomiya, geologiya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSh va Frantsiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o'qitiladi. O'quv dasturlarini integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo'la boshladi. Frantsiyada XX asrning 70-80-yillarda to'liqsiz o'rta maktablar o'quv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar turkumiga eksperimental, iqtisodiy-gumanitar kurslar kiritiladi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi: Frantsiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi.

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chiqardi.

Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. O'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, **fransuz pedagoglari ta'lim jarayonida sinf o'quvchilarini uch tabaqaga ajratib o'qitishni afzal ko'radilar.** Bular quyidagilar:

**1. Gomogenlar** – matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib borsalar bo'ladigan o'quvchilar.

**2. Yarim gomogen** – tabiiy turkumdagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil o'quvchilar.

**3. Gegeron** – barcha fanlarni har xil saviyada o'zlashtiradigan o'quvchilar va hokazo.

Tabaqalashtirish jarayonining yangi muhim yo'nalishi to'ldiruvchi ta'limni rivojlantirish bo'lib qolmoqda.

To'ldiruvchi maktablar paydo bo'lishining sababi AQSh va G'arbiy Yevropada o'zlashtirishi past o'quvchilarning ko'payib borayotganligi, funksional savodsizlik avj olayotganligidir.

To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQShda bu xizmatga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari ham safarbar etilgan. Milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etiladi.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha chet el mamlakatlarining ko'pchiligida tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda.

Keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha barobar ilgari ketgan bolalar ko'plab topilmoqda. Ular o'qishni juda erta boshlab ta'lim kurslarini o'zlashtirishda katta shov-shuvlarga sabab bo'ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Shunday iqtidorlar maktabi G'arbda XX asrning 60-yillardayoq paydo bo'lgan edi. Bunday maktablarning o'quv dasturlari bolalar qobiliyati va imkoniyatini to'la ro'yobga chiqarishni ta'minlab berish darajasida murakkab tuzilgan.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturlari AQShda keng quloch yoygan. Ayrim shaharlarda oliy toifali bolalar bog'chalari ochilgan bo'lib, ularda 4-5 yoshli o'quvchilar maktab dasturida o'qitiladilar. AQShda "Merit" dasturi asosida har yili yuqori sinflar va kollejlardan eng qobiliyatli bolalardan 600 mingtasi tanlab olinadi. Ular o'rtasida test sinovlari o'tkazilib eng qobiliyatli 35 ming o'quvchi tanlab olinadi va o'qitiladi. Ularga turli imtiyozlar, stipendiyalar, yaxshi shart-sharoitga ega bo'lgan turarjoy, eng oliy darajadagi universitetlarga qabul va boshqalar amalga oshiriladi.

Lekin iqtidorli bolalarga qarama-qarshi qutbda turgan aqli zaif o'quvchilarning taqdiri ham chet ellik hamkasblarni tobora tashvishlantirmoqda, bunday holni kelib chiqish sabablarini o'rganish, oldini olish bo'yicha ko'pgina profilaktik ishlar olib borilmoqda va ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda. Lekin statistik ma'lumotlar bunday bolalar soni tobora oshib borayotganligini ko'rsatayotir.

XX asrning 70-yillarida AQShda kelajak maktabi umummilliy loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmuni o'qituvchi buyrug'i bilan ish tutish, ko'proq o'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan iborat. Ta'lim

tarkibi sinfda ishlash, mustaqil mashg'ulot, o'qituvchi konsultatsiyasini o'z ichiga oladi.

Germaniya maktablarida sinfda o'quvchilar sonini qisqartirish sari yo'l tutilgan. Bunday o'quvchilarning har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Toshiriqlarni o'quvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda u o'qituvchidan konsultatsiya oladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'zda tutilgan maqsadlar:

- maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo'nalishlarini kuchaytirish;

- o'quvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo'llarini qidirib topish;

- tarbiyaning yangi shakllarda – o'quvchilar kengashi, maktab kengashlaridan, tarbiyaviy o'yinlardan foydalanish;

- maktab o'quv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning o'zaro aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish;

- maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yaqinlashtirish, kasbga yo'naltirish ishlarini qayta tashkil etish;

- tabaqalashtirib o'qitishni yo'lga ko'yish, maxsus o'kuv muassasalarini (xam iqtidorli, ham aqliy, jismoniy zaif o'quvchilar uchun) rivojlantirish;

- yangi, ya'ni o'quv texnik vositalarni ta'limdagi salmog'ini oshirish, o'kituvchilar uchun kompyuter ta'limini yo'lga ko'yish;

- pedagogik g'oyalarni amalga oshirishda keng kamrovli tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

**AQSh ta'lim tizimi.** Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

- 1) bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;

- 2) 1-8- sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar);

- 3) 9-12-sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

- 4) Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim boskichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda hamda dorilfununlar va boshqa oliy o'kuv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.

AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa, xususiy tasarrufida va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. Uch yoshdan besh yoshgacha xususiy yoki davlat bog'chalaridan foydalanish mumkin, lekin bolalar bog'chalari kichik va



bu tizim kam rivojlangan. Enaga yonlash bir xaftada 200 dollarga tushadi. Bog'chalarda yagona bir dastur mavjud emas. Kerak bo'luvchi hamma jixozlar va ovqatni ota-onalarning o'zi olib keladi. Besh yoshdan esa «Kinder garde» deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta'lim boshlanadi. Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13-15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yunaltirish vazifalari hal etiladi. Sinf-dan-sinfga ko'chish o'quvchining o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Maktablarda turli xil to'garaklar, uchrashuvlar, sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga xaq to'lash lozim. O'rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat. 9-sinfni bitirgan talabalar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. Urta maktablarda to'rt yo'nalishda kasb-kor asoslari berib boriladi.

AQShda OO'Yulari asosiy funktsiyalariga ko'ra quyidagi 6 turga tasniflanadi:

1. Tadqiqot universitetlari: I va II guruh. (3%, 125 OO'Yu), doktorlik darajasini beradi. Bu universitetlarning I va II guruhlari orasidagi farq federal moliyaviy yordam hajmi bilan bog'liq, ya'ni II guruh OO'Yulariga nisbatan kamroq mablag' ajratiladi.

2. Doktorlik universitetlari: I va II guruh (3%, 111 OO'Yu). Ta'limning barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi. I va II guruh orasida farq ilmiy darajalar soniga bog'liq: I guruh uchun 5ta yo'nalish bo'yicha 40ta doktorlik darajasi, II guruh uchun 3ta yo'nalish bo'yicha 10ta doktorlik darajasi beriladi.

3. Magistrlik o'quv muassasalari (15%, 529 OO'Yu), bakalavriat va magistrlik dasturlariga ega. Bu o'quv muassasasini ko'p tarmoqli hamda keng qamrovli universitet va kollejlari deb atashadi. I guruh – milliy, II guruh – regional hisoblanadi.

4. Bakalavr OO'Yularining 4 yillik kollejlari – I, II guruh. (18%, 637 OO'Yu) – juda katta to'lov asosida o'qitiladigan, mamlakatning eng nufuzli universitetlari magistraturalariga kadrlar yetkazib beradigan elitar ta'lim muassasalari.

5. Ixtisoslashtirilgan OO'Yulari yoki bakalavr diplomi bilan qabul qilinadigan kasbiy maktablar (20%, 722 OO'Yu), (tibbiyot, huquqshunoslik, pedagogik, boshqaruv va h.)

6. Ikki yillik kollejlari va institutlar (41%, 471 OO'Yu).

**Yaponiya ta'lim tizimi va uning o'ziga xosliklari.** Yaponiya – juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehmatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish – bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya

dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va xalqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda.

Yaponiya davlati 6800ga yaqin orollardan tashkil topgan bo'lib, mamlakat maydonining 99%ni asosan eng yirik 4ta orol – Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusyu orollari tashkil etadi. Aholisi 127ming kishidan iborat. Aholi umrining davomiyligi millatning sog'lomligini va aholi xayotining sifatini belgilovchi muhim bir ko'rsatkichdir. Yaponlar uchun oila asosiy hayotiy boylik hisoblanadi. Bu joyda ajrashish dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha kam uchraydi. Yaponiya ta'lim tizimi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yaponiya zamonaviy ta'lim tizimining tarixi quyidagi 5ta davrga bo'linadi:

1. Asos solingan davr. 1867-1885 yillarni qamrab oladi. Zamonaviy ta'limning ilk tuzilishiga asos solingan.

2. Birlashuv (konsolidatsiya) davri. 1886-1916 yillarni o'z ichiga oladi. Turli maktab qonunlari chiqarilgan, tizimli ta'lim yaratilgan.

3. Tarqalish (ekspansiya) davri. 1917-1936 yillarni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimi bo'yicha favquloddagi kengash tavsiyalariga asosan rivojlantirildi.

4. Harbiy davr. 1937-1945 yillar. Militaristik ta'lim tizimi.

5. Zamonaviy davr. 1945dan hozirgi davrgacha ta'lim islohotlari.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

1872 yili "Ta'lim haqida" qonun qabul qilindi. Bunda yapon ta'limi g'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirilgan. 1893 yilda kasb-ta'limi yo'nalishidagi 1-kollej paydo bo'lgan. 1908 yilda Yaponiya boshlang'ich ta'limni majburiy 6 yillik qilib belgiladi. 1946-yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishi shart ekanligi qayd etilgan. Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Bolalar yoshlariga qarab 3,2,1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9% - xususiy, 40,8% - davlatnikidir.

Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi – ularning hayotlarining maqsadlaridir.

Yapon tarbiyachilarining bolalarni kichik guruhlariga "xan"larga bo'lib o'qitishlari tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu bolalarda

qarorlar qabul qilishga, o'zgalar fikrini hurmat qilish, guruh a'zolarini barchasini tashabbuskor bo'lishga o'rgatadi. Bunday usul kichik maktablarda ham, o'rta maktablarda ham davom etadi. Bu guruhlar o'rtacha har 5 oyda shakllanib turadi. Yapon bolalariga sinfni boshqarish juda yoqadi. Shuning uchun har kuni bolalarning o'zlari boshqaruvchi tanlaydilar. Har bir bola bu vazifani bajarib ko'radi.

Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni xulqlarini yomon tomonlarini, maktabdagi kamchilikni tanqid qilishni o'rgatadilar. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham Yaponiyada o'qituvchi kasbiga katta e'tibor beriladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari maoshidan ham yuqori bo'lgan yagona davlatdir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik o'rta maktab 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan hollarda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu bilan birga Yaponiyada xususiy maktablar ham mavjud.

Yuqori o'rta maktab 10,11,12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95%i kunduzgi maktablarda o'qiydi.

Yaponiyada o'quv yili – 240, AQShda – 180 kun. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar kuniga 7 soatdan o'tiladi.

Universitetlarga yuqori va o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo'lib, 95tasi davlat tasarrufida, 34tasi munitsipal, 31tasi xususiydir. 1-toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 3 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish 2 bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tiladi.

Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir. Oliy ta'lim tizimi quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

1. To'liq sikldagi universitetlar (4 yil).
2. Tezlashtirilgan universitetlar sikli (2 yil).
3. Kasb ta'lim kollejlari.
4. Texnika institutlari.

**Germaniya ta'lim tizimi.** Germaniya Federativ Respublikasi 16ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim tizimiga ega. Ta'lim muassasalari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun ta'lim dasturiga tegishli bo'lgan davlat ko'rsatmalari mavjud.

Ta'limni joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) hukumatining kompetentsiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiy rahbarlik ham bor: ta'lim vazirligi ta'lim siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqadi, OO'Yularini kengaytirishga mablag' ajratadi.

GFR konstitutsiyasiga ko'ra har bir Federal Yer o'z hududidagi maktab va oliy ta'limni rejalashtirish va amaliyotga tadbiq etish bo'yicha o'zi javob berishga qaramay, barcha Federal Yerlar va Federal hukumat umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish kurslarida birlikni ta'minlash maqsadida xamkorlik qiladilar. Federal organlar va Federal Yerlarning ta'lim sohasi bo'yicha siyosati kelishilgan: ta'limning davomiyligi, ta'tillar, o'quv dasturi, imtixonlarni o'zaro tan olish, attestatlar, maktabni tugatganligi xaqida guvohnoma, diplomlar, unvonlar shular jumlasidandir.

Har bir Federal Yerda ta'lim tizimi xaqida o'zining qonuni mavjud, lekin buning xammasi umumiy federal qonun asosida ishlab chiqilgan. Har bir Federal Yer maktabga qatnash vaqti, o'qish muddati va darsliklarni belgilashda mustaqildir. O'quv rejalar va ta'lim darajasi har bir Federal Yer uchun turlichadir. O'qitish dasturlari, darsliklar viloyat xukumati bosqichida tasdiqlanadi. Har bir fan bo'yicha tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlangan bir necha darsliklar mavjud bo'lib, o'qituvchi darslikni o'zi tanlash huquqiga ega. Shu tariqa ta'limning ko'p variantlilikiga erishiladi, fikrlar plyuralizmi ta'minlanadi.

Federal hukumatning huquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan. Ta'limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

–birorta Federal Erlar davlat umumta'lim, kasbiy va oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun pul olmaydi;

–barcha Federal erlarda o'quvchilarni uydan maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o'z hisobidan beradi;

–deyarli barcha o'quvchilarga davrslik va o'quv qo'llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beradi;

–ma'lum toifadagi o'quvchilar va talabalarga mavjud federal qonunlarga ko'ra davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

Germaniyada xususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% o'quvchilar tahsil oladilar. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini tanlashda davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi bois turli pedagogik muqobillarning aprobatsiyasi o'tkazilib turiladi.

Sekin asta differentsiyalashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyati va o'qishdagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo'lib, bu erlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ot-onalar xohishiga ko'ra ixtiyoriydir.

2. Ta'limning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi – bolalarga ta'lim Ining ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

3. Ta'lim I ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe I) “yo'nalishli bosqich” deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko'ra o'quv muassasalarining kerakli turiga yo'naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziya, kompleks maktablar. O'quvchilar ta'lim xaqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi.

4. Ta'lim II ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe II)ga gimnaziyaning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'lim “dual tizim” deb ham ataladi, unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyot 2 yil davomida olib boriladi, bu o'qishni tugatish o'rna ta'limni tugatish bilan teng bo'lib, yakunida faqat kasbiy sohada o'qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziya 3 yil o'qib, o'quvchilar umumiy shahodatnoma “yetuklik attestati” – abitur oladilar, bu ularga istagan oliy o'quv yurtiga kirishga imkon beradi.

5. Ta'limning uchinchi bosqichi oliy ma'lumot haqida diplom beruvchi oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish o'quv muassasalari.

GFR ta'lim tizimi umumYevropa ta'lim tizimiga integratsiyalashgan: o'quv muassasalarining barcha turlari Yevropa Ittifoqi (ES) dasturini amalga oshirishga mo'ljallangan, EI davlatlari ta'lim standartlarini unifikatsiya (bir xillashtirish) qilinadi, diplomlar bu davlatlarda kuchga ega.

Germaniya uzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdir. Shiller, Gyote, Shneger, Gumboldt, Kant, Gegel va boshqalar kabi buyuk shoirlar, yozuvchilar, filosoflar va jamoat arboblari hammaga tanish. Germaniyada o'rta asrlarda tashkil topgan 1-universitet mavjud. Eng qadimiy universitet bu Geydelberg universiteti bo'lib, 1386 yil tashkil topgan. 1388 yil tashkil topgan Kyoln universiteti qadimiy universitetlardan sanaladi. Bu o'quv muassasalari qadimiy an'analari va klassik ta'limi bilan mashhurdir.

Hozirgi kunda universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari soni sezilarli darajada ortdi, ta'lim tizimi ham o'zgardi. Avvalgiday gumanitar ta'lim an'analari muhim o'rinni egallaydi, lekin texnik ta'lim, nazariya bilan amaliyot birligi, fanlararo ta'lim ham birinchi o'ringa chiqmoqda. Oliy o'quv yurtlari fan va texnikaning oxirgi yutuqlari – yo'nalishlarni aks ettiruvchi dasturlarni kiritmoqdalar. Shu maqsadda

o'quv rejalari qayta ko'rib chiqilmoqda. Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy, jumladan xalq maorifi sohalarida keskin o'zgarish yuz berdi.

Turkiston o'lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmog'ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi.

Ammo O'zbekiston hududida ma'naviyat va madaniyat 1917-yildan boshlab murakkab vaziyatni boshdan kechirdi, jiddiy to'siqlar va buzg'unchiliklarga uchradi. Turkistonni qizil imperiya mustamlakasiga aylantirishga kirishgan bolsheviklar siyosati va amaliyotini xalq ommasi, milliy ziyolilar qabul qilmadilar.

Milliy ziyolilar va arboblarning faoliyati keng tus oldi, chuqur ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etdi. Jadid ziyolilar, ijod ahli bo'lmish Munavvar Qori, Maxmudxo'ja Bexbudiy, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G'ozil YUNUS, Xurshid va boshqalar bilan bir qatorda XX asr bo'sag'asida tug'ilgan iste'dodli yoshlar Mashriq YUNUSOV (Elbek), Naim Said, Rafiq Mo'min, Mahmud Xodiev (Botu), Baxrom Xaydariy va boshqa qator ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik qildilar, ijtimoiy yo'naltirilgan ijod bilan shug'ullandilar.

Milliy madaniyatimizning eng qadimgi va yirik markazi bo'lgan Samarqandda mashhur ma'rifatparvarlar Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Akobir Shomansurzoda, Said Axmad (Vasliy), Saidaxmadxo'ja Siddiqiy, Mardonquli Shomhammadzoda zudlik bilan maktab islohotini amalga oshirish fikri bilan maydonga chiqdilar. Ular 1917-yil aprel oyidan boshlab chiqayotgan "Hurriyat" gazetasi sahifalarida yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish zarurligi haqidagi fikrni ilgari surdilar. "Anjumani maorif" jamiyatining mablag'lariga "Rushdiya" maktabi ochildi, unda bepul o'qitilar edi. Abdurauf Fitrat bilan Kamol Shams bu maktabda o'quvchilarga islom diniy ta'limotini, islom tarixini, musulmon huquqini, turk, arab va fors tillarini, arifmetika, geometriya, geografiya, tabiatshunoslik, tarixni o'kitar edilar. Yoz faslida Samarqandning o'zida taniqli ma'rifatparvar, shoir va dramaturg Hoji Muin Shukrullo "Tarbiyat" maktabini ochdi.

1918-yilning yozida Samarqandda "Musulmon o'qituvchilari uchun pedagogik kurslar" ochildi. O'sha yilning kuzida Toshkentda Toshkent uezdining tub erli aholisi uchun maktab o'qituvchilari kurslari ochildi. 1918-yil 9-aprelda Munavvar qori uyida to'plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo'limi dasturlarini tuzadilar. Dorilfununning musulmon bo'limi ham O'rus bo'limi kabi uch bosqichdan iborat bo'lishi belgilandi: yuqori bosqich — dorilmuallimin (o'qituvchilar kursi, keyinroq oliy o'quv yurti) o'rta bosqich —

boshlang'ich maktablarni o'z ichiga olar edi. Xalq dorilfununi tarkibining bu shaklda bo'lishi sharoitning o'zidan kelib chiqqan holda zamonaviy bilim va savodxonlikka ehtiyojdan tug'ilgandi. O'sha yilning 3 mayida dorilfunununing Musulmon bo'limi rahbariyatiga saylov bo'lib, unda Munavvarqori rais (rektor), Iso To'xtaboev birinchi muovini, Burxon Habib ikkinchi muovini, Abdusamid qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bakir sarkotib bo'lib saylandi. 13 may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shahar qismida Vikula Morozovning sobiq do'koni binosi (hozirgi o'zbek yosh tomoshabinlar teatri)da musulmon aholi uchun "Xalq dorilfununi" ochiladi. Bu bo'lim tez orada o'ziga xos yirik bilim maskaniga aylandi. Dastlab 9 ta boshlang'ich maktab ochish mo'ljallangan bo'lsa-da, aholi ehtiyojiga ko'ra, ularning soni 24taga etdi. Dorilfununining musulmon bo'limi 15 demokratik tashkilot vakillari uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqariladi. Undaga muallimlar soni 18 nafarga etadi.

1918-yil 2 iyun kuni sobiq seminariya binosida dorilfununining o'zbeklar uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlovchi bo'limi – "Dorilmuallimin" ochildi. Unda Fitrat ona tilidan: Kamol Shams arifmetika va geometriyadan, Haydar Shavqiy gigiena, gimnastika va nemis tilidan, Rahimboev arifmetikadan, Abdurahmon Ismoilzoda san'atdan, Rizaev madaniyat tarixi va siyosiy iqtisoddan, Munavvarqori ona tilidan dars berishadi. Bu bo'limning ochilish marosimida Munavvarqori nutq so'zlab, inson ma'rifatli bo'lib, ko'zi ochilmaguncha vijdoni uyg'onmasligini, vijdon uyg'onmasa na o'zini, na xalqni erkin muhofaza qila olmasligani, bu imonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan ifoda etadi.

Munavvar Qori ovro'pacha usuldagi bunday xalq dorilfununi tashkil etish bilan bir qatorda, mavjud madrasalarni isloh qilish va ularda dunyoviy fanlar o'qitib, milliy ziyolilar tayyorlash g'oyasini ham ilgari suradi. Bu qarashlarini – u 1923 yil iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan xalq maorifi mudirlari qurultoyidagi ma'ruzasida bayon etgan, 1923-yilda bu yangi usulda 30dan ortiq madrasa va eski maktablarda talabalar o'qitilganligi ma'lum.

Munavvarqori 1922-yildan Turkiston maorif noziri, keyin esa Toshkentning eski shahar maorif bo'limi muboshiri (inspektori) bo'lib ishladi, o'sha yili 23-25 martda bo'lib o'tgan II Umumturkiston maorif xodimlari qurultoyida ishtirok etib, maktab bo'limiga a'zolikka saylandi. Keyinchalik Alisher Navoiy nomli ta'lim-tarbiya bilim yurtida va turli maktablarda o'zbek tili va adabiyotidan dars berdi. Do'stlari va shogirdlari Qayum Ramazon va Shorasul Zunnun bilan hamkorlikda uch bo'limdan iborat "O'zbekcha til saboqlari" kitobini (1925 yil) nashr ettirdi.

Xalq ta'limining iste'dodli tashkilotchilari Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullaev, Isxoqxon Ibrat, O. Dadaxujayev, Abdulla Mustaqov, Xodi Fayziev, Ashurali Zoxiriy, Sobirjon Raximov, Shokirjon Raimiy, Qori Niyoziy, Sayd Rizo Alizoda, To'xtanazar Shermuhamedov, Rafiq Mo'min va boshqalar katta pedagogik

ish olib bordilar. Maktablar soni o'sdi. 1918 yil boshida 330 taga, 1920 yilda Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida 1405 taga etdi. Tashkil bo'lgan maktablar, ayniqsa, qishlok joylarida va tumanlarda asosan 1-2 boshlang'ich sinflardan iborat edi. Keyinchalik yuqori sinflar paydo bo'lib bordi. Bunday tartibotdagi qizlar maktablari ham Toshkentda, Andijonda, Qo'qonda va boshqa joylarda birin-ketin ochildi. Ayol muallimlar Solixaxon Muhammadjonova, Muharrama Qodirova, Gulso'm Kopaeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzoqova, Zaynab Sadriddinova, Maryam Sharipova va boshqalar ta'lim-tarbiya ishlarini olib borganlar.

Keng doiradagi bilimdon ziyolilar qator maktablar faoliyatini namunali darajaga ko'tardilar. XX asrning 20-yillari boshida Samarqandda Abdulqodir Shakuriy (1875-1943) mudirlik qilgan maktab, 1922 yilda Farg'ona shahrida Xusanxon Niyoziy boshchiligida ochildigan ikkinchi bosqich maktab, qator boshqa maktablar shular jumlasidan edi.

Milliy, jadid maktablari uchun darsliklar, o'qish kitoblarini ziyolilarimiz asr boshidan yozib chiqarib keldilar. 1917-yildan maktablar sonining o'sishi, maorif ijtimoiy darajasining ko'tarilishi darsliklarga talabni oshirdi. Pedagog, olim, davlat arbobi Abdulla Avloniy 1917 yilda "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini qayta nashr qildi, shuningdek "Maktab gulistoni" o'qish kitobini, ikki jildlik "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" kitoblarini yaratdi va chop etdi. 1920 yildan Toshkentdagi o'lka bilim yurtida, so'ngra o'zbek xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik kladi.

Fitrat 1917-yilda «O'quv» kitobini, 1919-yilda Sh.Raximiy va Q.Ramazon bilan birga «Ona tili» darsligini, so'ngra «Imlo masalalari» kitobini yozib chiqardi. 1917-yildayoq Sayd Rizo Alizoda birinchi sinflar uchun «Birinchi yil» o'qish dasturini ishlab chiqdi. Shokirjon Raximiy 1919-yilda birinchi alifbo – "Sovg'a", 1922-yilda «O'zbek alifbosi» darsliklari va boshqa o'quv qo'llanmalarini chiqardi. 1918-yildan u Toshkentda maktab mudiri bo'lgan.

Buxoro va Xorazm respublikalarida ham maktablar, ta'limtarbiya maskanlari ochildi. Aholining bolalarni o'qitishga, ilm-ma'rifatga ishtiyoki kuchayib borgan, bunday talablar katta yig'inlarda yangragan. Ammo xo'jalikning parokandaligi, sun'iy to'siqlar oqibatida XX 20-yillari boshida maktablar soni qisqardi, darsliklar yozish, nashr qilish to'xtadi. 1922-yilga kelib Turkistonda bolalarning 25 foizi maktablarga jalb qilingan edi. Buxoro respublikasida 1921 yilda 175 ta yangi maktab, 11 ming o'quvchi bor edi. Lekin 1924-yil o'rtalariga kelib maktablar 69, o'quvchilar 3563 tani tashkil qildi. Xorazmda 40 ta umumta'lim maktablari va internatlarda 2600 bola ta'lim-tarbiya oldi. O'zbekiston Respublikasi tashkil bo'lganida turli bosqichdagi 1500 ta maktab bo'lib, ularda 116 ming o'quvchi o'qir edi.

Tashkil bulayotgan maorif tizimi, boshqa soxalar uchun o'qituvchilar, mutaxassislar tayyorlash choralari ko'rildi. Toshkentning Yangi shaharida 1918-yilda



Turkiston davlat universiteti, sharqshunoslik instituti, konservatoriya, texnikumlar ochildi. 1920-yilda universitetga Rossiyadan pedagog-professorlar, kitoblar, o'quv qurollari etkazib kelindi. Bu maskanlar inqilobiy sinfiylik tamoyili bilan ishladi. Universitetning tayyorlov-ishchilar fakulteti (rabfak)da kambag'al tabaqaga mansub kishilar o'qigan. Erli xalqlar vakillari ularga kam katnagan.

Toshkentning Eski shaharida, Qo'qon va boshqa shaharlarda muallimlar tayyorlash kurslari, 1920-yildan 7 ta dorilmuallimin (inpros), bir nechta bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. 1925-yilga kelib O'zbekiston qishloqlarida 2748 muallimlar ishlab turgan yoki 3-4 marta o'sgan.

1924-yilda Qo'qon bilim yurtini 13 ta yigit-qizlar bitirib chiqdi. Unda keyinchalik O'zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenta Qori-Niyoziy dars berdi, bitirganlardan akademiklar, yirik fan va madaniyat arboblari etishib chiqdi.

Chet mamlakatlar bilan madaniy aloqalar, yoshlarning o'qib kelishlari XX asr boshlaridan kengayib bordi va keyinchalik ham davom etdi. Buxoro respublikasi hukumati tashabbus ko'rsatib, bu ishga tashkiliy tus berdi. 1922-yilda Turkiston, Buxoro va Xorazmdan 70 ga yaqin yoshlar Germaniyaga o'qishga junatildi. Buxoro respublikasi hukumati Berlinda yotoqxona uchun bino sotib oldi, o'quvchilarni moddiy ta'minlab turdi, ularning axvoli, o'qishlaridan ogoh bo'ldi. Yoshlarimiz Germaniyaning turli o'quv yurtlarida muvaffaqiyat bilan o'qidilar, mutaxassislar bo'lib etishdilar. Afsuski, o'z ona yurtiga qaytgan yigit-qizlarimiz mustabidlik qatag'oniga uchradi.

**1924-1945 yillarda ta'lim va pedagogika fani.** Ma'lumki, 1924-yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa kartasi qaytadan tuzildi. Shuni ta'kidlash lozimki, 20-30 yillardagi juda murakkab, siyosiy ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har hil tarzda ta'sir o'tkazdi, barcha sohadagi o'zgarishlarni qarama-qarshi tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendentsiyalari hamda yo'nalishlarini uzoq yillarga belgilab berdi.

Respublika sharoitlarida madaniy taraqqiyotning zamonaviy rivojlangan darajasiga o'tish xaddan tashqari katta qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lib, keskin mafkuraviy kurash bilan birgalikda davom etib bordi. Shunday bo'lsada, madaniyatni yangidan qurish jarayonlari tobora ustuvor tus oldi. Buning sabablari avvalo o'zbek xalqining azaldan bilimga intilishi, madaniy merosni qadrlashida ko'rinadi. Bundan tashqari oktyabr to'ntarishidan avval madaniy ishlar olib borgan jadid deb atalmish ziyolilar xalqqa yordam berish uchun maorif sohasi, maktablarda ishlab, o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Bu jarayonlar avvalo darslar ona tilida olib boriladigan I (besh yillik ta'lim) va II (turt yillik ta'lim) bosqich maktablarni va

ularni darsliklar, o'quv qurollari bilan ta'minlash, maorif institutlari, o'qituvchilarni tayyorlash kurslari va boshqalarni tashkil etishdan iborat bo'ldi.

1924-25 o'quv yilida respublika byudjetining 24 foizi xalq maorifi uchun ajratildi. Bu maktab qurilishini tezlashtirishga imkon berdi. I va II bosqichdagi umumta'lim maktablarining soni 1928-29 o'quv yiliga kelib deyarli 2,5 mingtaga yetdi. Shu bilan bir vaqtda katta yoshli aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish yuzasidan keng miqyosda kampaniya avj oldirildi. 1921-22 o'quv yilidayoq respublikaning ko'pgina shaharlari va qishloq joylarida mingdan ortiq savod maktablari, savodsizlikni tugatish kurslari va tarmoqlari faoliyat ko'rsatdi, ularda 50 ming kishi xat-savod chiqardi. Savodsizlikni tugatish ishi tiklash davrining dastlabki yillarida kiyinchiliklarga duch keldi: o'qituvchilar, maktab binolari, asbob-jixozlar, o'quv qo'llanmalari, pul mablag'lari etishmas edi. Biroq bu soha, garchi qiyinchilik bilan bo'lsada, izga tusha boshladi, katta yoshli kishilarni o'qitish shakl va usullari takomillashtirildi, savod maktablari tarmog'i birmuncha kengaytirildi, savodsizlikni tugatuvchi mahalliy o'qituvchilar soni oshdi. Bu dastlabki yutuqlar keyingi yillarda savodxonlikni oshirish yuzasidan avj olgan umumxalq harakatining debochasi bo'ldi.

Hamza Xakimzoda Niyoziy, T.Shermuhamedov, T.N.Qori Niyoziy, Ergash Komilov, Abdulqodir Nabixo'jaev, Rozi Nazarov, Muharrama Qodirova, Zebuniso Polvonova, P.Qayumov, K.Abdurashidov va boshqalar yangi maktab yaratish, uni rivojlantirish uchun faol kurashdilar hamda dastlabki o'qituvchilardan bo'lib qoldilar.

Shu yillarda Markaz siyosiy rahbariyati sovet tuzumiga sodiq bo'lgan pedagog kadrlarni ko'p miqdorda, tezkorlik bilan tayarlab, ular orqali aholini, ayniqsa, yosh avlodni kommunistik g'oyalar asosida tarbiyalash maqsadida qarorlar va rejalar ishlab chiqdi. Ularni og'ishmay amalga oshirish uchun zarur mablag'larni ayamadi, bor ma'rifatchilarni hamda partiya, sovet, jamoat tashkilotlarining kuch-quvvatini safarbar qildi.

Maktablarning pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogika o'quv yurtlarining keng tarmogi yaratildi: texnikumlar, maorif institutlari, o'quv yurtlari ochildi. Ularda jadal sur'atlar bilan ommaviy miqyosda yangi o'qituvchi kadrlar yetishtirib chiqarildi. 20-yillarning oxirlariga kelib ularning soni respublikada deyarli 5,5 mingtaga etib qoldi. Xalq maorifi rivojlanib bordi.

Xalqning bilimga bo'lgan intilishi kun-sayin kuchayib borishi natijasida umumiy savodxonlik o'sdi, bu narsa millatning ma'naviy imkoniyatlari yuksalishiga, ijodiy faoliyati ortib borishiga yordam berdi.

Shunday bo'lsada, bu jarayonlar partiyaning madaniy sohada zo'rlik ko'rsatishi tufayli mushkulliklarga uchradi. Xalq maorifida bu narsa avvaliga milliy ta'lim shakllari yoyiladigan sohalarni cheklab qo'yish, keyinchalik esa ularni butunlay yo'q qilib yuborishda o'z aksini topdi. Chunonchi, XX asrning 20-yillarning boshlarida sovet maktablari bilan birgalikda eski usul maktablari, diniy tashkilotlar tomonidan

ta'minlab boriladigan vaqf maktablari va madrasalari ham ishlab turar edi. 1925-yilda O'zbekistonda 97 ta vaqf maktablari va 1,5 mingdan ortiq eski maktablar bo'lib, ulardan 250 tasi yashirin holda ish olib borgan. Lekin sovet hokimiyatining insonparvarlikka zid siyosati natijasida ular 1928 yilga kelib o'z faoliyatini amalda tugatdilar.

Xalq ma'rifatining yuksalishi yo'lida hamon g'ov bo'lib turgan muammo aholining savodxonligini oshirish bo'lib, savodsizlikka barham berish davr talabi edi. Bu maqsadda ko'plab yangi savod maktablari va kurslar ochildi. Minglab aholi savodli bo'ldi. Shuni aytish joizki, 1930 yili umumiy boshlangich ta'limning joriy etilishi savodsizlik ko'lamlarini qisqartirishga yordam berdi. Ajratilgan mablag'lar maktablar maydonini ancha kengaytirishga, ularning moddiy bazasini mustahkamlashga imkon berdi. Umumiy ta'limni amalga oshirish uchun o'qituvchilar, talabalar, ilm-fan xodimlari, yoshlar jamoalarining katta armiyasi safarbar etildi. 30-yillarning oxirlarida umumiy yetti yillik ta'limni amalga oshirishga kirishildi.

1940-yili respublikada barcha turdagi 5,5 mingdan ortiq umumta'lim maktablari ishlab turdi, ularda 1,3 mln.ga yaqin bolalar o'qidi. Biroq bu davrda maktab yoshidagi hamma bolalarni ham, ayniqsa, qishloq joylarida o'qishga jalb qilishning imkoni bo'lmadi: maktab binolari, uskuna-jihozlar, o'qituvchilar yetishmas edi va hokazo. Maktab ta'limi turli sohadagi bilimlarni egallab olgan, jamoat hayotiga faol qo'shilib keta oladigan, oliy o'quv yurtlari va texnikumlarga kirib o'qiy oladigan savodxon yoshlarni yetishtirib chiqarishni ko'paytirishga imkon bera oladigan jiddiy islohotga muhtoj edi.

Afsuski, xalq ta'limiga buyruqbozlik nuqtai nazaridan turib, ekstensiv ravishda yondashish kuchayib bordi. Buning natijasida sifat muammolari chetga surilib, miqdor ko'rsatkichlari birinchi o'ringa o'tdi. Ahvolni xo'jakursinga yaxshilash orqasidan quvish jamiyatning madaniy holatiga yomon ta'sir o'tkazdi hamda oliy va o'rta maktabga sezilarli darajada zarar yetkazdi.

Respublika taraqqiyotining manfaatlari xalq xo'jaligi va madaniyatining turli sohalari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tezlashtirishni talab qilar edi. Tabiiyki, buni markaziy hukumat tushunardi, lekin unga O'zbekistonning xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarida sotsializm, marksizm-leninizm g'oyalari bilan sug'orilgan itoatguy yuqori malakali mutaxassis kadrlar kerak edi, Shuning uchun oliy o'quv yurtlarining ta'lim-tarbiya dasturlari, o'quv rejalari, qo'llanmalari va hokazolari avvalo kommunizm prinsiplariga asoslangan bo'lib, mutaxassislarni 4-5 yil muddat davomida partiya, sovet davlatiga sadoqatli bo'lish bilan birga sinfiylik ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi.

XX asrning 20-yillarning ikkinchi yarmida o'rta maxsus va oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlaydigan turli o'quv yurtlari ochildi. Davlat sinfiy tamoyilga amal qilib,

bu o'quv yurtlariga ishchi va dehqonlarning kirishi uchun sharoitlarni ta'minlab berdi. Boshqa toifadagi odamlar bu o'quv yurtlariga kira olmas edi. Oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun zarur bo'lgan umumiy ma'lumotni qisqa muddat ichida olish maqsadida ishchi fakultetlari tarmogi yaratildi. Shu tufayli 20-yillarning oxiridayoq respublikadagi oliy o'quv yurtlarida asosan ishchi va dehqonlardan iborat 4 ming nafarga yaqin talabalar o'qir edi.

Mutaxassislar tayyorlashda RSFSR va boshqa respublikalar ham O'zbekistonga yordam berdilar. 1927-yili faqatgina Rossiya Federatsiyasidagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida O'zbekistondan kelgan 300ga yaqin talabalar ta'lim oldi.

O'rta Osiyodagi birinchi oliy o'quv yurti – 1918 yili ochilgan Turkiston davlat universiteti – bu vaqtga kelib oliy ta'limning eng yirik markaziga aylandi. Universitet mutaxassislar yetishtirib chiqarish sur'atlarini yildan-yilga oshirib bordi: uni bitirib chiqqan kishilar soni 1928-yilga kelib 5 baravar ko'paydi. Ammo ular orasida mahalliy xalq namoyandalari hamon kam sonni tashkil etardi.

Sanoat korxonalarining ishga tushirilishi, kolxozlar va sovxozlar tuzilishi, yangi-yangi idoralarning paydo bo'lishi tegishli mutaxassislarga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Institutlar va texnikumlarga mutaxassislar etishtirib chiqarishni miqdor jihatidan ko'paytirish vazifasi yuklandi, buning natijasida o'qish muddatlari ancha qisqartirildi. Mavjud institutlar va texnikumlarning bazalarida yangi o'quv yurtlari, jumladan, paxtachilik-irrigatsiya, politexnika, qishloq xo'jaligi, kon qidirish, zooveterinariya, avtomobil yo'llari, to'qimachilik transport, tibbiyot institutlari va boshqa institutlar ochildi. Pedagogik akademiya bazasida 1933-yili Samarqandda O'zbekiston davlat universiteti (hozirgi SamDU) barpo etildi. 30-yillarning oxirlarida respublikada 44 ming talaba o'qiydigan 30 ta oliy o'quv yurtlari va 98 ta texnikumlar ishlab turdi. Institut va texnikumlarni bitirib chiquvchilarning soni bir necha baravar ko'paydi. Bu yangi mutaxassislar xalq xo'jaligi safiga kelib qo'shildi. Mutaxassis kadrlar tayyorlashda asosan ularning soni ko'paytirildi, sifatiga esa e'tibor berilmadi. Institut va texnikumlarda mahalliy millat vakillari kam edi. Yuqori malakali o'zbek professor-o'qituvchilari va o'zbek tilidagi darsliklarni tayyorlashga harakat qilinmasdi.

20-30-yillarda xotin-qizlarning savodini chiqarishga katta e'tibor berildi, ayollarning savodsizligini tugatish bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilindi. 1926 yilda respublikadagi 82 ta savodsizlikni bitirish maktablarida 2700 xotin-qiz o'qigan bo'lsa, 1936 yilda 186 ming ayol savodini chiqargan.

Kasb-hunar ta'limi tarmoqlariga xotin-qizlar keng jalb qilindi. Dastlab ayollar orasidan savodsizlikni bitirish kurslari o'qituvchilari, bog'cha, yasli tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari tayyorlandi. Masalan, 1928 yilda Samarqand pedagogika kursida 73 nafar ayol o'qigan. 1929 yilda o'ndan ortiq xotin-qizlar pedagogika va meditsina texnikumlari mavjud edi. 1932 yilda respublika oliy o'quv yurtlaridagi

talabalarning 20 foizini o'zbek xotin-qizlari tashkil qilgan. 30-yillarda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida xotin-qizlardan yetishib chiqqan mutaxassislar ishlay boshladi.

Urushning suronli yillarida respublika oliy o'quv yurtlari va texnikumlar o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Katta qiyinchiliklarga qaramay, ular sanoat, qishloq xo'jaligi, maorif, tabobat va boshqa sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan chinakam manba bo'lib qoldi. 1943 yidda respublikada 41 oliy o'quv yurti (ularning 12 tasi ko'chirib kelingan) va 52 o'rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. Urush yillari davomida ularda 20 mingdan ziyod oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar yetishtirildiki, bu xalq xo'jaligini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash imkonini berdi. Ular o'z navbatida samarali mehnat qilib, fashizmni tor-mor keltirish ishiga munosib hissa qo'shdilar. Pedagogik kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berildi, chunki urush davri sharoitlarida ularga ehtiyoj ayniqsa sezilarli edi. Urush yillari O'zbekistonda barcha turdagi qo'shinlar uchun zobit kadr va mutaxassislar ham tayyorlandi. Toshkeshtga piyodalar bilim yurti ham ko'chirib keltirilib, respublikamizda joylashtirilgan bir necha harbiy bilim yurtlari, oliy o'quv yurtlarining harbiy fakultetlarida, o'nlab turli kurslarda kadrlar tayyorlandi.

#### **1945-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.**

Respublika aholisi madaniyatining o'sishida ta'lim nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning bir-biriga payvasta bo'lib qo'shilishiga yordam beradi. Ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim vazifalarini hal qilish aholining bilim darajasiga bog'liq.

O'zbekistonda urushdan keyingi yillarda o'zbek xalqining sa'y-harakatlari bilan ta'lim sohasida ma'lum yutuqlarga erishildi. 1940-41 o'quv yilidan 1970-71 o'quv yiligacha bo'lgan davrda umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar soni 2,5 baravar ortdi. Shunga yarasha umumta'lim maktablari tarmog'i ham kengayib bordi.

Biroq iqtisodiyotdagi qiyinchiliklar, ma'naviy va madaniy sohani rivojlantirishdagi nuqsonlar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Jumladan, ko'pgina maktablar, ayniqsa, qishloq joylarda namunaviy loyihalarsiz qurildi, ko'pgina chala ishlari bilan foydalanishga topshirildi. Qishloq maktablarining 75 foizga yaqini vodoprovod, kanalizatsiyaga, yarmidan ortig'i markazdan turib isitish moslamalariga ega emas edi.

Respublikadagi talay maktablar zarur jihoz, mebel, asbob-uskunalar bilan yaxshi ta'minlanmasdi. Buning sababi xalq ta'limiga qoldiq prinsipi asosida mablag' ajratilishida ko'rinardi. Fan, madaniyat va xalq ta'limiga sarf-xarajatlar byudjet mablag'ining atigi 2,7 foizini tashkil etardi.

Yangi Qonunga ko'ra umumta'lim maktabi hamma uchun majburiy bo'lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab xaqiqiy hayotdan ajralib qoldi,

o'quvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga to'g'ri kelmasdi. Shuning uchun ham 1959 yil martda O'zbekiston Oliy Soveti "Maktab xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo'lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bugal ham muammoni hal qilish yo'lida to'g'anoq bo'lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta'limida ahvol o'zgarmadi.

O'zbekistonda maktabning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlash to'g'risidagi 1959 yilda respublika hukumati qabul qilgan qonunga asosan o'qishni ishlab chiqarish bilan qo'shib olib borish talab etildi. Ushbu munosabat bildn o'n yillik o'rta maktablar qayta tashkil etilib, o'n bir yillik o'rta maktablarga aylantirildi, ularda o'quvchilar fan asoslari bilan birga ishlab chiqarish kasblarini ham o'rgana boshladilar, O'quvchilarga kasb ta'limi berishga yuzlab korxonalar, xo'jaliklar jalb qilindi, maktablarda minglab o'quv kabinetlari, laboratoriyalar, ustaxonalar, o'quv-tajriba, yer uchastkalari tashkil etildi. Shunga qaramay, ishlab chiqarish ta'limini maktablarda joriy qilish katta kiyinchiliklarga duch keldi. Korxonalar, xo'jaliklar bu ishga tayyor emas edilar. Maktablarda ustaxonalarni zarur asbob-uskuna bilan jihozlashga mablar yo'q edi. Mehnat ta'limi o'qituvchilari yetishmasdi. Buning oqibatida islohot kutilgan natijani bermadi va majburiy kasb o'rganish bekor qilindi.

Bu davrda respublika maktablari o'qituvchi kadrlar bilan son jihatidan yetarlicha ta'minlandi. Biroq oliy ma'lumotli pedagog kadrlar 60-yillarda respublikadagi barcha o'qituvchilarning uchdan bir qismini tashkil qilardi, xolos. Ayniqsa, qishloqlarda ahvol og'ir edi. Qishloq maktablarida fizika, matematika, rus tili va chet tili o'qituvchilari yetishmasdi. Aksariyat hollarda o'qituvchilar o'z mutaxassisligiga kirmagan fanlardan dars berardilar.

Sovetlar davrida maktablarning o'quv-tarbiya ishlarida katta nuqsonlar mavjud edi. O'zbek tiliga davlat maqomi berilmaganligi, davlat idoralarida ish yuritish asosan rus tilida olib borilganligi tufayli maktablarda ona tili chuqur o'rgatilmadi. Ona tilini o'rganishga ajratilgan dars soatlari rus tiliga ajratilgan dars soatlarining yarmini ham tashkil qilmas edi. Yoshlar maktabni o'zbek adabiy tilining yozma va og'zaki shakllarini puxta o'zlashtirmay, bitirib chiqib ketardilar. Shuningdek, O'zbekiston tarixi va ma'naviy madaniyati ham maktabda deyarli o'rgatilmadi. Sovetlar davrida "SSSR tarixi" deb nomlangan, aslida Rossiya tarixidan iborat fan o'qitilardi. Unga ilova sifatida "O'zbekiston SSR tarixi" bir necha soatgina o'qitilar, ko'p hollarda bu kurs o'tilmay qolib ketardi.

Maktablarda iqtidorli bolalarni o'qitishga e'tibor berilmas edi. Maktab bolalari qalbida ona-Vatan tuyg'usi, ulug' allomalarimiz va ular qoldirgan ma'naviy meros, o'z ona tili, urf-odatlar bilan faxrlanish hissi shakllantirilmadi.

Maktablarda ayniqsa, ijtimoiy fanlarni o'qitish o'ta siyosatlashtirildi. Ko'zdan kechirilayotgan davrda maorif sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda,

yoshlarni milliy an'analar va ma'naviy madaniyat manbalaridan uzoqlashtirish an'anasi ko'zga tashlanib bordi. Ta'lim va tarbiya ishlariga partiyaviylik va sinfiylik prinsiplari asosida yondashish yoshlarning umumbashariy, milliy-madaniy qadriyatlarni, urf-odatlarini o'rganishiga to'sqinlik qildi.

70-yillarga kelib respublikamizda ijtimoiy sohada ro'y bergan kamchilik va muammolar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Shunday bo'lsada, bu borada katta qadam tashlandi. O'zbekiston yalpi savodxonlar respublikasiga aylandi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar soni va shunga yarasha maktablar soni ham yildan-yilga ortib bordi, ularning soni 1985 yilga kelib 7000 dan ortiqni tashkil etdi.

Jamiyatdagi turg'unlik holatlari, ijtimoiy turmush sharoitining yomonlashuvi, iqtisodiyotdagi kiyinchiliklar, ma'naviy va madaniy soha muammolari maorif tizimiga ham jiddiy ta'sir o'tkazdi. Umumta'lim maktablarining ahvoli yomonlashdi. Ayniqsa, 70-yillarda va 80-yillarning boshlarida respublikamiz turmushining boshqa sohalarida bo'lgani kabi, xalq maorifi ishiga ham dabdababozlik, haqiqatni bo'yab ko'rsatish hollari salbiy ta'sir qildi. Yaqin o'tmishda keng yoyilgan ijtimoiy adolat prinsiplarining buzilishi, dinimiz, milliy g'ururimizning kamsitilishi yosh avlod tarbiyasiga ma'naviy zarar yetkazdi. Ularning aksariyat qismida mudroqlik, hafsalasizlik, loqaydlik kayfiyatlari ko'proq kuzatildi.

Yoshlarning zamonaviy texnologiyani yetarli o'zlashtirib olmaganliklari sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyatni yanada taraqqiy ettirishga xalaqit berardi. Bunga asosiy sabab maorifning keng tarmoqli tizimi vujudga keltirilmaganligi, o'qish-o'qitishda sifat o'zgarishining ro'y bermaganligida edi. Masalan, 1980-81 o'quv yilida respublikamizda mavjud 7000dan ortiq umumta'lim maktablarining 60 foizi nobop binolarda joylashgan, 700 tasi avariya holatida edi. Ayniqsa, qishloq maktablarida ahvol og'ir bo'ldi. Ularning 75 foizga yaqini vodoprovod va kanalizatsiyaga, yarmidan ko'prori markaziy isitish moslamalariga, oshxona va sport zallariga ega emas edi. Joy tanqisidigi sababli 5800 ta maktabda o'qish ikki smenada olib borilardi. Madaniy-ma'rifiy soha uchun resurslarni taqsimlash «qoldiq» prinsipida amalga oshirilganligidan maktablar uchun bino yetishmasdi, ular jihozlar, yangi asbob-uskunalar bilan sust ta'minlangan edi. Bu soha uzoq yillar davomida diqqat-e'tibordan chetda qolib keldi, hayotimizning eng ortda qolgan sohalaridan biriga aylandi. Fan, madaniyat va xalq ta'limiga qilinadigan sarf-xarajatlarni qo'shib hisoblaganda ular byudjet mablag'darining 2,7 foizidan ortmas edi. Respublikamiz xalq ta'limi oldida turgan asosiy ta'lim-tarbiya ishlari ko'p tomondan o'qituvchi kadrlar sifatiga bog'liq edi. 80-yillarning o'rtalariga kelganda shaharlardagi kunduzgi umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilarning 80 foizga yaqini oliy ma'lumotli edi. Qishloqlarda axvol birmuncha yomonroq bo'ldi, ularda ma'lumotli pedagoglar yetishmas edi. Pedagoglar yetishmasligidan bir soha o'qituvchisi boshqa fandan ham dars berishga majbur edi. Bunday hol o'quvchilar bilimlari sifatiga salbiy ta'sir

o'tkazdi. O'quvchilarning 3-4 oylab qishloq xo'jalik ishlariga jalb etilishi ta'lim saviyasining pasayib ketishiga, bilimlarning sifati qoniqarsiz ahvolga tushib qolishiga olib keldi.

1985-1990 yillar xalq ta'limi tizimida ayrim siljishlar ruy berdi. Ammo bu davrda ta'lim va tarbiya sohasidagi ziddiyatli holatlar yanada keskinlashdi. Maktab, o'rta maxsus va oliy ta'limda rivojlanishning ekstensiv yo'li o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanib bo'ldi. O'qituvchi va talabalarning ijtimoiy faolligi ortgani sari sovet ta'lim tizimining chirishi kuchaya bordi.

80-yillarning o'rtalaridan boshlangan xalq maorifidagi islohotlar mavjud muammolarni xalq ko'zidan yashirishga o'rinishdan bo'lak narsa emasdi. Islohotdan ko'zlangan maqsad «sovet tizimi»ni yuqori darajaga ko'tarish, mutaxassis va o'quvchilar bilim saviyasini oshirish, ta'limni demokratlashtirishdan iborat edi. Biroq mazkur maqsadga sovet mafkurasi va u olib borayotgan kommunistik yondashuv asosida erishish mumkin emasdi. 80-yillarning o'rtalaridan boshlangan islohotlar moddiy jihatdan ta'minlanmaganligi uchun ham oxiriga yetmadi.

Chunonchi, 1985-1990 yillarda O'zbekistonda 3693 ming o'quvchiga mo'ljallangan yangi o'quv yurtlari talab qilingan holda, Markazning topshirig'i bilan bu raqam 920 ming o'ringa tushirildi. Respublika qishloqlaridagi maktablarning 80 foizi esa moslashtirilmagan binolarda joylashgan edi.

1985 yilda respublika maktablarida o'quvchilar soni 2684 mingga yetdi. Bu raqam 1990 yilga kelib 245 mingga kamaydi. Buning boisi o'qituvchilarni ijtimoiy himoyalash, ularning obro'sini orttirishda davlat rasmiy siyosatidagi xato va kamchiliklarda edi. 1985-1990 yillarda respublikadagi 14 pedagogika instituti va 38 o'rta maxsus bilim yurtlarida yiliga o'rtacha 17 mingdan yosh o'qituvchilar tayyorlangani holda, maktabda faoliyat ko'rsatuvchilar sonining muttasil kamayishi ta'lim tizimi va hukmron mafkuradagi jiddiy cheklanganlik oqibatida yuz berdi.

**1945-1991 yillarda hunar-texnika va oliy ta'lim tizimi.** Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston sanoati uchun malakali ishchi kadrlar hunar-texnika bilim yurtlarida va bevosita ishlab chiqarish jarayonida yakka tartibda hunar kurslarida tayyorlandi. Respublikadagi xunar maktablari, temir yo'l, binokorlik o'quv yurtlari, yirik korxonalar qoshidagi fabrika-zavod ta'limi (FZO) maktablari sanoatni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. 1940-1955 yillarda xalq xo'jaligi uchun jami 143 ming malakali ishchilar tayyorlab berildi. Ishchi kadrlarga ehtiyoj yildan-yilga ortib bordi. Malakali kadrlar tayyorlash ham o'sib bordi. 1966-1970 yillarda hunar-texnika o'quv yurtlari xalq xo'jaligiga 172 ming nafar ishchilarni tayyorlab berdi.

Shu bilan birga, respublika hunar-texnika ta'limida katta kamchiliklar mavjud edi. O'quv yurtlarida o'zbeklar va boshqa tub aholi vakillari, xotin-qizlar soni kam edi. Korxonalarda turar joy va zarur maishiy sharoitlarning yo'qligidan yosh ishchilarning ko'pchiligi ishlab chiqarishda o'rnashib qolmasdi. 1962 yilda oziq-



ovqat, engil, trikotaj, gaz va neft sanoatidagi o'zbek va boshqa yerli aholidan bo'lgan ishchi va xizmatchilar soni 30 foizdan sal ortiqni tashkil qilardi. Mashinasozlik, metall ishlash sanoati va og'ir sanoatning boshqa sohalarida o'zbek va mahalliy millat vakillari soni juda oz edi. 1963 yili Toshkent asbobsozlik zavodidagi ishchi va xizmatchilar orasida o'zbeklar va boshqa tub millat vakillari ulushi 20 foizni tashkil etdi.

Sanoatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri muxandis-texnik kadrlar edi. Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari tayyorlovchi malakali mutaxassislar soni ortib bordi. 1960-1970 yillarda sanoat, qurilish, transport va aloqa sohalarida bo'yicha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi talabalar soni 20 mingdan 63 mingga, ya'ni 3 baravardan ziyod ko'paydi.

Oliy maktabning asosiy vazifasi xalq xo'jaligi va madaniyatning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlab berishdan iborat. Urushdan keyingi yillarda respublika oliy o'quv yurtlari Markaz ko'rsatmasi, dasturlari asosida o'quv-tarbiya ishlarini olib bordi. Bu davrda oliy maktabda mutaxassis kadrlar tayyorlash soni jihatdan o'sdi, lekin ularning sifati talab darajasida bo'lmay keldi.

Talabalar doirasi ancha kengaydi. 1960-61 o'quv yilida O'zbekiston oliy maktablarida 100 ming nafar talaba ta'lim olgan bo'lsa, 1970-71 o'quv yilida ularning soni 230 mingga etdi. Bu davr ichida oliy maktab respublika xalq xo'jaligi uchun etkazib bergan diplomli mutaxassislar soni 2,5 baravar ortgan.

Oliy o'quv yurtlari soni 1940 yildagi 30 tadan 1970 yilda 38 taga ko'paydi. Xalq xo'jaligining rivojlanishi yangi oliy o'quv yurtlarini ochishni talab qildi. Urushdan keyingi yillarda Toshkent elektrotexnik aloqa instituti, Toshkent avtomobil yo'llari instituti, Andijon paxtachilik instituti, Andijon tibbiyot instituti, Andijon tillar pedagogika instituti, Buxoro oziq-ovqat va engil sanoat texnologiya instituti, Farg'ona politexnika instituti va boshqa oliy o'quv yurtlari malakali kadrlarga bo'lgan talabni kondirdi. Maorif, sanoat, qurilish, transport, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, san'at va boshqa soxalarda mutaxassis kadrlar tayyorlandi.

Oliy o'quv yurtlaridagi professor va o'qituvchilar soni ham yildan-yilga oshib bordi. Oliy maktablarda 1958 yili 5 ming ilmiy-pedagog xodim ishlagan bo'lsa, 1965 yilda bu son 8 mingtaga etdi. Oliy o'quv yurtlari olimlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ijodiy hamkorlikda fan, iqtisodiyot va madaniyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan talay ilmiy ishlar, salmoqli asarlar yaratdilar.

Biroq oliy maktab ham totalitar tartibot ta'siridan chetda qolmadi. Buning natijasida oliy maktabda qator salbiy hodisalar ruy berdi. Miqdoriy, yalpi ko'rsatkichlar ketidan quvish, xalq xo'jaligi talab-ehtiyojlariga mos kelmaydigan

mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish shular jumlasidandir. Oliy maktabning moddiy-texnik bazasi ham juda zaif bo'lib qoldi.

Respublika oliy o'quv yurtlarida sirtqi va kechki ta'lim keng rivojlandi. Ayniqsa, 1959 yilgi maktabning hayot bilan bog'liqligini mustahkamlash to'g'risidagi qonun asosida ta'limning bu shakllari yanada kengaydi. Respublikaning barcha institutlarida sirtqi va kechki bo'limlar ochildi.

1940 yilda sirtqi va kechki ta'lim tizimida o'qiyotgan talabalar respublika oliy o'quv yurtlaridagi jami, talabalarning 20 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 1966 yilda ularning salmog'i 62 foizga etdi. O'sha vaqtda sirtqi va kechki bo'limlardagi talabalarning soni jihatidan mamlakatimiz birinchi o'rinda deb maqtanish rasm bo'ldi. Lekin bu aslida achinarli hol eli. Sirtqi va kechki bo'limlarda ta'lim olgan talabalar ixtisosliklari bo'yicha yetarli nazariy bilimga ega bo'lmasdilar. Ular ko'proq bilim olish uchun emas, diplom uchun o'qirdilar. Bu yillarda oliy o'quv yurtlari va ular tayyorlagan mutaxassislar soni ko'paydi, biroq sifati pasaydi.

Respublika oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlari mafkuralashtirib yuborilganligi sababli kunduzgi bo'limlarda o'qigan talabalarning ko'p vaqti mutlaqo keraksiz bo'lgan ilmiy kommunizm, KPSS tarixi, siyosiy iqtisod, markscha-lenincha falsafa, ilmiy ateizm kabi «fanlar»ni o'rganishga sarflanar edi. Bu hol talabalarning asosiy ixtisosligi bo'yicha fanlarni chuqur, o'zlashtirishiga xalaqit berardi.

Oliy maktablarda milliy kadrlar tayyorlash talab darajasida emas edi. Ko'p fanlardan, ayniqsa, tabiiy fanlardan darsliklar rus tilida chiqarilgandi. Ularni o'zbek tiliga tarjima qilishga ongli ravishda e'tibor berilmasdi. O'zbek talabalari rus tilidagi darslik va qo'llanmalardan foydalanishga majbur edilar. Ayniqsa, qishloqlardan kelgan, rus tilini bilmaydigan talabalar qiynalardilar. Ular ko'pincha rus tilida o'qitiladigan fanlarni o'zlashtira olmay, o'qishni tashlab ketishga majbur bo'lardilar. Bir amallab institutni bitirib chiqqan mutaxassislarning bilim darajalari past bo'lardi. Institutlarda o'zbek guruhlarida rus tilida dars o'tish Markazning O'zbekistonda olib borgan ruslashtirish siyosati natijasi edi.

70-yillarga kelib respublikamizda Respublikaning oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari xalq xo'jaligi va madaniyat talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashda muayyan natijalarni qo'lga kiritdilar. Yildan-yilga talabalar soni ortib bordi. 1971-1975 yillarda oliy o'quv yurtlarini tug'allagan diplomli 182 ming nafar mutaxassis kadrlar respublika xalq xo'jaligiga etkazib berildi. Oliy o'quv yurtlarining soni 1985 yilda 42 taga etdi.

80-yillarning o'rtalarida respublika o'rta maxsus o'quv yurtlarida 282 ming nafar o'quvchi ta'lim oldi. Bu har yili necha o'n minglab malakali mutaxassislar bilan respublika xalq xo'jaligini ta'minlashga imkon berdi. Xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun ham ko'plab mutaxassislar tayyorlandi. Masalan, 1970 yilda oliy maktabni bitirganlar soni 334 mingni tashkil etgan bo'lsa, bu raqam 1990 yilga kelib

508 mingga yetdi. Biroq bular faqat son ko'rsatkichlari edi, xolos. Mutaxassislar saviyasi nuqtai nazaridan mamlakat boshqa davlatlardan ortda qolib kelardi.

**Siddiq Rajabov hayoti va faoliyati hamda uning pedagogika fani rivojiga qo'shgan hissasi.** Siddiq Rajabov 1910 yili 1-aprelda Qozog'iston Respublikasining Avliyoota (hozirgi Tarozi) shahrida tavallud topdi. U shu shaharda to'liqsiz o'rta maktabni tugatib, 1926 yili Farg'ona pedagogika texnikumiga o'qishga kiradi. Texnikumni 1930 yili tugatadi. Shu oraliqda, 1928-29 yillarda Qashqadaryoning G'uzor tumanidagi olis bir qishlog'ida ochilgan maktabda o'qituvchilik qiladi. 1930 yili Farg'ona pedagogika institutiga o'qishga kiradi. Institutni tugatgach, 1934-37 yillarda O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti aspiranturasida o'qiydi. 1935 yili yangidan ochilgan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining pedagogika kafedrasiga o'qituvchi qilib ishga qabul qilinadi. Urush yillarida "Qizil O'zbekiston" gazetasining ma'sul kotibi bo'lib ishlaydi.

Siddiq Rajabov 1947-1963 yillarda Nizomiy nomidagi TDPning pedagogika kafedrasini mudiri lavozimida, 1960-1966 yillarda esa O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining direktori lavozimida ishlaydi. 1966 yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutiga ishga qaytadi va shu institutning umumiy pedagogika kafedrasiga 1990 yilgacha mudirlik qiladi.

S. Rajabov XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, 1941 yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Siddiq Rajabov pedagogika fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan birinchi o'zbek olimidir. 1917-1957 yillardagi O'zbekiston maktablari tarixini o'rgangan olim, shu mavzuga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini Moskvada himoya qildi va 1958 yili birinchilardan bo'lib pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi.

Olimning qalamidan chiqqan ilmiy maqolalarda yoshlarni insoniylikka, mehnatga, vatanparvarlikka tarbiyalash mavzusi keng o'rin oldi. Pedagog-olim birqancha risolalarida K.D. Ushinskiy, L.N. Tolstoy, N.K. Krupskaya, A.S. Makarenko va H.H. Niyoziyning pedagogik qarashlari va faoliyatlarini yoritib berdi. 1960 yili unga professor ilmiy unvoni berildi.

1968 yili professor Siddiq Rajabov Pedagogika fanlari akademiyasining akademigi bo'lib saylandi. S. Rajabov pedagogika sohasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tarixidagi yagona akademikdir.

Akademik Rajabov Sharq donishmandlarining pedagogik merosini o'qib-o'rganish va keng ommaga tanitishda juda katta ishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, o'zi boshi-qoshida yurib, 1986 yili rus tilida "O'zbek pedagogik fikrlar antologiyasi" kitobini Moskvaning "Pedagogika" nashriyotida chop ettirishi O'zbekiston fanida juda katta yutuq bo'ldi. Hamdo'stlik davlatlaridan birnechtasigina bunday salmoqli

pedagogik asarni chop ettira olganini hisobga olsak, Siddiq Rajabov pedagogika fani tarixini beqiyos manbalar bilan to'ldirgan juda katta vatanparvar olimdir.

Olimning yana bir katta mehnati YA.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarini rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishni tashkil etishi bo'ldi. S.Rajabovning mas'ul muharriligida professor Malla Ochilov bu kitobni tarjima qilib, 1975 yili nashr ettiridi.

Siddiq Rajabov butun umri davomida pedagogika fanining rivojlanishiga xizmat qildi. Olimning O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga qo'shgan eng katta hissasi, bu albatta, pedagogika oliygohlari talabalari uchun "Pedagogika" darsligini chop ettirishi bo'ldi. Olim darslikning redaksiyasini boshqardi, birnechta qismlarini o'zi yozdi, 1962, 1966 va 1981 yillarda qayta-qayta to'ldirib, nashr ettirdi.

O'zining ilmiy-pedagogik faoliyati davomida olim yosh tadqiqotchilarga hamisha yordam berib keldi. S.Rajabov o'zoq yillar davomida pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy daraja beradigan ixtisoslashtirilgan Kengashni boshqarib, nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham olimlar tayyorlab berishda juda katta xizmat qildi. Akademik Rajabov 7 nafar fan doktori, 130 nafar fan nomzodini tayyorladi.

O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga qo'shgan juda katta xizmati uchun S.Rajabovga 1964 yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni berildi. Birqancha orden va medallar bilan taqdirlandi<sup>2</sup>.

**Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.** Bugungi kunda, umumiy e'tirofga ko'ra, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo'q, albatta.

Bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin.

Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, bundan 15 yil oldin qabul qilingan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi deb nom olgan Ta'lim sohasini isloh qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning biz tanlagan «o'zbek modeli» - o'z taraqqiyot yo'limizning ajralmas tarkibiy qismidir. Ushbu dastur jiddiy izlanish va tadqiqotlarning, jahondagi taraqqiy topgan ilg'or mamlakatlar tajribasini umumlashtirishning natijasi sifatida o'tmishda majburan singdirilgan kommunistik

---

<sup>2</sup> B.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazriyasi va amaliyoti. "Sano-standart" nashriyoti. 2017yil.

mafkuraning qolip va andozalaridan butunlay voz kechish, odamlarning, birinchi navbatda, unib-o'sib kelayotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, qisqacha aytganda, bu dastur o'z fikriga, o'zining qarashlari va qat'iy grajdanlik pozitsiyasiga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan.

Uzoq yillar davomida vujudga kelgan eski ta'lim tizimini tubdan qayta qurmasdan va isloh etmasdan turib bu maqsadga erishish aslo mumkin emas edi.

Agarki O'zbekistonda aholining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo'lgan bolalar, 60 foizdan ziyodini esa 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, bu islohotlarning roli va ahamiyati o'z-o'zidan tushunarli va ravshan bo'ladi.

Mustaqillik yillarida ta'lim jarayonini yangicha talablar asosida tashkil qilish, takomillashtirish bo'yicha olib borilgan jiddiy izlanishlar natijasida avvallari faqat aholining umumiy savodxonligini ta'minlash bilan cheklangan ta'lim mazmuni tubdan yangilandi.

MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va joriy etildi. Amaliyot jarayonida ta'lim turlariaro uzviylikni, uzluksizlikni ta'minlash maqsadida o'quv fanlari bo'yicha DTS hamda o'quv dasturlari takomillashtirilmoqda, muvofiq-lashtirilmoqda.

Ta'lim muassasalarida 9875ta fizika, 9487ta kimyo laboratoriya xonalari, 9390ta biologiya xonalari tashkil etilib, zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari bilan to'ldirildi. Shuningdek, barcha ta'lim muassasalaridagi «Ma'naviyat va ma'rifat», kasbga yo'naltirish, chizmachilik, tasviriy san'at va rassomlik, chet tili xonalari hamda faollar zali, tibbiyot xonasi, ma'muriy-metodik xona va barcha turar joylar zamonaviy mebel va maxsus jihozlar bilan bekamu ko'st ta'minlandi.

O'tgan yillar mobaynida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo'yicha miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning deyarli barchasi yangitdan qurildi, kapital rekonstruksiya qilindi va zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunolari bilan ta'minlandi. O'quv jarayonini sifat va metodik jihatdan butunlay yangilash bo'yicha ulkan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda maktab ta'limi 7 ta tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda.

Mamlakatimizda 1500 dan ortiq yangi kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi. Siz, konferensiya qatnashchilarining ko'pchiligi ushbu bilim maskanlari bilan tanishar ekansiz, ular o'z me'moriy qiyofasi va texnik ta'minotiga ko'ra eng yaxshi oliy ta'lim muassasalaridan aslo qolishmasligiga ishonch hosil qilishingiz mumkin. Kasb-hunar kollejlariidagi zamonaviy o'quv-laboratoriya, kompyuter va ishlab chiqarish asbob-uskunolari o'quvchilar uchun umumiy fanlar bo'yicha nafaqat

to'liq bilimlar hajmini egallash, ayni vaqtda ushbu o'quv yurtlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini ham beradi.

Ta'lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari muhim o'rin egallamoqda. O'tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o'quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda.

O'zbekistonda Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti kabi yuksak xalqaro obro'-e'tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan Yevropa va Osiyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalarining filiallari tashkil etildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu oliy ta'lim muassasalarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda va biz uchun g'oyat muhim jihati shundaki, ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo'lmoqda.

Ta'lim tizimini tubdan isloh etish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va grajdanlik faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi shundaki, bizning yangi avlodimiz, bilimli, o'tmishning har qanday illatlaridan ozod bo'lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda.

Shu borada o'tgan davr mobaynida kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni 2 million 300 mingdan ziyod o'g'il-qizlarimiz bitirib chiqqani, joriy yilda esa 500 mingdan ortiq o'quvchi o'rta toifadagi mutaxassis diplomini olib, o'qishni tamomlashini aytib o'tish kifoya. Bu yoshlar nafaqat iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning, ayni vaqtda mamlakatimiz kadrlar tarkibini sifat jihatidan yangilashning qudratli omili hisoblanadi.

### **I. Pedagogika fani metodologik g'oyalarining takomillashuvi.**

1. Totalitar tuzum davrida o'rganilishi ma'n etilgan milliy-pedagogik qarashlarning o'rganilishi va pedagogika faniga olib kirilishi.
2. Ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalarning pedagogik qarashlarda o'z ifodasini topishi.

### **II. Pedagogik bilimlar ijtimoiy-g'oyaviy asoslarining boyishi.**

1. Ta'lim mazmunida milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi asoslari, insonparvarlik va demokratik qarashlarning aks etishi.

2. Milliy-madaniy meros namunalaridan foydalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish orqali yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash.

### **III. Shaxsni ijtimoiylashtirish.**

1. Erkin, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish.
2. Shaxsda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish.
3. Yosh avlodda ijtimoiy voqelikka ongli munosabatni qaror toptirish.

### **IV. Yangicha ta'limiy qarashlarning paydo bo'lishi.**

1. Yuksak malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda tayanch o'rin tutuvchi uzluksiz ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi.
2. Ta'lim sohasida davlat va jamoatchilik boshqaruvining yo'lga qo'yilishi.
3. Ta'lim marketingi va ta'lim xizmatlari sohasining tashkil etilishi.
4. Ta'limning yangi didaktik parametrlarini aniqlash.
5. Yangi o'quv predmeti va o'quv kurslarini o'qitishning yo'lga qo'yilishi.
6. Hamkorlikda o'qitish va mustaqil ta'limning ommalashuvi.
7. Ta'lim olganlikni tashxis etishning yangi vositalari (reyting tizimi, monitoring)ning amaliyotga tatbiq etilishi.

### **V. Tarbiya jarayonida ijtimoiy jamoatchilik ta'sirining kuchayishi.**

1. Tarbiya jarayonida oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligining rivojlanishi.
2. Tarbiya jarayonida nodavlat va notijorat tashkilotlar hamkorligining yo'lga qo'yilishi.
3. Tarbiya jarayonida ommaviy axborot va multimedia vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish.

### **VI. Pedagog kadrlarni kasbiy jihatdan tayyorlashning yangi tizimiga asos solinishi.**

1. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining isloh etilishi.
2. Pedagog kadrlarni uzluksiz tarzda mahoratlarini oshirib borish tizimining amalga oshirilishi.

### **VII. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi.**

1. Pedagog kadrlarning rivojlangan xorijiy davlatlarda kasbiy malakalarining oshirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish.
2. Talabalarning o'zlarining tanlagan sohalari bo'yicha chet elda ta'lim olishlarini tashkil etish.
3. Uzluksiz ta'lim tizimida xalqaro donor tashkilotlari xizmatlaridan foydalanishning huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi.
4. O'zaro tajriba almashinuv dasturlari doirasida ilmiy, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning amalga oshirilishi.

## **VIII. Maxsus pedagogika ilmiy asoslarining boyitilishi.**

1. Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishda milliy va xorijiy tajriba uyg'unligiga erishish.
2. Inklyuziv ta'limning yo'lga qo'yilishi va "Ta'lim hamma uchun" dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash.

"Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan ta'lim islohotlarining o'ziga xosligi shundaki..." mavzusida asoslangan esse yozing.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq". 2020, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997, 31-61 betlar,
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
4. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.56 B.
5. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan bga quramiz. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.488 B.
6. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.488 B.
7. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –"O'zbekiston" - 2017.104 B. .2009.-176 b.
8. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O'qituvchi, 2000.
9. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. //Saylanma. - T.: O'qituvchi, 1997. - 118 b.
10. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomli TDPU, 2005,-149 b.
11. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'hanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). - T.: "O'qituvchi", 1991. - 376 b.
12. Bozorov A.B universitet o'qituvchilari uchun kasbiy etika qoidalari kerakmi?
13. Ochilov M. Muallim qalb memori "O'qituvchi" 2001 yil.
14. B.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" "Sano-standart" nashriyoti. 2017 yil
15. www.pedagog.uz



## IV MAVZU: OLIY TA'LIM O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ASPEKTLARI.

Reja:

1. **Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy mohiyati.**
2. **Pedagogik fanlarni modulli-kompetentli yondashuv asosida o'qitishning xususiyatlari.**
3. **Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi.**

**Tayanch so'z va iboralar:** *Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy mohiyati. Pedagogik faoliyat, texnologiyalar, metodlar va usullar yig'indisi, pedagogik tajriba, pedagogik kompetensiya, pedagogika sohasidagi bilim, mahorat, ko'nikma, ma'lumotlilik, obro'-e'tibor.*

**Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy mohiyati.** Pedagogik faoliyati davomida o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan texnologiyalar, metodlar va usullar yig'indisi uning pedagogik tajribalarini ortib borishi bilan birga pedagogik kompetensiyasining, pedagogika sohasidagi bilim, mahorat, ko'nikma, ma'lumotlilik va obro'-e'tiborini yuqori bo'lishiga ham sabab bo'ladi. Birinchi bobda ko'rib chiqilgani bir qator ma'lumotlarga asoslanib, **o'qituvchining kompetensiyasini** quyidagicha **izohlash** mumkin:

1. Pedagog faoliyatining maqsadi va mazmuni;
2. Shaxsiy va kasbiy sifatlar;
3. Pedagogik qobiliyat, metod va texnologiyalar;
4. Kasbiy motivatsiya.

**O'qituvchi mehnat faoliyati davomida** ta'lim vazifalarini amalga oshirishda hayot davomida ahamiyatga ega bo'lgan **kompetensiya** zarur bo'ladi, Ularga quyidagilar kiradi:

- **Kommunikativ kompetensiya;**
- **Infonnatsion kompetensiya;**
- **Muammolarni hal eta olish;**
- **O'z-o'zini rivojlantiruvchi muhitni yaralish.**

**Kommunikativ kompetensiya** - o'qituvchidan to'laqonli muloqotchanlikni talab etadi. Har qanday vaziyatda ta'lim oluvchi va jamoa a'zolari bilan ijobiy munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Informatsion kompetensiya - o'qituvchi o'z fani va unga bog'liq holda bo'lgan barcha yangiliklardan xabar bo'lishi zarur. Shuning uchun ham pedagog axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalana olish ko'mkmlariga ega bo'lishi kerak.

**Muammolarni hal eta olish** - o'qituvchi ta'lim jarayonida va undan tashqari holatlarda yuzaga kelgan liq qanday muammoli vaziyatlarni hal qila olishi uning kompetensiyasi darajasini ko'rsatib beradi. Zamonaviy o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini quyidagilarda ko'rish mumkin bo'ladi:

- O'z faoliyati davomida mustaqil ravishda zaif tomonlari tuzatib, ta'lim oluvchilar bilan birga o'qishni bilish.

- Ta'lim oluvchilarni mustaqil faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishni bilish

- O'quv jarayonini sarnalashtirish orqali turli xil faoliyat usullaridan foydalanish, ularga ta'lim oluvchilarning moyilligi va qiziqishiga qarab ishlarni taqsimlash ko'nikmasiga ega bo'lish.

- Tadqiqotchilik tafakkuriga, ta'lim oluvchilarga tadqiqotchilik ko'nikmasini tashkil etishni bilishi kerak

- Ta'lim oluvchilarni yutuq va rivojlanishlarini baholashlaridan foydalanish.

- O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni bilish.

- Dars jarayonida dialog va diskussiyalar olib borish, ta'lim oluvchilar o'zlari xohlab aytmoqchi bo'lgan fikr, qarash va munosabatlarini bayon eta olishlariga yo'naltirilgan muhit yaratish. Nafaqat ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan balki, o'qituvchi bilan ham shaxsiy qarash va munosabat, tanqidlarini tahlil qilishlari kerak. Shuning natijasida **bo'lajak mutaxassisda** quyidagi **umumkasbiy kompetensiyalar shakllanadi**:

- Tahlil qila olish;

- Tizimli ravishda fikrlay olish;

- Noan'anaviy (no'standart fikrlay olish:

- Mantiqiy va amaliy fikrlay olish;

- Tanqidiy fikrlashga qodirlik;

- Ma'suliyatli (puxta, taroziga solib) va jamoaviy fikrlashga qodirlik;

- Qarorlarini qabul qilishga qodirlik;

- Mustaqil ravishda ta'lim olishga qodirlik;

- Refleksiyaga qodirlik (o'z ruhiy holatini tahlil qila olish);

-O'z vaqtini rejalashtirish va tashkillashtira olish;

- Muammolarning yechimini topa bilish;

- O'z faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtira olish;
- Kompyuter savodxonligi va ma'lumotlar bazasi bilan ishlay olish;
- Og'zaki muloqot madaniyati hamda yozma muloqot ko'nikma va malakalari;
- O'z ehtiyojlarini qondirish uchun ichki faoliyati (shaxsan mas'ullik va ehtiyojni his etish);
- Bag'rikenglik;
- Mushkul vaziyatlarda to'g'ri yo'l tuta bilish;
- Xushxulqlik;
- Shaxslararo o'zaro faoliyatga qodirlik,
- Jamoa bo'lib ishlashga qodirlik;
- Nizolarni hal eta olish va muzokaralar olib borishga qodirlik;
- Betakrorlik (kreativlik);
- Tadbirkorlik (uddaburonlik);
- Innovatsion faoliyatga qodirlik;
- Maqsadga intiluvchanlik;
- Loyihalarni boshqarishga qodirlik;
- Sifatni va natijani ko'zlash;
- Peshqadamlik (liderlik).

Yuqorida tanlab o'tilgan kompetensiyalardan shuni ta'kidlash joizki, shaxsning, ya'ni bo'lajak o'qituvchining yuqori darajasi kasbiy kompetentlik bilan belgilanadi. **Kasbiy kompetentlik deganda** mutaxassis dunyoqarashining kengligi, uning ishbilarmonlik mahorati va shaxsiy sifatleri, bilim, ko'nikma hamda malakalariga suyangan holda to'g'ri qarorlar qabul qila olishi tushuniladi. Oliy ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi takomillashuvida nazariy tayyorgarliklar bilan birga amaliy tayyorgarliklar uzviyligi ta'minlanishi kerak. **Bolajak o'qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligi tashkiliy jihatdan qanday shakl va melodlarda bo'lmasin, quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanadi:**

1. Nazariy va amaliy bilimlar uzviyligi;
2. Kasbiy bilim va ko'nikmalarni tizimli tarzda takomillashtirib borishi;
3. Bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyat bilan funksional bog'liqlik;
4. Talabalar amaliy faoliyatining ko'rgazmaliligi;
5. O'z kasbiy faoliyati yuzasidan bosqichma-bosqich mustaqil faoliyat yurgazishga intilish va mas'uliyal hissini shakllanishi;
6. Bo'lajak o'qituvchilarda nazariy va amaliy bilimlar hamda ko'nikmalarini takomillashishi natijasida kompetensiyani shakllanishi va rivojlanishi.

Bu tamoyillarining barchasi kelajakda o'qituvchi kasbiy-pedagogik kompetensiyasining nazariy-ilmiy, amaliy funksional, pedagogik-psixologik

takomillashuvi omillaridan hisoblanadi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllashtirish orqali ta'lim va tarbiya jarayonini zamon talabiga ko'tarishga xizmat qiladi.

### **1. Pedagogik fanlarni modulli-kompetentli yondashuv asosida o'qitishning xususiyatlari.**

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularni o'quv muassasalarida joriy qilish zarurligi to'g'risida so'z, yuritilgan. Har bir pedagogik texnologiya o'ziga xos pedagogik tizimlardan iborat bo'lib, bu tizim modullardan tashkil topadi. **Modul** - bu fanning fundamental tushunchasi, ma'lum hodisa yoki qonun, bo'lib ma'lum mavzu yoki bir-biriga bog'liq tushunchalar guruhidir. **Modul** - bu mantiqiy ravishda tugallangan, ishlab chiqarilgan tamoyillar asosida qurilgan, o'quv fanining bir yoki bir nechta fundamental tushunchalarini o'rganishga yo'naltirilgan o'quv material iting birligidir.

**Modul algoritm** (algoritm - pedagogik texnologiya modullari o'zaro joylashuvining hamda pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketligining avvaldan belgilangan tartibini bildiradi) asosida tuziladi va quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi: maqsad, nazariya, amaliyot, uslubiyat va nazorat.

**Modulli ta'lim**- ta'lim oluvchining mustaqil ravishda unga taqdim etilgan harakatlar maqsadli dasturi, axborot banki, qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishish uchun uslubiy ko'rsatmalarni qamrab olgan maxsus dasturdir.

#### **Modulli ta'limning boshqa ta'lim tizimlaridan quyidagicha:**

- ta'lim mazmuni tugallangan, mustaqil modullar shaklida taqdim etiladi;

- \* o'qituvchining talaba bilan muloqoti tubdan yangi asosda amalga oshiriladi.

Ta'lim oluvchi o'qituvchi bilan bo'ladigan har bir uchrashuvga shaxsiy bilim orttirish qobiliyatlarini hisobga olgan holda modul yordamida dastlabki tayyorgarlikni ma'lum darajaga yetkazadi.

**Har bir ta'lim tizimi o'zining ma'lum umumiy va xususiy tamoyillariga asoslanadi, ya'ni:**

**1. Modullilik tamoyili** - aniq didaktik maqsadlarga erishish uchun mo'ljallangan modullar asosida tuziladi.

**2. Maslahat berish tamoyili** - o'qituvchilik faoliyatining talabalar tomonidan o'rganilishining kasbiy darajasini ta'minlashni talab qiladi. Talabalarni o'quv materialini maqbul darajada o'zlashtirish yo'llarini topishga o'rgatish lozim.

**3. Istiqbolni ko'ra olish tamoyili** - talabalar tomonidan yaqin, o'rta va alohida modullarni tushunilishi va fahmlanilishini talab qiladi. Modul tizimida o'quv maqsadlari ma'noli natijalar sifatida ko'rilishi ko'zda tutiladi.

**4. Faollik tamoyili** - talabalarda faoliyatning turli ko'rinishlari va uslublari shakllanishi nazarda tutiladi.

**5. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar tengligi tamoyili** - modul

ta'limida tomonlar tengligi birgalikda harakat qilishni, ya'ni o'qituvchi va talabalarning subyekt-subyekt munosabatlarini nazarda tutadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda hozirda Kasb ta'limi (Xizmatlar sohasi va libos dizayni) ta'lim yo'nalishlarida zamonaviy texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash bo'yicha ham bilimlarni shakllantirilishi tavsiya sifatida kiritildiki, ta'lim modulli tizimining moslanuvchanligi va variativligi ayniqsa, hozirgi davrda dolzarb bo'lmoqda, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi o'rinlarning doimiy sifatli va miqdoriy o'zgarishlari kuzatib turiladi. Kasblarga o'rgatish modulli tizimining mohiyati - talabalarning birin-ketin ta'lim birliklari modullarini o'zlashtirishdan iboratdir. Bu holatda ta'lim oluvchi unga taqdim etilgan dastur bilan mustaqil ravishda ishlashi mumkin. Ta'lim oluvchi o'ziga aniq bir maqsadni, axborot texnika bazasi va didaktik maqsadlarga erishish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni belgilab oladi.

### **Pedagogik texnologiyaning modulidan quyidagi darajalarga ajratilishi mumkin:**

1. Bir o'quv mashg'ulotini o'tkazish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar;

2. Ayrim fanlarni o'qitish texnologiyasida tashkil qiluvchi modullar, ya'ni bloklar.

**Modul o'quv dasturi** - yaxlitlik, nisbatan mustaqillik va mazmunining mantiqiy tugallanganligi, tuzilmaning moslashuvchanligi, ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash tezligi xususiyatlariga egadir.

### **Modulli ta'lim shakllari an'anaviy ta'lim shakllaridan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:**

• an'anaviy ta'limda o'qituvchi talabaning bilim va ko'nikmalarini baholasa, modulli ta'limda qo'yilgan maqsadga qarab talaba o'zini-o'zi baholashi mumkin;

• an'anaviy ta'limda talaba yakuniy nazoratda baholansa, modulli ta'limda baholash vaqtini talabaning o'zi tanlaydi; an'anaviy ta'limda o'qitishning ma'lum mazmuni o'qitish dasturi orqali belgilansa, modulli ta'limda esa talaba o'qituvchi yordamida modullar to'plamini tanlaydi.

Ta'limning modul tizimi va kasbiy ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalari o'qituvchi mehnatining mazmunini o'zgartiradi. O'qituvchi modulli o'qitishda o'qitish jarayonini bevosita amalga oshirish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish, talabalar bilimini nazorat qilish uchun sharoit yaratish, ta'lim jarayonini yaxshilashni amalga oshirish sohasiga o'zgartirishlar kiritish vazifalarini bajaradi.

### **3. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish**

Har qanday tadqiqotni amalga oshirishda muallif tomonidan o'z izlanishlarining metodologik asosi sifatida tanlab oladigan g'oyalar, holatlar, nazariy yondashuvlar

ushbu ishning eng muhim belgilaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu haqqoniy yondashuv bo'lib, uning asosida o'rganiladigan hodisa mohiyati talqin qilinadigan nazariy g'oya aks ettiriladi, obyekt to'g'risidagi tasavvurlar modellashtiriladi, uni samarali rivojlantirishning mexanizmlari, vosita va sharoitlari izlab topiladi.

Bunda, pedagogikaning ijtimoiy fan sifatidagi xususiyatidan kelib chiqib, u yoki bu g'oyani ifoda etishda unga asos bo'lgan talqin muallif nomidan qayd etib o'tish lozim. Zero, har qanday muammoning nazariy zaxirasini bu borada to'plangan barcha fikrlar emas, balki faqatgina tadqiqotchini ilhomlantiruvchi g'oyalargina tashkil qiladi. Biz mazkur tadqiqot ishimizda "tizim" tushunchasini ochib berishiliga harakat qildik.

**Tizim** - tartibli ravishda joylashgan va o'zaro bog'liqlikda bo'lgan qismlar birligini ifodalovchi yaxlitlikdir. Tizim bu muayyan taxlitda tartibga keltirilgan elementlar to'plamini bo'lib, ular o'zaro bog'liq holatda, muayyan yaxlitni hosil qiladi. Tizim haqida gapirilganda "tizim" hamda "muhit" tushunchalarining o'zaro nisbatini qarab chiqish lozim.

Muhit barcha tizimlarning mujassamlashuvi - metasistemani ifodalaydi. U tadqiq qilinayotgan, ajratib olingan va ayni vaqtda atrofimizni o'rab turgan olamning qiziq borayotgan qismidan tashqarida u oladi. Bundan xulosa chiqarish mumkinki: tizim - bu qandaydir yo'l bilan muhitdan ajratib olingan obyektlar to'plamidir.

Muhit va tizim o'rtasida cheksiz ko'p o'zaro aloqalar mavjud bo'lib, ular vositasida muhit va tizimning o'zaro ta'sirlashuvi amalga oshadi. Biroq, pedagog olimlarning ayrimlari tizim va muhit o'rtasidagi chegaralanishni belgilashda nima asosda ish ko'rganliklarini aniq ifoda etmaydilar.

Tizim va tashqi muhit o'rtasidagi ko'plab cheksiz o'zaro aloqalarni berilgan vaziyatdagi ahamiyatiga ko'ra bitta kiruvchi va bitta chiquvchi aloqa sifatida tasavvur qilamiz. Tizim va muhit o'rtasidagi kiruvchi va chiquvchi aloqa davomida ta'lim oluvchi resurs sifatida muayyan pedagogik tizimga kirib, tizimning yakuniy mahsuli, mutaxassis sifatida shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy muhitda faoliyat ko'rsatish uchun safarbar etiladi.

Tizim va tashqi muhit o'rtasidagi aloqadodikni o'rganish ko'rsatdiki. muhit bizga resurslarni yetkazib beradi, tizimdan esa faoliyatning yakuniy natijasini qabul qilib oladi va iste'mol qiladi. Shunisi e'tiborliki, tizimning faoliyat natijalari prinsipial jihatdan muhitda yaratila olmaydi. (aks holda tizimni muhitdan ajratishga ehtiyoj qolmaydi). Tizim muhitga o'z ehtiyojlarini qondirish manbai sifatida kerak bo'ladi.

Pedagogik **tizimni** tizimiy tahlil qilish ikki kategoriyada amalga oshiriladi: subyektlar (ular o'zaro ta'sirlashib, tizimning mavjudligiga asos bo'luvchi maqsadga erishish uchun xizmat qiladi) va obyektlar (ular bilan ta'sirlashuv natijasida subyektlar shaxsiy funksiyalarini amalga oshiradi).

Bunda ta'lim oluvchilar pedagogik tizimning subyektlari, ta'lim mazmuni esa uning obyektlari bo'lib hisoblanadi. Ta'lim mazmuni subyekt ongi yordamida o'zlashtiriladi va o'zgartiriladi, shaxs tomonidan o'quv faoliyati jarayonida dunyoqarashga, qadriyatlar va mohiyatlar, e'tiqodlar, tasavvurlar, bilim va ko'nikmalar tizimiga aylantiriladi. Yuqorida ko'rsatilgan tizimning shakllanish bosqichlarining muammoli vaziyatda qo'llanilishi tizimning maqsadi, mehnat faoliyat, mehnat funksiyalari va tuzilmasini aniqlash tashqi muhit tomonidan chegaralangan sharoitda faoliyat ko'rsatuvchi real tizimlarning etaloni bo'lib xizmat qila oladigan tashkiliy-metodik tizimni yaratish imkonini beradi.

Tizimiy yondashuvning sanab o'tilgan bosqichlari tizimli obyektlarning asosiy tavsifnomalarini o'zida aks ettiradi, bu esa uning ta'rifini quyidagicha ifodalash imkonini beradi: **tizim** - bu maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatuvchi tuzilma bo'lib, u muayyan tashqi muhitda muammoli vaziyat hal etish imkoniga ega bo'ladi. **Tizim** bu - ma'lum bir tashqi shart-sharoitda muammoli vaziyatlarni yechish maqsadiga qaratilgan mehnat faoliyati, funksiyasi va tuzilmasi.

Maqsadga erishish uchun zaruriy va atroflicha ahamiyatga ega munosabatlari majmui anglatuvchi umumiy rasmiy tuzilma sifatida nomlab oladi. Oliy ta'lim muassasasida kasbiy pedagogik tayyorgariik tizimining forma tuzilmasi o'qituvchilar, ta'lim vositalari, talabalar hamda o'qitish texnologiyalari majmuasidan iborat bo'iadi.

Qarab chiqilayotgan tizimlar bir xil maqsadga ega degan farazga asoslansak, bu ma'noda formal tuzilma tizim maqsadidan ko'rib chiqib belgilanishi to'g'risidagi xulosaga kelamiz. Misol uchun, oliy ta'lim muassasasida o'qituvchini kasbiy pedagogik tayyorlashning formal tuzilmasi quyidagilarni qamrab oladi: o'qituvchilar (professor, dotsent, assistent va boshqalar); ta'lim vositalari (darsliklar, elektron vositalar, o'quv va metodik qo'llanmalar, laboratoriya jihozlari va hokazolar); o'qitish texnologiyasi (o'qitish metodlari, ta'limning tashkiliy shakllari va boshqalar).

Tizimli yondashuvning asosiy (ushunchalari va boshlang'ich asoslarini o'rganishimiz natijasida real borliqning muhim belgilaridan biri undagi obyektlarining o'zaro ta'sirlashuvi natijasida ta'sirlashuvning boshlang'ich davridagi obyektlarga xos bo'lmagan yangi sifatlar yuzaga kelishi to'g'risidagi tasavvur hosil bo'ldi. U sifat jihatidan yangi mahsul - yaxlitlikning va tizimning vujudga kelishidir. Yaxlit tizimning sifati uni tashkil qiluvchi sifatlarning yig'indisidan iborat bo'lmaydi.

#### **Yaxlit tizimning asosiy belgilarini aniqlab olamiz:**

1. Yaxlit tizimning asosiy belgisi aynan tizimiy integral va uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarning jamoaviy sifati (yoki sifatlari)ning mavjudligidir.

2. Yaxlit tizimning ajralmas alomati uning tarkibiy qismlari, zero, tizim ularda tarkib topadi hamda usiz mavjud bo'la olmaydi. Biroq tarkibiy qismlar tasodifiy obyektlarining yig'masi emas. Ular tizim bilan integratsiyalashgan, aynan ushbu tizimning tarkibi hisoblanadi. Tizimning maqsadga muvofiq faoliyat

ko'rsatishini ta'minlash borasida uni tadqiq qilish, loyihalash, tarkibiy qismlarini aniqlashga tizimli-tuzilmaviy yondashuv deb ataladi. Tizimli-tuzilmaviy (amaliy, asosli) yondashuv obyektning tuzilish xususiyatlarini yaxlit tarkibiy qismlarga berilgan vaqt oralig'i bo'yicha bo'laklangan holatda qarab chiqishni ko'zda tutadi.

**3.** Yaxlit tizim - maqsadli tizim, u muayyan maqsadni amalga oshirishga intiladi. Maqsad tizimda uni hosil qiluvchi muhim omillardan biri sifatida yuzaga keladi. Biroq, maqsad unga erishish uchun muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Tizimning muhitda maqsadga erishish uchun amalga oshiradigan harakatlari aynan uning faoliyat va funksiyalarini tashkil qiladi. Faoliyat va funksiyalar maqsadga nisbatan unga erishish usuli sifatida yuzaga chiqadi. Tizimning maqsadga erishish uchun muhitdagi o'zini tutishi nuqtai nazaridan tadqiq qilish va loyihalashga tizimli-funksional yondashuv deyiladi.

**4.** Har qanday tizim o'zgarmas, barcha davrlar uchun bir xil bo'lib qolmaydi. U absolyut, abadiy emas, chunki qarama-qarshiliklar mavjudligi unga ham xosdir. Har bir tizim nafaqat faoliyat ko'rsatadi, balki, shu bilan birga rivojlanadi; u o'z ibtidosiga ega, u yaralish davrini o'taydi, tarkib topadi va rivojlanadi. Tizimlar nazariyasida tizimning yashash vaqti uning asosiy tavsifiy belgilaridan biri hisoblanadi.

**5.** Tizimni uning vaqt bo'yicha rivojlanishi nuqtai nazaridan tadqiq qilish va loyihalash tizimli yondashuv deb ataladi.

**6.** Har bir tizim o'z navbatida yuzidan yuqori darajada turuvchi metatizimning tarkibiy qismi sanaladi, shu kabi u o'zidan quyi darajada turuvchi tarkibiy qismlardan iborat. Boshqacha qilib aytganda, hech bir tizim boshqalaridan izolyatsiyalanmagan, balki ko'plab aloqalar bilan boshqa turli tizimiy va notizimiy uyushmalar bilan ta'sirlashib turadi. Tizim o'ziga nisbatan tashqi bo'lgan muhitda harakatda bo'ladi, rivojlanadi, u bilan ko'plab kommunikatsiyalar orqali bog'lanadi. Tizimni unga nisbatan mavjud bo'lgan boshqa tizimiy va notizimiy uyushmalar nuqtai nazaridan o'rganishga tizimli-kommunikativ yondashish deb ataladi.

**7.** Tizimga doimiy ravishda o'zida uning turg'unligini buzishga qaratilgan ta'sirlar ko'rsatib turiladi. Ushbu ta'sir avvalo har qanday tizimning ichida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar oqibatida yuzaga keiadi. Shu bilan birga resurslar yetishmasligi, qattiq cheklashlar kabi tashqi salbiy ta'sirlar ham mavjud. Bunga qaramasdan tizim yashaydi va rivojlanib bo'ladi. Demak, tashkil etuvchi qismi arang o'ziga xos yig'masi, ichki tuzilma va boshqalar bilan birga boshqa tizim hosil qiluvchi, tizimni himoyalovchi omillar ham mavjud. Tizimning yashovchanligini ta'minlovchi ushbu omillarga boshqaruv deyiladi,

Tizimli yondashuv asosida pedagogik fanlari bo'yicha kompetensiyali yondashuv asosida o'qitish jarayonida ta'limning barcha metodlari, vositalarini qo'llash natijasida talabalarda quyidagi kompetentliklarni shakllanishiga yordam



beradi.

Yuqorida keltirilgan jadvaldan shunday fikr yuritish mumkin, ya'ni kompetensiyali yondashuvda asosida talaba quyidagi pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutiladi:

- Ta'lim jarayonini rejalashtira olish va tashkil eta olish (ishlab chiqish, o'tkazish va baholash);

- Umumnazariy va kasbiy bilimlarga ega bo'lish hamda ulardan ta'lim jarayonini tashkil etishda tanqidiy yondashgan holda foydalana bilish;

- Ta'lim mazmuniga ko'ra ta'lim berish va o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshira olishga qodirlik;

**Fasilitator** aloqalarga tayangan holda ta'lim jarayonlarini loyihalash va amalga oshira olishi;

- Ta'lim oluvchilarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda differensiyalashtirilgan yondashuvni bilish va amalda qo'llay olish;

- O'qitish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshira olish hamda ularni aniq mezonlar asosida baholay olish;

- Ta'lim dasturlari va loyihalarini loyihalashtirish, boshqarish, amalga oshirish va baholay olishga qodirlik;

- Fanning mazmuniga mos ravishda didaktik materiallarni tanlash, takomillashtirish va qo'llay olish;

- O'qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni baholay olish va ta'limning ijobiy muhitini yarata bilish;

- Ta'lim oluvchilarda mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikriash qobiliyatlarini rivojlantira bilish;

- Ta'limning turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning uzviy ravishda rivojlanishlariga yordam bera olish;

- O'ziga xos ehtiyojlarga ega bo'lgan odamlarga ta'lim berishda integratsiyalangan yondashuvni ishlab chiqish va tadbiq eta olish;

- Ta'lim berish va o'rgatishning axborot va kommunikativ texnologiyalarini tanlash, qo'llash va baholashni bilish;

- Ta'lim oluvchilarni umumbashariy va milliy qadriyatlar ruhida, fuqarolik va demokratiya tamoyillari asosida tarbiyalay olish;

- Ta'lim sohasida tadqiqotlar o'tkaza olish va ularning natijalarini amaliyotiga tatbiq eta bilish;

- Ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsiyalarni yarata bilish va foydalana olish;

- Ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'z xatti-harakatlarini va ruhiy holatini tahlil qila bilish;

Tanqidiy ravishda tahlil qila bilish, ta'lim vositasida jamiyatni rivojlantirish jarayonlarini tushunish va ko'maklashish:

- Ijtimoiy-madaniy xilma-xillikni e'tiborga olgan holda ta'lim strategik **muhit** yaratish va tatbiq etishga qodirlik;

- Ta'lim oluvchining shaxsiy va kasbiy jihatlardan rivojlanishini bashorat qila bilish va ko'maklashish;

- Turli muassasalar va jamiyatlar a'zolari bilan ijtimoiy hamkorlik qilish orqali ta'lim jarayonlarini rivojlantirishda ishtirok etishga tayyorlik.

Bu shakllardan ko'rinib turibdiki, o'quv rejada ko'rsatilgan pedagogik-psixologik fanlardan "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanida mavzular modullarga ajratilib talabalarga bilimlar beriladi. Mazkur shakldagi «O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi. Pedagogik takt va pedagogik etika» mavzusi bo'yicha talabalarga nazariy materiallar beriladi, seminar mashg'ulotlarini bajarishlari uchun uslubiy maslahatlar beriladi. Talabalar o'z ustilarida muntazam ishlab, berilgan seminar mavzusi topshiriqlarini turli axborot vositalaridan foydalanib bajarish hamda ularni amaliy faoliyatda qo'llay olishlari darajasiga yetishgan, ya'ni pedagogik kompetentliklar shakllanishi kerak.

Mazkur modulda "O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi hamda pedagogik takt va pedagogik etika" mavzusini yoritishda o'qituvchi faoliyatida muomala madaniyatining o'ziga xos turlari, muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi, pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari, pedagogik etikaning mohiyati va xususiyatlari hamda o'qituvchi etikasida dilkashlik va pedagogik takt bo'yicha bilimlar beradi. Bu bilimlar amaliy va seminar mashg'ulotlari jarayonida mustahkamlanib boriladi. Mavzu yakunida talabaning bilimi testlar yoki boshqa topshiriqlar orqali tekshiriladi. Har bir modul bo'yicha mavzular shu tarzda talabalarga yetkazilib, ularda shu fan bo'yicha bilim va ko'nikmalari shakllantirib, bo'lajak o'qituvchi xislatlari tarbiyalanadi, pedagogik kompetentligi shakllantirib boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq". 2020 Y, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent; "Sharq", 1997, 31-61 betlar,
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
4. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.56 B.
5. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.488 B.
6. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.488 B.
7. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –"O'zbekiston" -2017.104 B. .2009.-176 b.
8. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O'qituvchi, 2000.
9. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. //Saylanma. - T.: O'qituvchi, 1997. - 118 b.
10. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomli TDPU, 2005,- 149 b.
11. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'hanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). - T.: "O'qituvchi", 1991. - 376 b.
12. Bozorov A.B universitet o'qituvchilari uchun kasbiy etika qoidalari kerakmi?
13. Ochilov M. Muallim qalb memori "O'qituvchi" 2001 yil.
14. www.pedagog.uz

## V MAVZU: O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH TIZIMI.

### Reja:

1. “Kompetentlik” tushunchasining mohiyati.
2. Pedagogik kasbiy kompetentlik turlari.
3. Pedagoglarda kasbiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirish.
4. Kasbiy kompetentsiya va uning shakllanish bosqichlari.
5. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tizimi – pedagogik mahorat orqali namoyon bo'lishi.
6. Kasbiy tayyorgarlik modelini shakllantirish.

**Tayanch tushunchalar:** *kompetentlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik kasbiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirish, shaxsiy kompetensiya; maxsus va didaktik kompetensiya; kommunikativ kompetensiya; informatsion kompetensiya; muammolarni hal eta olish; rivojlantiruvchi muhitni yaratish.*

Respublikamizda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi qonunda belgilab berilgan vazifalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilayotganligi natijasida zamonaviy ta’lim tizimiga muvaffaqiyat bilan joriy etilayotganligi zamon talablariga mos har tomonlama rivojlangan yuksak ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashni ta’minlaydi. Ana shunday zamonaviy talablarni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish zamonaviy o’qituvchining kompetentlik darajasiga chambarchas bog’liqdir. Shu nuqtai nazardan pedagogika ta’lim to’g’risidagi fan inson hayotiy tajribalarini boyitish orqali rivojlantirishdir.

**O’qituvchi kompetensiyasi** – uning nazariy va amaliy bilim, ko’nikma va malakasi, dunyoqarashi, e’tiqodi va barcha shaxsiy individual ijtimoiy psixologik sifatlarining namoyon bo’lishidir. Ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri, bu – o’qituvchining o’z fani bo’yicha kompetensiyaga ega bo’lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo’ladi. Bular:

- ilmiy bilish;
- gnoseologik bilish;
- pedagogik faoliyatni epatchilik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish;
- har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy kreativ yondashish;
- ta’limiy, tarbiyaviy ta’sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish;

•o'zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini, o'rganish va ichki psixologik zaxirasidan samarali foydalanish orqali o'zini muttasil rivojlantirish, jamiyat va insonlarga, tabiatga borliqqa ijobiy emotsional munosabatda bo'lish ijobiy pozitiv fikrlashga o'tish tajribasidan iborat.

Avvalo kompetentsiya, kompetensiyaviy yondashuv nimaligini bilib olsak.

**Kompetensiya** - olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasi.

**“Kompetensiya”** lotincha so'zdan olingan bo'lib, “o'z kasbiga yaroqli, loyiq” degan ma'noni bildiradi.

**O'qituvchi kompetensiyasi** – uning bilim, ko'nikma va malakasi, dunyoqarashi va shahsiy sifatlarining namoyon bo'lishidir.

**Kompetentlik** - olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasi.

O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim modelining markazida o'quvchi turadi. Har bir qadam, har bir maqsad o'quvchining ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanadi. Kommunikatsiya vositalari inqilobi, axborotning toshqindek ortib borishi va dunyodagi o'zgarishlar bizning **yashash, tafakkur qilish va muloqot tarzini** o'zgartiradi. Demak, zamonaviy ta'lim oldida yoshlarni umuman yangi shart – sharoitlarda yashashga o'rgatish vazifasi turibdi. E'tibor bergan bo'lsangiz, ko'pchilik olim va pedagog – novatorlar an'naviy o'qitish shakl va usullari hayotni zamonaviy talablariga mos kelmasligini anglab yetgan holda **XX asrning ikkinchi yarmida** muqobil usullarni izlanishni boshlashdi va natijada **interfaol o'qitish yondashuvi yuzaga keldi.**

Hozirgi zamon pedagogika fani va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassisliklarga, fan va uslublarga, o'qitish metod va usullari, texnologiyalariga juda ko'p e'tibor qaratilganligi seziladi. Ammo ana shu pedagogik usul va metodiami tushunish, ulami amaliy faoliyatda qo'llash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ta'kidlash mumkin.

Pedagogika fani ham boshqa gumanitar va tabiiy fanlar qatori bu muammolardan holi emas. Muammo bu sohadagi pedagogik nazariy bilimlami amaliy faoliyatga tatbiq etishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchilarda amaliyot va kasbiy faoliyat jarayonida nazariy bilimlami amaliyotda qo'llay olish mahoratining yetishmasligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Demak, ko'plab o'qituvchiiar, pedagoglar eskirib qolgan nazariy bilimlar bilimlar bilan cheklanib qolmoqda. Ularda zamonga xos tub o'zgarishlarga mos kelish, munosib bo'lish

kabi sifatlar etishmaydi. Xuddi shu sifat **kompetensiya** - kompetensiya egasi bo'lish, kompetentli pedagog nomini olish masalasi hisoblanadi.

Kompetentlikning o'zi pedagogda umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqoriligi, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi va ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari bo'yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o'z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga layoqatlilik, ijtimoiy va psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko'nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo'lishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik kasbiy bilim va ko'nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo'llash va takomillashtirishga layoqatlilik bilan belgilanadi, ya'ni **kompetentlik** - bu faqatgina o'zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi va salmoqli hajmi bo'libgina qolmay, balki, ularni kerak vaqtda **ishga sola bilish va o'zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ulardan foydalana olish demakdir.**

#### **Kompetentlik quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:**

- har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o'z o'rnida va tezkorlik bilan to'g'ri qo'llay bilish;
- qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish;
- ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish;
- faoliyat doirasida boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko'zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o'rnatish olish imkonini beradigan kommunikativ ko'nikmalar;
- muayyan ma'naviy qadriyatlarga, dunyoqarashga, umummadaniy va axloqiy sifatlarga egalik, faoliyatga intilish hissining mavjudligi;
- o'zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga, faoliyatning yangi usullarini egallashga intilish.

#### **Pedagogika kasbi boshqaruvchi va shakllantiruvchi xususiyatga ega.**

Shaxs shakllanishini boshqarish kompetentlikni talab qiladi. Bu o'zida o'qituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligini jamlagan holda uning kasbiy mahoratini namoyish qiladi. U yoki bu kasb yo'nalishi bo'yicha o'qituvchining malakaviy tasnifi pedagog kompetensiyasi modeli me'yorlari bilan o'lchanadi. Talabning o'zlashtirishiga baho berishdan maqsad, berilgan ta'limning qanchalar samarador bo'lganligi darajasini aniqlash, bu **birinchidan**, maktabda olgan nazariy bilimlari darajasini bilish, **ikkinchidan** undagi kompetensiya shakllanishi, amaliyot paytidagi muvaffaqiyatli faoliyati yanada tezlashadi".

Pedagog o'z ixtisosligi bo'yicha ta'lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas'uldir. U muntazam ravishda o'z kasbiy tayyorgarligini

takomillashtirib borishi bilan birgalikda o'qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo'lishi, aniqrog'i, kasbiy kompetentlik egasi bo'lishi lozim. Endilikda o'qituvchi uchun o'zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta'lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o'z faoliyatida qo'llay olishi, bir so'z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo'lishi lozim.

Buning uchun oliy ta'lim tizimida ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlarida belgilangan tartib qoidalar, vazifalar va talablarni o'z vaqtida bajarish lozim.

DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni, ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini, o'quv yuklamasining zarur hajmini, ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydi. DTS ta'lim jarayonini va ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

**Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:**

- ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

- mamlakatning ijtimoiy va ijtimoiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirishning vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi.

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to'la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o'zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi

shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim Davlat ta'lim standartlarining kasb ta'limi o'qituvchilariga qo'yiladigan yangi, yanada yuqori talablari bilan bir qatorda kasb ta'limi bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, mexanizmi, metodlari hamda texnologiyalarini ishlab chiqishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, kasb ta'limi o'qituvchisi kasbiy kompetentligini shakllanishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda kasbiy kompetentligini shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni asoslashda shu yo'nalish uchun ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlariga alohida e'tiborni qaratish lozim. Davlat ta'lim standarti Ta'lim mazmunining rivojlanishida ko'zga tashlanayotgan zamonaviy an'analaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosida o'rnatilgan yagona qoida va talablarga mos kelish) hisoblanadi.

### **Standartlashtirishda ikki omil muhim ahamiyatga ega, ya'ni:**

1) turli ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar bilimlar hajmining bir xillik darajasini ta'minlovchi mamlakatda yagona pedagogik muhitni yaratish zarurligi;

2) O'zbekistonning jahon hamjamiyati tizimiga kirishi natijasida xalqaro ta'lim amaliyotida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni rivojlanish an'analarining hisobga olinishi. Davlat ta'lim standartlari oliy ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan me'yoriy hujjat hisoblanadi. DTSda ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, ta'lim oluvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, o'quv fani bo'yicha yakuniy ta'limning yakuniy natijalari hamda ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo'lgan ta'lim darajasi belgilab beriladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib quyidagi faoliyat turlari haqida so'z yuritamiz:

*kasbiy faoliyat turi* - ta'lim yo'nalishiga o'zgartishlar kiritish maqsadida kasbiy faoliyat obyektiga ta'sir qilish tavsifi metodlari va usullari;

*kompetentlik* - shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati;

*kompetensiya* — bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

*modul* - ta'lim va tarbiyaning muayyan maqsadi va natijasiga erishish bo'yicha o'zaro bog'langan hamda mantiqiy **tugallikka** ega bo'lgan o'quv fanlari va ularning tarkibiy qismlari;



*yo'nalish*- asosiy ta'lim dasturining kasbiy faoliyatning muayyan turi va yoki obyektiga yo'nalganligi;

*ta'lim dasturi* - muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligida majburiy va tanlab o'qitiladigan fanlar tizimi, o'tkaziladigan amaliyot turlari va ularning mazmuni;

*ta'lim yo'nalishi* - muayyan kasbiy faoliyat doirasidagi turli darajadagi ta'lim dasturlarining majmui;

*ta'lim natijalari* - o'zlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan kompetensiyalar.

*Umumkasbiy kompetensiyalar bo'yicha:* nazariyani amaliyotga tatbiq eta olishi, metod va texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq eta olishi, ilmiy-metodik ishlarni amalga oshira olishi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni bajara olishi, o'quv jarayonini tashkil eta olishi va boshqara olishi, doimo kasbiy mahoratini oshirib bora olishidir.

**Shuningdek, O'MKHT tizimida pedagogik faoliyatini olib borishda:**

- **O'MKHT** tizimining mos ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish va tuzish hamda mashg'ulotlarni o'tkazishi uchun o'qitishning texnik vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirish borish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Mazkur standartda psixologiya va pedagogika kurslari uchun ma'lum bir soat ajratilgan bo'lib, unda kasbiy psixologiya, kasbiy pedagogika, ta'limda axborot texnologiyalari va ta'lim texnologiyalari kabi fanlar o'qitiladi. Bu fanlarning o'qitilishi hamda egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay ishlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligini shakllantirishga yordam beradi.

**Pedagogik-psixologik kurslar bo'yicha bilim olish jarayonida bakalavr:**

-psixologiyaning maqsadi, vazifalari va metodlari;

-psixologiyada shaxs muammosi;

-shaxs faoliyati;

-shaxsni aqliy rivojlanishi;

- ta'lim oluvchiga yakka yondashish;
- ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish;
- ta'lim tizimida pedagogikaning o'rni va roli;
- pedagogika va ta'lim nazariyasida ilmiy tadqiqot metodlari;
- o'quvchi shaxsini tarbiyasi va rivojlanishi;
- ta'lim-tarbiyaning qonunlari va tamoyillari;
- ta'limning tashkil etish shakllari va metodlari;
- O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'limni rivojlanish tarixi;
- "Ta'lim to'g'risida"gi qonun;
- Uzluksiz ta'limning maqsadi, mazmuni, tuzilishi;
- O'rta maxsus kasb-hunar ta'limini tashkil etish va boshqarish to'g'risidagi asosiy normativ hujjatlar;
- O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi mazmuni;
- kasb-hunar kollejlari boshqarish;
- pedagogik mahorat va pedagogik bilimdonlik tushunchasi;
- pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi, kasbiy bilimlar, pedagogik qobiliyatlar;
- pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari;
- muloqat madaniyati va o'qituvchi faoliyatining psixologiyasi;
- o'quv-tarbiyaviy ish jarayonida o'qituvchilarning pedagogik muloqat mahoratini tahlil qila olish va uni amalga oshirish yo'llarini bilishi;
- pedagogik texnologiya:
- zamonaviy pedagogik texnologiyaning afzalliklari, ularning qo'llanish va tavsifi;
- o'quv jarayonining asosiy komponentlari va bosqichlari haqida;
- o'quv jarayonini takomillashtirish;
- pedagogik texnologiyani didaktik loyihalashtirish;
- ta'limda axborot texnologiyalari;
- axborot texnologiyalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonga integratsiyasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- shaxs psixologiyasini;
- shaxs faoliyatini;
- yosh davrlarda psixikaning rivojlanish davrini;
- aqliy rivojlanishning o'sish yo'llarini;
- tarbiya metodlari va tamoyillarini;
- O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik fikrlarini;
- ta'limning uzluksizligi va uzviyligi;
- O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida kasbiy ta'limning maqsadi va vazifalarini;
- O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida kasblar va mutaxassisliklarning sinflanishini,

- O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablarni;
- umumiy kasb-hunar ta'limi mohiyati va tavsifini;
- muloqat madaniyati va o'qituvchi faoliyatining psixologiyasini;
- kasbiy-pedagogik muloqat texnologiyasini;
- o'qituvchi shaxsini shakllanish jarayonini;
- pedagogik faoliyatning o'ziga xosligini;
- yangi bilim, ko'nikma va malakalami shakllantirish usullarini;
- pedagogik loyihalarni amalga oshirishda shakl va metodlarni maqbullashtirishni;
- pedagogik texnologiyalar va ularni o'quv jarayoniga tadbiq etishni,
- o'qituvchining o'quv rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqishlarni;
- O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishni bilishi, malaka hosil qilishi va ulardan foydalana olishi;
- o'quvchilarda psixologik tashxis qo'yish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy sifatlarini aniqlash;
- kasb bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- ta'lim tarbiya jarayonini boshqarish;
- o'quvchilarda pedagogik tashxis o'tkazish;
- ta'lim tarbiyaning keng tarqalgan metodlari;
- tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash;
- o'quvchilarni faoliyatini faollashtirish;
- kichik mutaxassislarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish qonuniyatlari;
- pedagogik texnika va uni shakllantirish usullarini qo'llay olish;
- pedagogik tajribani tahlil qila olish va uni amalga oshirish;
- pedagogik vaziyatlarni va pedagogik masalalarni hal qilish texnologiyasini qo'llash;
- tarbiya faoliyati texnologiyasini amalda qo'llay olish ;
- o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash;
- o'qitishning faol metodlaridan foydalana olish;
- o'quvchilarni baholash va nazorat qilish mazmunni to'liq tushinib qo'llay olish;
- ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalana olish;
- elektron o'qitish vositalari va ularni darsda qo'llay olish;
- ta'lim samaradorligini oshirish shakl va metodlarini ajrata olish;
- ta'lim mezonini tanlash mezonlari;
- zamonaviy o'qitish vositalari va faol o'qitish metodlarini qo'llash bilan umumkasbiy fanlarni pedagogik texnologiyasini loyihalash bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Bakalavrni DTS talablari asosida yetarlicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligini aniqlash va kelgusida har qanday ta'lim muassasasida erkin hamda

mustaqil faoliyat olib borishda qiyinchiliklarga duch keimaslikni oidini olish maqsadida bo'lajak o'quvchining funksional vazifalarni aniq qo'yilishi talab etiladi. Psixologik-pedagogik va ixtisoslik fanlari bo'yicha bilimlar kasbiy kompetensiya egasi bo'lish uchun yetarli emas, bu bilimlarning ko'pchiligi, xususan, nazariy, amaliy va metodologik bilimlar o'qituvchining intellektual amaliy ko'nikma, malaka va mahoratini oshishiga sabab bo'ladi. Pedagogik ko'nikma, malaka va mahoratni keng qamrovli uzluksiz faoliyat bo'lib, shaxs kamoloti uchun xizmat qiladi. Bu tushuncha nazariy bilimlarning bo'lg'usi o'qituvchilar amaliy tayyorgarligidagi ahamiyatini va kasbiy sifatlarini hamda pedagogik qobiliyatini yanada oshiradi.

**Bilimlarni egallashning dinamik xarakteri o'qituvchining kasbiy-pedagogik shaxsiy sifatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- Ta'lim oluvchilarga xushmuomala va qiziquvchan munosabatda bo'lish;
- O'z jamoasi a'zolari va o'qituvchilarning tanqidlariga tayyor bo'lishlik, o'z faoliyatiga o'zgarishlar kiritish olish;
- ijtimoiy voqelik va atrof-muhitga nisbatan shaxsiy qarashlariga ega bo'lish va ularni ta'lim oluvchilar bilan muhokama qilish o'rtoqlashish;
- Tanqid va refleksiya (o'z -o'zini nazorat va tahlil qilish)ga nisbatan yuqori layoqatda bo'lish;
- Nasihatgo'ylik va manmanlikdan o'zini saqlay olish;
- Muhokama qilinayotgan har qanday ra'yaning va qarashlarga to'g'ri munosabatda bo'lish;
- O'z sha'niga aytilayotgan tanqidlarga samimiy munosabatda bo'lishlik;
- Shaxsiy yondashuv va o'z ta'lim yo'nalishiga ega bo'lish va beparvo bo'lmaslik;
- O'z fikr va qarashlarini ta'lim oluvchilar bilan o'rtoqlashish;
- Ifodali so'zlash, ravon, so'z boyligiga ega bo'lish;

Shuningdek, tahlil qilib chiqilgan ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kasbiy sifatlarini shakllanganligining **asosiy** motivatsion xislatlar, intellektual **salohiyat**, irodaviy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, hissiy sifatlar hamda o'z -o'zini boshqara olish sifatleri tashkil etadi. Kasbiy faoliyatida pedagogik vazifalarni hal etilishi avvalombor, tarbiya subyektiining individual sifatlariga tayanadi. Ushbu sifatlar o'zining rivojlangan ko'rinishida insonning to'la shakllanganligini, individualligini, har tomonlama barkamolligini tavsiflaydi. Ularning rivojlanganlik darajasi shaxsning ijtimoiy faolligi, hayot tarzi, baxti va jamiyatda o'zini qay tarzda tutishini belgilab beradi, pedagogning esa kasbiy kompetentligini shakllinishida o'z aksini topadi. Quyida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllanishida yetakchi o'rin tutuvchi asosiy sifatlarining mohiyati haqida to'xtalib o'tiladi; Motivatsion xislatlar insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagan kasbiga bo'lgan ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi. Motivatsion xislatlarning salmoqli qismini rag'batlantiruvchi g'oyalar tashkil etadi. U

inson hayotining muayyan bosqichida shakllanadi va yashaydigan joy bilan bog'liq bo'ladi (maktab o'quvchisi, talaba, o'qituvchi faoliyati rag'bat). Ta'lim olish motivatsiyasi insonni bilim olish va unga ongli yondashish, bilish usullarini egallash, faol bo'lishga undovchi maqsadlar tizimi, ehtiyojlar va motivlarni qamrab oladi.

### **Ko'pchilik holatlarda motivatsiya o'qituvchilar tomonidan yaxlit tizim**

emas, balki **elementlar** ketma-ketligi sifatida qabul **qilinadi**. **Shunday holatlarda alohida motivatsiyalar, qiziqishlar yuzaga chiqadi va albatta** quyidagi **maqsadlar** qo'yiladi: o'z **faniga** va **tanlagan kasbiga** qiziqishning shakllanishi, yangi **mazmun va texnika-texnologiyani** o'rganishga mas'uliyatli yondashuvni **tarbiyalash**.

Demak, motivatsion his-tuyg'u - o'quv **hamda kasbiy harakatlarni** eski **qarashlardan holi** bo'lgan holda amalga **oshirishga** intilish, ijodiy qiyinchiliklarga tayyor bo'lish hamda bu boradagi yutuqlarga, ijodiy **jarayonlarga** intilish, **topilgan yechimlardan qoniqish hosil qilish**. Bunda **yetakchi motivator** - o'zining yangi **yechimlarini topishga qiziqish**, ijodiy **faoliyatini** tashkil etishga **intilishdir**. Masalan, Kasb ta'limi (Xizmatlar sohasi va Libos dizayni) **ta'lim** yo'nalishlarda **ixtisoslik fanlariga** doir Tikuvchilik **buyumlarini** loyihalash va **modellastirish asoslari** fanida o'qituvchi bakalavrlarga **buyumlarni loyihalashning** yangicha uslublaridan **foydalanish** bilan bir qatorda, **electron** adabiyotlar, **shuningdek**, internet tizimidan **oqilona foydalanishga** oid **bilimlar** beriladi, ya'ni talabalarda ijodkorlik hamda yangilikka intilish motivlari shakllantiradi.

### **Intellectual salohiyat quyidagilar bilan tavsiflanadi:**

- fikrlash turlari (ijodiy, nazariy va amaliy bilish kabilar);  
fikrlash **metodi** (**obrazli** va **ko'rgazmali fikrlash**, **fikrning** asoslanganligi);
- intellektual sifatlar (zehnlilik, moslashuvchanlik, tanqidiy fikrlash, aqliy (fikriy) harakat qila olish va hokazolar);
- bilish jarayonlari (**diqqat**, **tasavvur**, xotira, idrok), **fikrlash jarayonidan** (tahlil, **sintez**, **tizimlashtirish**, **rasmiylashtirish**, **aniqlashtirish**, talqin qilish va boshqalar), bilish **ko'nikmalari** (**masalani** qo'ya olish, uni tahlil **qilib** muammoni shakllantirish, **farazni olg'a** surish, **uni asoslash**, xulosalar chiqarish, bilimlarni qo'llay **olish** va hokazolar);
- **bilimlarni o'zlashtirish** ko'nikmalari (asosiy **bilimni** ajratib **olish**, **rejalashtirish**, **maqsadni belgilash**, bir maromda **o'qish** va yoza olish, asosiy **o'rinlarni** **qayd etish** (**konspektlashtirish**) va boshqalar);
- **fanlardan tashqari o'zlashtirilgan bilim** va ko'nikmalar (**axloq** va **umuminsoniy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlari**, **hayotiy** qarashlari va hokazolar);
- fanlar borasidagi gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematik, tabiiy **ilmiy**, **umumkasbiy** va maxsus bilim, **ko'nikma** va **malakalarining** yaxlit tizimni egallaganlik.

Barcha rasmiy hujjatlar asosida o'qituvchi axborot va ma'lumotlarni uzalishga, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi. Didaktik tamoyillar ham o'z mohiyatiga ko'ra shu maqsadlarga xizmat qiladi. Demak, **intellektual salohiyat** - fikrlashning kreativligi (nostandart yechimlar qabul qiluvchi shaxsning botiniy qobiliyati), muammoli ta'lim ko'nikmalarini egallaganligi (muammoni ko'ra bilish, uni shakllantirish, muammoni hal etish yo'llarini topish va hokazolar), moslashuvchanligi hamda tizimliliigi, ijodiy tasavvur, modellashtirish, loyihalash, bashorat qilishga, yangi g'oyalarni topishga moyillik. Irodaviy sifatlar maqsadning ongli ravishda belgilanishi bilan tavsiflanadi Irodali insonga maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to'siqlarni, jismoniy va aqliy zo'riqishlarni yenga olishlik, o'zini tuta bilishlik va tashabbuskoriik xislatlari xosdir. Demak, **irodaviy sifat** - izlanish davomida, modellashtirish hamda o'quv va kasbiy vazifalarni hal qilish uchun o'z faoliyat yo'lini yaratishda iroda sifatlarini namoyish qilish. Ixtisoslik fanlarida berilgan individual topshiriqlarni - murakkab fasonli buyumlarni modellashtirishda talabaning irodaviy sifatleri va izlanish faoliyatlari shakllanadi. Hissiy sifatlar nafaqat hissiyoifar balki, o'z-o'zini baholash sifatleri bilan ham tavsiflanadi. Shu sababli pedagogik maqsadlarni belgilashda hissiy sifatleri shakllantirish va rivojlantirishga e'tibor berish juda muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni:

- o'z hissiyotlarini boshqarishning zarariy malakalarini shakllantirishni e'tiborga olish;
- o'zining aniq hislari (qahr, g'azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag'rurlik, qo'rqish, ko'ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishga o'rgatish;
- o'z hissiy holatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishga o'rgatish.

Demak, **hissiy sifatlar** - izlanuvchanlik, kashfiyot va ixtirolarni amalga oshirishga xos hissiyotlarning namoyon bo'lishi, o'quv hamda kasbiy faoliyatda ijodiy yechimlarni topish yo'lida ziyrak bo'lishdir. Amaliy ko'nikmalar o'zida psixologik, pedagogik, metodik va texnik texnologik qobiliyatlar, amallar, individning faoliyat va muloqotning turli sohalardagi ko'nikmalarni mujassamlashtiradi. Bo'lajak o'qituvchida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda uning mehnat mahsuli (uning miqdoriy xususiyatlari va talablari), mehnat predmeti (mehnat jarayonning to'g'ri bajarishda hisobga olinishi lozim bo'lgan material xususiyatlari), mehnat qurollari (mashina, qurilma, asbob va moslamalar) hamda mehnat jarayonining mohiyatini (u tarkib topadigan barcha harakatlar) to'laqonli anglashi shuningdek, ularning vazifani to'g'ri bajarishini ta'minlovchi harakatning obyektiv shartlari deb bilishi zarur. Demak, **amaliy ko'nikmalar** - atrofdagilarga g'ayrioddiy bo'lgan xulq egasi bo'lish (yangi axborotlar ichida tez yo'nalish topa olish, noan'anaviy yechimlar izlash, fikrlash, harakatning atrofdagilar uchun

kutilmagan yo'nalishda o'zgarishi). Masalan, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisi biror yangi modeli yaratishda moda jurnallaridan, internet yangiliklaridan oqilona foydalanib, yangi, takrorlanmagan biror modelni yaratishga intilish undagi individuallikni namoyon qiladi. O'z-o'zini boshqara olishi maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik; vijdonlilik, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o'sha xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borish, keiajakka ishonch, o'z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turish va boshqara olish kabilar bilan tavsiflanadi. Demak, o'z-o'zini boshqara olishi - ijodiy jarayonda refleksiya qila olish qobiliyati, o'z fikrlarini zarur yo'nalishda boshqara olish, yangi yechimlar, g'oyalar topish imkonini beruvchi manbalarga intilish, o'z ijodiy faolligini ta'minlash uchun mustaqil ravishda sharoit yarata olish. Yuqori kurs talabasining o'ziga berilgan topshiriqni to'la bajarishi, yarimmodel yaratganda - uning zamonaviyligi, mo'ljallangan gavdaga mosligi, modelga gazlama to'g'ri tanlanganligi, modellashtirish bosqichlarining aniq bajarilganligi, tikish jarayonining maqbul usullarini tanlanganligi talabaning ijodkorligini, yangi yechimlar va g'oyalar topa olishda mustaqil ishlay olishini ko'rsatadi. **Ilmiy tadqiqot ishlarining tahlilidan shaxsning kasbiy shakllanganlik darajasini ifodalovchi ikkita asosiy mezonni ajralib ko'rsatish mumkin:**

**Birinchi mezon:** insonning motivatsion xislatlari, o'zining bevosita istaklarini boshqara olish: o'z xohish va ehtiyojlarini tutib tura olish, ijtimoiy hayot voqealariga o'z qiziqishini namoyon qilish darajasida rivojlangan bo'lsa u shaxs deb atalishi mumkin. Bunda jamiyatda keng qabul qilingan, qo'llab-quvvatlanadigan ijtimoiy ahamiyatli motivlar, ya'ni, xohish-istaklar rivojlangan bo'lishi kerak.

**Ikkinchi mezon:** inson o'z xulqini ongli ravishda o'zini-o'zi boshqarishga qodir bo'lgan holda uni shaxs deb atalishi mumkin bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, shaxs va individual sifatlar bir-birini o'zaro to'ldiradi, shu sababli pedagogik maqsadlar yo'lida ham shaxsni, ham individuallikni o'zaro qarama-qarshi qo'ymagan holda rivojlantirish lozim. Bunda, shaxs sifatleri individuallik omillarining rivojlanishi asosida shakllanadi. Demak, shaxsni tarbiyalash va uning kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun individual sifatlarni, shuningdek, shaxsning psixologik komponentlarini rivojlantirish ham talab etiladi.

**Kompetensiya asosida yotuvchi psixologik komponentlar.** Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining shakllanishida psixologik komponentlarining roli ham kattadir. Bunday komponentlar pedagogning kasbiy kompetentligini shakllanishiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi.

**Qiziqish.** Qiziqish deyilganda odamning u yoki bu narsaga qaratilgan faol bilish faoliyati tushuniladi. Kasb egallashga nisbatan olinganda qiziqishlar - bu kishining muayyan mehnat sohasiga ijobiy mimosabati, uning bilishga va faoliyat ko'rsatishga bo'lgan intilishidir. Qiziqishlar o'zining mazmuni, ko'lami, uzoq davom etishi va teranligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Qiziqishlarning mazmuni va ko'lami odamning bilim darajasini hamda har narsaga qiziquvchanligini aks ettiradi. Qiziqishlarning teranligi va uzoq vaqt davom etishi ularning barqarorligini ko'rsatadi. Qiziqishlar o'z rivoji mobaynida bir nechta bosqichdan o'tadi. Dastlab ular vaqtincha, epizodik xarakterda bo'ladi hamda muayyan bir narsaga nisbatan ijobiy munosabatda namoyon bo'ladi. Bunday qiziqishlar rivojlantirib borilmasa, ular tez orada susayib ketadi yoki mutlaqo so'nadi. U yoki bu narsaning chuqur va muntazam ravishda o'rganib borilishiga, mehnat faoliyatining qiziqilgan sohasiga sinchkovlik bilan kirishib ketilishiga qarab qiziqishlar mustahkamlanib, kuchayib borishi va asta-sekin barqaror qiziqishga aylanib qolishi mumkin.

**Mayllar.** Qiziqishlar o'sib rivojlanib borib, maylga – kishining muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan intilishiga hamda mazkur faoliyat turiga rnuvofiq keladigan mahorat vg malakalarni: takomillashtirib, doimiy ravishda o'z bilimni oshirib borish uchun intilishiga aylanadi. Agar qiziqishlar “bilishni istayman” degan formula bilan ifodalanadigan bo'lsa, mayllar - “bajarishni istayman” degan formula bilan ifodalanadi. Faoliyat ko'rsatish mobaynida kishining mayllari nafaqat namoyon bo'libgina qolmay, shu bilan birga uning mayllari shakllanib ham boradi. Faqat turli yo'nalishda olib borgan jo'shqin faoliyatgina kishiga o'z mayllarini bilib olish va sinab ko'rish imkonini beradi.

**Qobiliyatlar.** Qobiliyatlar qiziqish va mayllar bilan mahkam bog'liq bo'ladi hamda odamning kasbga layoqatini ko'rsatuvchi belgilarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ya'ni, odamning biror faoliyat sohasida muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradigan bar qanday individual psixologik xususiyatni *qobiliyat* deb hisoblash mumkin.

**Pedagogik qobiliyat** - pedagogning pedagogik faoliyatga yaratuvchanligi va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini, shuningdek, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqara olishini ifodalovchi qobiliyat. Qobiliyatni faqat bilim va malakalardan iborat deb hisoblab bo'lmaydi. Masalan, agar odam yoshlar xarakterlarni yaxshi bilsa va ularga ta'lim berishda yosh xususiyatlarini e'tiborga olsa, u holda bunday fazilat - o'qituvchiiar uchun juda zarur bo'lgan qobiliyat hisoblanadi. Basharti, kishining xotirasida juda ko'p raqamlar, harflar, so'zlar yoki tashqi alomatlar yaxshi (mustahkam) saqlanib qoladigan bo'lsa, u kishi o'z xotirasidagi mana shu ma'lumotlarni kerak vaqtda ishlata olsa, u holda bu ham juda zarur fazilat, matematika, dasturchiga, konstruktorga va boshqa shunga o'xshash kasbdagi kishilar uchun zarur bo'lgan qobiliyat hisoblanadi. Har qanday faoliyat



muayyan qobiliyatlarning jamini ishlatishni taqozo etadi. Masalan, o'qituvchi yoki tarbiyachi kuzatuvchan yoki tashabbuskor kishi bo'lishi, chuqur aql idrokka ega bo'lgan chaqqon epchil odam bo'lmog'i, o'z ishiga g'oyat halol munosabatda bo'lishi kerak. Hamma uchun zarur bo'lgan **umumiy qobiliyatlar** (masalan, ijodkorlikka bo'lgan qobiliyat) yoki juda ko'p kasblar va faoliyat turlari uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar (tashkilotchilik qobiliyatlari), ayrim kasblar yoki nisbatan tor doiradagi kasblar uchun muhim hisoblangan **maxsus qobiliyatlar** bo'ladi, chizmalarga qarab murakkab buyumlar tayyorlaydigan kishilar uchun esa jismlarning fazodagi holatini tasavvur qila olish qobiliyati yoki odam qomatiga qarab unga qanday bichimdagi va rangdagi kiyimlar mos kelishini yaxshi bilmog'i kerak. Har qanday kasbda ham umumiy va maxsus qobiliyatlar birga qo'shib kelgan taqdirdagina ishning muvaffaqiyati ta'minlanishi mumkin. Qobiliyatning bo'sh rivojlanishi o'rnini qoplash - bu odatdagi va zarur hodisa bo'lib, agar kishi o'z ishi sohasida chindan ham yuksak mahoratni egallashi kerak bo'lsa, qo'shimcha mashg'ulotlar uning bayotida katta o'rinni egallashi kerak.

**Qobiliyatlarning turlari va belgilari. Texnik qobiliyat-** texnikani egallashga va texnika fanlarini o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyat. **Belgilari:** texnikaga, texnika ijodiyotiga bo'lgan qiziqish, mashina va stanoklarda asboblardan ishlashga intilish, fizika, ximiya, matematika, chizmachilik va shu kabi muvaffaqiyat bilan o'zlashirish. **Matematik qobiliyat** - fikrlashning matematik metodlarini egallash qobiliyati. **Belgilari:** matematikaga bo'lgan qiziqish, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati, matematik bilimlarni muvaffaqiyatli egallash va shu kabilar. **Tashkilotchilik qobiliyati** - qandaydir bir ishni qila olish va odamlarni uyushtira olish mahorati. **Belgilari:** Odamlar bilan tezda til topib ketish, odam psixologiyasini tushunish, odamlar o'rtasida mehnatni to'g'ri taqsimlay olish, o'z vazifasini halol bajarish, tirishqoq bo'lish, o'z xatti-harakatlariga tanqidiy qarash va shu kabilar. O'qituvchi uchun pedagogik qobiliyat juda muhimdir.

**Pedagogik qobiliyat** - o'qitish va ta'lim-tarbiya berish maqsadida boshqa bir kishiga ta'sir ko'rsatish qobiliyati. Pedagogik faoliyatga qiziqish, bolalarni sevish, bolalar jamoasini uyushtira bilish mahorati, nutqning ravon va ishonatli bo'lishi, talabchanlik, xushmuomalalik, adolatlilik, xolis niyatli bo'lish va shu kabilar kiradi. Shuningdek, o'qituvchida irodaviy sifatlar bo'lishi uning kompetensiyasini namoyon bo'lishida yordam beradi, ya'ni: dadillik, qat'iyatlilik, intizomlilik, o'ziga va o'z kuchiga ishonish, o'zini idora qila bilish, og'ir-vazmin bo'lish singari fazilatlarini rivojlantirishga ham harakat qilish kerak. Mana shu sifatning hammasi birga qo'shib mehnatga, ya'ni kasbiga bo'lgan qobiliyatni ta'minlaydi,

**Kasbiy motivatsiya** - kasbga tegishli vazifalarni bajarish va kasb tanlashni belgilovchi, atrof, borliq omillari, kasbga yo'naltirishga oid faoliyat ta'sirida shakllanuvchi mayldan iborat. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi bazasi shundan iboratki, ta'limiy, rivojlantiruvchi muhitni tashkil qila olishi ko'nikmasiga ega bo'lish kerakki, ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma malaka shakllantirish. Ta'lim jarayoni shunday tashkil etilishi lozimki, bunda ta'lim oluvchilarda qiziqish ortsin, shu bilan birga o'ylash va munozara yuritish, dolzarb savollarni qo'ya olish, mustaqil tafakkurni shakllantirish, g'oyalar yaratishga o'rgatish, turli xil nuqtai nazarlarni aytish ko'nikmasini shakllantirish.

**Kasbiy kompetentlik** - kasbiy-pedagogik ko'nikimalarning shakllanganlik darajasi bilan baholanadi). Pedagogning kasbiy faoliyatida egallagan asosiy funksiyalaridan kelib chiqib quyidagi kasbiy-pedagogik ko'nikmalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- **gnostik (bilish) ko'nikmalar** - umumkasbiy, ishlab chiqarish va psixologik-pedagogik bilimlarni egallash jarayonida orttirilgan ko'nikmalar yangi ma'lumotlarni olish, ulardan asosiylarini ajrata olish, shaxsiy pedagogik tajribasini umumlashtirish va tizimlashtirish jarayonida qo'llanilishi nazarda tutiladi;

- **didaktik ko'nikmalar** - umumpedagogik ko'nikmalar aniq maqsadli o'qitishni, o'qitishning metodlari, shakllari va vositalarini tanlashni, pedagogik vaziyatlarni loyihalashni, o'quv materiallarni tushuntirishni, texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarini namoyish qilishni aniqlaydi;

- **tashkiliy-metodik ko'nikmalar** - o'quv-tarbiya jarayonini amalda qo'llay bilishi, o'qishga motivatsiyasini shakllantirishi, ta'lim oluvchilarni o'quv-kasbiy faoliyatini tashkillashtirishi;

- **kommunikativ-rejissorlik ko'nikmalar** - pedagogik rejissura sohasida ekspressivlik, notiqlik, har qanday vaziyatlardan chiqqa olishlik umumpedagogik ko'nikmalari;

- **bashorat qila olish ko'nikmalari** - shaxsni va o'quvchilar jamoasini tashxis qilish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, jamoani va shaxsni rivojlantirishni loyihalash, jarayonni va natijalarni nazorat qilish kabi o'quv-tarbiya jarayonlari yutuqlarini bashoratlay olishlik;

- **refleksiv ko'nikmalar** - o'zini anglay bilish, kasbiy faoliyatini va kasbiy xulq-atvorini baholay olish, o'zini faollashtira olish qobiliyati;

- **tashkiliy-pedagogik ko'nikmalar** - tarbiya jarayonini rejalashtirish, pedagogik va o'zaro ta'sir ko'rsatishda maqbul vositalarni tanlash, o'z - o'zini tarbiyalash va boshqarishni tashkillashtirish, tahsil olayotgan shaxsiy kasbga bo'lgan qiziqishini shakllantirish kabi umumpedagogik ko'nikmalari.

Yuqorida sanab o'tilgan ko'nikmalar asosida pedagog mehnatini baholash uchun **kasbiy kompetensiyaga xos uchta yo'nalish** asos qilib olinishi kerak bo'ladi, ya'ni:

1. Nazariy, amaliy bilim va ko'nikmalar;
2. Shaxsiy sifatлари;
3. Kasbiy faoliyatda qo'llashi.

Ta'limiy mazmundan, vaziyatdan holatdan kelib chiqib, har qanday o'qituvchining maqsadi sifatida "Rivojlantiruvchi muhit"ni yaratishdan iborat, ya'ni: ta'lim oluvchilarga faoliyatga undovchi motivatsiya berish; ta'lim oluvchilarni mustaqil ishlatish, o'quv faoliyatiga undash orqali tushuncha va tasavvur va ko'nikmalarni shakllantirish; kerakli ma'lumotlarni qidirish, o'z faoliyati loyihasi va uning amaliyotga tatbiq etish, ish maqsadini anglash va natijaga ma'suliyat bilan yondashish; ta'lim oluvchilar tomonidan mavzuni, maqsad, vazifalarini murakkablik darajasini, shakl va usullarni mustaqil ravishda tanlash; ta'lim oluvchilarni loyiha ustida guruhlarda ishlashga o'rgatish mavzu va muammolarni aniqlash, vazifalarni taqsimlash, rejalashtirish, diskussiyalar natijalarini muhokama qilish va baholash ta'lim oluvchilarni turli xil shakldagi munozaralardagi ishtiroki; ta'lim oluvchilarda o'z harakatlarini tartibga solishni shakllantirish; baholash tizimi orqali ta'lim oluvchilar o'z bo'lg'usi natijalarini takomillashtirish, o'z darajalariga va natijalariga baho berib, ularni yanada takomillashtirishga erishish. Demak, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllanishida etakchi o'rin tutuvchi asosiy sifatlar: motivatsion **xislatlar**, intellektual salohiyat, irodaviy va hissiy **sifatlar**, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olishi hamda psixologik komponentlar: qiziqish, qobiliyat va mayllar katta ahamiyat ega.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida bo'lajak mutaxassisni tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashishga e'tibor qaratilmoqda, shu jumladan ta'lim sohasida, bu yerda vakolat mutaxassisni tayyorlash tizimining asosiy omili - bo'lajak o'qituvchini ko'rib chiqadi.

Hozirgi vaqtda ilmiy va pedagogik tadqiqotlarda "kompetentsiya" har xil yo'llar bilan izohlanadi, bir-biriga zid kelmasdan, psixologiya o'qituvchilari ushbu konsepsiyaning turli tomonlarini ochib berishadi. Ta'lim muassasalari mutaxassislarini tayyorlashni sifatli tashkil etish uchun kelajak konsepsiyasini tayyorlash maqsadi sifatida ushbu tushunchaning mohiyatini aniq tushunish kerak. Bu ushbu masala bo'yicha har qanday mulohazalarni taqqoslash va tasniflashni majbur qiladi.

Turli manbalarda "kompetentsiya" tushunchasi turli xil nuqtai nazardan ochib berilgan. U xarakterli deb hisoblanadi:

Shaxslar;

Ta'lim natijasi;

Professional (rasmiy).

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda "kompetentsiya" tushunchasi shaxsning o'ziga xos xususiyati sifatida turli xil nuqtai nazarlar mavjud. Shunday qilib, masalan, **T.S.Zelenetskayaning fikriga ko'ra**, kompetensiya shaxsning ajralmas sifati sifatida tushuniladi, uning umumiy qobiliyati va o'qitish va ijtimoiylashtirish jarayonida olingan va mustaqil va muvaffaqiyatli ishtirok etishga yo'naltirilgan bilim va tajribaga asoslangan faoliyatga tayyorligi bilan namoyon bo'ladi.

**D.Ermakov** kompetensiyani yaxlit shaxsiyat shakllanishi sifatida ko'rib chiqadi, bu bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi, masalan:

Bilimlarning samaradorligi va harakatchanligi, ularni har xil vaziyatlarda hisobga olgan holda ularni qo'llash va integratsiya qilish qobiliyati;

Berilgan vaziyatda eng maqbul variantni tanlashda qaror qabul qilish qobiliyati va tayyorligi;

Ijtimoiy aksiyalarni tashkil etish va buning uchun barcha zarur resurslarni birgalikda tashkil etish qobiliyati;

Faoliyat doirasida boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishni maqsadga muvofiq lashtiradigan kommunikativ ko'nikmalar;

Muayyan qiymat yo'nalishlari, dunyoqarash, umumiy va axloqiy madaniyat, faoliyat motivlarining mavjudligi;

O'zlarining ijodiy potentsialini rivojlantirish, yangi harakat usullarini o'rganish istagi va qobiliyati.

Quyidagi nuqtai nazar ta'limning natijasi sifatida vakolatni anglatadi. **A.N.Daxinning ta'kidlashicha**, "kompetentsiya" tushunchasi har qanday darajada va har qanday yo'nalishda ta'lim natijasining yaxlitligi va integrativ xususiyatini aks ettiradi.

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi sanaladi. Psixologik yondashuvga ko'ra kasbiy kompetentlik negizida "mutaxassisning kutilmagan vaziyatlarda o'zini tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan munosabatlarda yangicha yo'l tuta olishi" aks etishi zarur.

**Kasbiy kompetentlik doirasida:**

- mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish;
- yangi axborotlarni o'rganish;
- muhim ijtimoiy talablarni anglash;
- yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilish talab etiladi

### **Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:**

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatlarda harakat rejasiga ega bo'la olishda

Vakolatlar asosidagi bir qator tadqiqotchilar turli xil hayotiy vaziyatlarda tezkor foydalanish uchun asos bo'lgan ta'lim jarayonida (turli darajadagi) olingan bilimlarni hisobga olishadi. Shunday qilib, M.A.Choshanovning fikriga ko'ra, kompetensiya bu nafaqat bilimga ega bo'lish, balki uni doimiy ravishda yangilash va undan foydalanishning doimiy istagi, ya'ni operatsion va mobil ma'lumotlarga ega bo'lish; bu eng maqbul va samarali yechimlarni tanlash va yolg'onlarni rad etish qobiliyatini anglatuvchi fikrlashning moslashuvchanligi va tanqidiyligidir.

Vakolat, shuningdek, ma'lum bir jamiyat uchun muhim bo'lgan vazifalar muammolar doirasini hal etishga qaratilgan harakatlarining samaradorligi samaradorligini baholash natijasida insonga berilgan xususiyat sifatida belgilanadi.

### **Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:**

- ijtimoiy talablarini chuqur anglaydi;
  - o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
  - yangi axborotlarni izlab topadi va ularni maqsadli, samarali o'zlashtiradi;
  - yangi bilimlarni qayta ishlaydi va o'z faoliyatida o'rinli qo'llaydi
- Xulosa qilish kerakki, kompetensiya talabdan qat'i nazar, odamlarga, yoshidan qat'iy nazar, har qanday kundalik vazifalarni hal qilishda bilim va ko'nikmalarni mobil ravishda qo'llashga tayyorlik sifatida qo'llaniladi. Ammo adabiyotda ko'pincha "kompetensiya" tushunchasi kasbiy fazilatlar bilan bog'liq.

**Pedagogik kompetentlik** – pedagog tomonidan pedagogik aoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi sanaladi. Ushbu kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va baholash orqali aniqlanadi.

**O'zini o'zi tahlil qilish** pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir.

**O'zini o'zi baholash (O'O'B)** – shaxsning o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishi.

**O'zini o'zi baholash** subyekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga obyektiv baho berish, o'zidan qoniqishini ta'minlaydi.

Har qanday mutaxassisning vakolati bu o'zlarining kasbiy faoliyati davomida aks ettirilgan ijtimoiy ahamiyatga ega va shaxsan muhim vakolatlar tizimidir.

Kasbiy kompetensiya mutaxassisning kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi birligi bilan tavsiflanadi. Vakolat - bu mansabdor shaxsning shaxsiy qobiliyatlari, uning malakasi (bilim va tajriba), unga ma'lum bir bilim va ko'nikmalar mavjudligi sababli muayyan qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki muammolarni o'zi hal qilish imkonini beradi.

O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi zarur. Ko'plab manbalarda shaxs tomonidan o'z-o'zini baholash quyidagi formula asosida aniqlanishi ko'rsatilgan:  
**O'O'B = yutuqlar o'zini yuqori baholashga intilish**  
**(yoki O'O'B = YU / O'YUBI)**

**O'z-o'zini rivojlantirish** – shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi.

**Individual rivojlanish dasturi (IRD)** – har bir shaxs yoki mutaxassisning o'zida ma'lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur

**V.I.Volinkinning fikriga ko'ra**, kasbiy kompetensiya - bu aqliy va shaxsiy (insoniy) fazilatlarining birikmasi va bunday aqliy va shaxsiy (aqliy) holat, bu sizga mustaqil va mas'uliyatli harakat qilish imkonini beradi. Bu ma'lum mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyati va qobiliyati.

Kasbga xos xususiyat sifatida vakolatlar ko'pincha "kasbiy kompetensiya" iborasida, torrog'i "pedagogik kompetensiya" iboralarida qo'llaniladi.

**S.A.Drujilov**, o'qituvchining kasbiy mahorati bu mutaxassislik fanining sifat jihatidir, u fan sohasida ham, pedagogika va psixologiya sohasida ham ilmiy va nazariy bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. O'qituvchining kasbiy mahorati bu ko'p qirrali hodisadir, jumladan o'qituvchining nazariy bilimlari tizimi va ularni muayyan pedagogik vaziyatlarda qo'llash usullari, o'qituvchining qadriyat yo'nalishi, shuningdek, madaniyatining integratsion ko'rsatkichlari (nutq, muloqot uslubi, o'ziga va faoliyatiga, tegishli bilim sohalarga va boshqa sohalarga). boshqa).

**N.V.Kuzmina** o'qituvchining kasbiy faoliyatini o'rganayotganda, kasbiy va pedagogik kompetensiya "mavzuni shaxsni shakllantirish vositasiga aylantirishning

maxsus qobiliyati, ilmiy va amaliy bilimlarni shakllantirish qobiliyati" bilan tavsiflanadi.

**L.M.Mitina** o'qituvchining mehnat va kasbiy rivojlanish psixologiyasini hisobga olgan holda, pedagogik kompetentsiyani mavzu bo'yicha bilimlarni, o'qitish usullari va didaktikani, qobiliyat va pedagogik muloqot madaniyatini, shuningdek, o'zini o'zi rivojlantirish, takomillashtirish va o'zini o'zi anglash usullari va vositalarining uyg'un kombinatsiyasi sifatida belgilaydi.

**Pedagogning IRD** – mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o'zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko'nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi sanaladi. **IRD**da kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan BKM, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Taqdim etilgan nuqtai nazarlar bir-biriga zid emas, balki amaliyotchi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining mazmunini aks ettiruvchi qo'shimcha, ammo mutaxassis sifatleri o'quv jarayonida asoslanadi. Shunday qilib, masalan, **E.A.Tarxanova**, kelajakdagi o'qituvchining kasbiy mahoratini hisobga olgan holda, bu bilim, kasbiy va hayotiy tajriba, qadriyatlar va moyilliklardan foydalangan holda kasbiy pedagogik faoliyatning real vaziyatlarida yuzaga keladigan kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatini belgilaydigan integrativ xususiyat sifatida taqdim etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu ta'rif kelajakdagi o'qituvchi va amaliy o'qituvchining malakasi xususiyatlari o'rtasidagi aniq chegaralarni ta'minlamaydi. Shu sababli, kelajakdagi mutaxassis va o'qituvchi-amaliyotchining vakolatidagi jiddiy farqlar haqida gapirish mumkin emas. Kasbiy kompetensiya darajasi haqida gapirish yanada to'g'ri.

Faoliyat predmetining kasbiy kompetensiyasining asosiy darajalari sifatida tadqiqotchilar ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy tajriba va professionallikni ta'kidladilar. O'qish va kasbiy tayyorgarlik universitetda ta'lim olish jarayonida shakllanadi, u yerda kasbiy tayyorgarlik ta'lim natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Kasbiy tajriba va professionallik mutaxassisning amaliy faoliyati jarayonida shakllantirilgan.

1. professionallik kasbiy tajriba
2. kasbiy tayyorgarlik
3. o'qitish

### **Shakl 1. Faoliyat predmetining kasbiy vakolatining asosiy darajalari**

Kasbiy kompetentsiyani shakllantirish ta'lim mazmuni orqali, shuningdek kasbning asoslarini o'zlashtirish jarayonida shakllangan kasbiy ko'nikmalar orqali amalga oshiriladi. S.A.Nelyubov ta'kidlashicha, kasbiy kompetensiya avvalambor ma'lum bir mutaxassisni tayyorlash va tayyorlash bilan belgilanadi, shu jumladan

kasbga yaxlit kontseptual yondoshish, ishning ahamiyatini tan olish, funktsiyalarni bajarishda maqbul ishlab chiqarish, kasbiy etika, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi tashkil etish va o'zini rivojlantirish.

Bo'lajak o'qituvchi sifatida talabalarning kasbiy mahoratini inobatga olgan holda, biz buni quyidagicha taqdim etishimiz mumkin (2-rasm):

Kasb-hunar ta'limi har qanday bosqichida o'qitish sifatini rejalashtirilgan natija bilan taqqoslashga imkon beradigan oraliq natija;

Universitet bitiruvchisi modelida ifodalangan bo'lajak o'qituvchini o'qitish va o'qitish maqsadi.

Bo'lajak o'qituvchi sifatida talabaning kasbiy mahorati  
oraliq natija, ta'lim maqsadi,  
o'qitish holatini tavsiflovchi,  
o'quvchilarga sifatli ta'lim

### **Shakl 2. Talabaning kasbiy mahorati**

Hozirgi kunda jamiyatning ijtimoiy rivojlanishidagi ustuvor vazifa sifatida ko'rib chiqilayotgan ta'lim sifati mutaxassis shaxsiyatining tarkibiy qismi sifatida kasbiy mahoratga ega bo'lgan ko'plab mutaxassislar tomonidan kelishilgan. Ta'lim sifati kasbiy kompetensiyaning shakllanishiga bog'liq va shu bilan birga uning shakllanishiga ta'sir qiladi.

“Vakolat” tushunchasini har tomonlama ko'rib chiqish uchun vakolatlar tuzilishi va uning turlarini ko'rib chiqish kerak.

Tadqiqotchilar "asosiy", "asosiy vakolatlar" va "maxsus kasbiy kompetensiyalar" kabi tushunchalarni ajratishadi va ajratadilar (O.B.Dautova, I.A. Zimnaya, N.V.Kuzmina, A.V.Xutorskoy). Asosiy vakolatlar har qanday faoliyat sohasida, birinchi navbatda ijtimoiy (shaxsiy namoyon bo'lish) individual potentsialni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun universal qobiliyat sifatida ajralib turadi. Asosiy vakolatlar ma'lum bir kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Maxsus kasbiy kompetensiyalar aniq kasbiy vazifalarni bajarishda asosiy va asosiy vakolatlardan voz kechib, kasbiy faoliyatdagi ixtisoslikni aks ettiradi.

#### **A.K. Markova o'z ishida kasbiy kompetensiyaning to'rt turini aniqladi:**

**1. Maxsus yoki faol, kasbiy kompetensiya** faoliyatning yuqori kasbiy darajaga ega bo'lishini tavsiflaydi va nafaqat maxsus bilimlarning mavjudligini, balki ularni amalda qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

**2. Ijtimoiy kasbiy kompetensiya** qo'shma kasbiy faoliyat va hamkorlik uslublari, kasbiy hamjamiyatda qabul qilingan kasbiy aloqa usullariga egalikni tavsiflaydi.

**3. Shaxsiy kasbiy kompetensiya** o'zini ifoda etish va o'zini o'zi rivojlantirish usullariga, kasbiy deformatsiyaga qarshi kurash vositalariga ega bo'lishni tavsiflaydi.



Bunga mutaxassisning kasbiy faoliyatini rejalashtirish, mustaqil ravishda qaror qabul qilish va muammoni ko'rish qobiliyati kiradi.

**4. Shaxsiy kasbiy kompetensiya** o'zini o'zi boshqarish uslubiga ega bo'lish, kasbiy o'sishga tayyorlik, kasbiy qarishga mos kelmaslik va barqaror professional motivatsiya mavjudligini tavsiflaydi.

**E.F.Zeer va O.N.Shaxmatova** kasbiy kompetensiyasi o'qituvchining kasbiy psixologik profilining umumlashtirilgan shaklining tarkibiy qismlaridan biri sifatida ajralib turadi va pedagogik, psixologik va ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyaga bo'linadi.

**O'z navbatida, L.M.Mitina uchta substruktsiya orqali pedagogik mahoratni namoyish etadi:**

**Faoliyat** (bilim, ko'nikma, pedagogik faoliyatni mustaqil va mas'uliyatli amalga oshirishning individual usullari);

**Kommunikativ** (bilim, ko'nikma, ko'nikma va pedagogik aloqani ijodiy amalga oshirish usullari);

**Shaxsiy** (o'zini rivojlantirishga ehtiyoj, shuningdek bilim, ko'nikma, o'zini takomillashtirish ko'nikmalari).

Pedagogik kompetensiya tarkibida **B.V.Abashina** uchta substruktsiyani aniqlaydi: faoliyat (pedagogik texnologiyalarni mohirona ishlash), kommunikativ (pedagogik kommunikatsiya usullari va ko'nikmalarini egallash) va reflektiv (bolalar faoliyatini ham, o'z faoliyatini ham to'g'ri baholash va tuzatish qobiliyatining mahorati).

**S.A.Drujilov o'qituvchining kasbiy vakolatining quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlaydi:**

**1. Motivatsion-ixtiyoriy** tarkibiy qism quyidagilarni o'z ichiga oladi: motivlar, maqsadlar, ehtiyojlar, qadriyatlar, shaxsning kasbdagi ijodiy namoyon bo'lishini rag'batlantiradi; kasbiy faoliyatga qiziqishni taklif qiladi.

**2. Umumiy holda funksional** (Lotin Shpsio - ijro) dan tarkibiy qism o'qituvchiga ma'lum bir pedagogik texnologiyani loyihalashtirish va amalga oshirish kerak bo'lgan pedagogik faoliyat usullari to'g'risida bilim shaklida namoyon bo'ladi.

**3. Kommunikativ** (lat. Soshshishso - bog'lash, aloqa qilish) kompetensiya tarkibiga fikrlarni aniq bayon etish, ishontirish, bahslashish, dalillar yaratish, tahlil qilish, fikrlarni ifoda etish, ratsional va hissiy ma'lumotlarni etkazish, shaxslararo munosabatlarni o'rnatish, o'z harakatlarini harakatlar bilan muvofiqlashtirish qobiliyati kiradi. hamkasblar, turli xil biznes vaziyatlarida maqbul aloqa uslubini tanlang, muloqotni tashkil qiling va saqlang.

**4. Vakolatning aks ettiruvchi** (lat. Geyekhu - orqaga qaytish) tarkibiy qismiga o'z faoliyati natijalarini va shaxsiy rivojlanish va shaxsiy yutuqlar darajasini ongli ravishda boshqarish qobiliyati kiradi; ijodkorlik, tashabbuskorlik, hamkorlikka

yo'naltirilganlik, birgalikda ijod qilish, introspeksiya moyillik kabi fazilatlar va xususiyatlarni shakllantirish. Yansıtıcı komponent - bu shaxsiy yutuqlarning tartibga soluvchisi, odamlar bilan muloqotda shaxsiy ma'nolarni izlash, o'zini o'zi boshqarish, shuningdek o'zini o'zi bilish, kasbiy o'sish, mahorat, hissiyot va shaxsiy ish uslubini shakllantirishga turtki.

O'qituvchi **S.A.Drujilovning** kasbiy mahoratining ko'rsatilgan xususiyatlari yakka tartibda ko'rib chiqilmaydi, chunki ular integrativ, yaxlit tabiatga ega bo'lib, kasbiy tayyorgarlik mahsulidir.

Umuman olganda, vakolatning tarkibiy qismlari mutaxassisning faoliyat turidan qat'iy nazar aniqlanadi. Taqdim etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, tarkibiy bo'linmalar (substrukturlar, darajalar, elementlar) qanday belgilanishidan qat'i nazar, vakolatlar tarkibi umuman shaklda ko'rsatilgan yagona sxemaga qisqartirilgan.

Vakolatga oid masalalarni tadqiq qilishda shaxsning yaxlit sifati sifatida vakolatning tarkibiy elementlari aniqlanadi: **kognitiv** (bilim asoslari (shu asosda kompetensiya shakllantiriladigan fan sohasi)); **faoliyat** (amaliy tajriba); **operatsion-texnologik** (ko'nikmalar va muammolarni amaliy yechimi to'plami); **shaxsiy** (sub'ekt faoliyati uchun muhim bo'lgan individual psixologik fazilatlar va qobiliyatlarning umumiyliigi, shaxsiyat yo'nalishi); **qiymat-motivatsion** (qiymat yo'nalishlari to'plami, faoliyatning maqsadlari va vazifalariga, dunyoqarash pozitsiyasiga mos keladigan motivlar); **aks ettiruvchi** (faoliyatni va natijalarini anglash, baholash, bashorat qilish qobiliyati, ijodkorlik).

### **Shakl 3. Shaxsning integrativ sifati sifatida vakolatlar tarkibi**

Bizning fikrimizcha, o'qituvchining kasbiy mahorati, birinchi navbatda, ta'lim muassasasining ma'lum bir mutaxassisini o'qitish va tayyorlash bilan belgilanadi. Bunday mutaxassisni tayyorlash kasbga yaxlit konseptual yondashuvni (nimani va qanday o'rgatish kerakligi to'g'risida aniq tasavvurni), mehnatning qiymatini tan olishni (o'rganish uchun motivatsiya), o'qitishning eng maqbul texnologik jarayonini, o'zini o'zi boshqarish mahoratini, o'zini o'zi tashkil etish va o'zini rivojlantirish texnikasini (faoliyatni aks ettirish) talab qiladi. **Universitetda shaxsning pedagogik kompetentsiyasini shakllantirish uchta asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin: 1)asosiy tayyorgarlik** (umumiy kasbiy va fan-kasbiy bilim, ko'nikma); **2)uslubiy madaniyat; 3)pedagogik ijod (ijod)**. Ushbu barcha yondashuvlar shaxsiy va kasbiy o'sish mexanizmi sifatida aks ettirishni rivojlantirish sharti bilan samarali amalga oshiriladi.

Bo'lajak o'qituvchining maqsad sifatida vakolati sinfda, mustaqil mashg'ulotlarda, turli xil amaliy mashg'ulotlar jarayonida tizimli va izchil shakllantirilishi kerak, bu erda maxsus sharoitlar, muhit yaratilishi, turli xil usul va usullar qo'llanilishi, muvaffaqiyatli o'qitishning vositalari va omillari hisobga olinishi, bo'lajak mutaxassisning ta'lim texnologiyasida birlashtirilishi kerak.

O‘qituvchi - muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azaldan e‘tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo‘yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.

**Zardo‘sh ta‘limotida**, “muallim — kohinlarning burchlari bolalarga bilimlarni yaxshilik yo‘sinida o‘rgatib, ularni yaxshi bilan yomonni ajratadigan qilib tarbiyalash va to‘g‘ri yo‘lga hidoyat etishdir” deyilgan. Uning “yasht”larida aqlu farosat bilan, yomonlikka qarshi kurashni amalga oshirib, bolalar ruhiyatiga rost so‘z, pok aqida, halol niyatni singdiradigan ustoz-muallimlar peshvosi madh qilinadi.

Shuningdek, “Avesto”ning “Yasht”larida tanballigi, befarqligi, mas‘uliyasizligi, loqaydligi, farosatsizligi, o‘quvsizligi, bilimi va malakasini takomillashtirmasligi oqibatida bolalar zehni, ularning mustaqil tafakkurini o‘tmaslashtiradigan, ayni chog‘da, yoshlarning aqlini “Zanglatadigan”, hayotga, mehnatga munosabatlarini susaytiradigan, imon-e‘tiqodini zaiflashtirib, ma‘naviy jihatdan qashshoqlashtiradigan “Yomon ustozlar” qattiq qoralanadi.

Zardushtning oliy tangri Ahuramazda bilan muloqotida ham yaxshi va yomon ustozlar haqida shunday deyiladi: “Noshud, yomon muallim o‘quvchi qalbidan hunarmandchilikni yo‘qotar ekan, ey yazdon, yomon ustozdan o‘zing asra”.

Talabalarga bilim berish o‘qituvchining mas‘uliyatli burchidir, deb Ibn Sino o‘qituvchining shaxsiyati qanday bo‘lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;
- beriladigan bilimni talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e‘tibor berish;
- ta‘limda turli usul va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqgira olish;
- berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o‘qitish;
- bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur.

**Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek** davrida ilm-fan, adabiyot va san‘at, ma‘rifatchilik jadal taraqqiy etgan. Shuningdek, o‘qitishning sinf tizimlari, bolalarni yoshi bo‘yicha tabaqalashtirib o‘qitish, o‘quv-tarbiya ishlarining aniq bir muddatini belgilab qo‘yish kabi g‘oyalar ilgari surilgan va ma‘lum darajada amalga oshirilgan. Shu bilan birga Ulug‘bek o‘qituvchi va mudarrislarning insoniy xislatlariga bilimi va mahoratiga katta ahamiyat bergan. Ularning moddiy ehtiyojlari davlat ta‘minotidan qondirilishini yo‘lga qo‘ygan, eng mahoratli ustozlarni e‘zozlagan. Ayni paytda, u mudarrislarning dars berishdan tashqari ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishlarini talab qilgan.

Shunga o'xshash fikrlarni G'arb pedagoglari ham aytib ketishgan. Jumladan, **Disterverg:** "Yaxshi o'qituvchi o'zining tarbiya prinsiplaridan hech qachon qaytmaydi. O'qituvchi o'z ustida doimo mustaqil ishlashi lozim, yomon o'qituvchi haqiqatni aytib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi esa bolalarga haqiqatni topishga o'rgatadi" degan.

**O'qituvchining kasbiy shakllanishi** oliy o'quv yurti dargohida kasbiy ta'lim olish jarayonida boshlanadi. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'quv-reja va fanlar bo'yicha dasturlarida bo'lajak o'qituvchilarga shu kasbning sir-asrorlarini o'rgatish, ilmiy bilimlar berish, o'qituvchi kasbi haqida ma'lumot berish va ko'nikma hosil qilish nazarda tutiladi.

Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlagan kasbi to'g'ri ekaniga ishonch hissini uyg'otadi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi davrdagi o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati, ayniqsa, ilmiy mudir hamda pedagogik jamoatchilik katta rol o'ynaydi. Yosh o'qituvchilarga tajribali o'qituvchilarni biriktirib qo'yish, ularning darslarini kuzatish, uslubiy ishlarga jalb etish maktab rahbariyatining asosiy vazifalaridan biri. O'qituvchi o'z kasbini sekin-asta o'zlashtirib borishi bilan birga ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib etadi. Shu yo'l orqali ham kasbiy shakllanishi takomillashib boradi.

O'qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash, maktab o'qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o'z o'rnini topib keta olishi yosh o'qituvchining o'ziga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va uni bartaraf etish uchun harakat qilish uning o'qituvchi bo'lib shakllanishidan darak beradi.

Shu bilan birga, o'qituvchining kasbiy shakllanishi o'z-o'zini tarbiyalab borishga, o'z ustida tinmay ishlashga va o'z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog'liq. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

### **Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchi kompetensiyasining ahamiyati**

O'zbekistonda ta'lim tizimini o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasining milliy g'oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko'tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak

ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir.

Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan.

Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi.

**Pedagogik mahorat** – o'qituvchi ijodkorligining oliy namunasi bo'lib, u yillar davomida shakllanadi. Uning yuksak mahoratni egallashi g'oyat murakkab jarayon bo'lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan ko'pgina fazilatlar bilan birga uning pedagogik mahoratni egallashi katta ahamiyatga ega. Yuqori pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchigina o'z kasbiga layoqatli, iste'dodli bo'lishi mumkin.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo'lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi, o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otishi, o'quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsalarni o'quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo'lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

O'qituvchi o'quvchining, ichki dunyosiga kira olishi, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruhiyatiga ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

O'qituvchida nutq o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati hisoblanadi. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir.

O'qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, hishayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

**O'qituvchi obro'si** – o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' faqat shu asosdagina emas, balki o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hokozalar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir

yig'indisiga, chunonchi uning irodaviy sifatlariga Shuningdek, o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, o'zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o'quvchilarga etkaza olish kabilarga ham bog'liq.

O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan xislatlar, ya'ni yuksak pedagogik mahorat unda birdaniga shakllanmaydi. U o'z ustida tinmay ishlash, izlanish va ko'nikmalar asosida rivojlanadi.

O'qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimida asosiy o'rin egallagan malaka oshirish o'quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo'nalishlar berishga imkon beradi.

Hozirgi davr o'qituvchidan o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiya talablarini to'g'ri tushunish, tashabbuskorlik, o'z fani bo'yicha yangiliklardan xabardor bo'lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do'stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, fan o'qituvchilari va maktab rahbariyatining egallagan bilim, ko'nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi avvalo:

- Yumshoq ko'ngilli, ochiq chehrali, shirinso'zli, bolalarni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rishi;

- Mehr-muhabbat, qalb g'urini o'quvchilarga bab-baravar bo'lib berishi, sinfda do'stona muhitni yaratish va o'quvchilarning o'quv motivlarini rivojlantiruvchi kuchrag'batlantirish metodlari ekanligini anglash;

- O'quvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas'ul ekanligini chuqur his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini e'zozlash;

- Har qanday pedagogik vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik, haqorat qilish va baqirish, taqdid va qo'rqitishdan o'zini tiyishi zarur;

- O'quvchilarni tushuna olishi, ularning his-tuyg'ularini qadrlash, tashvishlari, iztiroblarini engishiga yordam berishi, yoshlik va psixologik rivojlanishda o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini bilish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o'quv jarayoniga o'zgacha talab va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanadi.

Bu esa ta'lim sohasida o'quvchi, o'qituvchi, oila, mahalla hamkorlikda bir maqsad sari, ya'ni, DTS talablarini o'zlashtirish va undagi me'yorlardan yuqoriroq natijalarga erishishni taqozo etadi.

DTS talablarini bajarishning asosiy omillaridan biri ta'lim jarayoniga samarali natijaga ega yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etishidir.

Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi yoshlarga zamon talablariga javob beruvchi bilimlarni berish uchun avvalo o'zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo'lishi kerak. Zero, tizimdagi yutuqlarning asosi maktablarda tashkil etiladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. O'quv soatlarida o'quvchilarga etarli bilim berish hayotiy ko'nikmalarini oshirish va malakalarini shakllantirish o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq.

O'quvchining mustaqil fikrini bayon etish, o'z yo'nalishini tanlashi va buning asosi bo'lgan qarashlarini isbotlashi, o'rni kelganda himoya qilishni o'rgatilsa, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirib borishga erishishi orqali ta'lim mazmunining natijasi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ta'limni isloh qilishda o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar kundan-kunga oshib bormoqda. Pedagogika fani oldida turgan muammolarning biri ham, aynan, o'qituvchi va pedagog mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni bilimli va axloq-odoblilik qilib voyaga etkazish vazifasi yotadi.

**Shu munosabat bilan bugungi kunda o'qituvchi shaxsiga quyidagi talablar qo'yiladi:**

- o'z fanini chuqur bilishi va uning metodikasini etarli darajada o'zlashtirish;
- keng ilmiy dunyoqarashli va teran e'tiqod sohibi bo'lishi;
- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;
- ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;
- ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishi;
- o'z kasbi va bolalarni sevishi;
- ruhiy pedagogik ziyrak bo'lishi va yangilikka intilishi;
- o'z xalqi tarixi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur o'rganishi va ularni targ'ibot qilishi;
- pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat'iylik, vazminlik, haqqoniylik, o'zini tuta bilish kabi xislatlar sohibi bo'lishi;
- o'z kasbiga to'la layoqatli va pedagogik takt (odob) egasi bo'lmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog-o'qituvchi o'zining butun bilim va tajribasini ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga yo'naltirishi bugungi kunning muhim dolzarb masalasidir.

#### **4. Kompetensiya turlari, kvalifikatsiya va kompetensiya**

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi turlari quyidagilardan iborat:

1. Kasbiy.
2. Shaxsiy.

3. Umuminsoniy.

4. Ma'daniy.

5. Maxsus.

### **Kasbiy kompetensiya**

Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;

O'z ustida ishlash;

Ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish;

O'quvchilar ehtiyojini anglay olishi;

O'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;

AKTni bilishi;

Ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;

O'z fanini mukammal bilishi;

Xorijiy tillardan birini bilishi.

### **Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:**

1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;

2. O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;

3. O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

### **Shaxsiy kompetensiya**

- Muloqatchanlik;

- Bag'rikenglik;

- Yetakchilik;

- Faol, tashabbuskor;

- Moslashuvchan;

- Sog'lom turmush tarzi;

- Mas'uliyat;

- Ishchanlik;

- Insonparvarlik.

### **Umummadaniy kompetensiya.**

Ma'lumotli;

Madaniyatli;

Umuminsoniy qadriyatlarga egalik;

Milliy madaniyatga ega bo'lish;

Mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;

Boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi.

### **Maxsus kompetensiya**

O'quvchilar ehtiyojini bilishi;



Turli yosh xususiyatlarini bilishi;

**Kvalifikasiya va kompetensiyaning o‘zaro munosabati.**

**Kvalifikasiya**- potensial faoliyatda bilim va ko‘nikmaning namoyon bo‘lish.  
**Kompetensiya**-bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko‘rinishi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.
2. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
3. Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2012
4. Abashina V.V. Maktabgacha ta'lim muassasalari o'qituvchilarining bolalarni o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan modelidagi kasbiy vakolati masalasiga // Monitoring shaxsga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni amalga oshirish sharti sifatida: Sat. ilmiy Uchinchi tuman ilmiy-amaliy materiallari. conf "Znamenskiy o'qishlari": 2004 yil 2 soat Surgut. 1 qism.
5. Pedagogik faoliyatga kirish: darslik. talabalar uchun nafaqa. yuqori ped darslik. muassasalar / A.S. Robotova, T.V. Leontiev, I.G. Shaposhnikova va boshqalar; tahririyati ostida A.S. Robotova. 2-nashr., Stereotip. M., 2004 yil.

## VI MAVZU: PEDAGOGIK MAHORAT VA KOMPETENSIYA MEZONLARI

### Reja:

1. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda pedagogik mahoratning roli
2. O'qituvchining pedagogik texnikasi
3. Pedagogik faoliyatga ta'sir qiluvchi obyektiv–shaxsiy omillar
4. O'qituvchining ijodkorligi va mehnatda faolligi.
5. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Pedagogik mahoratni tarkib toptirish va shakllantirish yo'llari.
7. Pedagogik mahoratning ta'lim – tarbiyada tutgan o'rni.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *Pedagogik mahorat, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogning kommunikativ kompetentligi, pedagogik muloqot uslublari, pedagogik muloqot uslublarini to'g'ri tanlash, pedagogik deontologiya, nutq texnika, nutq madaniyati, ta'lim jarayonini samarali boshqarish, pedagogik nizo, pedagogik nizolarni bartaraf etish, pedagog imidji, kasb mahorati, pedagogik mahorat, optimizm, insonparvar-gumanist.shaxsiy xususiyatlar, gumanistik yo'nalish, kasbiy bilimdonlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, metodologiya, nazariy, uslubiy texnologik bilimlar, faoliyat elementlari, o'z-o'zini kasbiy tarbiyalash.*

Insoniyat tomonidan minglab kasb-hunar bajarib kelinadi. Har bir kasb yuqori saviyada bajarilishi, kasb mahoratining talablariga javob berishi kerak. **Pedagogik mahorat** deganda pedagogik faoliyat yuritishda murabbiyning qobiliyatlarini oliy darajada namoyon etishi, butun borlig'ini ta'lim-tarbiyaga yo'naltirish tushiniladi. Pedagogik mahorat uzoq vaqt davomida o'qish-o'rganish, mashq qilish, tajribalar asosida hosil qilinadi. Pedagogik mahoratning boshqa kasb mahoratlaridan farqi shundaki, u bir qancha qirralarga bo'linadi. **Xulosa qilib aytganda**, pedagogik mahorat - yuksak darajada pedagogik faoliyat yuritishga o'zini yo'naltira bilish uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlar yig'indisidir.


**Pedagogik mahoratni quyidagi tarkibiy qismlar tashkil etadi:**

- insonparvarlik (gumanistik) yo'nalishi;
- kasb bilimdonligi;
- pedagogik qobiliyatlar (didaktik, tashkilotchilik, pertseptiv, suggestiv, akademik);
- pedagogik texnika.

*1. O'qituvchi shaxsining insonparvarlik (gumanistik) yo'nalishi - g'oyalari, qiziqishi, qadriy yo'nalishlari.*

Har bir o'qituvchi shaxsining pedagogik yo'nalishi turlicha, ko'p qirrali. Uning qadriy

yo'nalishini: 1) o'z-o'zida bilimdon, talabchan, haqiqiy o'qituvchini ko'rishga; 2) pedagogik ta'sir etish vositalariga (o'quv materiallari va hokazo); 3) o'quvchiga, bolalar jamoasiga; 4) **pedagogik faoliyat** maqsadiga - faoliyat obyekti, vositalarini - o'zgartirishga qaratilgan bo'lishi mumkin, ya'ni gumanistik strategiya.



## 2. Kasbiy bilimdonlik.

**Pedagogik mahoratning asosiy poydevori** - kasbiy bilimlardir. O'qituvchining bilimlari, bir tomondan, o'zi o'qitadigan predmetlarga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni o'zlashtiradigan o'quvchilarga qaratilgan. Kasbiy bilimlarning mazmuni o'zi o'qitadigan predmetni, uning metodikasini, pedagogika va psixologiyani bilishni tashkil etadi. **Pedagogning mahorati** - bilimlarni "insoniylashtirish" dadir, ularni auditoriyaga oddiy kitobdangina emas, balki o'zining dunyoqarashi sifatida bayon etadi.

Pedagogning kasbiy bilimlari asosida pedagogik ong shakllanadi, uning harakatlari asosida yotuvchi prinsiplar va qoidalarga amal qilinadi.

## 3. Pedagogik qobiliyatlar.

Bu psixologik jarayonda kechadigan xususiyat bo'lib, pedagogik faoliyat samarasiga ta'sir etadi. Pedagogik qobiliyatlarni bir qancha yirik olimlar (Gonobolin F.N., Kuzmina N.V., Krutetskiy V.N. kabi) tadqiq etganlar.

Qayd etilgan mualliflarga suyangan holda **shaxsning pedagogik faoliyatiga** tegishli asosiy **oltita qobiliyatini** ajratib ko'rsatish mumkin:

1) **Muloqot qila olish, bu o'z ishiga, kishilarga bo'lgan munosabat, xayrixohlik, yaxshilikni ravo ko'rish.**

2) **Idrok eta olish qobiliyati** - kasbiy hushyorlik, sezgirlik, pedagogik zehn.

3) **Shaxs jo'shqinligi** - irodaviy ta'sir ko'rsata olish va mantiqan ishonтира olish qobiliyati.

4) **Hissiy turg'unlik** - o'zini qo'lga olish qobiliyati.

5) **Optimistik faraz**, baholash qobiliyati.


6) **Ijodiy qobiliyat**.



#### 4. *Pedagogik texnika*

Bu pedagogik mahoratning to'rtinchi tarkibiy qismi - o'qituvchi xatti-harakatini tashkil etish shakli. Faqat bilish, yo'nalish va qobiliyatlargina ko'nikmalarsiz yaxshi natijalar garovi emas.

Pedagogik texnika o'z ichiga ikki guruhdagi ko'nikmalarni oladi: o'z-o'zini boshqara olish ko'nikmalari va pedagogik vazifalarni hal etish jarayonida o'zaro ta'sir etish ko'nikmalari. Birinchi guruh ko'nikmalari - bu o'z tanasi, hissiy holati, nutq texnikasini boshqarishiga qaratilgan. Ikkinchisi – didaktik, tashkilotchilik ko'nikmalari, aloqali o'zaro ta'sir texnikasiga ega bo'lish. (bu haqda keyinchalik alohida to'xtaymiz).



### **Shaxsning pantomimik harakatlari va jestlari mohiyati bilan tanishish.**

Talabalar shaxsga xos xatti-harakatlar mohiyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar bilan tanishadilar. **Shaxsning pantomimik harakatlari va jestlari mohiyati** quyidagicha:

- 1. Agressiya yoki o'ziga bo'lgan qat'iy ishonch** – ikkala qo'lni orqa tomonda, oyoqlarni elka kengligidan bir oz kengroq tutish.
- 2. Mensimaslik, boshqalarga nisbatan o'zini katta tutish** – oyoqlarni elka kengligidan biroz kengroq tutib, qo'l panjalarini birbiriga boshning orqa tomonida tutashtirish.
- 3. Aybdorlik, qo'rquv** – oyoqlar bir-biriga yaqin qo'yib, bir oyoqning tizzasini va boshni biroz egish, pastga qarash.
- 4. Ishonmaslik, mensimaslik, o'zini yuqori tutish** – bosh biroz orqaga tashlab, nigohni suhbatdoshga tepadan yo'naltirish.
- 5. Qiziquvchanlik** – boshni biroz chap yoki o'ng tomonga egish.
- 6. Qo'zg'olishga tayyor turish, olingan buyruqni darhol bajarish** – stul chetiga o'tirgan holda, tovonni biroz ko'tarib turish.
- 7. Oyoqni kerib o'tirish** – o'ziga ishonish, mustaqil fikrga ega bo'lish.
- 8. O'tirgan holda bir oyoq uchini eshikka qaratish** – suhbatdan qoniqmaslik, chiqib ketish fikrida ekanlikni namoyon etish.
- 9. O'tirgan holda oyoqlar pastki qismining bir-biriga tegib turishi** – hayajonlanish, shoshilish.
- 10. Birdan turib ketish** – suhbatdan sovish, bir qarorga kelish, zerikish.
- 11. Tirsaklarni stolga tiragan holda qo'lning bosh barmog'i bilan jag'ni tutib turish** – mensimaslik, biror narsaga tanqidiy yondashish.
- 12. Jag'ni qo'l kaftlari bilan ushlab turish** – zerikish.
- 13. Oyoqlarni chalishtirib, qo'l panjalarini bir-biriga bog'lagan holda oyoq tizzasini ushlab turish** – o'ylanish.
- 14. Qo'llarni musht qilgan holda silkitish** – masalaga salbiy munosabatda bo'lish.
- 15. Qo'lni musht qilgan holda ko'rsatkich barmoqni tik (“begiz”) qilgan holda gapirish** – asl niyatning aytilayotgan fikrlarga mutlaqo teskari ekanligi.
- 16. Kaftni yozib, tik holda qo'lini oldinga uzatish** – sabr qilishni, jim turishni talab etish.
- 17. Ustki kiyimning biror joyini ushlab yoki tugmalarni echish** – suhbatdoshlarga nisbatan ochiq, samimiy munosabatda bo'lish.
- 18. Suhbatdoshning savollariga javob bera turib, burnini qashlash** – aldash yoki ishonmaslik.
- 19. Gapirayotganda boshni dam-badam qashlash** – tashvishlanish, uyalish.

20. **Jag'ni qashlash** – javob berish yoki bermaslik haqida o'ylanish.
21. **Tirnoqlarni tishlash** – hijolatpazlik.
22. **Ruchka yoki ko'zoynakni artish** – javob berish oldidan o'ylanish.
23. **Biron narsa (stol, parta, kafedra)ga suyanish** – og'ir vaziyatga tushib qolganlik va undan chiqish yo'llarini izlash.
24. **Ustki kiyimdan nimanidir qoqish** – mavjud vaziyatni yoqtirmaslik.
25. **O'ng va chap qo'l barmoqlari uchlarini mos holda birlashtirish** – diqqatni jamlash, masalaga jiddiy yondashish.
26. **Oyoqlarni, shuningdek, qo'llarni ko'krak oldida chaltishtirish yoki o'ng va chap qo'l barmoqlarini bir-biriga bog'lash** – suhbatdoshga nisbatan yopiqlik, ehtiyotkorlik.
27. **Qo'l kaftlarini bir-biriga ishqash, oyoq tovonlarini ko'targan holda qimirlatib turish** – asabiylik, bezovtalik, norozilik.
28. **Yelkaga qoqib qo'yish** – ruhiy yaqinlik, dalda berish.
29. **Qo'lni mahkam siqish** – do'stlik, hamkorlikni ifodalash.
30. **Qo'l uchida salomlashish** – yoqtirmaslik, yomon ko'rish, jirkanish.
31. **Boshni silab qo'yish** – erkalatish, yoqtirish.
32. **Labni yalash** – yolg'on gapirish, qo'rquv.
33. **Labni tishlash** – hijolat bo'lish, uyalish.

Har qanday faoliyat kabi pedagogik faoliyat ham o'z ichiga o'ziga xos xususiyatlar bilan farq qiluvchi quyidagi komponentlar (tarkibiy qismlar) ni oladi: maqsad, vosita, obyekt, subyekt.

Eng avvalo, **pedagogik faoliyatning maqsadi** o'ziga xos xususiyatga ega.

1. O'qituvchi ishining maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni o'qituvchi erkin holda o'z mehnatining natijasini tanlamaydi, uning harakatlari o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

2. O'qituvchining faoliyati har doim boshqalarni boshqarish faoliyatidir.

3. Boshqa kishi faoliyati (ta'lim-tarbiya)ni boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagogning maqsadi tarbiyalanuvchining kelajagini ifodalaydi.

Pedagogik mehnatning **obyekti** - inson, shakllanayotgan shaxs ma'naviy dunyosining nozik tomonlari – aql, hissiyot, iroda, e'tiqod, o'z-o'zini anglash kabilar.

**Subyekt** - tarbiyalanuvchiga ta'sir etuvchilardir, ya'ni pedagog, ota-onalar, jamoa tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy qurol - o'qituvchi shaxsi, uning bilim va ko'nikmalaridir.

Tarbiyaning asosiy vositalari - bu tarbiyalanuvchilar ishtirok etadigan har xil *faoliyat* turlaridir: mehnat, muluqot, o'yin, o'qish, badiiy - estetik va boshqa faoliyatlar.

Yuqorida aytib o'tilganidek pedagogik faoliyatning asosiy komponentlari bu maqsad, subyekt, vositalardir. Pedagogning vazifasi bu elementlarni boshqarishdan iboratdir.

Pedagogik mahoratni shakllantirish mumkin. Pedagogik oliy o'quv yurtlarida birinchi

kunlardan kasb tarbiyasiga alohida e'tibor berilishi zarur. Bo'lajak o'qituvchining shakllanishi ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Asosiy o'rinni psixologik-pedagogik fanlar tizimi egallaydi (pedagogika nazariyasi va tarixi, yangi pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, psixologiya). Mutaxassislik fanlar fundamental bilim berish bilan birgalikda bo'lajak o'qituvchini dunyoqarashini, metodologik bilimlarini shakllantiradi.

Pedagogik mahorat amaliyot davrida yanada rivojlanadi va talabalarda amaliy ko'nikma, malakalar tekshiriladi. Pedagogik mahorat rivojlanishida muhim o'rinni bo'lajak o'qituvchini ijtimoiy - pedagogik faoliyati bajaradi. Bu faoliyat qancha mazmunli va keng bo'lsa, shuncha uning samaradorligi oshadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, hech qanday oliy ta'lim muassasasi tayyor holda mahoratli pedagogni etkazib bera olmaydi. Mahoratga erishishning eng samarali va to'g'ri yo'li o'z-o'zini tarbiyalashdir. O'z-o'zini tarbiyalash usul va vositalari nihoyatda ko'p, qolaversa o'qituvchilikning o'zi ijodiy soha hisoblanadi, izlanishni talab etadi.

Ma'lumki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichi bo'lajak tarbiyachi va o'qituvchilardan yuksak darajadagi kasbiy mahoratni egallashlarini talab etadi. Ularni pedagogik faoliyatga ham nazariy, ham amaliy jihatdan tayyorlash ishida pedagogika ta'lim yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Pedagogik mahorat" kursi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, pedagogik va uslubshunoslik fanlarining hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy – amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, pedagogik mahorat ta'lim – tarbiyani optimallashtirishning kasbiy ko'nikma va malakalari tizimi bo'lib, u asosan yosh avlodni maqsadga muvofiq yo'naltirish, ularning ma'naviy e'tiqodini, dunyoqarashini, qobiliyatlarini ijtimoiy ehtiyoj nuqtai – nazardan har tomonlama rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat.

Mazkur kursni o'rganishdan asosiy maqsad bo'lajak pedagoglarga madaniy tafakkur, bolalar va o'quvchilar bilan muomala qila olish ko'nikmasi, o'z xulqi, xatti-harakatini o'zi boshqara olish layoqatini tarbiyalash bo'yicha faoliyat tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu qo'llanmada bo'lajak yosh pedagoglar, shuningdek ta'lim –tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilarga kasbiy pedagogik bilim va mahoratni takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalar beriladi.

Yangi insonni shakllantirish masalasining ko'p qirrali va murakkabligi pedagogik mahorat muammosining hozirgi zamon tarbiya nazariyasi va praktikasi uchun muhimligini ko'rsatib beradi. Chunki hamma vaqt insonni har tomonlama mukammal tarbiyalash, uning kelajagini belgilash borasida tarbiyachi pedagog mahorati, uning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasi, maxsus bilim

va tajribasiz erishib bo'lmaydi. Zero, pedagogik mahorat barcha o'quv-tarbiyaviy faoliyatning eng qulay yo'llarini belgilaydi, hamda har bir pedagogdan o'quvchi shaxsning barcha tomonlarini rivojlantirish va takomillashtirishga doir kasbiy bilim, tajribaga ega bo'lishni talab etadi.

Hozirgi pedagogik ta'lim yo'nalishi bo'lajak pedagog mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yetarli sharoitlarni belgilab berishi kerakki, natijada o'sha mutaxassisni chuqur ilmiy bilim kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishiga olib kelsin.

Xuddi shu maqsadda Respublikamizning barcha oliy o'quv yurtlarining o'quv rejasiga ko'ra "Pedagogik mahorat" kursi kiritildi va o'qitila boshladi. Albatta bunga qadar ushbu muammo bo'yicha shug'ullangan Rossiyalik taniqli pedagoglardan V.A.Slastenin, A.I.Piskunov, A.P.Petrovskiy, V.K.Rozov, L.F. Spirin va boshhalarning ishlarini aytib o'tish o'rinli. Ularning tadqiqot ishlarida pedagogik mahoratni shakllantirish yo'llari haqida fikr yuritiladi.


**"Pedagogik mahorat"** – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo'lish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish asosida tarkib topadi va pedagogik mahorat fanining tavsiyalaridan umumiy foydalanish asosida vujudga kelgan pedagogik tajriba sifatida o'qituvchining pedagog o'quv-tarbiyaviy faoliyatining yuqori darajasi".

Bo'lg'usi mutaxassis pedagogik mahorat qirralarini mukammal bilishi, bu borada yetakchi mohir o'qituvchilar pedagogik ish tajribalarini o'rganishlari zarur. Pedagog hozirgi zamon ruhi bilan yashash orqali kelajakni ko'ra bilishi, uni tashkil eta bilish uning uchun o'ta murakkabdir.

Pedagogik mehnatning obyekti: - Inson bo'lib "shakllanayotgan shaxs ma'naviy turmushining nozik tomonlari - aql, his, iroda, ishonch o'z-o'zini anglash"dir.

Hozirgi zamon uzluksiz talim tizimida bo'lajak mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, chuqur ilmiy, kasbiy pedagogik tayyorgarlikka erishishga imkon yaratilishini nazarda tutadi. Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o'ziga xos quyidagi kategoriyasi mavjud (2-rasm):





Quyida o‘qituvchi pedagogik tajribasini o‘rganish sxemasi keltiriladi.

**I. Maqsadni o‘rganish vazifalarini shakllantirish:** dolzarb mavzularini aniqlash.

**II. Pedagogik fanlar va ta’lim amaliyoti bilan bog‘liq masalalarni hal etishda mohir o‘qituvchilar erishgan natijalarni aniqlash.**

**III. Ilg‘or pedagogik tajriba to‘g‘risida faktik materiallarni to‘plash:**

1. Bevosita:

- a) o‘quv - tarbiya jarayonini kuzatish asosida;
- b) mohir o‘qituvchi va ta’lim muassasasi rahbari bilan suhbat asosida;
- d) maktab hujjatlarini o‘rganish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

2. Bevosita:

- a) pedagogik adabiyotlarni o‘rganish;
- b) mohir o‘qituvchilar ish tajribalari to‘g‘risidagi qo‘lyozma (doklad, uslubiy hujjatlar) materiallarni o‘rganish orhali;
- d) o‘qituvchiga sirtqi uslubiy topshiriqlar (anketa, xat bilan murojaatlar) berish va javoblarini o‘rganish asosida;
- e) tahlil, umumlashtirish, xulosa; o‘rganilgan tajribaning o‘ziga xos tomonlari; uning pedagogik tavsifi asoslanishi zarur.

Boshqa barcha faoliyatlar kabi pedagogik faoliyat ham o‘zining xususiyatlari bilan ajralib turuvchi maqsad, vazifa, obyekt, subyektdan va komponentlardan iborat.

Pedagogik faoliyatning maqsadi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, jamiyat tomonidan belgilanadi va asosan yosh avlod shaxsini har tomonlama rivojlantirishga

qaratilgan. Ushbu faoliyat, avlodlarning o‘zaro ijtimoiy bog‘liq alohidalarini amalga oshirishga yoshlarni tayyorlash, insonning tabiiy imkoniyatlaridan jamiyat tajribalarini egallashda foydalanishdan iborat.

O‘qituvchi faoliyati boshqalar faoliyatini boshqarish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, o‘qituvchi faoliyati o‘quvchilar faoliyati asosida quriladigan faoliyatdir. Misol uchun olganda, murakkab, ziddiyatli bir holatda pedagog baqirmaslikka, u yoki bu shaxsni ajratib ko‘rsatmaslikka harakat qilishi kerak, balki tarbiyalanuvchilar o‘zlari mazkur sharoitdan to‘g‘ri xulosa chiqarishi uchun imkoniyat bermog‘i lozim (tikilib turishi, jim turishi, keskin gapirishi). Albatta, bunday yechim tarbiyalanuvchilarning yuqori darajada ongliligidan dalolat bermasada, ular tarbiyachi maqsadi sari borganligini bildiradi. Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o‘ziga xos tomoni shundaki, u pedagog va o‘quvchi maqsadi ham bo‘lib qolishi kerak.

Boshqa odamlarning (faoliyatini boshqarish shu jihatdan ham murakkabki, tarbiya maqsadi tarbiyalanuvchining kelajagini loyihalashtiradi. Albatta, bu maqsad o‘qituvchi uchun yaqin va tushunarli, chunki u: «Sen bilishing, uddalashing, bajarishing kerak», deb talab etadi. Lekin bola shu birgina kun tashvishi bilan yashaydi, bugungi kun muammosini hal etib boradi. Kelajak uning uchun juda ham uzoq. Bunday qarama-qarshilikni tarbiya fojiasining asosi deyish mumkin.

Buni tushungan mohir pedagoglar faoliyatining asosini bola ehtiyojiga tayanib yo‘lga qo‘yadilar, ya’ni o‘zining faoliyat dasturini bola dasturiga muvofiq holda tuzadi. Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o‘ziga xosligi o‘qituvchidan jamiyatning ijtimoiy vazifasini belgilashda shaxsiy tashabbus ko‘rsatishni, ya’ni o‘qituvchi pedagogik pozitsiyasida jamiyat maqsadi ortib borishi o‘z ifodasini topishi kerak. Aniq faoliyatning maqsad va vazifalarini ijodiy tushunib yetish; bolalar qiziqishlarini hisobga olish va ular o‘quv jarayonidagi maqsadlarini amalga oshirishda faoliyat turlari va mazmunini o‘zgartirib borishi kerak.

### **Pedagogik faoliyat obyektining o‘ziga xos tomonlari quyidagicha:**

Inson tabiatning o‘lik material emas, balki takrorlanmas individual sifatlari, faqat o‘ziga xos munosabati va bo‘layotgan voqealarni o‘zicha tushunadigan, aktiv faoliyat ko‘rsatuvchi mavjudotdir. U o‘zining maqsadi, motivlari, xulqi bilan ajralib turadigan pedagogik jarayonning ishtirokchisidir. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning obyekti bir vaqtning o‘zida shu faoliyatning subyekti ham hisoblanib, turli pedagogik ta’sirlarga turlicha munosabatda bo‘ladi, balki o‘sha ta’sirlarni o‘z ichki dunyosi, qarashlari orhali galvirdan o‘tkazadi.

O‘qituvchi doimo o‘zgarib turuvchi, rivojlanishda bo‘lgan shaxs bilan muloqotda bo‘ladi. Shuning uchun unga bir xilda, shablon tarzidagi tasirlarni qo‘llamaslik kerak. Bu o‘ta murakkab jarayon hisoblanib, pedagogdan doimo ijodiy izlanishda bo‘lishni talab etadi.

Tarbiyaning asosiy vositalari-tarbiyalanuvchi ishtirok etadigan turli ko‘rinishdagi faoliyatlar: mehnat, muomala, o‘yin, o‘qish.

Bu masalada ayrim pedagoglar subyekt sifatida jamoa faoliyati ko‘rinishidagi ishlab chiqarish mehnati bolalar hayotini tashkil etishini o‘qitish jarayoni deb tushunsa, boshqa birovlar jamoa ijodiy ishlar orqali jamoani mustahkamlash zarur deb hisoblashadi.

O‘quvchi, tarbiyachi faoliyatidagi eng asosiy masalalardan biridir bu, o‘quvchi, tarbiyalanuvchi obyektini, tarbiya maqsadini amalga oshirishda faol ishtirokchiga, ya’ni o‘zaro ta’sir tizimini yuzaga keltiruvchi subyektga aylantirish bo‘lib qolmog‘i lozim. Bu jarayon, asosan, shaxs kelajak hayotini ijtimoiylashtirish, uning shaxsiy ehtiyojlarini jamiyat ehtiyoji bilan bog‘lay olish, uning mohiyatini anglab yetish orqali amalga oshirish mumkin.

Haqiqiy o‘qituvchi pedagogik faoliyatning asosiy komponentlari (maqsad, vosita, obyekt, subyekt)ni tushuna borib boshqarishni bilishi, maqsadlarni aniqlay olishi, subyektni faollashtirishning zarur vositalarini tanlab olishi kerak. Lekin qanday qilib qaysi o‘ziga xos shaxsiy qobiliyatlar, ichki imkoniyatlar hisobiga o‘z shaxsining nimasiga tayanib aytilganlarni amalga oshiradi.

Biz bu yerda pedagogik mahoratni shaxsiy faoliyat nuqtai nazaridan tushunishga harakat qilamiz hamda uni kasbiy faoliyatni tashkil etishni yuqori saviyada amalga oshirilishini ta’minlaydigan shaxsiy kompleks xususiyatlar yig‘indisi degan tushuncha nuqtai nazaridan yondashishga harakat qilamiz. Bunday muhim xususiyatlarga faoliyatning insonparvarlik yo‘nalishi, o‘z kasbiy bilimi, pedagogik qobiliyati va pedagogik texnika kiradi. Bu ta’rifda biz uchun eng muhimi quyidagilardir.

**Birinchidan:** pedagogik mahorat - shaxs tuzilishida bu o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizim bo‘lib, bu o‘rinda sistema bunyod etuvchi omil bo‘lib insonparvarlik yo‘nalishi hisoblanadi. Chunki uning faoliyati pedagogik jarayonni, ijtimoiy tuzum talabi darajasida yo‘lga qo‘yishga qaratilgan.

**Ikkinchidan:** pedagog kasbiy mahoratining asosi bo‘lib, uning chuqur, tushunib, anglab etadigan pedagogik bilim muhim hisoblanadi. Yo‘naltirilgan kasbiy bilim, yaxlit o‘z - o‘zini tashkil etuvchi yuqori kasbiy faoliyat asosini tashkil etadi.

**Uchinchidan:** pedagogik qobiliyat, pedagogik mahoratning tezroq takomillashuvini ta’minlaydigan omildir.

**To‘rtinchidan:** bilim va qobiliyatga tayanadigan texnika, barcha vositalarni maqsad bilan mustahkam bog‘lashga yordam beradi va bu bilan pedagogik faoliyat strukturasi kengaytiradi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat tizimida yuqoridagi barcha elementlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda, uning tashqi ta’sir yordamida o‘shigina emas, balki o‘z-o‘zini rivojlantirishga ham asos bo‘la oladi. Muvaffaqiyatning muhim sharti

qobiliyat yaxlitlik beruvchi vosita: yo‘naltiruvchanlik va natijaning o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlovchi pedagogik texnika hisoblanadi.

O‘qituvchi shaxsining insonparvarlik yo‘naltirilganligi tarbiyachining butun faoliyati pedagogik dramalardan iborat (turli fikrlar to‘qnashuvi, o‘z nuqtai nazari to‘g‘riligini isbotlash uchun kurash). Mahorat qanchalik yuqori bo‘lsa, ziddiyatlar shunchalik aniq ko‘rinadi, chunki ijodkor o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilayotgan yangicha tizim, eskicha qarovchilar tomonidan qarshilikka uchraydi. Shaxsning yo‘naltirilganligini nima tashkil etadi Oliy maqsad, qiziqishlar, qimmatli fikrlar.

Ana shu masalani aniqlash mavzu mohiyatini tashkil etadi. Har bir o‘qituvchi shaxsining pedagogik yo‘naltirilganligi ko‘p qirrali hisoblanadi. Uning qimmatli yo‘nalishida quyidagilar alohida ko‘zga tashlanadi:

1. O‘z-o‘ziga ishonch, ya‘ni, «mening misolimda, bilimdon, talabchan, haqiqiy o‘qituvchini ko‘rishsin».

2. Pedagogik ta‘sir vositalariga ega bo‘lishi.

3. O‘quvchilarga, bolalar jamoasiga tayanish.

4. Pedagogik faoliyat maqsadiga - insonparvarlik strategiyasiga, vositalarni ijodiy o‘zgartirib faoliyat obyektiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Agar o‘qituvchi ishiga va o‘quvchilarga mehr-muhabbatni uzviy bog‘lay olsa, u haqiqiy yetuk o‘qituvchidir. Kelajak oldidagi javobgarlikni his etish, ongli intilish bilan bolalarga bo‘lgan ulkan muhabbatni uzviy tarzda bog‘lay olgandagina pedagogik mahorat shakllana boradi. Pedagog faoliyatining yuksak vazifasi- insonparvarlik yo‘naltirilganligi, uning aniq maqsadlarini belgilashga yordam beradi.

O‘qituvchining insonparvarlik yo‘naltirilganligi, uning hayotiy aktiv pozitsiyasida ham ko‘rinadi. Bir misol: uzum terгани IX sinf o‘quvchilari ertaga ham boqqa ishga chiqish kerak edi. Lekin bolalar ishga chiqishni, uzum terishni xohlamayapti. Chunki kechagi va oldingi kun terilgan uzumlar olib ketilmasdan oftobda chirib yotgan edi. Lekin o‘qituvchi qat‘iy qilib, “Sizlarning ishinglar uzum terib berish, qolgani sizning ishingiz emas” deb majbur qildi.

Albatta, o‘qituvchi bolalar to‘g‘ri gapirayotganligini bilib tursada, ularning fikrini quvvatlamadi. Buning o‘rniga u befarqligi, e‘tiborsizligi tufayli shunday bo‘layotganini rostmona gapirib, bu masalani tegishli rahbarlar oldiga qo‘yishini aytishi kerak, o‘quvchilar bilan birga qanday qilib hosilni saqlab qolish to‘g‘risida ham o‘ylashi kerak edi.

Mohir o‘qituvchining yo‘nalishida ikki intilish - o‘zi dars berayotgan predmet bilan doimiy qiziqishi va o‘quvchilar bilan munosabatga doimiy ehtiyoj sezishdan iborat. Pedagogik mahoratning fundamental asosi kasbiy bilimdir. O‘qituvchining bilimi, bir tomondan, fanga, o‘zi dars berayotgan fanga, ikkinchi tomondan, bu fanni o‘zlashtiradigan o‘quvchiga qaratilishi lozim.

Kasbiy bilim mazmuni, u dars berayotgan predmet, uning metodikasi,

pedagogika va psixologiya fanlarini tashkil etadi. Kasbiy pedagogik bilimning muhim o'ziga xos tomoni, o'zi o'rganayotgan fanlarni - umumlashtirishni, birlashtirish, ya'ni uning kompleksligini ta'minlashdan iborat. Bunday umumlashtirish birlashtirishning asosini - pedagogik masalalarni yechish, pedagogik holatlarni tahlil etish, shaxsni shakllantirish qonunlarini anglash asosida vositalarni tanlash demakdir. Har bir pedagogik masalani yechish o'qituvchining butun bilimlar sistemasining mohiyatini oshiradi, muhimligini ko'rsatadi. Mohir o'qituvchining kasbiy bilimlaridagi komplekslik, umumlashtirish bilan birga shaxsiy qarashlari nuqtai nazaridan ham muhim o'rin tutadi.

Masalan: 8-sinfda adabiyot darsi A.Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani haqida juda ko'plab adabiy tanqidchilar: O.Sharofutdinov, U.Normatov, B. Qosimovlarning fikrlari aytilgan. O'quvchilar ham bu roman haqida o'z fikrlarini aytishdi. Lekin o'qituvchi o'zi biron marta ham «Mening fikrimcha, men o'ylaymanki», qabilida bu roman haqida o'z nuqtai nazarini bildirmasa, o'z ichki munosabatlarini aytmasa, u holda hech qachon o'quvchidan jiddiy, ko'ngildagi o'z fikrlarini talab qila olmaydi. Fanlarning nazariy asoslarini bilish, madaniyat sohasidagi butun bilim saviyasi, o'qituvchi shaxsiy qarashlari, nuqtai nazari bo'lib maydonga chiqilishi kerak.

**O'qituvchining mahorati** kitobdagini auditoriyaga, sinfga yetkazuvchi emas, egallagan bilimlarni o'zlashtira olishi o'ziniki qilishida dunyoga o'zining nuqtai nazaridan qarashlari tarzida bayon etilgan bo'lishi kerak.

Pedagogik kasbiy bilim asosida uning xatti-harakati va tutishlarining asosiy prinsiplari va qoidalari, ya'ni pedagogik ongi shakllanadi. Bu prinsiplar, qoidalarni har bir pedagog o'zining tajribasi asosida yaratadi, lekin ularni tushunib yetish, qonuniyatlarini ko'ra bilish faqat doimiy izlanish, o'rganishni talab etadi. Bu esa ilmiy bilimlarni egallash orqali amalga oshiriladi. O'qituvchining ta'lim berishidagi qiyinchiligi kasbiy yaroqlikni egallashning murakkabligi shundaki, kasbiy bilim, birdaniga bir necha darajada, sohada shakllanadi:

**a) metodologik** (falsafa qonunlarini bilish, tarbiya maqsadini belgilash zaruriyatini anglab yetish) sohasida;

**b) nazariy** (pedagogika, psixologiya qonunlarini, prinsip qoidalarini faoliyat formalarini bilish) bilimlar sohasida;

**d) metodik** (o'quv - tarbiya jarayonini modellashtirish, konstruksiyalash darajasini o'zlashtirish) bilimlarni o'zlashtirishda;

**e) texnologik** (aniq sharoitda ta'lim va tarbiyaning amaliy vazifalarini yechish darajasini o'zlashtirish) sohasida shakllanadi.

Bu esa tajribali pedagogdan yetarlicha rivojlangan kasbiy fikrlashning keraklisini ajratib ola oladigan, pedagogik maqsadga erishishda egallangan bilimlar

tahlili va umumlashtira oladigan, ularning texnologik tarzda ko'rsata oladigan bo'lishni talab etadi.

Mahoratni egallashdagi tezlik pedagogik bilimlarning o'sishini to'la ta'minlay olmaydi. Albatta, oliy o'quv yurtida a'loga o'qiyotgan talabaning pedagogik amaliyoti doimo ham muvaffaqiyatli o'tavermaydi. Muvaffaqiyatli faoliyatni ta'minlovchi mazkur shaxsning o'ziga xos tomonlari kasbiy o'sishga turtki beruvchi qobiliyat ham bor.

**Pedagogik faoliyatda qobiliyat.** U (qobiliyat) pedagogik faoliyat muvaffaqiyatiga yordam beruvchi psixik jarayonlarning sodir bo'lishida namoyon bo'ladi. Bu masala bir qator tadqiqotchilarning izlanishlarida o'z aksini topgan (F.N. Gonobolin, «O nekotorig psixicheskix kachestvax lichnosti uchitelya», jurnal «Voprosi psixologII», № 1 1975. N.V. Kuzmina. Ocherki psixologII truda uchitelya. L. 1967. V. N. Kruteskiy. Psixologiya. M. 1980 g. Str 345.).

Mohir o'qituvchi o'z ishini, asosan, amalga oshirilishini ta'minlaydigan eng asosiy qobiliyatlarni ajratib olishimiz kerak. Barcha yetakchi qobiliyatlarni birlashtirayotgan yetakchi qobiliyat bu o'smoqda bo'lgan avlod - obyektga nisbatan sezgirlik, xushyorlikdir. (N.V.Kuzmina). Yuqorida sanab o'tilgan mualliflarning olib borgan tadqiqotlariga tayanib, pedagogik faoliyatning quyidagi oltita yetakchi qobiliyatlarini sanab o'tish mumkin:

- kommunikativlik (muomala qila olish qobiliyati) odamlarga yaqinlik, xushmuomalalik, e'tiborlilik;
- kasbiy ziyalik, pedagogik intuitsiya, perseptiv qobiliyat;
- shaxs dinamik - irodaviy ta'sir va mantiqiy ishonchga qobiliyatlilik;
- emotsional turg'unlik - o'zini qo'lga olib bilish qobiliyati;
- optimistik prognoz qilish (ishonch bilan oldindan ko'ra bilish);
- ijodkorlikka qobiliyat.

Pedagogik faoliyatga, boshqa ko'rinishdagi qobiliyatlar kabi, kasbiy bilim egallash jarayoni qanchalik tez sodir bo'layotganini kelgusi pedagog pedagogik faoliyatning yo'l, usul va vositalarini qanchalik chuqur va puxta egallab borayotganiga qarab ham bilish mumkin. Bizningcha, o'zining qobiliyati qanchalik ekanligini, kommunikativlikdan, ya'ni muomala qila olish qobiliyatini tekshirib ko'rishdan boshlash mumkin.

Umuman, bunday qobiliyatni hamma ham egallaydi. Lekin u har xil namoyon bo'ladi. O'qituvchi uchun kommunikativlikning past darajasi pedagogik faoliyat muhitini buzadi, o'quvchilar bilan munosabatlarda to'siqlarni keltirib chiqaradi. Demak, tahlil qilib ko'rish kerak, ko'pchilik bilan bo'lishni xohlaysizmi (har kuni ular bilan uchrashib turish), suhbatlarga intilishi, yangiliklarni baham ko'rish - fikr almashishi. Pedagogik faoliyatda ijodkorlikka qobiliyat o'qituvchining kasbiy shakllanishi qanchalik tez ketayotganiga qarab ham belgilanadi. Xushmuomalalik

o'zida muomala qilishga xohish va ehtiyojnigina qamrab olmasdan balki kommunikativlik jarayonidan qoniqish hosil qilishni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilar bilan umuman, odamlar bilan samimiy munosabat va ular bilan ishlashdan qoniqish hosil qilish pedagogning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. O'z ustida ijodiy ishlash uchun quvvat beradi.

**Xushmuomalalik, perseptiv** qobiliyatni ularni ichida - kasbiy sezgirlik kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Agar o'quvchining tashqi belgilariga, harakati, yuzidagi sodir bo'ladigan o'zgarishiga, ko'rinishiga qarab, uning ichki holatini tez va to'g'ri aniqlay olmasa, xatti-harakatni yuzaga keltiruvchi motivlarni tushunib yetmasa, o'qituvchi qanday qilib maqsadga muvofiq xulosa chiqara oladi.

Kuzatish qobiliyati murakkab xususiyat. U faqat ko'ra olish, eshita olishdagina emas, balki, asosan, nimaga e'tibor yo'naltirilganligi, shuningdek, olingan axborotlarni ongimizda tez qayta ishlay olishda ham ko'rinadi.

Kuzatuvchanlik qanday rivojlanadi. Biz nima ko'rmoqchi bo'lsak, o'sha narsani ko'ramiz - xuddi shu yerdan samimiy (haqiqiy) qizihishimiz boshlanadi. Kuzatish tahlil hamdir. Bundan esa qabul qilingan axborotlarni, hodisalarni tushunib yetish uchun doimiy savollar kelib chiqadi.

**Kuzatuvchanlik va tajriba** intuitsiya kabi qobiliyatning rivojlanishiga asos bo'ladi. Mohir pedagogning bu vaqtga kelib ko'zi pishgan va bir qarashda, belgilar hatto hidiga qarab, bu xom ashyodan qanday mahsulot olish mumkinligini aytib berishi mumkin bo'ladi. Mohir bo'lish - oldindan pedagogik jarayonni ko'ra bilish, mumkin bo'ladigan murakkablikni, pedagogik sezgirlik bilan his eta olish demakdir. Pedagog uchun mantiqiy asosga tayanib tahlil qilish, oldindan ko'ra bilishigina emas, bolalar bilan ularning quvonchi va tashvishi, qizihishi va intilishini birga baham ko'ra bilish, uning o'rniga o'zini qo'ya olish qobiliyati ham bo'lishi kerak. Mohir pedagogda odamni tushunishga qobiliyat unga aktiv ta'sir qila olish qobiliyati bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

**Dinamizm** - bu ishontirishga va ta'sir etishga qobiliyat, bu ichki energiya, yig'inchoqlik, tashabbuskorlikka qobiliyatdir. Pedagog -ijodkorning bu qobiliyatlarni egallashning yorqin ko'rinishi bo'lib, faoliyati hisoblanadi.

Uning darslari ijodkorlik bilan sug'orilgan shiddatkor, uning tutgan o'rni tashabbuskorona xarakterga ega, uning so'zlari ongi va halbining eng chuqur joylarigacha ta'sir etadi.

Dinamizm emosional turg'unlik bilan bevosita bog'liq. O'z-o'zini boshqara olish, to'g'ri yo'lga sola bilish qobiliyati shaxsning emosional turg'unligini yuzaga keltiradi. Pedagogik holatni egallash va shu holatda o'z-o'zini boshqarishga yordam beradi.

**Optimistik prognoz qilish** (ishonch bilan oldindan ko'ra bilish) yetakchi

pedagogik - kasbiy qobiliyat sifatida, shu bilan birga, biz o'qituvchi shaxsining insonparvarlik yo'naltirilganligi - kompleks qobiliyatlarning uzviy bog'liqligini ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak.

**Pedagogik mahoratning elementi pedagogik texnika.** Bu o'qituvchi xulqini yo'lga qo'yish shaklidir. Harakat usullarini egallamay turib bilim, yo'naltirilganlik va qobiliyatning yuqori natijaga erishuvini ta'minlab bo'lmaydi. Pedagogik texnika o'ziga ikki guruh ko'nikmani - o'zini boshqara olish ko'nikmasi va pedagogik masalalarni yechish jarayonidan ta'sir qila olish ko'nikmasini o'z ichiga oladi.

Pedagogik mahoratning yuqori darajasida barcha ishlarga yuqori sifat beriladi; kasbiy nuqtai nazarimiz shakllanadi; bilimlar pedagog faoliyatida o'z-o'zini tahlil etishga qurol bo'ladi va o'z-o'zicha harakat qilish imkoniyatlarini aniqlaydi: yuqori darajada rivojlangan pedagogik qobiliyat shaxs imkoniyatlarini har tomonlama kengroq, to'la ochilishiga yordam beradi.

**Pedagogik mahorat mezonlari:**

- maqsadga yo'naltirilganlik;
- mahsuldorlik (o'quvchilar bilim darajasi va tarbiyalan-ganliklari natijalari);
- optimallik (vositalar tanlashda);
- faoliyat mazmuni bo'yicha ijodkorlik.

Mahorat egallashning bir necha daraja bosqichlariga ajratish mumkin. Oliy o'quv yurtlari vazifalari esa talabalarning boshlang'ich asosi, ya'ni mahorat asoslari bilan tanishtirish, yo'naltirilganlikni shakllantirish, bilim berish, qobiliyatni rivojlantirish, texnikani egallashga yordam berishdan iboratdir.

**Pedagogik situatsiya (holat) va pedagogik masala.** Pedagogik masala bu pedagogik mahoratning asosiy hujayrasi bo'lib, uni hal etish pedagog kasbiy darajasining yuqoriligini ko'rsatib beradi. Pedagogik masala bo'lgan pedagogik holatni o'zgartirish maqsadida uni tushunib yetishdir. Butun pedagogik faoliyat pedagogik masalalar zanjirlaridan iborat. U o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan ataylab yoki tasodifan yuzaga keltiriladi.

Maktab hayoti boshlanmoqda. Kech qolgan o'quvchi sinfga kirib keldi (pedagogik situatsiya). Uy vazifasini tekshirish ketyapti. Ikkita o'quvchi tayyorlanmay kelibdi - bu ham situatsiya. Yangi temani tushuntirish jarayonida o'quvchilar bir-biriga xat uzatishyapti-yana situatsiya. Bular barchasi konfliktlar emas, lekin kutilayotgan natija bilan voqea o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. Buning uchun situatsiyalarni o'qituvchi tushunib yetib o'ziga vazifalarni belgilashi kerak bo'ladi.

Strategik xarakterda (qanday qilib o'quvchilarda mas'uliyat hissini, uyushqoqlikni tarbiyalash mumkin). Taktik jihatdan (hisobga olish va nazorat vositalarini ishlab chihish, bilish faoliyatni faollashtirish) va situativ vazifa (kech



qolganga, o'qimay kelganga, e'tiborni chalg'itayotganlarga qanday munosabatda bo'lish kerak).

O'qituvchi mahorati situasiani pedagogik masalaga aylantirish, ya'ni sodir bo'lgan holatni, munosabatlarni qayta ko'rish maqsadini belgilashi kerak, bu bilan qo'yilgan pedagogik maqsad sari yetaklashi zarur. Pedagogik holat, agar o'z vaqtida hisobga olinmasa, unga e'tibor berilmasa, pedagogik masalaga aylantirilmasligi mumkin.

Shunday qilib, pedagogik holat maqsadga muvofiq yo'naltirilgan sharoitda pedagogik masalaga aylantirishi mumkin. (holat, maqsad, vazifa, masala).

Vazifa bir necha ko'rinishda hal etilishi mumkin. Uning samarali natijasi pedagogning yo'naltirilganligi, bilimi, uning qobiliyati, texnikani egallashiga bog'liq.

Pedagogik masala holatni tahlil qilish va muammoni tushunib yetishdan boshlanadi. Yangi ish boshlayotgan o'qituvchi bu bosqichga e'tibor bermasdan masalani yechishga kirishadi. Shoshilganidan masalaning chuqur ziddiyatli tomonini tushunmay, o'zining hayotida bunday holatlar oldin uchragan deb biladi. Natijada mohiyat oxirigacha anglab etilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, aysbergning tashqi ko'rinish turgan qismigagina e'tibor beriladi, xolos.

Holatni ko'ra bilmaslik, tushunmaslik, o'quvchining bu harakatida nima yashiringanini anglab yetmaslik masalani yechishda xatolikka olib keladi. O'qituvchining mahorati shuningdek, pedagogik masalalarni bir-biriga bog'liqligini, bir-birini taqozo etganligini ko'ra olish qobiliyatining yuqoriligidadir. Shuning uchun masalani yechish uzoqni ko'zlab amalga oshiriladi, ya'ni, bolalarni tartibga chaqirib qo'yishgina emas, balki shu harakatdan qoniqmaslik, noto'g'ri ekanligini tushunib yetish, bu holatlarni qayta takrorlamaslik hissini yuzaga keltirishdan iborat bo'lishi ham kerak.

Masalani hal etishning keyingi bosqichi - mavjud holatlarni tahlil etish, yaxlit pedagogik faoliyat jarayonida pedagogik holatning o'rni tarbiyalanuvchi va tarbiyachining o'zaro munosabatlari taxlil etilishi kerak. Natijada o'quvchi xatti-harakatlarining motivlari faoliyat maqsadi, sharoitning, o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligi tushunib yetiladi. O'quvchi ko'nglida yo'q narsani unga majburan tirkab qo'yish pedagogik ta'sirning samarali bo'lishini ta'minlamaydi.

Yakuniy bosqich: Gipotezalarni ilgari surish. O'qituvchi qaysi vaqtda o'zining nazariy bilimlari va tajribalaridan eng muhim usullarini ajratib olishi, aktiv fikrlash, tahlil uchun nima zarurligini bilishi kerak. Mohir o'qituvchi masalani hal etishga jamoani jalb eta borib, holatni tahlil qilib boradi. Bu bosqichda qo'llash mumkin bo'lgan usulni fikran o'lchab, bu ta'sir usuliga mumkin bo'lgan reaksiyani tasavvur qilib ko'rish kerak. Pedagogik masalani yechishning barcha bosqichlari o'tganidan so'ng metodlar sistemasi tanlab olinadi, chunki bitta usul kam natija beradi.

Mohir o'qituvchi bo'lish, avvalo, o'qitish tizimiga bog'liq bo'lish bilan birga, o'qiyotgan odamning harakatiga ham bog'liqdir. Shuning uchun oliy ta'lim tizimida o'qitish tizimi bo'lg'usi o'qituvchi uchun o'sish jarayonini qurish va anglab yetishga yordam beradi. Avvalo, oliy o'quv yurti talabani o'qitish jarayonida yuqori kasbiy mahoratga erishuvini ta'minlashga asosiy e'tiborini qaratishi kerak. Pedagogik mahoratni rivojlantirish o'qituvchilar tayyorlashni koordinatsiya qiluvchi asosidir. Bularning diqqat markazida esa psixologik-pedagogik fanlar turadi.

Pedagogik mahoratning yuzaga keltirish oliy o'quv yurtining butun hayotni pedagoglashtirish orhaligina muvaffaqiyatli hal etiladi. Ayniqsa oliy o'quv yurtida o'tkaziladigan pedagogik bayramlar, o'qituvchilar kuni, pedagogik masalalarni teatrlashtirilgan holda yechish, topshiriqlar musobaqasi, «Mehribon ko'z» konkursidagi chiqishlarni tahlil etish, pedagogik o'sishlar, «Talabalar, javob bering» kechasi, turli mashhur pedagoglar bilan uchrashuvlarni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning xilma-xil manbalari ichida alohida ahamiyat pedagogga beriladi. Tarbiyalanuvchining ongi, hissiyoti, faoliyati va xulqiga ta'sir etishda pedagoglar qanday imkoniyat vositalariga ega hamma ham, ayniqsa, yangi ish boshlovchi pedagoglar bu usullarni biladimi yoki tushunadimi, o'quvchilar bilan muomala qilish va ta'sir etish ko'nikmalarini egallagan.

Ijtimoiy-psixologik nazariyani va muomala qilishning pedagogik amaliyotini o'rganish asosida kommunikativ ta'sirning ikki asosiy usullarini ajratish mumkin. Bular so'z yordamida ishonitirish va ta'sir etish; his-tuyg'u, tarbiya xatti-harakatini shakllantirish, mustahkamlash va o'zgartirishga qaratilgan usullar yig'indisidir. Lekin ishonitirish va ta'sir etishning psixologik mexanizmi bir xilda emas. O'quvchilarga ta'sir etishning har qanday usullari o'zining spesifikasiga ega.

Birinchi navbatda, sog'lom jamoani tuzishga harakat qilish orhali uzoq, o'rta va yaqin kelajak maqsadlarini belgilashga va uni rivojlantirishga harakat qilish kerak. Pedagog hamjihat jamoa bilan tarbiyalanuvchidagi fazilatlarga tayanib, noto'g'ri qarashlarni tezda o'zgarishga muvaffaq bo'lishi mumkin.

**Noto'g'ri qarashlarni o'zgartirishning usullaridan bir nechtasini (A.I. Kochetov) quyida keltiramiz:**

1. O'smirlarni boshqalar bilan o'zini qiyoslab ko'rishga uni qiziqarli odamlar bilan yaqindan tanishishni yo'lga qo'yish usulidan (o'ziga o'xshamagan bolalar bilan uchrastirish) foydalanish mumkin.

Masalan, bola o'sishni xohlamaydi, uning tanishi ko'p o'qiydi, ko'p narsani biladi, lekin yodlab oluvchi, «maqtanchoq» emas.

2. Kelajakda noto'g'ri qarashlar nimaga olib kelishi mumkinligini misollar orqali ko'rsatish yo'li bilan (shunday kamchiliklarga ega bo'lgan odam oxir oqibatda o'z hayotini barbod qildi, vijdon, or-nomusni yo'qotib, o'zini juda kuchli deb

hisoblasada, aslida kuchsiz bo‘lib chiqdi) ishontirish zarur.

3. Tarbiyalanuvchi (noto‘g‘ri qarovchi)ga o‘z fikrini isbotlashga imkon berish kerak. So‘ngra uning keltirgan dalillari noto‘g‘riligini isbotlab berish kerak.

- noto‘g‘ri qarashlarni yo‘qotish uchun pedagogning o‘zidagi axloqiy fazilatlarni boladagi noto‘g‘ri xulqqa qarama-qarshi qo‘yish. Bola qo‘pollik qilsa, o‘qituvchi muloyimlik bilan javob berishi kerak;

- noto‘g‘ri qarashlarni yo‘qotish uchun shunday bolalarda imkoniyatlarini uning qarashlariga qarshi qo‘yish kerak.

Masalan: yaxshi sportchi bo‘lish uchun albatta «2» baho olish shart emas, balki ko‘plab o‘qish, shug‘ullanish, mashq qilmoq kerak;

- noto‘g‘ri qarashlarni unga ishonch bildirish, yordam berish orqali ham yo‘qotish mumkin. (Qanday yordam berishim mumkin?, Senga nima bo‘ldi?, Biror yering og‘riyaptimi? )

- noto‘g‘ri qarovchilarga nisbatan ochiqchasiga kurash olib borish.

- ishonch odamda uchta komponentlardan tashkil topadi: bilim, his-tuyg‘u, xulq.

#### **Pedagogik qarashlarda quyidagi formula amal qiladi:**

- tushundim;
- hayajonlanyapman;
- qabul qildim;
- bunga amal qilaman.

#### **Bularning birontasi inkor etilsa, tarbiya samarasi juda past bo‘ladi.**

Ishontirishga qo‘yiladigan talablar bilim, qarashlar va xulq normalari tizimi sifatidagi ishontirishni ularni shakllantirish usullari sifatida ishontirishdan farq qilish kerak. Ishontirish orqali yangi qarashlarga munosabatlar shakllantiriladi.

Ishontirishning ko‘rinishida munozaralar, suhbatlar, o‘qituvchi hikoyasi va o‘qituvchi shaxsiy namunasi muhim rol o‘ynashi ma‘lum darajada ta‘sirchan bo‘lishi uchun, u qator talablarni qoniqtirishi kerak:

1. Ishontirish mazmuni va shakllari shaxsning yoshi, rivojlanish darajasiga qarab borishi kerak.

Masalan: kichik maktab yoshida ertak, voqeyiy fantastik hikoyalar, keyinchalik borliq, dunyoni o‘rganish, insonning ma‘naviy dunyosini o‘rganish asosida.

2. Ishontirish umumlashgan prinsiplar va qoidalarni o‘zida mujassamlashtirmog‘i hamda aniq faktlar, misollarni o‘z ichiga olishi zarur. Kichik maktab yoshida ko‘rgazmali obrazlarning roli qimmatlidir.

3. Ishontirishda xulqdagi fikrlar tahlil etilishi lozim.

4. Boshqalarni ishontira borib, o‘zi izohlayotgan narsani yuzaga chiqarish uchun o‘zida ham chuqur ishonch bo‘lishi kerak.

**O‘zaro ta’sir metodi** ishontirish samaradorligini belgilovchi quyidagi shartlarga rioya qilmog‘i kerak.

1. O‘zaro ta’sir kuchi oldindan ta’minlangan bo‘lishi ishontiruvchining obro‘si va mazmuni bilan belgilanadi.

O‘quvchi o‘qituvchiga qanchalik yaxshi munosabatda bo‘lsa, uning ta’sirini shunchalik yaxshi qabul qiladi.

2. Ishontirishni yo‘lga qo‘yayotganida ishonuvchining psixik o‘ziga xos tomonlarini hisobga olish zarur.

Buning uchun pedagog tarbiyalanuvchining asab sistemasi tipini bilishi, ta’lim-tarbiyadagi yaqin rivojlanish zonasini anglab yetishi kerak.

Masalan, bolalar kuchi beqaror nerv sistemasi tipiga taalluqli.

Unda tarbiyalanishga qaraganda qo‘zg‘alish ustun turadi.

Shuning uchun tarbiyachi ishontirishni shunday yo‘lga qo‘ymog‘i kerakki, bolada yana qo‘shimcha tarzda kuchli qo‘zg‘alish holati yuzaga kelmasin.

3. **O‘zaro ta’sir jarayonida** ishontiruvchi va ishonuvchining intellektual, emotsional holatini hisobga olish zarur. Masalan, bola ortiqcha hayajonda, bu bolada negativ hissiyot ustun. Shu holatda pedagog tarbiyalanuvchining xulqi noto‘g‘riligiga ishontirishga harakat qilsa, uning bu ishi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Ishontirish metodini qo‘llashda fikr, hissiyot va irodaviy ta’sirning uzviy bog‘liqligiga amal qilgandagina u ta’sirchan bo‘ladi. Uni qo‘llashda ishontirish tuzilishiga rioya qilish maqsadga muvofiq: bilish, hissiyot-xulq. Birinchi ikkita komponentni bir-biridan ajratmaslik kerak.

Ilgari surilayotgan qoidalar isbotli bo‘lishi, faktlar, dalillarga amal qilish, pedagogning hayajonda bo‘lishi, fikrning to‘g‘riligiga qat’iy ishonchini himoya qilishga tayyor turishi katta ahamiyatga ega. Bu esa yorqin ilhomlantiruvchi so‘zlarda ifodalanadi va u bolalar xotirasida uzoq vaqt esda qoladi. Ishontirish metodidan foydalanishda bolalarning qiziqishini bilish, uni hisobga olish va undagi yaxshi tomonlarni ko‘ra olish muhim ahamiyat kasb etadi va bularni qayta tarbiyalashda hisobga olish kerak. Ishontirishning samaradorligi o‘qituvchi o‘zining so‘zi va xatti-harakatidagi uzviy birlikka bog‘liq. (Masalan, biron narsani bolaga va’da berib, uning ustidan chiqish). Yanada yomoni, agar o‘qituvchi yuksak, to‘g‘ri gaplar aytsa-yu, lekin bu gaplar, o‘zining kundalik faoliyatiga asos qilib olinmasa, bundan yomoni yo‘q. Bunday o‘qituvchilar jamiyatga katta ziyon yetkazadi. Ishontirishda yuqori samaradorlik mashqlar bilan mustahkamlansagina ta’minlanadi. Mehnatsevarlikni nafaqat hikoyalar yordamida, balki mehnat yordamida ham tarbiyalash mumkin.

Butun o‘quv-tarbiya jarayoni o‘smoqda bo‘lgan yosh avlodda dunyoqarashni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ishontirishning asosi bo‘lgan bilim shaxs dunyoqarashining yetakchi elementi, strukturasi. Bilim, agar isbotli, dalil-ashyoviy bo‘lsa, u ishonchga aylanadi. O‘quvchi isbot-dalillarga asoslangan bilimga ega

bo'lsa, boshqa eski bilimlar, qarashlarni inkor etadigan va bu inkorni asosli, isbot bilan tasdiqlaydigan bo'ladi.

Aniq ishontirish mantiqiy isbotlash demakdir, ya'ni ma'lum qoidalarni aniq munozarasiz bir fikrga olib kelish demakdir.

Isbotlash tezis, asoslash va namoyish etish (isbotlash usuli)dan iborat. Tezis shunday fikrki, uni isbotlash kerak. Asoslar shundayki, uning yordamida tezis isbotlanadi. Nazariy fikrlar, hayotiy va eksperimental faktlarni tahlili davomida namoyish etish orhali tezisni isbotlovchi xulosa, umumlashmalar xoliga keltiradi.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik davomida o'quv materiali mazmunini tahlil qiladi. Undagi bosh va ikkinchi darajali masalalarni ajratadi, bosh tezisni belgilab oladi. Asosiy e'tiborni bosh muammoni isbotlashga qaratadi. Bolalarga ma'lum bo'lgan narsalar ko'p vaqt olmasligi kerak.

Tezis aniq bir tomonlama bo'lib, ikki xil fikr bo'lmasligi va butun isbot qilish davomida o'sha fikrga qat'iy rioya qilish kerak.

Masalan: «Tanada ichki energiyani o'zgarish usullari» (VII-sinf fizika) mavzusida bosh fikr - tananing ichki energiyasini ikki xil usulda: ishlash orhali va issiqlik berish orhali o'zgartirish mumkin. Bu fikr ishonchli eksperiment, o'quvchi hayotiy tajribasini tahlil qilish orhali isbotlanadi.

Isbotlash uchun asoslar tanlanadi (faktlar, aksioma, o'rganilgan qoidalar va boshhalar bolalarni noto'g'ri fikrga olib kelmasligi kerak). O'quvchida o'rganilayotgan material to'g'risida yetarli darajada bilim, ma'lumotlar bo'lsa, asoslarga tayanib xulosa qilinadi.

Masalan, quyidagi tezisni isbotlashimiz kerak: «Alyumin elektr tokini o'tkazadi». Asos tarzida maktabdagi ma'lum qoidani tanlaymiz: «Alyuminiy - metall, barcha metallar elektr tokini o'tkazadi» shu asosda isbotlaymiz, alyumin elektr tokini o'tkazuvchidir.

**N.V.Kuzmina** mahoratni mutaxassisga o'zining kasbiy bilimlari, bilimdonligi va ko'nikmalari asosida holatni (faoliyat sharoitlari va obyektini) yaxshi o'rganib, hayotni kasbiy masalalarni bilish va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishning yaxshi imkonidan iborat, deydi. Slastinin esa pedagog mahorati-bu pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini, shaxsiy ish sifatleri va shaxs xususiyatlarining sintezidan majmuidan iborat deydi.

**Xozyainov** pedagogik adabiyotlarda keltirilgan kasbiy mahorat haqidagi ta'riflarni umumlashtirib, bu haqda u quyidagi qolatlarni keltiradi:

**Uningcha**, «pedagogik mahorat mohiyati» va «pedagogik mahorat asoslarini» ajratish zarur.

Pedagogik mahorat asoslarini pedagogik mahoratni amalga oshiruvchining faoliyati yoki unga tayyorlanuvchiga;

Pedagogik mahorhat asosi pedagog - muallim faoliyatining mahorati va

o'quvchilarning bu faoliyatdagi rolining yig'indisidan tashkil topadi;

Pedagogik mahorat muallimning oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng asta-sekin to'planib, u real pedagogik faoliyat davrida asta-sekin yuzaga kela boshlaydi. **Mahoratning paydo bo'lishi va o'sishida quyidagi kasbiy pedagogik bilimlar majmui yotadi;**

A) ta'limning maqsad asoslari;

B) o'quvchilar ta'limining mazmuni va davlat ta'lim standartlari, talablari.

V) har bir o'quvchining psixologik-pedagogik diagnostik ma'lumotlari va shuningdek, ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.

G) pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv asoslari, uning mazmuni, tuzilishi va mohiyatlari.

D) o'qituvchining kerakli kasbiy zaruriy shaxsiy sifatlarini bilishi;

E) hozirgi zamon pedagogik jarayon rivojlanishining asosiy tendensiyalari.

Bu ko'rsatilganlarning qaysi birlarining yo'qligi yoki rivojlanish darajasining yetarlicha yuqori bo'lmasligi o'qituvchining yuqori darajali mahorat hosil qilish imkonini bermaydi.

**Kasbiy-pedagogik bilimlar va ko'nikmalar umumiy holda quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:**

o'quv faoliyatining obykti sifatida ta'lim mazmunini tanlash, didaktik tashkil etish va uzatish;

o'quvchilar bilan muloqotda bo'lish;

o'quv jarayonida rivojlantirish va tarbiyalashdan foydalanish, o'quvchilarda faoliyatning mazmunini o'zlashtirishni amalga oshirish;

o'qituvchilik faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;

pedagogik qobiliyatlarni va kasbga ahamiyatli sifatarni rivojlantirish;

butun tizimga to'la ravishda ta'sir ko'rsatuvchi qurollarni yaratuvchi pedagogik jarayonni tashkil etish.

Bilish va ko'nikmalar pedagogik mahorat asoslarini tarkibiy qismini tashkil etgani va amaliy faoliyat mahsuli bo'lgani uchun ular istalgan kasbiy faoliyatda katta rol o'ynaydi.

**G.N.Kuzmina** ta'kidlashicha, **“Pedagogik mahorat”** – bu inson tomonidan qosil qilingan qobiliyat bo'lib, u ma'lum faoliyatlar natijasida hosil qilingan bilimlar va ko'nikmalar asosida yaratiladi.

Shunday qilib, pedagogning bilimlari, bilimdonligi va ko'nikmalari pedagogik mahoratning tashkiliy hismi bo'lib, ular ikki xil bo'lishi mumkin:

A) kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlanish jarayonida qabul qilingan;

B) kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida qabul qilingan;

**Sherbakov** bo'yicha «Pedagogik mahorat» bu o'qituvchi shaxsining barcha nuqiy xususiyatlari, uning bilimlari, bilimdonligi va ko'nikmalari yig'indisining

ifodasidan iborat.

Bu kabi ta'riflarda shaxsning roli katta, albatta. U o'z bilimlari, bilimdonligi, ko'nikmalari o'zining shaxsiy sifatлари, ijodini ishga solib, o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatini tashkil qiladi. Bu holda o'qituvchining shaxsiy xususiyati katta ahamiyat kasb etadi.


Shunday qilib, pedagogning shakllanishi lozim bo'lgan pedagogik mahoratining asosini quyidagilar tashkil etadi: pedagog shaxsi, bilimlari va pedagogik tajribasi.

Amaliy faoliyatda amalga oshiruvchi pedagogik mahorat asoslarini kasbiy mahorat-professionalizmning ko'rinishlari tashkil etadi. Ammo uning darajasi faqat pedagogik masalalarning qanday yechilayotganligi va oxirida qanday natijalarga erishilayotganligi bilan aniqlanadi. Pedagogik mahorat maxsus bilimlar va shuningdek, bilimdonlik, ko'nikmalar va odatlarda hamda u yoki bu faoliyatda qo'llanilayotgan usullarning yuqori darajada egallanganligidan tashkil topadi. Pedagog, qanday xususiy masalani yechmasin, ular doim pedagogik ta'sirning tashkilotchisi, murabbiysi va ustasi bo'lib qoladi. Bundan kelib chiqqan holda **pedagogning qobiliyatini to'rtta alohida elementlariga** ajratish mumkin:

- talabalarning individual va jamoa faoliyatlarini tashkil qilishdagi qobiliyati;
- ishontira olish qobiliyati;
- bilimlarni uzatish va tajriba faoliyatini shakllantirish;
- pedagogik texnikani egallay olish qobiliyati.

Pedagog mahoratining tuzilishida pedagogik texnika aloqida o'rin tutadi. U har bir o'quvchi va to'la jamoaga pedagogik metodlar tizimining ta'siridan samarador foydalanish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar majmuida iborat; Tarbiyalanuvchilarga murojaat qilishning to'qri stili va tovush ohangini tanlab ola bilishi, o'quvchilar xatti-harakatlariga o'zining munosabatini ko'rsata olishi, sezgi tempi (yuksakligi), boshqarish ko'nikmalarini boshqarishni bilishi.

Tadqiqotchilarning fikricha, quyidagi **4 ta komponent pedagogik mahoratning asosini tashkil etuvchilar** hisoblanadi (3-rasm):



### 3-rasm. Pedagogik mahorat komponentlari.

O'qituvchilik faoliyatida zaruriy so'z madaniyati – bu aniq so'z madaniyati, tovush jarayoni, to'g'ri nafas olish va so'z orasida barcha xatti-harakatlardan to'g'ri foydalanilish. «Tarbiyachi tashkil qilishni, yurishni, xushchaqchaq va jahldor bo'lishni bilishi zarur. Tarbiyachi o'zini shunday tutishi zarurki, bunda uning har bir harakati tarbiyalasin va har doim u o'zi shu paytda nimani xohlashini bilishi kerak», degan edi buyuk pedagog **A.S.Makarenko**.

Agar **pedagogik texnikaning** turli xil bilim va ko'nikmalarini guruhlariga to'plash, u holda **o'qituvchi mahoratining tuzilishidagi** bilishning eng umumiy **tashkil etuvchilarini** quyidacha ifodalash mumkin:

- mimik va pantomimik oqangdagi so'zlashuv mahoratlari;
- o'zining ruhiy qolatini boshqarish va emotsional – ijodiy kuchlanishini saqlab tura olishi;
- aktyorlik, rejissyorlik mahorati bilan tarbiyalanuvchilarning nafaqat aqliga, ham sezish organlariga ta'sir etib, ularga dunyoga nisbatan emotsional-munosabatlarni uzatish.

Pedagogik mahoratning darajasini uning ko'rsatkichlarini va mezonlarini belgilamasdan turib aniqlash mumkin emas.

**Pedagogik mahoratning mezonlari** - bu uning shunday belgilariki, ulardan pedagogik mahoratning o'lchovi sifatida foydalanish mumkin.

Pedagogdagi **o'qituvchilik faoliyatining** har tomonlama **mezonlari** quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. O'quvchi shaxsini o'zaro munosabatda rag'batlantiruvchi va ularning dalillashtiruvchi mezoni.
2. Pedagogning o'quvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan o'quv faoliyatini tashkil etish mezoni.



3. Pedagogning o'qitish mazmuni bilan aniqlanadigan mazmun va uning didaktik tashkilini boshqarish mezonlari.

4. Pedagogning o'qituvchilik faoliyatini baholash o'lchovi sifatida qaraluvchi o'qitish jarayonida kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish mezonlari.

5. O'quv darajasining strukturali-kompozitsion qurilishining mezonlari.

Taklif qilinayotgan tizimda pedagogning o'qituvchilik faoliyatidagi mezonlardan 5 ta asosiysi ajratib olingan. Ularning har biri 10 balli shkala bo'yicha bir tekisda aniqlangan umumlashgan sonlar pedagog mahoratining ko'rsatkichini hosil qiladi. Yuqorida keltirilgan mezonlarning mazmuni haqida to'laroq tasavvur hosil qilish uchun, masalan:

**Pedagog o'qitish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirishdagi mezonlarni sanab o'tamiz:**

1. O'qitish faoliyatining barcha turlari va ularning birligiga egalik qilishi:

2. Pedagog o'qitish faoliyatining talabalar bilish faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilganligi.

3. Konstruktiv, tashkiliy va kommunikatsiyaviy bilimlarning aks etishi.

4. Pedagogik texnika (so'z, testlar, auditoriya bilan kontakt o'rnatish, axborotni taqdim etish shakli va tuzilishi, o'qitish vositalarini tadbiiq etish texnikasi, e'tiborni butun auditoriyaga yo'naltira olish, javob beruvchiga e'tibor, eshita olish qobiliyati va q.z).

5. Pedagogik mehnatning yaxshi tashkil etilganligi.

6. O'qitish shakli, usullari, o'qitish vositalari, o'quvchilarni har bir o'qitish bosqichidagi rahbarlik xarakterlarining optimal tanlagani.

7. Pedagogik takt, o'zining xulq atvori va o'zini boshqara olishi.

8. O'z faoliyatini qayta qura olishi. Improvizatsiya.

9. Faoliyatga ijodiy yondoshuv, o'quvchilar tajribalaridan ijodiy foydalana olishi. O'zining pedagogik topilmalari.

10. Pedagogik faoliyatda shaxsiy sifatlardan foydalanish, pedagogik faoliyatning shaxsiy stili.

Umumlashgan shaxsiy-natijaviy ko'rsatkich ham o'quvchilar va qam pedagogga taalluqli kasbiy faoliyat natijalari bilan boqliq. U pedagogning o'qitish muvaffaqiyatidagi ta'lim masalalarining kompleks yechimini, o'quvchilarning tarbiyasi va rivojlanishi, o'zining kasbiy faoliyatini rivojlantirib borishini, kasbiy pedagogik va ijtimoiy ahamiyatli shaxsini o'z ichiga oladi.

Bu mezonlarni birlamchi ko'rsatkichlar bilan olib berish va ularni baholash quyida keltiriladi.

**O'qitishning yutuqlari:**

\* o'quvchilarda o'z faniga nisbatan hurmatni shakllantira oladi.

- \* mustahkam va chuqur bilimlarga erishtira oladi.
- \* mustahkam ko'nikmalar va bilimni shakllantira oladi.
- \* bilimlar, ko'nikmalar, bilimdonlikni tadbiq etishga o'rgatadi.
- \* bilimlar, ko'nikmalar, bilimdonlik tizimini shakllantiradi.

### **O'quvchilarda ta'lim va tarbiyani rivojlantirish masalalarini kompleks yechish:**

\* ta'lim, tarbiya masalalarini yechishda qiyinchiliklarni yengib o'tish, qa'tiylikni amalga oshirishni, ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

\* o'quvchilarda shaxsiy sifatni va jamoani shakllantiradi, qobiliyatlarni va o'quv mehnatiga ijodiy yondashuvni tarbiyalaydi.

\* o'quv faoliyati va axloqiy natijalarga javobgarlikni shakllantiradi.

### **O'quvchini «O'qitish va tarbiyalash» obyektidan «O'qitish va tarbiya» subyektiga o'tkazish darajasi:**

\* o'quv faoliyatining usullariga o'rgatadi.

\* bilish mustaqilligini shakllantiradi.

\* o'qitish asoslarini shakllantiradi.

\* o'zini o'qitish va o'zini tarbiyalash ko'nikmalari va bilimlarini singdiradi.

### **Kasbiy faoliyatni takomillashtirish.**

\* doimo bilim, malaka va bilimdonlikni takomillashtiradi.

\* doimo ishda yangilikni topishda intilishga va ijodga yo'naltiradi.

\* boshqa pedagoglar tajribasini o'rganadi.

\* shaxsiy ish tajribasini taxlil qiladi va umumlashtiradi.

### **Pedagog shaxsining kasbiy-pedagogik va ijtimoiy ahamiyatligi**

\* kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarini va qimmatli munosabatlarning shakllanganligi.

\* pedagoglar orasidagi obro'-e'tibori;

\* o'quvchilar orasidagi obro'-e'tibori;

\* jamiyat ishlariga faol qatnashadi;

\* mazkur pedagog tajribalaridan boshqalarning foydalanishi

Agarda pedagogning kasbiy mahorat dasturiga amaliy qaralsa, u holda birinchi o'ringa uning integral sifati-o'qituvchining mahoratidan iborat bo'ladi. Pedagogik mahoratga berilgan ta'riflar shuncha ko'p bo'lishiga qaramay, ularda mahoratning qaysidir tomonlari albatta ifodalanadi.

**Mahorat** - bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat. Pedagog- o'z ishining ustasi, o'z fanini chuqur biluvchi, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini hartomonlama biluvchi qamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutaxassis.

Pedagogik nazariyada o'qituvchi mahoratini ikki xil tushunish mavjud. Birinchisi, pedagogik mehnatni tushunish bilan boqliq bo'lsa, ikkinchisi tarbiyada pedagog shaxsi asosiy o'rin tutadi.

Mahoratni egallash uchun ko'p narsani bilish va qila bilish zarur. Tarbiya prinsiplari va qonunlarini qamda uning tashkil etuvchilarini bilishi zarur. O'quv-tarbiyaviy jarayon va uning tashkil etuvchilarni samarador texnologiyalardan foydalanish uchun har bir konkret qolat uchun ularni to'g'ri tanlab olishni, diagnostikalashni, oldindan bilishni va berilgan daraja va sifat jarayonini loyihalashni juda yaxshi bilishi zarur.

«Bizning pedagogikaviy ishda hamma narsani oxir oqibat mahorat hal etadi», - deydi **Azarov**. Aniq irsiy xususiyat sohibi bo'lgan talantli insongina haqiqiy usta-o'qituvchi bo'lishi mumkin, degan fikrlar mavjud. O'qituvchi bo'lib tug' ilmoq zarur. Deyarli barcha insonlar (ba'zilaridan qat'i nazar) tabiat tomonidan tabiiy tarbiyachi sifatlarga ega bo'lib tug' iladi. Asosiy masala shundan iboratki, ularni pedagogik mahoratga o'rgatish zarur.

“Talantli insonlarning tasodifiy taqsimotiga ishonishimiz mumkinmi?, Bizlar talant hisobiga tarbiyani amalga oshirishimiz mumkinmi? Yo'q. Shuning uchun faqat mahorat to'g'risida gapirish mumkin, ya'ni haqiqatda tarbiyaviy ishlarni biluvchi, tarbiyalay olish haqida gapirish mumkin. Mutaxassislik va bilishga asoslangan mahorat hamma masalalarni hal qila oladi”, - degan edi A.S. Makarenko.

“Tarbiyachi o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin va har doim u o'zining nimani xohlaganligini va nimani xohlamasligini bilishi zarur. Agar tarbiyachi buni bilmasa, u kimni tarbiyalay oladi”, - deydi **A.S. Makarenko**.

O'qituvchining mahorati, har qanday sharoitlarda ham, kerakli darajadagi tarbiyalanganlik, rivojlanganlik va bilimdonlarni tarbiya qiluvchi o'quv jarayonini tashkil qila olishidan iborat.

Haqiqiy o'qituvchi istalgan savolga to'g'ri javob topa biladi, talabaga o'ziga xos yo'l bilan yaqinlasha oladi, uni rag'batlantiruvchi fikrlar bilan uni o'ziga tortadi. Bunday o'qituvchi o'z predmetini chuqur biladi, asoslari o'qitilayotgan fanning rivojlanishi, kelajagini biladi, shular bilan birga zamonaviy adabiyotni, madaniyat va yangiliklarni, xalqaro hodisalarni tahlil qila oladi, u talabalari yaxshi ko'radigan ommabop jurnallarni o'qib boradi. Demak, usta-u hozirgi zamon o'qitish metodlarini juda yaxshi biluvchi muallimdir.

Muallimlik san'ati, ayniqsa, darslarda o'qitishni bilishdan iborat. Tajribali pedagog tinglovchilarning dasturiy materialni dars paytida o'zlashtirishlariga erishadi. Uning uchun uy ishi bilimlarni mustaqqamlash, chuqurlashtirish va kengaytirish usulidan iborat.

Mahoratning yana bir asosiy ko'rsatkichi o'quvchilarni faollashtirish, ularning qobiliyatlarini, mustaqilligini va talabchanligini o'stirishdan iborat. Pedagogik

mahoratning keyingi tashkil etuvchisi - bu tarbiyaviy ishni o'qitish jarayonida samarador o'tkaza olishi, o'quvchilarda yuqori ma'naviyat vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mustaqillikni shakllantirishdan iborat.

**O'qituvchining vazifasi** - o'quvchilarda o'qitish jarayonida, musbat his-tuyg'ularni ishlab chiqishga yo'l topa bilish. Bular oddiy usullar bo'lib: unga ish metodini o'zlashtirish, hissiy holatni yaratish, o'qituvchining faolligi, qiziq misollar keltirish, kuchli ma'noli tanbehlar va shu kabilardir. Bu kabi usullar nafaqat vaqtinchali muvaffaqiyatni hosil qilmasdan ular o'qituvchiga hurmatni oshiradi, fanga turg'un va doimiy intilishni yuzaga keltiradi.

Pedagogik mahoratning mohiyati - bu muallim shaxsiy madaniyati, bilimlari va dunyo qarashi, uning o'qitish va tarbiyalash usullarini yuqori ma'noda bilishi va yangi tajribalar va pedagogik texnika bo'yicha har tomonlama tayyorgarliklarining o'ziga xos qotishmasidir.

**Xulosa.** Yosh o'qituvchi o'z o'quvchilarining imtihonga puxta tayyorlanishlariga erishish maqsadida doimo shu gapni takrorlardi: «Kim nimani bilishini imtihon ko'rsatadi. O'ylamanglar osongina o'tib ketamiz deb». Oqibatda, imtihon o'quvchilarning imkoniyatlaridan ham past natijani ko'rsatdi. Hatto eng tanilgan o'quvchilar ham «uch» oldi. Nima sodir bo'ldi? O'qituvchi bu o'rinda butun o'quv yili davomida o'quvchilarga imtihondan qo'rqish, o'z kuchlariga ishonmaslik hissini beixtiyor shakllantirib keldi va oqibat ularning faoliyatini yo'qqa chiqarib qo'ydi.

Pedagogik ta'sirning maqsadini aniq tushungan o'qituvchi uni ishontirish va ta'sir etish orqali amalga oshiradi. Tez-tez, oldindan maqsadli o'tkazilgan ta'sir ayrim rag'batlantiruvchi tarzda ham amalga oshiriladi: Masalan: "Mening esligim", "Yaxshi", "Olgan natijalaring juda yaxshi", "Barakalla", kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, bunday ta'sir ishonch bilan, qat'iy, erkin holda, ma'qullagan tarzdagi qarash, tabassum, ovoz ohangi, o'qituvchining tashqi ko'rinishida (uning yig'inchoqligi, dadilligi, optimistik kayfiyati) ham namoyon bo'lishi kerak. O'quvchilar o'zlariga nisbatan bunday munosabatni juda tez va aniq his etadi.

Tarbiyachi-o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati jarayonida ovoz gigiyenasiga albatta rioya qilishi lozim. Aks holda kasb kasalligi – ovoz xastaligiga duchor bo'lishi mumkin. Ovoz apparatining kasallanishi pedagoglarda juda yuqori bo'lib, 40,2 foizni tashkil etadi. Bu kasallikning sabablari juda ko'p bo'lib, shulardan to'rttasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: kunlik ovoz yuklamasi (nagruzkasi) ning yuqoriligi, ovoz apparatidan to'g'ri foydalana bilmaslik, gigiyenaga rioya qilmaslik, ovoz apparatining tug'ma kuchsizligi kabilar.

Ma'lumki, pedagog o'z ish vaqtining 50 foizdan ortig'ida gapirishga majbur bo'ladi. Shuning uchun, u ish vaqti tugagach 2-3 soat davomida uzoq

so‘zlashuvlardan o‘zini tiyib, ovoz apparatiga dam berishi lozim. Bundan tashqari, u pedagogika bilim yurtida dars beradigan bo‘lsa, dars jadvali tuzayotganda 3-4 soat ishdan so‘ng, bir soat dam berilishi nazarda tutilishi kerak. Ovoz apparati tez ta’sirlanuvchan bo‘lib, o‘ta sovuq yoki issiq, shu bilan birga, achchiq ovqatlar tufayli ham kasallanishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 2020 yil.
2. SH.M.Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent “O`zbekiston”-2017 yil.
3. I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat engilmas kuch” Toshkent. Ma`naviyat 2008
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda» T., «O`zbekiston» 1999 yil.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”, 2008. -176 b.
7. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O`zbekiston, 2011. – 440 b.
8. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000. – 52 b.
9. Goziev Yo.Yo. «Umumiy psixologiya» I-II tom.Toshkent-2002y.
10. Ishmuhamedov.R. Pedagogik mahoratni shakllantirishning mazmuni va yo`llari. «Xalq ta'limi» jurnali. 1998 y. 1-son. 50-52 betlar.
11. Rahimov I. Falsafa (hisqacha kospekt). T. 1998 y.
12. Sayidahmedov N. Ta'limda harakatlant iruvchi kuch. «Ma'rifat», 1998 yil, 16 yanvar.
13. Sayidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003.
14. Sayidahmedov N.S. O`qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi. – «Xalq ta'limi» jurnali, 1999. 5-son.
- 15.Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari. T., 2002 yil. X.J.Xudoyqulov “O`zbekiston g`ururi uning odobida” Toshkent “Fan” nashriyoti 2008 y
- 16.X.J.Xudoyqulov, A.E.Kenjabojev Pedagogik mahorat asoslari o`quv qo`llanma. Toshkent 2013 yil.
17. Qurbonov Sh. Kadrlar tayyorlash milliy modeli: ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish. -Ma'rifat, 2001 yil 20 iyun, № 48.
18. Qurbonov Sh., va boshhalar. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). –T.: Sharq, 1998. 144 b.
- 19.<http://www.ziyonet.uz>.

## VII MAVZU: OLIY TA'LIM O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASPEKTLARI.

### Reja:

1. Oliy ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi.
2. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari.
3. Hozirgi davrda oliy ta'lim o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish.

**Tayanch so'z va iboralar:** *Pedagogik mahorat, qobiliyat, mantiqiy qobiliyat, B.K.M.lar, mohirlik, iqtidor, iste'dod, kreativlik, takomillashtirish, layoqat, talant, kommunikativ qobiliyat.*

O'qituvchi mehnat faoliyati davomida ta'lim vazifalarini amalga oshirishda hayot davomida ahamiyatga ega bo'lgan kompetensiya zarur bo'ladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- Kommunikativ kompetensiya;
- Informatsion kompetensiya;
- Muammolarni hal eta olish;
- O'z-o'zini rivojlantiruvchi muhitni yaralish.

### **Oliy ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi takomillashtirish aspektlari.**

Oliy ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi takomillashuvida nazariy tayyorgarliklar bilan birga amaliy tayyorgarliklar uzviyligi ta'minlanishi kerak. Bo'lajak o'qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligi tashkiliy jihatdan qanday shakl va metodlarda bo'lmasin, quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanadi:

1. Nazariy va amaliy bilimlar uzviyligi;
2. Kasbiy bilim va ko'nikmalarni tizimli tarzda takomillashtirib borishi;
3. Bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyat bilan funksional bog'liqlik;
4. Talabalar amaliy faoliyatining ko'rgazmaliligi;
5. O'z kasbiy faoliyati yuzasidan bosqichma-bosqich mustaqil faoliyat yurgazishga intilish va mas'uliyal hissini shakllanishi;
6. Bo'lajak o'qituvchilarda nazariy va amaliy bilimlar hamda ko'nikmalarini takomillashishi natijasida kompetensiyani shakllanishi va rivojlanishi.

### **O'qituvchi kasbiy kompetensiyasining takomillashtirish omillari.**

Bu tamoyillarining barchasi kelajakda o'qituvchi kasbiy-pedagogik kompetensiyasining nazariy-ilmiy, amaliy funksional, pedagogik-psixologik

takomillashuvi omillaridan hisoblanadi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllashtirish orqali ta'lim va tarbiya jarayonini zamon talabiga ko'tarishga xizmat qiladi.

### **O'qituvchi kasbiy kompetensiyasining takomillashtirishda pedagogik mahorat.**

Mohiyatiga ko'ra, pedagogik mahorat yaxlit tizim bo'lib, uning tarkibida pedagogik bilimdonlik, odob, qobiliyat, muloqot madaniyati, relaksatsiya, takt, texnika, ijodkorlik, tajriba va madaniyat, kommunikativ ta'sir ko'rsatish madaniyati hamda nutq texnikasi malakasiga egalik ko'zga tashlanib, pedagog mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi.

### **O'qituvchi kasbiy kompetensiyasining takomillashtirishda muloqot jarayoni.**

Kasbiy faoliyatda muloqotni tashkil etishda pedagoglar **avtoritar, liberal** va **demokratik** uslublardan foydalanadi. Ular orasida liberal uslub pedagog shaxsida namoyon bo'lmasligi zarur. Muloqot jarayonida pedagoglar ehtiyotsizlik, shaxsiyatparastlik, suhbatdoshni ortiqcha majburlash; sustkashlik, o'zini juda yuqori yoki past qo'yish; haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish kabi kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka e'tiborni qaratishlari kerak.

### **O'qituvchi kasbiy kompetensiyasining takomillashtirishda ta'lim strategiyalarini o'rni;**

Ta'lim strategiyalari insoniy mohiyat kasb etadi. Chunki pedagogik strategiyalar pedagogik faoliyat turi sifatida o'qituvchi shaxsiyati bilan bevosita bog'liqdir. Ta'limning gumanistik strategiyalari o'qituvchi kasbiy faoliyatining dasturi hisoblanadi. U o'qituvchi shaxsining o'zligini kasbiy faoliyat jarayonida namoyon etishini ifodalaydi.

Pedagog o'z ixtisosligi bo'yicha ta'lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas'uldir. U muntazam ravishda o'z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o'qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo'lishi, aniqrog'i, kasbiy kompetensiya egasi bo'lishi lozim.

Endilikda o'qituvchi uchun o'zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta'lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o'z faoliyatida qo'llay olishi, bir so'z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo'lishi lozim.

Shu nuqtai nazardan qaraganimizda, o'qituvchilik kasbi o'zining mazmuni va bajaradigan vazifalarining ko'lamiga ko'ra hissiy jihatdan mehnatning katta bosim ostida kechadigan turi hisoblanadi. Aksariyat o'qituvchilar o'z ish faoliyatlarini hissiy-intellektual jihatdan kuchli bosim ostida kechadigan harakat sifatida baholaydilar. Ko'pchilik o'qituvchilar bu bosimning doimiy ekanligini e'tirof etadilar. O'qituvchilarning kasbiy faoliyatlari muayyan darajadagi jismoniy yuklamani bajarishni ham talab qiladi.

“Barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar samarasi yangicha



fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak malakali kadrlarga bog'liq. Kadrlarni tayyorlash esa avvalo, o'qituvchi-murabbiylar zimmasiga yuklatilgan. Shu sababli, chuqur bilimga ega bo'lgan, zamonaviy o'qituvchi-kadrlar taraqqiyotimizning muhim omili sifatida qaralib kelinmoqda. O'qituvchilarimiz bugungi zamon talablariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta'lim mazmunini egallagan bo'lishlari kerak. O'qituvchi xodimlar o'zlarining kasb-ko'nikmalari va muallimlik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart.

Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga bog'liqdir. Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk namoyondalari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti **I.A.Karimov** quyidagilarni qayd etadi: *“Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirishi, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak”*. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo'yicha ko'plab pedagog va psixolog olimlar o'z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an'ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida shakllantirish uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo'ldi.

Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. XXI asrga kelib o'qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

**Hozirgi zamon o'qituvchisi** o'z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni, hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarni egallagan,

ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai **nazardan hozirgi kunda quyidagi burch va mas'uliyatlar o'qituvchilardan talab qilinadi:**

1. O'qituvchi eng avvalo mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.

2. O'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his-tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.

3. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

4. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi.

5. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi.

6. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.

7. O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

8. O'qituvchi ijodkor, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.

9. O'qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.

10. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim. Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni no'rin qo'llanilishi), vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) kabi norasmiy so'zlardan holi bo'lishi.

11. O'qituvchining kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda

tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.

12. O'qituvchi ta'lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng faol ishtirokchisidir.

13. O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmasligi shart. SHuning uchun kasbiy faoliyatida pedagogik mahoratning bir qator sifatlarini uzluksiz tarkib toptirib borishi zarur.

14. O'qituvchi eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak.

**O'qituvchilar unutmashliklari kerakki,** o'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va lo'nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamasligi, aksincha, o'quvchilarning (yoki hamkasbi, ota-onalar) muvaffaqiyatlarini e'tirof etishlari, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin.

O'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi. Hozirgi sharoitda jamiyatning o'qituvchilik kasbiga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liq. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi avvalo, sinfdagi tarbiyaviy jarayonning tashkilotchisidir. **O'qituvchi tarbiyachi sifatida quyidagi talablarni bilishi lozim:**

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariга sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vataniga, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

- yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi, maktab gigiyenasidan o'z kasbiga oid bilimlarni mukammal bilishi;

- o'z kasbi bo'yicha jahon fanida erishilayotgan so'nggi yutuqlar, tarbiya texnologiyasi, kompyuter va axborot texnologiyalari, yangiliklaridan doimiy xabardor bo'lib borishi;

- ta'lim-tarbiya metodikasidan ko'nikma va malakalarini oshirib borishi;

- o'z kasbiga ijodiy yondashishi;

• pedagogik texnika (mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

• o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishish. Ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo'ladi. Pedagogik faoliyatga qiziqqan, qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogic mahorat xislatlari shakllanib boradi. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. O'qituvchi o'quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, o'quv jarayonini mustaqil boshqaradi. Bularning hammasi ijodkorlikning tub mohiyati, ishning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq.

O'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatda, ma'lum maqsadga erishmoq uchun o'qituvchilar bolalarni hamkorlik jarayoniga tortishi zarur.

**O'qituvchi o'quvchilarni o'zi bilan hamkorlik qilishga jalb eta olishda quyidagi vazifalarni bajaradi:**

• hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo'lgan faoliyat o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va qiziqishlariga to'g'ri kelishi lozim;

• o'quvchilarni biror ishga jalb qilar ekan, o'qituvchi ularga pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri vazifa qo'yishi, yo'l yo'riq ko'rsatishi shart;

• o'quvchilar topshiriqni amalga oshirishga kirishganlarida o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham ishtirokchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

Ijodiy faoliyat olib boruvchi o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Hozirgi zamon o'qituvchisi fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo'llay olishi taqozo etiladi.

### **O'qituvchi faoliyatining tuzilishi**

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim – tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy – ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq–atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi **pedagogik faoliyatlar** tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim: Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini begilab beradi. **O'qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir.** Pedagogik jarayonning obyektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, o'qituvchi va o'quvchilar guruhiga hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari - ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas'uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar.

O'qituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi.

O'qituvchilarning pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi. Mazkur fanning mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechish uchun o'quv – tarbiya jarayonini boshqarish, unga rahbarlik qilishda pedagogik–psixologik ta'limot nuqtai – nazaridan yondashish, ta'lim – tarbiyani milliy an'analarimiz ruhida zamonaviy metodlar asosida modellashtirish, o'quv – tarbiyaviy jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun o'qituvchi mahoratining zarurligi haqidagi ma'lumotlar va ularni takomillashtirish tizimlari o'rin olgan. Shunga ko'ra, "Pedagogik mahorat" fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o'qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berib boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq". 2020 Y, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent; "Sharq", 1997, 31-61 betlar,
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
4. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.56 B.
5. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.488 B.
6. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –"O'zbekiston" -2016.488 B.
7. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –"O'zbekiston" -2017.104 B. .2009.-176 b.
8. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O'qituvchi, 2000.
9. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. //Saylanma. - T.: O'qituvchi, 1997. - 118 b.
10. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomli TDPU, 2005,- 149 b.
11. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'hanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). - T.: "O'qituvchi", 1991. - 376 b.
12. Bozorov A.B universitet o'qituvchilari uchun kasbiy etika qoidalari kerakmi?
13. Ochilov M. Muallim qalb memori "O'qituvchi" 2001 yil.
14. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

## VIII MAVZU: OLIY TA'LIM O'QITUVCHISI MALAKASIGA EGA BO'LISH UCHUN QO'YILADIGAN TALABLAR. PROFESSIOGRAMMA.

### Reja:

1. Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda pedagogik mahorat asoslari.
2. Oliy ta'lim o'qituvchisining vazifalari.
3. Oliy ta'lim o'qituvchisining faoliyatining mazmun mohiyati.
4. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar.
5. Professiogramma.

**Tayanch so'zlar:** kasbiy kompetensiya, oliy talim o'qituvchisi, pedagogik mahorat, o'quv ishlari, pedagogik texnika. O'qituvchining kiyinish madaniyati, o'qituvchining nutq madaniyati, pedagog imidji, o'qituvchining shaxsiy tavsifi, pedagogik bilimlar pedagogik bilimdonlik, professiogramma.

Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan asosiy maqsad talabalarning kasbiy, shaxsiy sifatlarini takomillashtirishdan iborat. Shu bois, o'qituvchi kasbiy faoliyati yuzasidan qator vazifalar tizimini bajarishi lozim. Ana shu vazifalarni samarali va muvaffaqiyatli bajarilishi o'qituvchi ning, eng avvalo, kasbiy, pedagogik tayyorgarligiga, qolaversa, kasbiy kompetensiyasiga bog'liq. U muntazam ravishda pedagogik va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirib borishi, tez o'zgarib ketayotgan jamiyatga mos ravishda faoliyat yurgazishi lozim. Aytish joiz bo'lsa, pedagogik kasbiy faoliyat davomiy bilim olish, tajriba va yana bilim olishdan iborat bo'lgan inson faoliyatiki, unga qo'yiladigan talablar ham takomillashib, oshib boraveradi.

### Oliy ta'lim o'qituvchisi vazifalari

- talabalar uchun oliy ta'lim dasturlari asosida nazariy bilimlarni, umummadaniyat (kasbiy maxsus) kompetensiyalarni egallashlari uchun tashkiliy sharoitlar yaratish;
- talabalarda insonning tabiat bilan jamiyat, madaniyat, davlat bilan uzviy bog'liqligi qonuniyatlari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, inson shaxsiyatining shakllantirish jarayon lari haqida bilimga, ilmiy axborotlarni topish va talqin etish usullari, ularni qayta ishlash va saqlash kabi masalalarga o'rgatish va boshqalardan iborat;
- bo'lg'usi mutaxassislarning o'zi tanlagan soha va mutaxassisliklari bo'yicha amaliy bilimlarini shakllantirish, talaba shaxsining kasbiy yo'nalishini takomillashtirish, uning umumiy, kasbiy madaniyatini, o'z faoliyatini takomillashtirish;

- talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish;
- talabalarning kasbiy-shaxsiy imkoniyatlari ochilishi uchun ko‘maklashish;

### **Oliy ta’lim o‘qituvchisi faoliyatining mazmun-mohiyati.**

*O‘quv ishlari* (darsda va auditoriyadan tashqarida) – ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari; auditoriyadan tashqari – konsultatsiya, reyting baholash, imtihon, kurs ishlari, malakaviy ishlarni tekshirish va rahbarlik qilish, amaliyotni tashkil etish hamda nazorat ishlarini baholash.

- *Noo‘quv ishlari:*
- *tashkiliy-uslubiy ishlar.*
- *o‘quv-uslubiy ishlar;*
- *tarbiyaviy ishlar;*
- *ilmiy-tadqiqot ishlari;*

### **O‘qituvchi shaxsiy tavsifi va o‘ziga xosligi;**

**-O‘qituvchining maxsus tayyorgarligi;**

**-Maxsus bilimlar;**

**-Maxsus bilish, ko‘nikma;**

**-O‘qituvchining pedagogik va psixologik tayyorgarligi;**

**-Pedagogik-psixologik bilimlar;**

**-Pedagogik bilimlar:** diagnostika; prognostik; loyihalash; konstruktivlik; kommunikativlik; tashkilotchilik; tahlil qilish.

**Pedagogik bilimdonlik - pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me’yor va standartlarga muvofiq, tashkil etishga bo’lgan qobiliyati, kasbiy tayyorgarlik darajasi.**

**Bilimdon pedagogga xos sifatlar:**

- ijtimoiy sub’ektlar bilan o’zaro aloqada, madaniy mulokotda bulish;
- mutaxassislik yo‘nalishi buyicha axborotlarni izlash, topish, ularni ta’lim mazmuniga tayangan xolda kayta ishlash va kasbiy faoliyat jarayonida
- ulardan samarali foydalana bilish;
- o‘quv axborotlarini talabalarga yetkazib bera olish;

### **Zamonaviy o‘qituvchi qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo’la olishi kerak:**

**1.** O‘qituvchi jamiyat hayotida ro’y beradigan o’zgarishlar olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi, bu borada talabalarga asosli ma’lumotlar berishi lozim.

**2.** Zamonaviy o‘qituvchi ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlaridan xabardor bo’lib borishi.

**3.** O‘qituvchi mutaxassisligi bo’yicha chuqur, puxta bilimga ega bo’lish o’z ustida tinimsiz ishlashi lozim.



4. O'qituvchi pedagogika, psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, faoliyatni tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, uslub va vositalardan unumli foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lish.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, kommunikativ layoqatga ega bo'lishi, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishi zarur.


8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi uning nutqi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi zarur.

- a) Nutqning to'g'riligi;
- b) Nutqning aniqligi;
- c) Nutqning ifodaviyligi
- d) Nutqning sofligi
- e) Nutqning ravonligi

9. O'qituvchining kiyinish madaniyatiga (imidji) sodda, ozoda, bejirim kiyinishi ta'lim-tarbiya jarayonida talabaning turli xil diqqatini tez jalb etuvchi bezaklar bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda atrofdagilarga o'rnak bo'lishi lozim.

**Pedagog imidji** – uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik, mutanosiblikdir. O'zini taqdimot qilishning umumiy texnologiyasida 4 ta asosiy texnologik jihatlari mavjud (4-rasm):



4-rasm. O'qituvchining o'zini taqdimot qilish texnologiyasi.

### **Qiyofa vizualizatsiyasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:**

■ **feysbilding** (“facebuilding”) yuz gigiyenasi, kosmetologik tuzatish, makiyaj yoki vizaj, sochlarini parvarishlash va mos turmak tanlash;

■ **kinetika:** tana nafisligi, xatti-harakat va holat elegantligi, ishora san'ati, sog'lom turmush tarzi;

■ **kiyinish usuli:** erkaklar va ayollar zamonaviy moda olami tendensiyalari asosida klassik uslubda kiyinib yurush, aksessuarlar samaraligi, yaxshi kiyinib yurish.

**Kommunikativlik deganda,** o'zaro too'g'ri muloqot qilish, qoidalariga rioya qilish nazarda tutiladi, ya'ni suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo'lish, shaxsiy jozibadorlikdan foydalanish, suhbatdoshga yolg'on mulozamat qilmaslik, haqiqatni noto'g'ri talqin qilmaslik va h.k.

**Verbal effekt** esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

■ oyoqlarning yig'ilgan holatda turishi;

■ qo'llarning me'yorida harakatlanishi;

■ ovoz tembrining juda yuqori emasligi, yoki aksincha yuqoriligi;

■ ifodali nutqning rivojlantirish;

■ mazmunli nutq kiradi.

**Flyuid nurlanish (tashqi emotsiya)** birinchi taaassurot, tanishuvning birinchi soniyalarda namoyon bo'ladi:

■ Yoqimli tashqi ko'rinish;

■ Go'zal xulq-atvor;

■ Ifodali va nafis nutq;

■ Bilim;

■ Xarizmatik ta'sir;

■ Hurmatni namoyon etish;

### **1. Imidjning texnologik funksiyalari.**

**Imidjning texnologik funksiyalari** quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy adabtatsiya (moslashuvchanlik).

2. To'g'ri tanlangan imidj orqali ma'lum bir ijtimoiy muhitga tezroq kirishish, insonlar bilan ijobiy aloqalar o'rnatishi mumkin.

3. Shaxsiy-kasbiy xarakteristikalarining namoyon qilish. Bu shaxsning o'z kasbiy e'tiborini qaratib insonlarda simpatiya uyg'otishiga qaratilgan.

4. **Shaxsiy negativ xislatlarni yuqotish.**

5. Bu shaxsning kiyim, soch turmagi, ijobiy xulqi orqali o'z kamchiliklarini boshqa insonlardan yshirish usuli.

O'z kasbini samarali boshqarishda rahbar imidjini rivojlantirishga oid turli xil fikrlar berilgan. Ulardan “**AIDA**” imidjining ta'sir etish **qonuni:**

**A (attention) – e'tibor**

**I (interest) – qiziqish**

**D (demand) – ehtiyoj**

**A (action) – harakat**

Agarda inson o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olsa, u to'g'ri yo'l topa oladi. Uning doim o'ziga ishonch bo'ladi va doim o'ziga ishonchi bo'aldi va kasbiy faoliyatda ham, shaxsiy hayotda ham omadi bo'ladi.

### **Pedagog faoliyatida imidjga qo'yiladigan talablar.**

Pedagogning kasbiy faoliyatiga mos ish kiyimiga ega bo'lishi talabalarga u tomondan ko'rsatilgan tarbiyaviy ta'sir samaradorligini oshiradi. Pedagog ish kiyimi eng avvalo pedagogni tartibga o'rgatadi. Qolaversa, uning tartibligini talabalarga namuna bo'la oladi. Pedagogik mahoratning tarkibiy elementlari bilan tanishish ular tomonidan pedagogik texnika, nutq madaniyati, pedagogik deontologiya, kommunikativ kompetentlik kabi kasbiy sifatlarni samarali o'zlashtirish, pedagogik nizolarga oqilona yondashish imkonini beradi. Mohiyatiga ko'ra pedagogik mahorat yaxlit tizim bo'lib, uning tarkibida pedagogik bilimdonlik, odob, qobiliyat, muloqot madaniyati, relaksatsiya, takt, texnika, ijodkorlik, tajriba va madaniyat, kommunikativ ta'sir ko'rsatish madaniyati hamda nutq texnikasi malakasiga egalik ko'zga tashlanib, pedagog mahorati bevosita kasbiy pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay olishi lozim.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, bugungi ta'lim-tarbiya samaradorligining yana bir omili sifatida pedagog imidj ekanligini ta'kidlash lozim. O'qituvchining imidji atrofda qilargacha uning shaxsi to'g'risidagi "ma'lumot" berish bilan birga talabalarga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagogning imidjiga soddalik, tartiblilik, bejirimlik aks etishi kerak.

- Talabalar bilan ishlashda har qanday sharoitlarga tez moslasha olishi, odamlarga nisbatan moslashuvchanlik hosil qilish;

- **Optimizm** – o'z maqsadlarining to'g'riligiga komil ishonch;

- **Kiyimning vazifasi** – bu nafaqat insonni issiqdan, sovuqdan himoya qilish, balki o'ziga jalb etishni ham uddalashi kerak. Kiyimga qarab insonga baho beriladi. Albatta ozoda yarashgan sipo kiyim kishining ishiga talabchanligi va ichki kamtarligi haqida ma'lumot beradi. Pedagoglar va tadqiqotchilar imidj haqida o'zlarini munosabatlarini bildirganlar. **"Inson chehrasi hamisha uning ichki olamini aks ettiradi. Shu sababli, fikr yuzda aks etmaydi, deb o'ylash xatodir"**. (Viktor Gyugo)

**Mutaxassislar birlamchi imidjning ta'sir kuchini alohida ta'kidlaydilar.** Bu siyosatning tashqi ko'rinishi, kiyimi, mimikasi, pantomimikasi, jestikulyatsiyasi, nutqi, diktsiyasi, ovoz tembri. Negaki notiq berayotgan axborotning 45 % i nutq orqali ifodalansa, qolgan 55 % i noverbal vositalar orqali namoyon etadi. Misol

tariqasida, **Djon Meydjer** – britaniyalik bosh vazir avvaliga aholi uni qanday bo'lsa, shunday qabul qilishini bilib imidjmayker xizmatini rad etgan. Natijada, uning birinchi ma'ruzasidan so'ng, gazetalar bosh vazirning nima haqida gapirganini emas, qanday ko'rinishga ega bo'lganini munozara qilishadi. Shundan so'ng, Djon Meydjer o'z fikridan qaytadi. **Ton Bler** – Britniyaning eng yosh bosh vaziri imidji konservativ va qat'iy an'analarga asoslangan qirollik mamlakatining tashqi imidjiga o'zgartirishni kiritadi.

**Ijobiy imidj – omad garovi, barqarorlik va ishonch timsolidir. Pedagog faoliyatida uning imidji quyidagi talablarga rioya qilishni taqozo etadi:**

**1. Jamoada yoqimli psixologik muhitni yaratish.** Sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish. Jamoa faoliyatining samarali tashkil etish. Jamoada o'zaro ishonch, g'urur hissini, ongli intizom, uyushqoqlik muhitini yaratish.

**2. Muloqot madaniyatini shakllantirish.** O'qituvchi, ota-ona, talabalar va jamoatchilik o'rtyasida diplomatik kommunikatsiya muhitini qaror toptirish. Muloqot qoidalariga amal qilish, noverbal axborot yo'llaridan foydalanish.

**3. Ijtimoiy psixologik madaniyat.** Jamoaning umumiy boylik qadriyatlari, e'tiqodlari va tartib qoidalari birligini shakllantirish. Ta'lim an'alarini saqlash, rivojlantirish. Jamoaning yakdilligi va birligini ta'minlash.

**4. Haqqoniylik, insonlar bilan xayrixohlik, do'stona muhitni tashkil etish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.** Tandiqni qabul qila olish, o'z kamchiliklarini bartaraf etishga intilish.

**5. Har bir talaba-o'quvchining yutuq va kamchiliklarini ko'ra olish.** Har birini tushuna olish, ko'ngliga yo'l topa olish, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lish, o'z vaqtini taqsimlay olish, o'z kamchiliklarini bartaraf etishga intilish. O'z ustiga tinmay izlanishda faol bo'lish hamda mas'uliyatli bo'lish.

**6. Boshqaruv madaniyati.** Pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish. Jamoa bilan hamkorlikda rivojlanish dasturini yaratish. Axborotlar to'plamini rejalashtirish.

**7. Ma'naviy madaniyat talablariga rioya etish.**

**8. Pedagogik texnika va pedagogik mahorat sirlarini chuqur anglash.**

### **O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar<sup>3</sup>:**

Oliy maktab o'qituvchisi shaxsiga jiddiy talablar qo'yi!adi. Ular pedagoglar va psixologlar tomonidan chuqur o'rganilgan. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan eng muhim talab uning yuqori malakali bo'lishidir. Balki uningsiz pedagogik faoliyat yuritib bo'lmaydi. Oliy maktab o'qituvchisi ham shunday talablarga javob berishi

---

<sup>3</sup> Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T., O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jam'armasi nashriyoti., 2006 y. 139 b.

kerakki, bunda talablar uni yuksak darajada bo'lg'usi mutaxassisni shakllantiradigan shaxs darajasiga ko'tarsin.

Oliy maktab o'qituvchisiga quyidagi muhim va doimiy talablar qo'yiladi:

• **jamiyat rivojlanishining siyosiy, sotsial va iqtisodiy yo'nalishlarini to'g'ri baholay olishi;**

• **muayyan taraqqiyot davrida jamiyat uchun zarur bo'lgan bo'lg'usi mutaxassisni shakllantirish standartlarini egallagan bo'lishi;**

• **pedagogik faoliyatni sevishi;**

• **o'z sohasi bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lishi;**

• **zakovatli bo'lishi;**

• **pedagogik tuyg'u;**

• **yuksak yetuklik;**

• **umumiy madaniyat va axloqning yuksak darajasi;**

• **pedagogik texnologiyalarni mahorat bilan egallagan bo'lishi.**

Pedagog shaxsiga qo'yiladigan qo'shimcha talablar: a) **kirishib keta olish;** b) **san'atkorlik,** c) **quvnoqlik,** d) **yaxshi did va boshqalar.**

**Professiogramma** – kasb tavsifnomasi. Kasb egalarini tayyorlash bo'yicha davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalari hamda o'quv fanlari bo'yicha dasturlar yaratishda professiogrammalarning ahamiyati. Professiogramma: oliy ta'lim o'qituvchisi vazifalari; oliy ta'lim o'qituvchisi faoliyatining mazmun-mohiyati; o'quv ishlari; o'quv-metodik ishlar; o'qituvchining ilmiy-tadqiqot ishlari; o'qituvchining tarbiyaviy ishlari; tashkiliy-metodik ishlar; o'qituvchi shaxsiy tavsifi va o'ziga xosligi; o'qituvchining maxsus tayyorgarligi; maxsus bilimlar; maxsus bilish, ko'nikma; o'qituvchining psixologik-pedagogik tayyorgarligi; psixologik-pedagogik bilimlar; pedagogik bilimlar: diagnostika, prognostik, loyihalash, konstruktivlik, kommunikativlik, tashkilotchilik, tahlil qilish.

O'qituvchilarning kasb tanlashi borasida aniq fikrga kelishi uchun xizmat qiladi. Nodir bolaligida uchuvchi bo'lishni orzu qilardi. Ehtimol, yaqinlaridan tug'ilgan kunida sovg'a sifatida turli uchoqlarning o'yinchoq modelini olgani yoki onasidan kechalari eshitgan o'zi uchar gilamlar, qanotli tulporlar haqidagi ertaklar bunga turtki bo'lgandir. Biroq maktabga qadam qo'yganida samoda uchishdan ko'ra yashil maydonda to'p tepishni afzal ko'rdi. Endi undan kim bo'lishi haqida so'ralsa, futbolchi deya baralla ayta boshladi. Yettinchi sinfni bitirdi-yu, stadionda kezib yurgan o'y-xayollari arxitektura olamiga ko'chdi. Ko'rkam, baland uylar qurishni o'z oldiga maqsad qildi. Oradan ko'p o'tmay, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga qiziqishi ortib: "Kelajakda kompyuter dasturchisi bo'laman!" degan qarorga keldi.

Albatta, o'quvchi sinfdan sinfga o'tgani sari kasb tanlash haqidagi fikrlari o'zgarib, hayotga yaqinlashib boraveradi. Ayniqsa, 9-sinfga o'tganida "Qaysi kasbni tanlasam ekan?", "Bu kasbni qanday egallasa bo'ladi?", "Kelgusida qaerda ishlashim

mumkin?”, “Shu kasbni tanlasam hayotda, jamiyatda o‘z o‘rnimni topamanmi, yaqinlarimga moddiy ko‘maklasha olamanmi?” qabilidagi savollarga javob qidiradi. Mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan maktab bitiruvchisi — kelajakda o‘zi yoqtirgan kasb egasi bo‘lishi, avvalambor, uning qiziqishlari, qobiliyati hamda sa’y-harakatiga bog‘liq, qolaversa, ota-onasi va o‘qituvchilarining har jihatdan ko‘magi zarur.

Respublika tashxis markazining ta’lim muassasalarida psixologik xizmat bo‘limi metodisti Feruza Umarovanning fikricha, kasb tanlash jarayonida inson o‘z ehtiyoji, orzu-umidlari, qiziqishi, qobiliyati, salomatligi va boshqa qator jihatlarni inobatga olishi kerak. Umuman, kasb tanlash — murakkab va qiyin jarayon. Murakkabligi shundaki, har bir kasb o‘zgacha bir olam bo‘lib, yosh mutaxassis bu olamga kirishi, uni chuqur o‘rganishi uchun yillar davomida o‘qib-o‘rganishi hamda kasbiy faoliyatga moslashishi kerak bo‘ladi. Kasb to‘g‘risida ma’lumotlarning kamligi, bitiruvchining o‘zi yashayotgan hududda tanlagan kasbiga bo‘lgan ehtiyojning qay darajada ekanini bilmasligi esa qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Bu kabi muammolarning oldini olish maqsadida O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi huzuridagi O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini axborot-metodik ta’minlash xizmati tomonidan **to‘rt qismdan** iborat **“Kichik mutaxassislarning professiogrammalari to‘plami”** tayyorlandi.

— O‘zingizga ma’lum, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi xodimlari o‘z oldiga Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o‘quvchilarning jadal intellektual rivojlanishini, chuqur, ixtisoslashgan, tabaqalashgan ta’lim olishlari hamda o‘z qobiliyati va moyilliklari asosida tanlagan kasb-hunarlari bo‘yicha mutaxassislikka ega bo‘lishini ta’minlash, umumiy va kasbiy madaniyatga ega, mus-taqil fikrlaydigan, ijodiy faol, demokratiya va mustaqillik tamoyillariga sodiq bo‘lgan ijtimoiy yetuk shaxsni shakllantirishni maqsad qilgan, — deydi O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini axborot-metodik ta’minlash xizmatining axborot-noshirlik bo‘limi boshlig‘i Alisher Safarov. — Bunday kadrlarni tayyorlash esa maktab ostonasidan boshlanadi. Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning turli qiziqish va imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, rivojlantirish hamda ularning kelajagi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish yo‘lida jiddiy izlanishlar olib borilmoqda. Muhimi, yoshlarning kelajakda qanday kasbni tanlashi borasidagi mustaqil fikri shakllanib bormoqda, o‘z oldiga qo‘ygan aniq maqsad sari qat’iyat bilan intilish hissi kuchaymoqda. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida tayyorlanadigan kichik mutaxassislarning professio-grammasi haqida barcha ma’lumotlarni o‘zida jamlagan ushbu qo‘llanma bu boradagi ishlarning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Undan umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilari va ularning ota-onalari, ta’lim muassasalari rahbarlari, psixologlari hamda guruh rahbarlari kasbga yo‘naltirish ishlarida keng foydalanishlari mumkin.

**O'quvchi kasbni to'g'ri tanlashi** uchun nafaqat o'zining shaxsiy xususiyatlari, balki tanlayotgan kasbi to'g'risida ham yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi lozim. O'quv mashg'ulotlari, ekskursiyalar, mutaxassislar bilan o'tkaziladigan uchrashuv va suhbatlar, adabiyotlarni o'rganish orqali ham bunday ma'lumotlar olish mumkin. Endilikda mazkur kasblar professiogrammasini ham ana shunday muhim ma'lumot manbalari sirasiga kiritish mumkin.

**Professiogramma** — kasblar yoki mutaxassisliklar to'g'risidagi tushunchalar bir tizimga solingan, mehnatning pedagogik-psixologik tomonlarini ochib beradigan, tartiblangan va o'zaro uzviy bog'langan, umumiy vazifani bajarish uchun zarur bo'ladigan shaxsiy, umuminsoniy va kasbiy sifatlarni o'zida mujassam etgan, o'quvchining kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishiga qaratilgan qisqa va asosli talablar majmuasi hamdir. Asosiysi, u o'quvchi ongida muayyan bir kasb-ning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida yaxlit tasavvur hosil qiladi.

O'quvchilar professiogramma bilan tanishib chiqish asosida “Kasblar olamiga sayohat” qilishadi, ilgari bilmagan va eshitmagan kasblari haqida batafsil ma'lumot olishadi va ularga bo'lgan qiziqishi ortadi.

— To'plam kasb tavsifnomasi, ish mazmuni, bilish zarur (bilim, ko'nikma, malakalar), muhim bo'lgan kasbiy fazilatlar, tibbiy moneliklar (cheklovlar), kasbiy o'sish istiqbollari, turdosh kasblar kabi ko'plab ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, — deydi Alisher Safarov.

— Professiogrammada turli shakllar(matn, jadval, grafik tasvirlar yoki diagramma)dan unumli foydalanilgan. Masalan, elektr jihozlari va tarmoqlarini montaj qilish va xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik-elektr kasbining professiogrammasini ko'rib chiqaylik. O'quvchi to'plamni ko'zdan kechirarkan, kelgusida ushbu kasb doirasida elektr tarmoqlari va jihozlariga xizmat ko'rsatish elektromontyori, rele himoyasi va elektr o'lchov asboblari elek-tromontyori, elektr energiya iste'moli nazoratchisi, muqobil va noan'anaviy energiya manbalari qurilmalariga xizmat ko'rsatish texnigi (mexanigi) kabi ixtisosliklarni ham egal-lashini bilib oladi. Shuningdek, elektr ta'minotini yaratish, ishlatish va ekspluatatsiya qilish, tashkilotni texnik jihozlash va energiya ta'minoti tizimini yaxshilash va rivojlantirish bo'yicha takliflar berish, shuningdek, elektr jihozlarini o'rnatish, elektr chizmalarini chizish, rele himoyasi va elektr o'lchov asboblari nazorat qilish va ularga texnik xizmat ko'rsatish, elektr resurslariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, texnik qayta jihozlash bo'yicha zaruriy asoslarni tayyorlash, shuningdek, elektr jihozlarini ta'mirlash bo'yicha shartnomalar tuzish, elektr jihozlari uzluksiz ishlashini va ulardan to'g'ri foydalanishni ta'minlash mazkur kasb egasi ishining mazmuni ekanini anglaydi. Buning uchun esa ushbu mutaxassislikni tanlayotgan o'quvchi kelgusida elektr jihozlari va kommunikatsiyalarini ekspluatatsiya qi-lish-ga oid qaror, farmoyish, buyruq, uslubiy va me'yoriy ko'rsatmalar, elektr stansiya va

nimstansiya tarqatish qurilmalarining elektr sxemasi, yuqori chas-totali tokning qurilmasi, rele himoyasining ishlash tamoyili va sxemasi, elektr jihozlarining konstruktiv tuzilishi va ularning vazifalari, elektr energiya ishlab chiqarishning texnologik jarayoni, nazorat o'lovch asbob va vositalarining tuzilishi, metrologiyasi va ularning ishlash tamoyilini chuqur o'qib-o'rganishi zarurligini his qiladi. Albatta, ushbu kasb egasi emotsional turg'unlik, texnikalar bilan ishlashga moyillik, diqqatni jamlay olish qobiliyati, jismoniy chidamlilik va toqatlilik, qo'l mehnatiga mo'yillik kabi muhim kasbiy fazilatlarni o'zida jamlab borgan sari uning kasbiy o'sish istiqbollari, imkoniyatlari ham kengayib boraveradi. Dastlab elektromontyor sifatida ishga qabul qilingach, kichik mutaxassis asta-sekin 6-razryadgacha borib, texnik-elektrik, sex yoki bo'lim boshlig'i, bosh injener-elektrik lavozimlarini ham egallashi mumkin.

Aytish joizki, mazkur mutaxassislikni egallashga tibbiy cheklovlar ham yo'q emas. Jumladan, asab va ruhiy kasalliklar, ko'rish va eshitish qobiliyatining pastligi, tayanch harakat apparati funksiyasining buzilishi, hushni yo'qotish bilan bog'liq bo'lgan xastaliklar o'quvchilarning kelgusida yaxshi mutaxassis bo'lishiga monelik qiladi.

Ushbu to'rt qismli to'plam respublikamizdagi har bir umumta'lim maktabiga yetkazilishi ko'zda tutilmoqda. Bu, albatta, o'quvchilarni qobiliyatiga mos ravishda muayyan kasb-ga yo'naltirishda asqotadi, shuning barobarida kelgusida bo'lajak mutaxassislarning o'z kasbini chin dildan o'rganishiga asos, turtki bo'ladi.

Ma'lumki, hamma kasblarni ham avvalo ustoz-muallim o'rgatadi. Dastlabki saboqni ham o'qituvchi beradi. Dastlabki ona-Vatan so'zlarining ma'nosini, mohiyatini ham o'qituvchi o'rgatadi. Shuning uchun ham barcha kasblar ichida o'qituvchilik-muallimlik kasbi o'ta sharaflilik va mas'uliyatli hisoblanadi. Mana shu o'rinda tabiiy ravishda savol tug'iladi. Xo'sh, o'qituvchi kim? U qanday sifatlarga ega bo'lmog'i lozim? Xususan, bugungi kun o'qituvchisi qanday malakalar bilan qurollantirilmog'i darkor? va boshqalar. O'qituvchi jamiyatning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ishtirokchisidir. Shuning uchun ham respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov "Tarbiyachi-ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifiy ziyosidan bahramand etish, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining o'zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi lozim,"- degan edi. Darhaqiqat, o'qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o'z kasb mahoratini muntazam shakllantirib borishga ishtiyoq bo'lmas ekan, u yaxshi ustoz-o'qituvchi bo'la olmaydi. Zero, davlatimizning istiqboli, Prezidentimiz tomonidan olg'a surilayotgan barcha islohotlarning ijobiy yechimi va ana shu ko'p mingyillik ziyokorlik ishining samarasi bo'ldi. Shuning uchun ham bugungi mustaqillik sharoitida o'qituvchilik



kasbiga boʻlgan eʼtibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan ortib bormoqda. Shuning bilan birga oʻqituvchi oldiga qoʻyiladigan talablar ham oʻzgacha boʻlmoqda. Chunki bugun Oʻzbekiston mustaqil davlat sifatida jahonga yuz tutar ekan, bu borada pedagog oʻqituvchilarning oʻz oʻrni, oʻziga xos mohiyati borligini unutmaslik lozim.

**Jamiyatning oʻqituvchi oldiga qoʻyadigan asosiy talablari quyidagilardir:**

- 1) shaxsni maʼnaviy va maʼrifiy tomondan tarbiyalashning, bolalarni mustaqillik gʻoyalariга sodiqlik ruhida tarbiyalashi, oʻz Vatani tabiatiga va oilasiga boʻlgan muhabbatini uygʻotishi
- 2) yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedaggika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigenasidan chuqur bilimlarga ega boʻlish
- 3) Oʻzi dars beradigan fan boʻyicha mustahkam bilimga ega boʻlib, oʻz kasbi, sohasi boʻyicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor boʻlish
- 4) taʼlim va tarbiya metodikasini egallashi, oʻz ishiga ijodiy yondashishi
- 5) bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi
- 6) pedagogik texnika ( mantiq, nutq, taʼlimning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega boʻlish
- 7) oʻz bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi

Oʻqituvchi jamiyat tomonidan qoʻyilgan talablar bilan bir qatorda oʻz faoliyatida tevarak – atrofidagi kishilar, maktab maʼmuriyati,, hamkasblari, oʻquvchilar va ularning ota –onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim.

**Oʻqituvchining eng muhim xislatlari quyidagilardan iborat:**

Oʻqituvchining oʻz Vataniga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni nsonparvarlik ruhida tarbiyalash, , oʻz xalqining tarixi va madaniyatini biishishi;

Olijanoblighi, aqli, farosati, maʼnaviy pokligi, maʼnaviyat va maʼrifat boʻyicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi

Ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi; Oʻzini qoʻlga ola bilishi, sabr – toqatli, bardam matonatligi.

Oʻqituvchining oʻz ishidan nimanidir kutayotganligining oʻziyoq muhim ahamiyatga egadir, mana shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan oʻqituvchiga qoʻyiladigan talablarga kelsada, oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻladi. Lekin bu talablar hamma vaqt tarbiya ham bir – biriga mos kelmasligi mumkin. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning koʻrsatishicha xalq taʼlimi boʻlimlari va maktab derktorlari oʻqituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini

har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishini talab qilsalar, maktab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota – onalar, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda bo'lishini bilishini naqadar ahamiyatga ega bunday xislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar.

### **O'qituvchining kasbiga xos xislatlari**

Ota - onalar o'qituvchidan uning ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar.

O'quvchilar esa o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar.

-birinchidan, o'qituvchining odamgarchiligi, adolatliligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari;

-ikkinchidan, tashqi xislatlari va xulq - atvoriga qarab;

-uchinchidan, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira bilishi

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormoqda.

O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi muayan o'qituvning pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

Shunisi muhimki, zamonaviy o'qituvchi uchun zarur bo'lgan shaxsiy xislatlarni batafsil ko'rib chiqish kerak. Bu qanday xislatlar ekan?

Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga O'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rossiya psixologlaridan N. V.Kuzmina, V, Slastenin, F.N. Gonoblin, O'zbekistonlik psixologlardan R.Z. Gaynutdinov, M.G. Davletshin, S. Jalilova, A. Jabborov, Qoplonova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy – tadqiqotlar o'qituvchilik kasbini atroflicha o'rganib, ancha batafsil ko'rsatib berish imkoniyatini yaratadi. Bu professiogramma.

Professiogramma-ma'lum tizimga keltirilgan, mehnatni psixologik tomondan o'rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko'rsatib berilgan hujjat.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilish va shu asosida o'quv – tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan xarakteristikasini

nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi. Jumladan, maktabning o'qituvchi – murabbiysi professiogrammasini misol qilib keltiramiz. Professiogrammada muhim xislatlaridan borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining qo'yidagi xislatlari ko'rsatib berishi lozim.

**O'qituvchining shaxsiy xislatlari:**

o'z bilimini oshirishga intilish.

uddaburonlik, kuchli xarakterga ega bo'lish;

kamtarlik;

oldamiylik, dilkashlik;

mehribonlik;

jamoat ishlarida faollik;

mehnatsevarlik;

amaliy – psixologik aql – farosatlilik;

Bolalarni sevish;

**O'qituvchining shaxsiy xislatlari:**

2.O'qituvchining kasbiga xos bilimi:

Ota - onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi;

O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi;

O'z fanini o'qitish metodikasini bilishi;

Maktab yoshida bolalarning psixologik – pedagogik xususiyatlarini tushunishi;

Hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallaganligi;

Entopsixologik bilimlarni egallash;

Psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilish;

Ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi;

**O'z kasbiga xos xislatlari:-**

• milliy mafkura va mustaqil davlat mafkurasini tushunishi;

• zamonaviy maktab olib boriladigan o'quv- tarbiya jarayonida umuinsoniy boyliklar, milliy an'analar va urf – odatlarning ahamiyatini tushunishi;

• o'qituvchining kuzatuvchanligi;

• o'z diqqat – e'tiborini taqsimlay olishi;

• pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi;

• o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi;

• o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini tuta olishi;

• pedagogik takt;

• nutqning emosional ifodalanishi.

### **Shaxsiy – pedagogik uddaburonligi:**

- dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi;
- ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar onginingtarqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi;
- pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi;
- bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishini bilishi;
- o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi;
- o'zining ta'lim – tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

### **Tashkilotchilik malakalari:**

Bolalar jamoasini uyushtira bilishi;

Turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi;

Bolalarni qiziqtirib ularni faollashtira olishi;

Amaliy masalalarni ustalik bilan hal eta olishi.

### **Kommunikativ malakalari:**

bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi;

- zolalar va ota – onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi;
- bolalarning jamoalararo va jamoa ichida o'zaro munosabatlarni tartibga solishini bilishi;
- bolalar va ota – onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi.

### **Gnostik malakalari:**

- bolalarning asab – psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi;
- o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;
- boshqa o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olishi;
- psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi;
- o'quvchilarni to'g'ri tushunib, ularning xulq - atvor sabablarini tushuntirishni bilishi;

### **8. Ijodiy xislatlari:**

- Pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilishi;
  - Empatik qobiliyati-o'zini o'quvchi o'rniga qo'ya olishi.
  - o'zining pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'rish o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;
- Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi.;

shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo'nalishi;

pedagogik mahorat va qobiliyati;

xarakterning psixologik xususiyatlari;

bilish faoliyati;

o'qituvchi shaxsining bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasidagi umumiy taraqqiyoti.

**Professiogramma** yoshlarga o'zlarining kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab olishlariga yordam beradi. Professiogrammani kasbga xos ravishda o'qitishni tashkil qilishda ta'limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va ko'nikmalarga, ayniqsa, shaxsning qanday qobiliyat va shaxsiy xislatlariga bog'liq ekanligini albatta ko'rsatish zarurdir. Mana shu professiogramмага asosan bo'lajak mutahassis- o'qituvchilarning sifat jihatidan o'z kasbiga naqadar tayyorligi haqida bir fikrga kelishimiz mumkin.

Pedagogik kasb, ma'lumki, har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Pedagogik faoliyatdan yutuqlarga faqat shu kasbga qiziqqan, shu faoliyat bilan shug'ullanishga moyil, oqibat natijada esa pedagogik qobiliyatga ega bo'lgan kishilargina erisha oladi.

Qobiliyat – bu kishining biror faoliyatga yaroqligi va shu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishdir.

Pedagogik qobiliyat – bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatiga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishni aniqlab beradi.

### **Pedagogik qobiliyatning tuzilishi qanday?**

Uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar, pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko'pqirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko'rsatib beradi. Ana shu tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida muhim o'rin egallaydigan qator komponentlarni (tarkibiy qismlar) ajratib ko'rsatish mumkin.

**Didaktik qobiliyat** – bu bolalarga o'quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg'ota oladigan qobiliyatdir.

Didaktik kasbiy mahorat, shunchaki bilimlarni osonroq, hammabop va tushunarli qilib, o'quvchilar ongiga yetkazib berish qobiliyatinigina emas, balki shu bilan birga o'quvchilarning mustaqil ishlarini, ularning bilish faolligini oqilona va mohirlik bilan boshqarib, ularni kerakli tomonga yo'naltirib turishdan iborat qobiliyatni ham o'z ichiga oladi. Mana shu qobiliyatlar asosida o'quvchilar psixologiyasiga xos doimiy ustanovka (yo'naltirish) yotadi. qobiliyatli pedagog o'quvchilarning tayyorlik darajasini, ularning taraqqiyot darajasini, ularning taraqqiyot darajasini hisobga olgan holda bolalarning nimani bilish va nimani bilmasligini, nimalarni allaqachon esdan chiqarganliklarini tasavvur qila oladi.

Ko'pchilik o'qituvchilarga, ayniqsa xafsalasiz o'qituvchilarga, o'quv materiali oddiygina va hech qanday alohida tushuntirish hamda izoh berishni talab

qilmaydigandek tuyuladi. Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni emas, balki birinchi galda o'zlarini nazarda tutib ish olib boradilar. Shuning uchun ham o'quv materialini o'ziga qarab tanlaydilar. qobiliyatli, tajribali o'qituvchilar esa o'zlarini o'quvchi o'rniga qo'yib, kattalar uchun aniq, ravshan va tushunarli bo'lgan material o'quvchilar uchun noaniq va tushunarsiz bo'lishi mumkin degan nuqtai nazarda bo'ladilar. Snuning uchun ham bunday o'quvchilar materialning xarakteri va uni bayon etish usullarini alohida o'ylab ko'rib rejalashtiradilar. Materialni bayon etish jarayonida qobiliyatli o'qituvchi uchun o'quvchilarning qanday tushunayotganliklari va zarur bo'lganda dars bayonotiga alohida e'tibor berishga intilayotganliklari kabi qator belgilarga qarab to'g'ri tasavvur qilib, xulosa chiqara oladi. Ana shunday pedagogik qobiliyatni aniqlash uchun psixolog N.Gonobolin juda qulay test tavsiya etadi. Bu testga ko'ra bilish xarakteridagi matnda o'qituvchining fikri ayrim sinf o'quvchilari uchun qiyin deb hisoblangan qismlarni alohida ko'rsatib, nima uchun bu qismlarning qiyinligini tushuntirib berish, shunday so'ng esa matnni o'quvchilarga yengil va ularning o'zlashtirilishi uchun qulay qilib tuzish tavsiya etiladi. Qobiliyatli o'qituvchi shu bilan bir qatorda materialni o'zlashtirish, o'quvchilarga bir oz nafas olib, o'zlariga kelib olishlari va o'z diqqat – e'tiborlarini bir joyga qo'yib, ayrim qo'zg'alishlarni «so'ndirib», boshqalarni esa jadallashtirib, ularning bo'shashaganligini, sustligini va loqaydligini yengishlari uchun zamin tayyorlash zarurligini ham nazarda tutadi. Bunday o'qituvchi zarur sharoit yaratilmaguncha darsni boshlamaydi. Haddan tashqari shiddat bilan boshlangan dars o'quvchilarda himoya qiluvchi tormozlanishning vujudga keltirib, miya faoliyati tormozlanadi va o'quvchining so'zlari yetarlicha idrok qilinmaydi.

**Akademik qobiliyat-** bir qancha fanlarga oid bilimdonlik qobiliyati o'qituvchi o'z fanini faqat hajmidagina emas, balki atroflicha, keng, chuqur bilib, bu sohada erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzata borib, o'quv materialini mutlaqo erkin egallab, unga katta qiziqish bilan qaraydi hamda ozgina bo'lsada tadqiqot ishlarini olib boradi.

Ko'pchilik tajribali pedagoglarning aytishlaricha, o'qituvchi o'z fani bo'yicha bunday yuksak bilim saviyasiga erishish, boshqalarni qoyil qilib hayratda qoldirish, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota olish uchun u yuksak madaniyatli, har tomonlama mazmunli, keng erudisiyali (bilimdon) odam bo'lmog'i lozim.

Bunday o'qituvchilar haqida o'quvchilar: «Mahmud aka xuddi professorning o'zginasi – ya. Biz uning bilmagan birorta sohasi bormikin deb tez – tez o'ylab turamiz. Darslarga u butun vujudi bilan kirishib ketadi» deydi. Ba'zan o'qituvchilar o'z o'qituvchisi haqida «Baqir – chaqir qiladi – yu, ammo zarracha bilimi yo'q» deb butunlay teskarisini aytsalar, juda alam qiladi.

**Perseptiv qobiliyat** – bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir.

Qobiliyatli o'qituvchi bolalarning har qanday mayda - chuyda hatti – harakatlarida, yorqin ifodalanadigan ayrim tashqi holatlarida hamda ularning ichki dunyosida yuzaga keladigan o'zgarishlarni sezdirmasdan bilib oladi. Ana shunday hollarda o'quvchilar: «*Muhabbat opa kimningdir kayfiyatida o'zgarishlar bo'lsa yoki kimdir darsga tayyorlanmasdan kelgan bo'lsa ko'ziga qaraboq bilib oladi*», deyдилar.

**Nutq qobiliyati** - kishining o'z tuyg'u – hislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir.

O'qituvchidan o'quvchilarga uzatiladigan axborot, asosan, ikkinchi signal tizimi – nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatdan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi. («Biz uchun adabiyot o'qituvchimiz – Nazira opaning darsini eshitishdan katta lazzat yo'q. Nazira opamlar shu qadar yaxshi va chiroylik qilib gapiradilarki, hatto tanaffusga chalinadigan qo'ng'iroq ham xalaqit beradi»).

Darsda qobiliyatli o'quvchining nutqi hamma vaqt o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntiradimi, o'quvchilar javobini sharhlab beradimi, o'quvchilar javobini, ularning xatti – harakatlari yoki xulq - atvorini ma'qullaydimi yoki tanbeh beradimi, xullas nima qilishidan qat'iy nazar, nutqi hamma vaqt o'zining ishonchliligi, jozibadorligi kabi ichki quvvat bilan alohida ajralib turishi lozim.

O'qituvchi nutqi, uning talaffuzi aniq, ravshan, oddiy va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Beriladigan axborotlar shunday tuzilishi kerakki, bunda o'quvchilarning fikru – zikri va diqqat – e'tiborini faollashtiradigan bo'lsin. Buning uchun esa o'qituvchi o'rtaga savol tashlab, asta sekinlik bilan o'quvchilarni to'g'ri javobga olib keladi, o'quvchilarning diqqat – e'tiborini faollashtiruvchi («Bunda ayniqsa ziyrak bo'ling!», «O'ylab, yana o'ylab ko'ring!») so'z va iboralarni o'z me'yorida ishlatiladi.

O'qituvchi uzun jummalarni, murakkab og'zaki izohlarni, qiyin atamalarni va zarurati bo'lmasa, utrli ta'riflarni ishlatmasligi lozim. Shu bilan birga o'qituvchi shuni hisobga olishi kerakki, o'qituvchining lo'nda – lo'nda bo'lib chiqqan qisqa nutqi ko'p hollarda o'quvchilarga tushunarsiz bo'lib qolar ekan. O'qituvchining o'z o'rnida ishlatiladigan hazil aralash va xayrihohlik bildiruvchi arzimagan kinoyali nutqi o'quvchilarni juda jonlantirib, o'quvchilar tomonidan o'ta yaxshi qabul qilinar ekan.

Qobiliyatli o'qituvchining nutqi jonli, obrazli, aniq - ravshan va ifodali, emosiyaga boy, dona – dona bo'lib bunda stilistik va grammatik xatolar mutlaqo bo'lmasligi lozim.

Bir xil ohangdagi nutq o'quvchilarni juda tez toliqtirib, ularni zeriktiradi va behafsala qilib qo'yadi. Bu bilan birga bunday nutq I.P.Pavlovning fiziologik ta'limotga ko'ra, doimiy ta'sir etuvchan qo'zg'ovchiga aylanib, bosh miya katta yarim sharlari po'stida tormozlanish jarayonini yuzaga keltirib, o'quvchini va uyquchan qilib qo'yadi. Nutq tezligi ko'p jihatdan o'qituvchining individual psixologik xususiyatiga bog'liq. Ayrim o'qituvchilar tez gapirsalar, boshqalari sekin gapiradilar. Ammo o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini egallab olishlari uchun eng qulay tezlikdagi nutq o'rtacha jonli nutq ekanligini esdan chiqarmasligi lozim.

Shoshqoloqlik nutq bilim o'zlashtirishiga xalaqit berib, bolalarni tez toliqtiradi va muhofaza qiluvchi tormozlanishni yuzaga keltiradi. O'ta sekin nutq lanjlik va zerikishga olib keladi. Nutqning balandligi - qattiq gapirish ham xuddi shu singari hollarga olib keladi. Haddan tashqari qattiq, keskin, baqirib gapirish o'quvchilarning asabiga tegib, ularni tez toliqtirib, muhofaza qiluvchi tormozlanishni yuzaga keltiradi. Mana shu yerda sharq mutafakkirlaridan Nasriddin Tusiyning «...o'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharli qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin»... degan nasihatini keltirishimiz juda muhim bo'lardi. O'qituvchining bo'sh, past ovozi yomon eshitiladi Nutqi imo ishoralar turli keskin harakatlar tajribali o'qituvchilarda o'z meyorida ishlatiladi. Lekin bir xildagi tinimsiz harakatlarning haddan tashqari ko'p bo'lishi kishining asabiga tegadi.

**Tashkilotchilik qobiliyati**- bu birinchidan o'quvilar jamoasini uyushtira bilish bunda jamoanijipslashtira olish va ikkinchidan o'zining shaxsiy ishini to'g'ri tashkil qila olish qobiliyatidir

O'qituvchining o'z ishini tashkil qila bilishi deganda, uning o'z ishini to'g'ri rejalashtirib, uni nazorat qila olishi nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtga nisbatan o'ziga xos sezuvchanlik – ishni vaqtarbiya bo'yicha to'g'ri taqsimlab, mo'ljallangan vaqtdan to'g'ri foydalana olish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Dars davomida albatta, ko'p hollarda vaqtni behuda yo'qotish ham mumkin. Lekin bu yo'qolgan dars rejasini tuzatish zaruriyati tuzilgan hollarda bo'lishi mumkin. Tajribali o'qituvchilar vaqtni seza bilishni o'rganish uchun dars rejasini yoki matnda vaqtni nazorat qilish uchun belgilar olib borishni tavsiya etadilar. Jumladan: darsning 10,20, 30 va boshqa daqiqalari davomida mabodo ko'zda tutilmagan vaqt ortib qolgan taqdirda foydalanish uchun qanday qo'shimcha materiallarni tayyorlash yoki vaqt yetmay qolgan taqdirda qanday materialni keyingi darsga qoldirish mumkinligi haqida maslahat beradilar.

**Avtoritar qobiliyat** – bu o'quvchilarga bevosita emosional irodaviy ta'sir etib, ularda obro' orttira bilishdan iborat qobiliyatdir. (Garchan o'qituvchining o'z fanini mukammal bilishi, sezgirligi va xushmuomalaligi asosida qozoniladi).



Avtoritar qobiliyat o'qituvchining rostgo'yligi, irodaviy uddaburonligi, o'zini tuta bilishi, farosatliligi, talabchanligi kabi irodaviy xislatlarga ma'naviy va ma'rifiy e'tiqodni singdira olganligiga ishonchi kabi xislatlarga ham bog'liqdir.

O'quvchilar (ayniqsa, o'g'il bolalar, o'spirinlar – buni alohida ta'kidlab o'tishi kerak) talab qilishni biladigan, o'quvchilarni majbur qilmagan va do'q - po'pisa qilmagan, shu bilan birga behuda rasmiyatchilikka yo'l qo'ymagan holda o'z aytganini qildiradi oladigan o'qituvchilarni juda hurmat qiladilar.

**Kommunikativ qobiliyat**– bu bolalar bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishiga, ular bilan pedagogik nuqtai – nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

Pedagogik takt psixologiyasini o'rganishda psixolog I.V.Straxov benihoya katta hissa qo'shgan. Uning fikricha bunda muhimi - o'quvchilarga ta'sir etishning eng qulay usullarini topa bilish tarbiyaviy ta'sirni qo'llashda maqsadga muvofiq pedagogik choralarga e'tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga olish, o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur pedagogik holatlarini hisobga olish zarurdir. Pedagogik taktning yaqqol ifodalaridan biri – har qanday pedagogik ta'sirga nisbatan qo'llaniladigan chora – tadbirlarni (rag'batlantirish, jazolash, pand –nasihat) his eta bilishdan iboratdir.

**Pedagogik xayol**– bu kishining o'quvchilar shaxsini tarbiyaviy tomondan loyihalashtirishda o'z ish – harakatlarining natijasini oldindan ko'ra bilishda namoyon bo'ladigan qobiliyatdir.

Bu qobiliyat o'qituvchi ma'lum o'quvchidan kelgusiga kim chiqishini ko'z oldiga keltirishida, tarbiyalanuvchilardan u yoki bu xildagi xislatlarni o'sib rivojlanishini oldindan ko'ra bilishida namoyon bo'ladi. Bu qobiliyat pedagogik optimizm tarbiyaning kuchiga o'quvchilarga bo'lgan ishonch bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham o'quvchilar ayrim o'qituvchilar to'g'risida: «Axmat akamlar, ichimizdagi eng yaramaslarga ham ishonchlarini yo'qotmasdilar, shuning uchun ham biz ularni hurmat qilardik», degan fikrlarni izhor qilardilar.

**Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati**- bu qobiliyat bir vaqtning o'zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olishda namoyon bo'lib, o'qituvchi ishida g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zining diqqat e'tiborini o'quv materialini qanday bayon etilishiga, uning mazmuniga, o'z fikrlarini atroflicha qilib qanday ochib berishiga yki o'quvchi fikriga baralla qaratadi va shu bilan birga bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni kuzatib, ularni toliqqan toliqmaganliga e'tiborli yoki e'tiborsizligiga, darsni tushunish tushunmasligiga ahamiyat berib, o'quvchilarning intizomini kuzatadi hamda oqibat natijada o'zining shaxsiy xulq-atvoriga (yurish turishiga, o'zining qanday tutishiga, mimika va pantomimikasiga) e'tibor beradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qobiliyatlardan tashqari o'qituvchi inson shaxsining maqsad sari intilishi, uddaburonlik, mehnatsevarlik, kamtarlik, kabi qator ijobiy xislatlariga ega bo'lishi lozim. U o'quvchilarni tarbiyalar ekan, o'zining xulq-atvori, yurish-turishi, xullas, butun o'qituvchilik shaxsi bilan o'quvchilarga o'rnak bo'lishi kerak. O'qituvchining o'zini qo'lga olib bilishi muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib, shuni aytish joizki, o'qituvchining barcha ijobiy, umum insoniy axloq me'yorlariga mos keluvchi xislatlari katta ahamiyatga ega. Agar biz quyidagi xislatlarni olib qaraydigan bo'lsak, bularning barchasi ham o'ta muhim omillardir. Jumladan, o'qituvchining tashqi qiyofasi uning obro'si shakllanishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ozodaligi, ixchamligi, uning pokizaligi, sarishta-saranjonligi, sipogarchiligi, uning qiliqlari, o'zining chiroylik tutishi, uning qaddi-qomati va yurish-turishlari o'quvchilarda juda yaxshi taassurot qoldiradi.

Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina – o'qituvchi bo'la oladi, agar u o'qishni to'xtatib qo'yar ekan. Unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb juda haqqoniy aytganlar. Bu haqiqatni yoshi qancha bo'lishidan qa'tiy nazar barcha o'qituvchilar yaxshilab bilib olishi lozim.

## IX MAVZU: PEDAGOGLIK KASBINING SATHLARINI TASHKIL ETUVCHI KOMPETENSIYALAR

### Reja:


1. **Pedagogik kompetensiya haqida tushuncha va pedagogik kompetensiya turlari.**
2. **Pedagog kompetentligini oshirishga bo'lgan yondashuvlar.**
3. **Ta'lim sifatini oshirishda pedagoglarga qo'yilgan zamonaviy talablar.**
4. **Rahbarning boshqaruv kompetentligidagi ijobiy fazilatlar, salbiy xususiyatlar va ularni bartaraf etish yo'llari.**

Insonni faoliyat va muloqot ob'ekti sifatida tavsiflovchi kompetentsiyalar. Insonning ijtimoiy hamkorligini va ijtimoiy muhitni ta'minlovchi kompetentsiyalar. Inson faoliyatini ta'minlovchi kompetentsiyalar. Kasbiy faoliyatning tanlangan sohasida muvaffaqiyatli ishlash ko'nikmalari va malakalari.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi—ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la holos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir». Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayoniga boshqacha nazar bilan qarashni talab etadi. Xususan, ta'lim tizimimiz uchun yangi pog'ana bo'lishi, xalq ta'limi tizimida bu muammo o'z dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi yoshlarni tarbiyalash, respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muxim va mas'uliyatli vazifadir. Hozirda bunday ulkan vazifani sharaf bilan bajaradigan, zamonaviy va jahonning eng ilg'or ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.

### **“Kompetensiya” tushunchasi va uning turlari.**

**Kompetensiya**-bilim,ko'nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatleri, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati.  
**Kompetensiya turlari quyidagicha (5-rasm):**




**5-rasm. Kompetensiya turlari.**

**Kasbiy kompetentsiya**


- pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- O'z ustida ishlash;
- Ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish;
- O'quvchilar ehtiyojini anglay olishi;
- O'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- Eng so'nggi yangiliklar va yutuqlardan xabardor bo'lish;
- Ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O'z fanini mukammal bilishi;
- Xorijiy tillardan birini bilishi.

**Kasbiy kompetentsiyani shakllanish bosqichlari:**

1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
2. O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
3. O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.



**6-rasm. Kasbiy kompetensiya modeli.**



**7-rasm. O'qituvchining kompetensiya modeli.**

**Shaxsiy kompetentsiya**

- Muloqatchanlik;
- Bag'rikenglik;
- Etakchilik;
- Faol, tashabbuskor;
- Moslashuvchan;
- Sog'lom turmush tarzi;
- Mas'uliyat;

- Ishchanlik;
- Insonparvarlik.

### **Umummadaniy kompetensiya**

- Ma'lumotli;
- Madaniyatli;
- Umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- Milliy madaniyatga ega bo'lish;
- Mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- Boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi.

### **Maxsus kompetensiya**

- O'quvchilar ehtiyojini bilishi;
- Turli yosh xususiyatlarini bilishi;
- Maxsus qobiliyatlarni ishga sola bilishi.

## **2. Pedagog kompetentligini oshirishga bo'lgan yondashuvlar.**

A.V. Xutorskiy ta'limda o'qituvchining **yetti kompetentsiyasini** tafsiflaydi:

**1.Dunyoqarash asnosida** ya'ni qadriyat va o'zini anglash-o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni mohiyatini ko'ra oaldi va tushunadi bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya- o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.

**2.Umummadaniy**–milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf–odatlarga hurmat; ijtimoiy ko'nimalarga ega bo'lish. Ilm fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini anglay olishi va o'quvchi yoshlarga tushuntira olishi.

**3.O'quv va bilish jarayoni**- o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi.

**4.Ma'lumotga ega bo'lish**- pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

**5.Muloqotchanlik**- til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi.

**6.Ijtimoiy- foydali mehnat**-oilaviy munosabatlar va mas'uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

**7.O'z ustida ishlashi**- jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirib borishi. Xissiyotini boshqarish.

### **Kvalifikatsiya va kompetentsiyaning o'zaro munosabati**

Kvalifikatsiya- potentsial faoliyatda bilim va ko'nikmaning namoyon bo'lish.

Kompetentsiya-bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko'rinishi.

### **Kompetentsiya ko'rinishlari**

1. **Umumiy**- turli xil holatlarda qo'llash mumkin.
2. **Maxsus**- kasbiy faoliyatda bajarish lozim bo'lgan harakatlar.

### **Didaktik kompetentsiya.**

- O'qitish muhitini yaratish.
- Mavzu mazmunini yoritishni rejalashtirish
- O'quv jarayoni boshqarish
- O'quvchilarning yutuqlari va rivojlanishlarini baholash
- O'quvchilarga motivatsiya berish va yordam ko'rsatish
- O'quvchilar bilimini anglash va ularni rivojlantirish

### **3. Ta'lim sifatini oshirishda pedagoglarga qo'yilgan zamonaviy talablar.**

#### **O'qituvchidagi zaruriy ijtimoiy ko'nikmalar quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:**

- O'z-o'zini namoyon qilish
- Boshqa odamlar bilan ijtimoiy muloqotda bo'lish
- O'z ustida tinimsiz ishlash
- Vaziyatni baholash va muammolarni yechish ko'nikmasiga ega bo'lish
- Tashkilotchilik, ijodiy yondashuv
- Boshqaruv ko'nikmasiga ega bo'lish

#### **Ta'lim sifatini o'zgartirishda o'qituvchining roli**

**1.Tashkilotchi-ijtimoiy pedagog:** o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlaydi.

**2.Sinf yetakchisi**-sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi va ta'sir ko'rsatadi;

**3.Metodist**-ta'lim jarayonida o'quvchilarning muammoni yechishda yordam beradi va qo'llab-quvatlaydi.

**4.Faylasuf**-bilim va tajribalarni tahlil qiladi, o'z qarashlarini asoslaydi;

**5.Tajribali yaqin do'st**-o'quvchilar oldidagi to'siq va muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

**6.Tadqiqotchi –novator**-yangilik yaratuvchi-muntazam ravishda o'z ustida ishlaydi, yangi g'oyalar yaratadi, tatbiq etadi.

**7.O'quv jarayonini rahbari va uni rag'batlantiruvchi**-maqsadga yetish vositalari, istiqbolini nazarda tutadi, o'qitish uslublarini tanlaydi, o'quvchilarni o'qishga o'rgatadi, ijodiy yondashadi.

**8.O'zaro ta'sir ko'rsatuvchi** -jamo'a bo'lib ishlay oladi va ishlashga o'rgatadi.

**9.Maslahatchi**- shaxsiy namunasini o'rgatadi

**10.Tarbiyachi**-o'quvchilarga jismonan, aqliy va ma'naviy tomondan rivojlanishlariga yordam beradi.

**11.Psixolog**-o'zini yaxshi biladi va tushunadi

**12.O'zgarishlarga yo'naltiruvchi-o'quvchilarni** hayotiy ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi

**13.Ma'lumotlarni taqsimlovchi-o'quvchilarga** asosiyyangi ma'lumotlarni yetkazadi va amaliyotga tatbiq etishga o'rgatadi.

**O'qituvchi o'quv jarayonida maslahatchi sifatida faoliyat qiladi.**

Ya'ni:

-O'quvchilarga ko'nikmalarini o'qish jarayonida rivojlantirishga yordam beradi;

-Turli xil yo'nalishdagi reja (strategiya)larni qanday qo'llash kerakligi boyicha maslahat beradi;

-Faol qayta aloqani ta'minlaydi;

-Noan'anaviy usullar bilan o'quvchilarning harakatlarini qo'llaydi va mustahkamlaydi;

-O'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi;

-O'quv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi;

-O'quvchilarning o'quv jarayonidagi ehtiyojlarini tahlil qiladi.

**O'qituvchi-yangilik kirituvchi**

❖ Yangiliklarni ayniqsa o'zga davlatlardan kirib kelayotganlarini farqlaydi va tushunib yetadi;

❖ Yangiliklarni tahlil qila olishga layoqatli;

❖ Yangiliklarni turli xil vaziyatlarda qo'llay oladi va kamchiliklarini to'g'rilaydi;

❖ O'z pedagogik amaliyotida yangiliklardan ijodkorona foydalana olishga layoqatli.

**Kattalarni o'qitish va o'rgatishning mohiyati:**

✓ Mazmundan kelib chiqib-dolzarb maqsadni belgilash (motivatsiya asosida);

✓ Tajribani sinab ko'rish va tanqid;

✓ O'rganish

✓ Emotsiyaning ta'siri

✓ Hurmat qilish va xavfsizlik muhiti

✓ O'qish- mas'uliyat, f aollik

✓ Tajribadan o'rganish

✓ Refleksiya va qayta aloqa

**O'qituvchining rol (vazifalari)i**

**Fasilitator-** inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "yordam beruvchi", "engillashtiruvchi" degan ma'noni anglatadi. Ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishni osonlashtirish uchun o'quvchilarning samarali hamkorligini shakllantiradi



**Menejer-** o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini o'rganish natijasida ta'lim-tarbiya jaryoni strategiyasini ishlab chiqadi va jarayonni boshqaradi.

**Ekspert-**aniq mavzu, masala boyicha hakamlilik qiladi. BKM darajasini belgilashda yordam beradi.

**Moderator-**ma'lum mavzu yuzasidan muhokama, bahs tashkil etadi, o'zi aralashmagan holda bir yechimga erishishga yordam beradi.

**Ma'ruzachi-** mashg'ulot uchun o'quv materiallarini tayyorlaydi, o'quvchilarni bahsga chorlaydi, o'rganish jarayonini motivatsiyalaydi.

**Maslahatchi-** o'quvchilarning tajribasiga asoslangan holda bilim beradi, mavhum o'rinlarni aniqlashtirishda yordam ko'rsatadi.

**Trener-**o'quvchilarning o'zaro muloqotini tashkil etadi, ularning ma'lum malaka va ko'nikmalarini rivojlantiradi.

#### **Fanlar bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lish.**

Ta'lim sifatini belgilovchi omillardan biri bu o'qituvchining o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi:

- ✓ Ilmiy bilim;
- ✓ Turli xil faoliyatni bajara olishi (namuna misol keltira olishi);
- ✓ Muammoli vaziyatlarni samarali yechimini topishda ijodiy faoliyat asosida yondashish;
- ✓ Jamiyat va insonlarga, tabiatga ijobiy emotsional munosabatda bo'lish tajribasi.

#### **4. Rahbarning boshqaruv kompetentligidagi ijobiy va salbiy xususiyatlar hamda ularni bartaraf etish yo'llari.**

Tadqiqotlarda keltirilishicha, ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonida rahbarlar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur: belgilangan maqsadga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish; vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra mutaxassislarini tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash; ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, pedagog xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish; moddiy-texnik va zamonaviy ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ta'lim muassasasi va sotsium munosabatlarining uzluksiz aloqasini ta'minlash; ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborotlar texnologiyalaridan foydalanilishini ta'minlash; DTS talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borishni tashkil etish; ta'lim muassasasining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlash uchun pedagog xodimlar va bolalar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida ahborotlar to'plash va tahlil qilish; ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va

takomillashtirish yoʻnalishida belgilangan vazifalarni qayta koʻrib chiqish, yangilash, lavozimlar boʻyicha davlat talablari asosida kadrlar tanlash va joy-joyiga qoʻyish; tarbiyachilarning innovatsion faoliyat natijalariga qiziqishini shakllantirish va ragʻbatlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish; qabul qilingan qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish.

Amaliyotda koʻpchilik rahbarlarning boshqaruv faoliyati samaradorligi koʻp jihatdan rahbarning oʻz lavozimida qancha muddat ishlaganiga, yaʼni boshqaruv jarayonida orttirgan tajribasiga bogʻliq deb hisoblanadi. Tadqiqotlarda esa, taʼlim muassasasi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishda rahbarlarning boshqaruv faoliyati samaradorligi asosan ularning boshqaruv yoʻnalishidagi tushunchalari, bilimi, koʻnikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari, kasbiy tayyorgarligiga va shaxsiy sifatlariga bogʻliq, deb koʻrsatiladi.

Mazkur fikrga asoslangan holda, adabiyotlarda keltirilgan rahbar shaxsi va uning shaxsiy xususiyatlari hamda kasbiy tayyorgarligiga va ega boʻlgan shaxsiy sifatlariga xos quyidagi talablarni keltirish mumkin.

Rahbar har qanday vaziyatlarda ham oʻzini tuta olishi, tashabbuskor boʻlishi, har qanday vaziyatlardan jamoani olib chiqa olishi, taraqqiyot bilan barobar qadam tashlashi, koʻpchilik dardi bilan yashashi, hamkorlik, hamjihatlik, hamijodkorlik bilan ish yuritishi, kasbiy-uslubiy mahorat egasi boʻlishi, soʻzi bilan ishi bir boʻlishi, maqsadni aniq qoʻya oladigan va uning ijrosini taʼminlaydigan boʻlishi, vijdonli va adolatli boʻlishi, samimiy, vazmin, bagʻrikeng boʻlishi, ijodkor, bunyodkor va yaratuvchan boʻlishi, talabchan va mehribon, vaqtning qadriga yetadigan, xushmuomala inson boʻlishi kerak.

Mazkur keltirilgan tom maʼnodagi fikrlarda rahbarlarning bilimi, koʻnikma va malakalari, qobiliyati va fazilatlarini, fidoyiligi va shaxsiy sifatleri boʻyicha tabiiy holda mavjud talablar oʻz ifodasini topgan deb aytishimiz mumkin.

Lavozim vazifalari boʻyicha qoʻyilgan talablarda rahbar va pedagog kadrlar tomonidan birinchi navbatda davlat siyosatini, taʼlim sohasiga oid boʻlgan meyoriy hujjatlarni, taʼlim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish qoidalarini chuqur bilishiga va oʻz faoliyatida qoʻllash koʻnikmalariga alohida eʼtibor qaratilgan.

Shu bilan birgalikda, rahbar va pedagog kadrlar taʼlim tizimining oʻziga xos xususiyatlari va mazkur tizimni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari boʻyicha belgilangan vazifalar hamda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va uning huquqiy asoslari, pedagoglar va oʻquvchilar jamoasining faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, boshqaruv faoliyati va uning oʻziga xos xususiyatlari, asosiy tushunchalari va tamoyillari kabi qator tushunchalarga ega boʻlishi zarurligi koʻrsatilgan.

**U.I.Inoyatovning** taʼkidlashicha, taʼlim muassasasi rahbarlarining bilimi, koʻnikma va malakalari darajasini baholash mezonida baholashning alohida

ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

**1. Kvalifikatsiya** – bu rahbarning pedagogika sohasidagi bilimi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari hamda xodimlarning pedagogik va psixologik xususiyatlari, mutaxassisligi hamda kasbga nisbatan qo'yilayotgan ijtimoiy meyor va talablarni bilishi, shuningdek, bo'lajak mutaxassis kvalifikatsiyasi hamda ta'lim muassasasini boshqarishning nazariy asoslari yo'nalishida tushunchalarga ega bo'lishi.

**2. Kasbiy mahorat** – bu mavjud yagona pedagogik talablar asosida, pedagogik xodimlar hamda o'quvchilarning imkoniyatlarini o'rganib, ularni hisobga olgan holda, maktab jamoasini shakllantirish, uning faoliyatini muvofiqlashtirish, jamoa oldida turgan vazifalarni bajarishda mavjud muammolarni va masalalarni hal etish yo'llarini ko'rsatish; jamoatchilik tashkilotlarini tuzish va ularni maktabni boshqarish ishlariga jalb etish; o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish asosida pedagogik xodimlar bilan ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, tanqid va o'z-o'zini tanqid zaruriyatini hisobga olgan holda ularning xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, tartib-intizomni va uyushqoqlikni saqlash; boshqaruv faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilash; maktab jamoasi faoliyati hamda pedagogik xodimlarning faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish yo'nalishlaridagi ijtimoiy-psixologik ko'nikma va malakalardan iborat.

**3. Faoliyat unumdorligi** – bu ta'lim oluvchilarning davlat ta'lim standartlari asosidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, rahbarlar ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o'zini-o'zi nazorat qila olishi, shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borishi, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-meyoriy mezonlarga asoslanishi zarur bo'lib, bular rahbarning boshqaruv yo'nalishida kompetentligini ifodalaydi.

Boshqaruvda kompetentlilik rahbarlarning ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Mazkur salohiyatni maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyati jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqaruv faoliyati jarayonining holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

**V.P.Toporovskiyning fikricha**, boshqaruvda kompetentlilik rahbarning boshqaruv yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, uning individual qobiliyatlari va malakasi, o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida ta'lim muassasasini boshqarish imkoniyatlari orqali aniqlanadi.

**A.K.Makarov** boshqaruvchining kasbiy tayyorgarligining asosi kompetentlilik deb belgilagan holda, uning ikki yo‘nalishini, ya’ni ma’lum bir soha bo‘yicha kasbiy va shaxsiy kompetentlilikni ajratib ko‘rsatadi. Birinchisi – bu kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashdagi yetuklik, ikkinchisi – qator zaruriy umuminsoniy sifatlarga erishish.

Tadqiqotlarda UO‘TM direktori shaxsi komponentlaridan biri sifatida boshqaruvda kompetentlilik keltirilib, boshqaruvda kompetentlilik yo‘nalishida maktab direktori ta’lim muassasasini boshqarishda tizimli yondashuvni tatbiq etish; boshqaruv funksiyalari, vositalari, metodlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini va ularni amalga oshirish usullarini; rahbarlik uslublari va ulardan oqilona foydalanishni; maktab va sotsium o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asoslarini; meyoriy hujjatlar bilan ishlash va maktab faoliyatining reglamenti asoslarini; ta’lim menejmenti asoslarini; axborot texnologiyalari va kommunikatsion vositalardan foydalanishni; ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalarini; davlat ta’lim standartlari va ularni amaliyotga tatbiq etish mezonlarini; ta’lim muassasasi faoliyati monitoringini yuritishni; axborotlar to‘plash metodlari va ulardan foydalanishni; personalni boshqarish, ish yuritish va buxgalterlik hisobi asoslarini bilishi va mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha zaruriy tushunchalarga ega bo‘lishi ko‘rsatiladi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentliligini ikki tizim, ya’ni bilishi zarur bo‘lgan tushunchalar va o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan ko‘nikmalar orqali ifodalanayotganini, aniqrog‘i rahbarlarda shakllanishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar orqali tavsiflanayotganini inobatga olib, rahbarlar ta’lim muassasasida hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish, pedagog xodimlarni kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlantirish, ma’naviy boyitish hamda intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan qulay ta’limiy muhitni barqarorlashtirishi zaruriyatidan kelib chiqib, rahbarlar kasbiy kompetentliligining quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

o‘z faoliyati va ta’lim muassasasi faoliyati samaradorligini tahlil qilish va obyektiv baholashga xizmat qiluvchi reflektiv ko‘nikmalar;

o‘z faoliyati va o‘zaro munosabatlar jarayonidagi xatti-harakatlarining natijalarini hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayoniga tayyorgarligini his etishni ifodalovchi oldindan ko‘rish ko‘nikmalari;

boshqaruv jarayonlarida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatlarda subyektlar faolligini ta’minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish ko‘nikmasi;

boshqaruv jarayonlarida mavjud sun’iy to‘siq va qarama-qarshiliklar jamoadagi ongli intizomga salbiy ta’sir ko‘rsatishining oldini olish ko‘nikmasi;

hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish va vaziyatlarga ko‘ra rahbarlik uslublariidan oqilona foydalanish ko‘nikmasi;

muloqotga oson kirishish ko‘nikmasi;

kommunikativ kompetentlilik, ya’ni turli sharoitlarda insonlar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmasi;

axborotlar to‘plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish ko‘nikmasi;

o‘zini-o‘zi boshqarish va shaxsiy rivojlantirish ko‘nikmasi va h.k.

Demak, rahbarlarning kasbiy kompetentliliği ularning ta’lim muassasasi faoliyatini ilmiy asoslarda tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi tushunchalari darajasi, tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik, pedagogik qobiliyati va ko‘nikmasi, o‘zini-o‘zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida ta’lim muassasasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish imkoniyatlari orqali aniqlanadi deb aytishimiz mumkin.

Yuqorida aytilganlarga muvofiq, **rahbarlarning kasbiy kompetentliliği** – bu ta’lim muassasasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishda innovatsion yondashuvlarga asoslanadigan, kasbiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarga ega bo‘lgan, yuqori darajada o‘zini-o‘zi nazorat qila oladigan, boy falsafiy va ma’naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, shaxslararo munosabatlarda tarbiyaviy munosabatlarni e’tiborga oladigan hamda vaziyatlarga ko‘ra turli xil muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-meyoriy mezonlarga asoslanadigan, ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta’minlash, ta’lim muassasasi ilmiy-metodik ta’minotini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali ta’lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan mutaxassis shaxsini tavsiflaydi.

Masalan, biror-bir shaxs ezgu g‘oyalarga asoslangan qadriyatlar tizimi, xarakter, motivlar, muayyan sohaga doir bilimlardan xabardorligi, uslubi, xatti-harakatlari, ma’lum faoliyatni tashkil eta olish malakasiga ega bo‘lsa, ikkinchi bir shaxs ularga qarama-qarshi mazmunga ega xislatlarni o‘zida namoyon etadi. Quyida ijobiy va salbiy mazmuni ifodalovchi shaxsiy sifatlarni tizimi keltiriladi.

#### 4-jadval. Shaxsiy sifatlarni tizimi

##### 1. Qadriyatlar tizimi

Ijobiy mazmunga ega qadriyatlar:	Salbiylik kasb etuvchi holatlar:
Yaqinlarga oqibat ko‘rsatish, nochorlarga muruvvatli bo‘lish, atrofdagilarga imkon qadar yordam qo‘lini cho‘zish, tinchlikni	O‘zini past baholash, kamsitilgan hisoblash, manmanlik, alamzadalik, nafrat hissiga egalik, kimlardandir o‘ch,

yoqlash, urushlarni qoralash, xalq baxti-saodati uchun kurashish, hayotni seva olish, har bir hodisadan yaxshilik topa bilish, mehnatsevarlik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzatlash, o'zini ilm olishga rag'batlantirish, o'z ustida ishlash, o'zi mansub bo'lgan jamoa (oilada, ish joyida, tengdoshlari davrasida) a'zolariga ijobiy quvvat uzata olish, ularni xayrli ishlarni qilishga rag'batlantirish, shukronalik va kelajakka ishonch hissi bilan yashash, kamtarlik va b.	qasd olishga intilish, begonalarning xatti-harakatlari, faoliyatini tahlil qilish, omadsizlik, muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan quvonish, atrofdagilarga ishonchsizlik, har kimdan shubhalanish, yaqinlar, hamkasblar, tengdoshlar, qo'ni-qo'shnilarning xatti-harakatlarini yoqtirmaslik, ularga "yomonlikni sog'inish", noshukrlik, hayotdan norozi bo'lish, kelajakka ishonchsizlik va h.k.
---	---

## 2. Xarakter

Ijobiy:	Salbiy:
1) ishlab chiqarish faoliyati (mehnat)ga ijobiy munosabatda bo'lish; 2) o'zini-o'zi yuqori baholash; 3) atrofdagi kishilar (alohida shaxsga, jamoa)ga samimiy munosabatda bo'lish; 4) ijtimoiy va tabiiy borliqqa ijobiy munosabat bildirish; 5) shaxsiy va boshqalarning buyumlariga yomon munosabatda bo'lish.	1).ishlab chiqarish faoliyati (mehnat)ga salbiy munosabatda bo'lish; 2).o'zini-o'zi past baholash; 3).atrofdagi kishilar (alohida shaxsga, jamoa)ga yomon munosabatda bo'lish; 4).ijtimoiy va tabiiy borliqqa salbiy munosabat bildirish; 5).shaxsiy va boshqalarning buyumlariga salbiy munosabatda bo'lish.

## 3. Motivlar

Ijobiy mazmunga ega motivlar:	Salbiy xususiyat kasb etuvchi motivlar:
Muayyan xatti-harakat yoki faoliyatni tashkil etish, jarayonda ishtirok qilish, voqea va hodisalarga ijobiy munosabatda bo'lishga rag'bat bildirish.	Muayyan xatti-harakat yoki faoliyatni tashkil etish, jarayonda ishtirok qilish, voqea va hodisalarga ijobiy munosabatda bo'lishga rag'bat bildirmaslik.

## 4. Muayyan sohaga doir bilimlardan xabardorligi

Yuqori darajada:	Past darajada:
Sohaga oid bilimlarni puxta o'zlashtirish, ularni amaliyotda samarali qo'llash ko'nikma, malakalariga egalik, faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashish.	Sohaga oid bilimlarni yetarli darajada o'zlashtira olmaganlik, ularni amaliyotda samarali qo'llay olmaslik, bu borada ko'nikma, malakalarning yetarlicha shakllanmaganligi.

## 5. Boshqaruv faoliyati uslubi

<b>Demokratik:</b>	<b>Liberal:</b>	<b>Avtoritar:</b>
Faoliyatni tashkil etishda ko'pchilikning fikrini inobatga olish, unga nisbatan o'z munosabatini bildirish.	Faoliyatni tashkil etishda ko'pchilik tomonidan bildirilayotgan fikrga befarq bo'lish, unga nisbatan o'z munosabatini bildirmaslik.	Faoliyatni tashkil etishda o'z fikriga tayanib ish ko'rish, "faqat mening aytganim bo'ladi" qabilida ish ko'rish, boshqalarning fikrini inkor etish.

## 6. Xatti-harakatlari

<b>Ijobiy:</b>	<b>Salbiy:</b>
Voqea-hodisalar, jarayon va ijtimoiy subyektlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish, yangiliklar yaratishga intilish, mavjud imkoniyatni ko'ra olish, har bir imkoniyatdan samarali foydalanishga urinish, atrofdagilarga ijobiy ta'sir ko'rsatish, ularga ijobiy "quvvat uzatish" va yaxshiliklarga undash.	Voqea-hodisalar, jarayon va ijtimoiy subyektlarga salbiy munosabatda bo'lish, har bir holatda salbiylikni ko'rish, atrofdagilarga nisbatan ishonchsizlik bildirish, boshqalarning xatti-harakatlarini yoqtirmaslik, atrofdagilarga salbiy ta'sir ko'rsatish, ularga nisbatan doimo tanqidiy munosabatda bo'lish.

## 7. Ma'lum faoliyatni tashkil eta olish malakasiga egalik

<b>Ijobiy:</b>	<b>Salbiy:</b>
Amaliy malakalarni o'zlashtira olish, sohaga oid ilg'or yutuqlar, tajribalarni o'zlashtirishga rag'bat bildirish, o'z ustida doimiy izlanish, faoliyatga nisbatan innovatsion, ijodiy munosabatda bo'lish.	Amaliy malakalarni yetarli darajada o'zlashtira olmaslik, sohaga oid ilg'or yutuqlar, tajribalarni o'zlashtirishga intilmaslik, o'z ustida ishlash ijtimoiy talablardan biri ekanligini anglamaslik.

Mahoratli, malakali va o'ziga xos boshqarish qobiliyatiga ega rahbarni uning qiyofasida aks etayotgan muayyan sifatlar, xatti-harakatlarida ko'zga tashlanadigan holatlar, atrofdagilar bilan munosabatiga ko'ra ajratib olish mumkin. Bunday toifaga kiruvchi rahbar o'zida quyidagi belgilarni namoyon eta oladi:

**1. Mustaqil ravishda qaror qabul qiladi.** Mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda turli variantlarni ko'rib chiqadi, zaruriyatga ko'ra yetakchi mutaxassislar bilan maslahatlashadi, biroq, oxir-oqibatda yakuniy qarorni o'zi qabul qiladi.

**2. Vazifalarni muhim va nomuhim, birinchi va ikkinchi darajali ekanligiga ko'ra kerakli mutaxassislarga topshiradi.** Vazifalarni topshirishda og'zaki yoki yozma buyruqqa tayanib qolmaydi, aksincha, ularni xushmuomalalik bilan, iltimos va maslahat ohangida

bildiradi. Bunda u o'zini xodimlar zimmalariga yuklatilgan vazifalar bo'yicha ishni qanday tashkil etishlarini biladigandek tutadi.

**3. Hech tortinmay o'z nuqtai nazarini ifodalay oladi.** U jamoa orasida ro'y berayotgan voqea-hodisalarning tashqi kuchlar ta'sirida ro'y berayotganligini sezdirmaydi. Bu vaziyatda u o'zini xuddi qurolli kuchlar tizimida bo'lgani kabi tutadi. YA'ni, oddiy askar buyruqni generaldan emas, balki o'z boshlig'idan eshitadi. Boshliq esa hech qachon "bu generalning buyrug'i" demaydi, agar bordi-yu, shunday desa, u holda askar oldida obro'si pasayadi.

**4. Ish tartibini o'zi belgilaydi: qachon, qancha va aynan nima ustida ishlashni rahbarning o'zi hal qiladi.** Bu holat rahbarning boshqalardan kam ishlashini ko'rsatmaydi, aksincha, shu tarzda jamoa a'zolarining intilishlarini o'z ish tartibiga qarab belgilashi mumkin. Agarda biror bir xodim ish vaqtdan tashqari qo'shimcha ishlasa, bunday holat xodimning hozirgi vaziyatidan yuqoriroq bo'lgan amalni ko'zlayotganligini bildiradi. Bu esa rahbar uchun xavfli sanaladi.

**5. Zarur o'rinlarda kerakli savolni bera oladi.** Hatto zamonaviy qarashlarga umuman rioya etmaydigan kishilar ham axborotga egalik – hukmronlik ekanligini yaxshi bilishadi. Savolga javob berayotgan kishi so'rayotgan kishiga tobe maqomida turadi. Bekorga "bu yerda savolni men beraman!" iborasi munosabatlar notengligining yorqin namunasi bo'lib qolmagan.

**6. O'zi zarur deb hisoblaguniga qadar sukut saqlaydi.** U bemalol atrofdagilar uning javobini kutayotganligini o'ylamasdan uzoq jim qolishi yoki aksincha, gapirayotgan shaxsni keskin savol, javob, ibora yoki qo'l harakati bilan to'xtatib qo'yishi mumkin.

**7. Uning faoliyat ko'lami ko'p joyni egallaydi.** Bu "rahbar hech bir harakatsiz o'tiradi", degani emas. Shunchaki, u o'z hududini chegaralamaydi, o'zi uchun qaysi vaziyat, holat qulay bo'lsa, shunga muvofiq harakat qiladi. YA'ni, istagan joyida yuradi, narsa va kishilar joyini o'zgartiradi (nazokat bilan o'tib ketishi uchun ozgina surilishlarini so'raydi). U qo'l harakatlari bilan atrofdagilarga nimalarni e'tibordan qochirmasliklari zarurligini anglatuvchi vizual maydon hosil qiladi. Boshqalardan farqli ravishda baland yoki past ovozda gapirishi bilan o'ziga xos ovoz maydonini yaratadi.

**8. Aniq maqsadni ko'zlaydi.** U shunchaki muassasa faoliyatiga doir ishlar haqida gapirmaydi, balki atrofdagilarga qaysi maqsad sari intilishayotganini eslatib turadi. Bu bilan u asosiy maqsadni hamisha yodda tutishi va hamsuhbatlariga hamkorlikdagi harakatlari besamar emasligini, bu aniq natijaga intilish ekanligini ifodalaydi.

**9. Xodim jamoa faoliyatining barcha jihatlarini uchun kuchli mas'uliyatni his qilmay osongina "Menga nima?", "Men shunchaki oddiy xodim bo'lsam!", "Qo'limdan nima ham kelardi!", deya o'z zimmasidan mas'uliyatni soqit qilishi mumkin.** Rahbar esa hech qachon bunday deya olmaydi. U hatto o'zi muassasada bo'lmagan vaqtda yuz bergan voqea-hodisalar uchun ham javobgar, mas'uliyatlidir.



**10. Jamoa va o‘zining shaxsiy faoliyatiga to‘g‘ri baho bera oladi.** U jamoa a‘zolarini samarali, ijobiy bajarilgan ishlari uchun maqtaydi yoki tanbeh beradi. U o‘zini jamoa faoliyatiga baho berishga haqli, huquqli deb hisoblaydi va atrofdagilar ham uning bu huquqini tan olishlarini istaydi.

Umuman aytganda, insoniyatning ikki xil toifadagi shaxslardan iboratligi ko‘p bor takrorlanadi. Birinchi toifa – liderlar, ikkinchisi esa – ijrochilar. Maktabgacha ta‘lim muassasalari rahbarlari ham mushohada yuritish asosida o‘zlarining qaysi toifaga mansub ekanliklarini aniqlab olishlari lozim. YA’ni, ular qaysi toifaga mansublar: liderlar toifasigami yoki ijrochilar toifasiga? Garchi lavozimi nuqtai nazardan ayrim boshliqlar jamoaga rahbarlik qilsalar-da, biroq, ish jarayonida ish yuritish, boshqaruv faoliyatini tashkil etishda lider emas, balki oddiy ijrochi ekanliklarini namoyish etadilar.

Boshqaruv jarayonida “rahbardan xodimlarni bilish, ularning qobiliyat va bilim saviyalariga qarab o‘quv muassasasining, o‘quv-tarbiya jarayoni uchun tanlash, o‘z o‘rniga tayinlash, zarur ko‘rsatma, buyruqlarni bera bilish va ularning to‘liq bajarilishini talab qila olish, o‘qituvchi va xodimlarning shaxsiy xususiyatlarini sezish, joyida ularning imkoniyatlaridan foydalangan holda ishlata olish” talab etiladi.

***Ta‘lim muassasasining rahbari:***

- 1) xodim hulqiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadigan omillar majmuini belgilay olishi;
- 2) xodimlarni samarali mehnatga rag‘batlantirish uchun ularning ruhiyatiga ijobiy ta‘sir etadigan muhitni yaratishi;
- 3) xodimlar bilan faol muloqotga kirishishi, ya‘ni, ularning nimalarni xohlashlarini bilishi zarur.

Boshqaruv nazariyasida rahbar tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan va ko‘p holatlarda yo‘l qo‘yiladigan xatolarning o‘rganilishiga ham e‘tibor qaratilgan. Uzoq yillik tahlillar natijasida umumiy tarzda rahbarlar boshqaruv faoliyatida quyidagi xatolarga yo‘l qo‘yishlari aniqlangan:

**Faoliyatda barcha eng oddiy holatlarni hisobga olish layoqatiga ega bo‘lmaslik.** Malakali rahbar faoliyat jarayonining eng oddiy unsurlarini ham inobatga ola bilishi kerak. U band bo‘lishiga qaramay, kutilmaganda yuzaga keladigan muammoni ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi. Agar shaxs, u rahbar yoki oddiy ijrochimi, bundan qat‘iy nazar, kutilmaganda yuzaga keladigan vaziyatlarda rejalarni o‘zgartirishga qodir bo‘lsa, bu uning zaifligini ko‘rsatadi, xolos. Muvaffaqiyatga intiluvchi rahbar o‘z ishi bilan bog‘liq barcha iker-chikirlarga e‘tiborli bo‘lishi lozim. Buning uchun u o‘rinbosarlarining xizmatidan foydalana olish layoqatiga ega bo‘lishi zarur.

**O‘zaro o‘rin almashishga tayyor bo‘lmaslik.** Qobiliyatli rahbar sharoit taqozo etsa, boshqalardan talab qiladigan ishni bajara olishga qodir bo‘ladi. “Kimga qancha berilsa, undan shuncha so‘raladi”, deyiladigan haqiqat barcha iqtidorli rahbarlarga tegishli.

**O‘z bilimidan ishda foydalanish emas, balki xodimlarni bilim olishlari uchun mukofotlash.** Jahon tajribasida mutaxassislariga faqat bilim olganliklari uchun emas, balki

nimanidir uddalay olishlari yoki boshqalarni ana shu ishni bajarishga ishontirganlari uchun haq to‘lanadi.

**Ijrochilarning raqobatchi bo‘lishlaridan qo‘rqish.** “Egallagan o‘rnimni ijrochi – xodimlardan biri olishi mumkin” deb qo‘rqadigan rahbarning hayotida ertami-kechmi bu hodisa ro‘y beradi. Mahoratli rahbar o‘zi egallab turgan lavozimning barcha “nozik” jihatlarini to‘liq anglay oladigan, uni bajarishga tayyor mutaxassisning imkoniyatidan foydalanib, vakolatni o‘zidan soqit qiladi.

**U o‘zini shu tarzda takomillashtirib, yanada yuqoriroq lavozimlar uchun tayyorlaydi, bir-biridan juda uzoq narsalarni ham diqqat markazida tutadi.** Haqiqat shundaki, malakali rahbarlar boshqalarga ishlash uchun imkoniyat berib, o‘zlari ham katta daromad oladi. Mahoratli rahbar o‘z ustida ishlab, birinchidan, xodimlarining ish samarasiga kuchli ta‘sir etadi, ikkinchidan, ularning xizmati ham foydali, ham qimmat bo‘lishini ta‘minlaydi.

**Tasavvurining boy bo‘lmasligi.** Agar rahbarning tasavvuri boy bo‘lmasa, u anglanmagan noma‘lum vaziyatlar, kutilmagan tasodiflardan himoyalaniş, aniq rejalar tuzish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Natijada uning ish samaradorligi keskin pasayib ketadi.

**Xudbinlik.** Barcha yutuqlarni faqat o‘ziniki qilib ko‘rsatgan rahbarga nisbatan xodimlarda ishonchsizlik yuzaga keladi. Hushyor rahbar doimo hurmat, obro‘-e‘tiborni xodimlar bilan bo‘lisha oladi. U erishilgan yutuqlar natijasida orttiriladigan obro‘-e‘tibor haqiqatdan ham xodimlarning xizmati ekanligini unutmaydi. Shu bilan birga, deyarli barcha xodimlar mehnatlari evaziga manfaat topish istagida ishlashlarini yaxshi tushunishi lozim.

**O‘zini tuta olmaslik.** Xodimlar o‘z hissiyotini boshqara olmaydigan rahbarni hurmat qilmay qo‘yadilar. Qolaversa, rahbarning o‘zini tuta bilmasligi mavjud “kuch”ni bo‘lib yuboradi, xodimlarini ranjitadi.

**So‘zida turmaslik.** O‘z vazifasi va xodimlariga sodiq bo‘lmagan rahbar liderlikni uzoq saqlab turolmaydi. Xodimlar bunday rahbar bilan hisoblashmay qo‘yadilar, unga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishadi. Chunki, u shubhasiz ana shunga loyiq. So‘z va ish birligiga erisha olmaslik-har qanday kishilik faoliyatidagi muvaffaqiyatsizlikning eng ko‘p tarqalgan sabablaridan biri.

**Boshqarishda soxta obro‘-e‘tibor, nufuzga ega bo‘lish.** Malakali rahbar yetarli darajada jasur, botir bo‘lmog‘i, biroq, xodimlarda vahima uyg‘otmasligi lozim. Xodimlariga o‘z nufuzi, obro‘sini kuch bilan uqtirmoqchi bo‘lgan rahbar zo‘ravonlik ham ko‘rsata oladi. Iqtidorli rahbar o‘zining ustun jihatlarini ko‘rsatishga ehtiyoj sezmaydi. Aksincha, u bunga boshqa yo‘llar bilan, masalan, xodimlarni tushunishi, ularga hamdard bo‘lishi, rostgo‘yigi, adolatli yondashishi, o‘z ishini juda yaxshi bilishi orqali erishadi.

**Turli nom va martabalarni pesh qilish.** O‘z ishiga munosib rahbar qo‘l ostidagilari hurmat qilishlari uchun hech qanday unvonga muhtoj bo‘lmaydi. Olgan unvonlari, mukofotlari bilan maqtanish malakali rahbarga xos xususiyat emas. Maqtanchoq, kalondimog‘ bo‘lish rahbarning malakali ekanligini ifodalovchi sifatlar emas .

Boshqaruv faoliyatini to'g'ri tashkillashtirgan rahbar jamoa oldiga qo'yilgan maqsad va reja topshiriqlarini o'z vaqtida muvaffaqiyatli bajaradi. Jamoada *sog'lom ruhiy muhitni yaratish* uchun ta'lim muassasasining rahbari quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi lozim:

- jamoa a'zolarining shaxsiy fazilatlarini, yoshini inobatga olish;
- jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlik va yordamni qaror toptirish;
- muassasa jamoasi a'zolarini bir-birlari bilan chambarchas bog'laydigan ijtimoiy aloqani o'rnatish;
- jamoa a'zolarining unumli mehnat qilishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- ta'lim muassasasi faoliyatining ijobiy natijasini ta'minlash uchun jamoaning har bir a'zosi mas'uliyatini oshirish;
- jamoa o'rtasida ijodiy raqobatni yuzaga keltirish.

Shunday qilib, boshqaruv jarayonining muvaffaqiyatli kechishi va samarali bo'lishida rahbarning o'zida muayyan sifatlarni namoyon eta olishi ham hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. Rahbar shaxsida namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy, psixologik va shaxsiy sifatlari boshqaruv faoliyatining samarali natijasini kafolatlaydi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarining rahbarlari ham o'zlarida ma'naviy-axloqiy, psixologik va shaxsiy sifatlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishga e'tibor qaratishlari, o'z ustlarida izlanishlari lozim. Rahbarlar ma'naviy-axloqiy, psixologik va shaxsiy sifatlarini takomillashtirish yo'lida amaliy harakatlarni olib borar ekanlar, bu jarayonda boshqaruv faoliyati qanchalik samarali kechayotganligini ham tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

“Buyuk bobolarimizning ma'naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron **Amir Temur** haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi. Shaxsan men **“Temur tuzuklari”**ni har gal o'qir ekanman, xuddiki o'zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman. O'z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma'naviyati uchun bugun ham oziq bo'ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko'p bor ishonch hosil qilganman. Masalan, “Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”, degan so'zlar bugungi kunda ma'naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon”<sup>4</sup>.

Darhaqiqat, ta'lim tizimini boshqarish o'ziga xos muhim jarayon bo'lib, unda ishtirok etayotgan har bir boshqaruvchidan o'z sohasi bo'yicha yetarli bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lish bilan birga muloqot madaniyatiga ega bo'lish ham talab etiladi. Ma'lumki, ta'lim har bir jamiyatning bosh ajralmas tarkibiy qismi,

---

<sup>4</sup> I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent. “Ma'naviyat”. 2008

madaniyatining va rivojlanishining yuksak ko'rsatkichi. Ijtimoiy tajribaning bog'lovchi bo'g'ini sifatida u madaniy an'analarning butunligi va vorisiyligini, butun jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.

## X MAVZU: PEDAGOGIK KREATIVLIK

### Reja:

1. Kreativlik tushunchasi va uning mazmuni.
2. Kreativlik sifatlarini rivojlantirish sifatleri.
3. Pedagog kompetentligida kreativlikni tashkil etish.


**Tayanch soʻz va iboralar:** kreativlik, kreativ pedagogika, kreativlik qobiliyatlari, kreativ sifatlarini shakllantirish yoʻllari, kasbga sodiqlik, prognoz qilish, kreativlikni tarbiyalash, kreativ faoliyat, pedagogning kreativ tafakkur mezonlari.

Taʼlim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qoʻllanishi taʼlim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda taʼlim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va kam vaqt sarflangan holda kutilyotgan natijani qoʻlga kiritish beradi. Oʻqituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olgʻa undovchi, bunyodkorlikka ragʻbatlantiruvchi kuch sifatida namoyon boʻlib, taʼlim jarayoning sifatini kafolatlaydi. Shu sababli, har bir oʻqituvchi innovatsiyalarning mohiyatini toʻla tushungan holda oʻz faoliyatini izchil izlanishlar ijod qilish orqali olib borsada pedagog kasbining oʻrganilmagan qirralarini koʻproq bilib oladi. Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim tizimida barcha boʻlajak pedagoglarni, pedagog boʻlib ishlayotgan mutaxassislarni ijod qilishga va kompetentli ustoz boʻlishga daʼvat qilyapmiz. Xoʻsh, ijodkorlik, yaratuvchanlik tushunchalarini qanday tahlil qilish mumkin? Yaratuvchan, ijodkor, tashabbuskorlik tushunchalarini biz fanda “kreativlik” deb oʻrganmoqdamiz.

“Kreativlik” atamasi oʻtgan asrning 60-yillarida amerikalik innovator **Djon Pol Gilford** tomonidan taʼlim jarayoniga kiritildi. Kreativlik - ingliza “create” soʻzidan olingan boʻlib, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan maʼnolarni anglatadi. “pedagog kadrlarning kreativlik qobiliyati” tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjud. Kreativlik – individning yangi tushuncha yaratishi va yangi koʻnikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. Pedagogning kreativligi – tashabbuskorlik, samarali muloqotni, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqegini, oldindan koʻra bilish intuitsiyasini rivojlanganligini va tashkilot faoliyatining qayerga yoʻnalishini payqab olishi bilan xarakterlanadi. “kreativlik va pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati zamonaviy pedagogikada “Kreativ pedagogika”

qo'llanishi boshlanishiga ko'p bo'lmasada, pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil perdmnet sifatida shakllanishi ta'minlandi. "Kreativ pedagogika" fanining umumiy asoslari mutaxassis shu jumladan, bo'lajak pedagoglarning kasbiy kamol topishlari uchun zamin yaratishga xizmat qilmoqda.

Shaxsning mutaxassis sifatida kamol topishi o'z mohiyatiga ko'ra, jarayon tarzida bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson rivojlanishining muhit davrlarida kasbiy kamol topishi , rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17) yoshdan boshlanib kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60) yoshgacha bo'lgan jarayonda davom etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishning o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenezi – tug'ulishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzliksizlik faoliyati mazmuniga bog'liq. **Amerikalik innovator J.Gilford** kerativlikni tasdiqlaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi (8-rasm):



### **8-rasm. Individual kreativ qobiliyatlar.**

Kreativlik zamonaviy o'qituvchilardan o'z faoliyatiga ijodiy-innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, kreativev tafakkur zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim vazifalarini amalga oshiradi. Pedagoning kreativligi – ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni boshqarish jarayoniga ijodiy, noan'anaviy yondashuv asosida samarali natijaga erishishdan iboratdir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtodorning muhi belgisi sifatida ham aks etadi.

**O'qituvchi faoliyatida kreativlik** tushunchalar sifatleri amerikalik psixolog **E.P.Torrens** fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagi maqsadlar qo'yiladi:

- muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

- muammo yechimini topishda bilim va amaliy xarakterlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik;

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni yondashuvda aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "Pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanadi. Kreativ pedagogika quyidagi ikki holatni ifodalaydi:

1) O'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb, hisoblayotgan o'quvchilar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb qilish;

2) O'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish;

Pedagogning kreativ sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli o'quvchilar ham, talabalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalarda biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Kreativ jihatdan rivojlanish har bir shaxs hayotida davr va bosqich muhim ahamiyatga egadir. Demak, kreativlik rivojlanish davri ma'lum kreativli sifatlarining rivojlanishi yakuniga yetgan qandaydir vaqt birligi kreativ rivojlanish bosqichi muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanish darajasi. **Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:**

1. Bilimga oid (gnosik) bilimlar;
2. Loyihalash malakalari;
3. Ijtimoiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
4. Tadqiqotchilik malakalari;
5. Muloqotga kirishuvchanlik (kommunikativ) malakalari;
6. Tashkilotchilik malakalari;
7. Izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar;
8. Texnik-texnologik malakalar;

**Amerikalik psixolog E.P.Torrens** pedagog tomonidan darsda turli tugallanmagan kishik-kichik mavzular, tugallanmagan rasmlar, erkin mavzular tematikasini tavsiya qilib talabalarda kreativlikni rivojlantirishini tavsiya beradi.


Aytib o'tilganidek, barcha shaxslarda bo'lgani kabi, pedagoglarda ham kreativ sifatlar o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Shunga ko'ra, tadqiqotlarda pedagoglarning kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari yoritiladi.

**Amerikalik pedagog Patti Drepeau** tomonidan pedagoglarning kreativlik sifatlarini rivojlantirishning 4 yo'li ko'rsatilgan<sup>5</sup> (9-rasm):

---

<sup>5</sup> Patti Drepeau. "Sparkling Student Creativity: Practical ways to Promote Innovative Thinking and Problem Solving" 28 November 2014. Hawker Brownlow education. Alexandria, Virginia USA. 42 page

## ASOSIY YO'LLAR



### 9-rasm. Kreativlik sifatlarini rivojlantirish yo'llari.

**1-yo'l: kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish.** Bunda asosiy urg'u kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish asosida e'tibor markazida bo'lib, talabalar tayanch so'zlar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga qaratilgan. Xususan, talabalar kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida talabalarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibidan zarur so'zlarning m'nolariga e'tibor qaratiladi. Masalan, "Didaktika" o'qitish o'qitish nazariyasi sifatida pedagogic texnologiya, o'qitish texnologiyasi, ta'lim texnologiyasi, ularning mazmuni bir fikrni ifodalaydi, talaba xohlagan tayanch so'zni o'z fikrida ifodalashi mumkin. O'qituvchi savollar beradi: "fikrni mantiqan ifodalang!", "tasavvur qiling va ulardan o'z maqsadingizda foydalaning!". Talablar o'qituvchi rahbarligida kreativlik ko'nikmalarini o'zlashtirishlari egallab, "kreativlik xaritasi"dan foydalanishlari mumkin.

**2-yo'l: amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini shakllantirish.** Pedagoglar talaba-yoshlarda kreativ harakat ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va vositalardan foydalaniladi. Bu o'rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq talablarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

**3-yo'l: faqat faoliyat jarayolarini tashkil etish.** Mazkur yo'l talabalarni muammoni yechish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg'u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullari faol qo'llanmasada kreativ fikrlash yuz beradi. Masalan, "Didaktika" tushunchalari bilim, ko'nikma, malaka va boshqa kategoriyalar bo'yicha topshiriqlar bajarilar ekan,



talabalar bu tushunchalar o'rtasida o'zaro bog'lanish borligi haqida fikr yuritadilar va turli didaktik muammolar tahli qilinadi. Natijada bu jarayonda ko'p tomonlama fikrlash, mushohada yuritishga yo'l ochadi.

**4-yo'l: kreativ mahsulot (ishlanmalar)da foydalanish.** Bu yo'lni tutishda pedagog talabalarga "Didaktikaning ta'limdagi o'rni" mavzusida "Power Point" dasturi yordamida prezentatsiya (taqdimot) tayyorlab, topshiriqni bajargan holda yangilik yaratish mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ yondashuv ko'nikmalari faol rivojlanadi. Dars davomida kompetentli pedagog amaliy darslarda ma'lum mavzularda badiiy asarlar va filmlar asosida talabalarga kreativ fikrlash bo'yicha turli topshiriqlar berish mumkin. Kasbiy faoliyatga mutlaqo bog'liq bo'lmagan ixtiyoriy ravishda mavzular tanlanishi mumkin.

Kasbiy faoliyatingizga bog'liq, biroq bir-biriga zid ikkita obyektning oling (10-rasm):

## BIR-BIRIGA BOG'LIQ BO'LMAGAN YOKI JUDA KAM BOG'LANGAN OBYEKTLAR

Tarbiyaviy tadbir

Sayohat

### 10-rasm. Namuna.

Kasbiy faoliyatingiz bilan bog'liq fikrlarni chap tomondagi grafik asosida izohlang. Zid bo'lgan ikki so'zni va fikrlarni ikkinchi grafikda shakllantiring hamda izohlab bering.

**Britaniyalik psixolog Devid Lyuis** bolalar kreativligini rivojlantirishga oid o'qituvchi-pedagoglarga ko'rsatmalar tavsiya qiladi. Namunalar:

- Bolalarning savollariga chidam bilan to'g'ri javob bering;
- Ularning fikrlarini jiddiy qabul qiling;
- Bolalarga o'z ishlari bilan shug'ullanishlari uchun alohida xona yoki burchak ajratib;
- Vaqti-vaqti bilan bolalarga ularni yaxshi ko'rishingizni va ularni qanday bo'lsalar shunday qabul qilishingizni namoyon qiling;

■ Ularga shaxsiy rejalarni ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga ko'maklashing;

■ Bolani yoshlikdan boshlab o'qib o'rganishga odatlantiring va h.k.

Shu o'rinda oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarga kreativlikni shakllantirish uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

a) Talabadagi bilag'onlik darajasini tahlil qilib fan asosida mustaqil ishlar berish;

b) 1-bosqich talabalariga axborot resurs markazlari – ARMLlarda ilmiy adabiyotlar bilan tanishish va ulardan foydalanish metyodikasini o'rgatish;

c) Talabalarga turli erkin mavzularda insholar yozish va fikrlash, mantiqiy xulosalar qilishga odatlantirish;

d) Dars davomida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda turli mavzular bo'yicha turli mushoiralar tashkil etish;

e) Turli interfaol usullar orqali (“Baliq skeleti”, “Veyn diagrammasi”, Fikrlar taraqqiyoti” va boshqalar bo'yicha mavzularni izohlash va qiyoslashga odatlantirish;

f) Mustaqil ma'ruzalar, ilmiy maqolalar, ilmiy dissertatsiyalar yozishda kreativlikka asoslash yo'llarini shakllantirish;

g) “Men buni bajara olaman”, “Buni uddalayman”, degan shiorni o'zida shakllantirish;

### **Pedagog kompetentligida kreativlikni tashkil etish.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH.M.Mirziyoyev** 2019 yil 23 avgustdagi xalq ta'limi tizimi xodimlari bilan bo'lgan telemuloqotda quyidagicha fikrlarni bildirganlat: “hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri – kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodligi va o'z kasbini sevishidir. Bu fazilatlar pedagoglarni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi”. Bugungi talaba-yoshlarda kreativlikni shakllantirish uchun bugungi pedagog namunaviy intellektga ega bo'lishi, zamonaviy ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini mukammal bilishi va shu asosda o'z kasbi bilan bog'liq ijodkorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bugungi professor-o'qituvchi o'z shogirdlariga Vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy masdlahat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishi bilan bir qatorda mantiqiy fikrlashga odatlantirish va ijod qilishni o'rgatishi kerak bo'ladi. Bo'lajak pedagoglarga kreativlik bo'yicha ijodoy faoliyat turlarini shakllantirish quyidagicha bo'ladi. **Kreativlik bir necha faoliyatni qamrab oladi:**

**1. Akmeolgik yondashuv**

**2. Akseologik yondashuv**

**3. Kreativ yondashuv**

**4. Refleksiv yondashuv**

**1. Akmeologik yondashuv** – o'qituvchining o'z faoliyatida erishgan eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi.

**2. Akseolgik yondashuv** – bunda o'qituvchi-pedagogik faoliyatda qadriyatlarga, milliy urf-odatlariga e'tibor berishi ko'zda tutiladi.

**3. Kreativ yondashuv** – o'qituvchida ijodkorlik qobiliyatining namoyon bo'lishi kuzatiladi.

**4. Refleksiv yondashuv** – o'qituvchi o'zining kundalik faoliyatini oldindan tasavvur qiladi: bugun ta'lim jarayonida qanday faoliyat yuritadi va dars oxirida o'z mehnatini tahlil qiladi.

Bugungi kunda ta'lim mazmunida modernizatsiya ishlari ya'ni DTSda o'quv rejasi va fan dasturlarida ham islohotlar olib borilmoqda. Bugungi zamon o'qituvchisi yuqoridagi islohotlarni ham hisobga olishi zarur. Pedagogning kreativligi haqida fikr yuritganda biz standart va nostandart ta'lim shaklida ham fikr yurtimoqchimiz.

**Standart** – bu ta'lim mazmunining mos shaklidir, bunda o'qituvchi subyekt, o'quvchi obyekt tinglovchi sifatida faoliyat yuritadi.

**Nostandart** – ta'lim shaklida o'qituvchi ham, talaba ham subyekt sifatida faoliyat yurutib boradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida mustaqil qarorlar chiqirishi mumkin bo'ladi. O'qituvchining kompetentligida kasbiy bilim va madaniyat tushunchalari to'g'ri tahlil qilinishi lozim.

**Kasbiy bilim** – bu o'qituvchining o'z sohasini mukammal bilishi bo'lsa, madaniyat tushunchasida o'zining nutq madaniyatining estetik va boshqa jihatlari namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimini boshqarish orqali har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishish maqsadida yangi o'quv dasturi, darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, zamonaviy axborot vositalari yordamida video-darsliklar, multimedialar ishlab chiqilmoqda. Buning sababi nimada? Balki darsliklarimiz zamon talabidan orqa qolishidadir. Bugungi yoshlarning bilimga intilishini hisobga olinmaganligidadir, bir xil an'anaviy darslar bugungi o'quvchi-talabalar uchun balki zerikarli deb javoblarni berishimiz mumkin. Yuqoridagi muammolarning yechimi faqat bugungi pedagog o'qituvchilardan yuqori kompetentli bo'lishni, o'z sohasinini kasbiy bilimlariga ega bo'lishini va kreativlik asosida ijod qilishni talab etmoqda. Kasbiy qobiliyatga ega mutaxassis o'z bilimini izchil boyitib borishi, yangilikka intiluvchan mahorat egasi bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida, kompetentligini ta'minlaydi. Bugungi kunda ko'plab pedagogik va psixologik ilmiy tadqiqotlarda intellekt va kreativlik tushunchalarining aloqadorligi haqida turlicha fikrlar mavjud. Intellekt yaxlit rivojlangan o'qituvchida kreativlik yuqori bo'ladi. Bu esa ishga samaradorligini ta'minlaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Qolaversa, kreativlik zehn o'tkirligini belgilab beradi. **“Kreativlik – o'qituvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni**

**ta'minlaydi"<sup>6</sup>.**

Bugungi pedagog psixolog olimlarning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi: a) savollar, kamchiliklar, va bir-biriga qarama-qarshi ma'lumotlarga e'tibor qaratish; b) ma'lumotlarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgarfi surilgan taxminlar asosida ularni yechimini topishga intilish, kreativ potensialni bilish jarayonida yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning **kreativ potentsiali** an'anaviy tafakkur yuritishidan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Tafakkurning tezkor va egiluvchanligi;
2. Yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati, bir qolipda fikrlamaslik;
3. Tashabbuskorlikning o'ziga xosligi;
4. Noaniqlikka toqat qilish;
5. Zakovatli bo'lish;

**Kreativlikni tarbiyalash mezonlari** – kasb talablariga javob beruvchi maxsus bilim, ko'nikma, malaka va shaxs sifatlari majmuasidan iborat. U ijtimoiy foydali natijalarni olishga yo'naltirilgan bo'lib, pedagog unga o'z-o'zini boshqarish natijasida, o'quvchi-talabalar bilan to'g'ri suhbatni tashkil etish orqali erishish mumkin.

Kreativlik turli vaziyatlarda ta'lim va tarbiyaga oid masalalar yuzasidan qarorlarni qabul qilishda yaqqol namoyon bo'lib pedagogning ijodiy faoliyatini tavsiflaydi. Bugungi bo'lajak pedagoglar o'z faoliyatida albatta ijodiy innovatsion faoliyatga e'tibor qaratish lozim. Kreativlikning mohiyati – intellect insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan kreativ tafakkur zamonaviy ta'lim jarayonini boshqarishning muhim vazifalarni amalga oshiradi.

---

<sup>6</sup> Kenjaboyev A.E. "Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligi va kreativligi – bugungi kun talabidir". Xalq ta'limi jurnali 2020 yil № 5. 9-11 bet.

**Pedagogning kreativ tafakkur mezonlari** quyidagilarni o'z tarkibiga qamrab oladi <sup>7</sup>(11-rasm).

## PEDAGOGNING KREATIV TAFAKKUR MEZONLARI



### 11-rasm. Pedagogning kreativ tafakkur mezonlari.

**Aqlning peshqadamligi** – belgilangan muddatda ko'pchilik o'ylab ko'rishga ulgurmaydigan muammolar bo'yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko'rsata olish hamda ularning barchasining o'ziha xos salbiy va ijobiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyatidir.

**Tafakkurning egiluvchanligi** – jamiyatda qabul qilingan va an'anaviy mavjud bo'lgan, aslida to'g'ri deb o'ylangan shablon yo'nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo'nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o'z faoliyatini yangidan qura olish va masaa yechimining yangi yo'nalishlariga o'zini safarbar eta olishdir.

**Prognoz (bashorat) qila olish** – o'z sohasi rivojidadagi istiqbolli o'zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabablari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash tafakkuri hisoblanadi.

Pedagog kreativ tafakkuridagi aqlning peshqadamligi va egiluvchanligini maxsus abstract bilimlar asosida tarbiyalshi mumkin. Kreativ tafakkur maqsadga yo'naltirilgan, ammo shu vaqtgacha ma'lum bo'lmagan va an'anaviy tarzda tajribaga

<sup>7</sup> Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar - ta'lim samaradorligi omili". T.: YOSHLAR NASHRIYOT UYI. 2020 yil 56 bet.

kiritilmagan batamom yangi usul, yo'l, vositalarning tanlanishi va ishlab chiqilishini anglatadi<sup>8</sup>.

**Kreativlikni tarbiyalash mezonlari** – kasb talablariga javob beruvchi maxsus bilim, ko'nikma, malaka va shaxs sifatlari majmuasidan iborat. U ijtimoiy foydali natijalarni olishga yo'naltirilgan bo'lib, pedagog unga o'z-o'zini boshqarish natijasida, o'quvchi-talabalar bilan to'g'ri suhbatni tashkil etish orqali erishish mumkin.

---

<sup>8</sup> Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar - ta'lim samaradorligi omili". T.: YOSHLAR NASHRIYOT UYI. 2020 yil 56 bet.

## XI MAVZU: HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING TASNIFIY BELGILARI.

### Reja:

1. Hamkorlik ta'limi texnologiyalarining didaktik mohiyati.
2. Hamkorlik strategiyalarining istiqbolliligi.
3. Hamkorlik pedagogikasi va uning asosiy masalalari.
4. Hamkorlikdagi vaziyatlarni vujudga keltirish metodi

*Tayanch tushunchalar: hamkorlik, hamkorlik ta'limi, hamkorlik strategiyasi, hamkorlik ta'lim texnologiyasi, jamoada, kichik guruhda, juftlikda, xatti-harakatlar yordamida, dahldorlik asosida, jestlar, ohanglar yordamida, muloqotdagi masofa orqali, vizual xarakterdagi o'zaro hamkorlik, baho, "o'qituvchi-ota-ona", "o'quvchi-ota-ona", "o'qituvchi-o'quvchi".*

#### 1. Hamkorlik ta'limi texnologiyalarining didaktik mohiyati.

Pedagogik hamkorlik g'oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va "XXI asr ta'lim Konsepsiyasi" asosini tashkil etadi. **Hamkorlik pedagogikasi** insonparvarlik pedagogikasi bilan uzviy va o'zaro aloqadordir. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi ko'pdan qo'llab kelinmoqda. Bu g'oya ilk bor **D.Dyui tomonidan XX asrning 20 yillarida ilgari surilgan**. Lekin ushbu pedagogikaning metodik tavsifi 70 yillarning oxiri, 80 yillarning boshlarida dunyoning turli mamlakatlarida Rossiya, Buyuk Britaniya, Kanada, G'arbiy Germaniya, Avstriya, Gollandiya, Yaponiya, va Isroilda matbuotda e'lon qilingan.

**Hamkorlik ta'limi** – o'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, "pedagog-talaba(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim bo'lib, uning **asosiy g'oyasi** o'quv topshiriqlarini jamoada, kichik guruhlarda yoki juftlikda birgalikda, o'zaro hamkorlikda bajarish sanaladi.

- ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;
- talabalarga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish;
- ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishish.

**Hamkorlik ta'limi texnologiyalari** – o'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, shuningdek, “pedagog-talaba(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta'minlovchi ta'limiy xarakterdagi texnologiyalar.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy g'oyalari keyinchalik Amerikalik olimlar **Djorj Aronson** (1978), **Rodjers va Devid Djonsonlar**( 1987) **Robert Slavin**, (1990), hamda Isroillik olim **Shlomo Sharan** (1988) tomonidan taklif qilingan va uslubiy jihatdan tavsiflangan.

Shuningdek, hamkorlik ta'lim texnologiyasining g'oyalari o'tgan asrning 80-yillarida **J.J.Russo, K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko** va boshqa novator-pedagoglarning qarashlari asosida shakllangan. Hamkorlik ta'lim texnologiyasi talabalarda intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy qobiliyat, qiziqish, motivlarni rivojlantirish asosida dunyoqarashni hosil qilish **maqsadini** ilgari suradi. Hamkorlik ta'lim texnologiyasi “Cooperative learning”dan farq qilib, u juftlik va kichik guruhda ishlash orqali talabalarning jamoada faoliyat yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

#### **Hamkorlik ta'lim texnologiyasining tarkibiy elementlari:**

**1.** Tayanch konspekt (fizik, matematik va kimyoviy formulalar, tezislar, izohlovchi suratlar, qisqacha xulosalar, ramziy belgilar, sxemalar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar)dan foydalanish.

**2.** Bilimlarni test asosida sinovdan o'tkazish.

**3.** Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholash.

#### **Hamkorlik ta'lim texnologiyasi tamoyillari:**

- juftlik va kichik guruh a'zolarining o'zaro birligi;
- juftlik va kichik guruhda har bir a'zoning shaxsiy va guruh muvaffaqiyati uchun javobgarligi;
- kichik guruhda hamkorlikka asoslangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- guruh va jamoa ishining umumiy baholanishi.

#### **Hamkorlik ta'lim texnologiyasining belgilari:**

- talaba shaxsi, individualligiga e'tibor qaratish;
- tayyor bilimlarni o'zlashtirish va ularni qayta ishlab chiqishni inkor qilish;
- talabalarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;
- pedagogga va tengdoshlarga nisbatan ijobiy munosabatning yuzaga kelishini ta'minlash;
- talabalarda madaniy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
- hamkorlik va o'zaro tenglikka asoslangan muhitni yaratish.



**Hamkorlik ta'lim texnologiyasini qo'llashda talabalar quyidagi shakllarda ta'lim oladilar:**

- 1) jamoada;
- 2) kichik guruhda;
- 3) juftlikda

**1-variant: Jamoada ta'lim olish.** Har bir talabaning yutuqlaridan jamoa xabardor bo'ladi, chunki jamoa har bir talaba tomonidan o'quv materialining muvaffaqiyatli o'zlashtirilishidan manfaatdor. Zero, jamoaning muvaffaqiyati har bir talaba va uning yutug'iga, jamoa oldiga qo'yilgan muammoning yechimiga bog'liq.

**2-variant: Kichik guruhda ta'lim olish.** Talabalar 4-5 nafardan bo'lib, kichik guruhlariga birlashib, blok hoida berilgan o'quv materialini ustida ishlaydi. Har bir talaba material ustida alohida ishlaydi. So'ngra bir guruhdagi talabalar boshqa guruhlariga 1 nafardan bo'lib o'tishadi va o'zlari o'rgangan material bo'yicha ekspert sifatida tengdoshlariga ma'lumot bergandan so'ng o'z guruhlariga qaytirib, tengdoshlaridan o'zlashtirgan ma'lumotlar bilan o'z jamoasi a'zolarini tanishtiradi. Bunda sheriklarni diqqat bilan tinglash, zarur ma'lumotlarni o'z daftarlariga qayd etib borish talab qilinadi. Mashg'ulot so'ngida o'qituvchi istalgan talabadan o'rganilgan mavzu bo'yicha savollarga javob berishini so'raydi.

**3-variant. Juftlikda ishlash.** Talabalar juftliklarga bo'linadi. Har bir juftlik yaxlit mavzu bo'yicha alohida topshiriq oladi. Birgalikda ishlash asosida juftlik a'zolari o'zlariga berilgan materialni o'zlashtiradi. So'ngra bu haqida jamoa oldida axborot beradi.

**Hamkorlik ta'lim texnologiyasini qo'llashda talabalardan quyidagilar talab etiladi:**

- sherigi va guruhdoshlari bilan hamkorlikka erishish;
- faol ishlash, topshiriqqa nisbatan mas'uliyatli yondashish;
- sherigi yoki guruhdoshlariga ijobiy munosabatda bo'lish;
- nafaqat o'z yutug'i, balki sherigi va guruhining muvaffaqiyati uchun javobgarlikni his qilish;
- juftlikda va guruhda ishlash – jiddiy va mas'uliyatli mehnat ekanligini his qilish.

**Hamkorlik ta'lim texnologiyasi "pedagog-talaba hamkorligi" tamoyiliga asoslanib, quyidagi shakllarda qo'llaniladi:**

- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- fan bo'yicha tashkil etiladigan musobaqada ishtirok etish;
- fan olimpiadalariga tayyorlanish;
- hamkorlikda loyihalar tayyorlash;
- ijodiy hamkorlikda ilmiy maqolalar chop etish;
- ijodiy hamkorlikda o'quv manbalarini yaratish.

### **Hamkorlik ta'lim texnologiyasini qo'llash tartibi:**

- talabalar (4-5 kishi) kichik guruhlarda ishlaydi;
- jamoa uchun yagona o'quv materialini taqdim etiladi;
- har bir guruh alohida savolga javob topadi;
- Ekspert guruhi shakllantiriladi;
- bu guruh har guruh ishi bilan batafsil tanishadi;
- ekspert guruhi har bir talabaning faoliyatini individual baholash imkoniyatiga ega;
- talabalar to'plagan ballar umumlashtirilib, kichik guruhning faoliyati baholanadi;
- eng yuqori ball to'plagan jamoa g'olib sanaladi.

Pedagogik hamkorlik ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatida **yangicha sifat o'zgarishlarining** shakllanishi va namoyon bo'lishiga ko'maklashadi. Pedagogik hamkorlikning muhim jihati shundaki, u ta'lim jarayoni subektlari faoliyatini muayyan tarzda uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Pedagogik hamkorlik jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi faoliyati uyg'unlashadi, ijodiy xarakter kasb etadiki, u ta'lim jarayoni subektlari faoliyatidagi o'ziga xos har bir jihatni hisobga olishni taqozo qiladi. "O'qituvchi-o'quvchi" munosabatlaridagi hamkorlik, bu faoliyatning borishi va natijalarining birgalikdagi tahlili, ma'naviy dunyoda bir-biriga samimiylik, o'zaro bir-birini mustahkam tushunish, kattalar va bolalarning hamkorlikdagi rivojlantiruvchi faoliyati g'oyasi. An'anaviy ta'lim pedagogik jarayonda o'qituvchining subekt sifatida, o'quvchini esa obekt sifatida ishtirokiga asoslangan. Bu qoida o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subekti haqidagi tasavvur bilan almashinadi. "O'quvchi-o'quvchi" munosabatlari hamkorlikning turli shakllari (hamkorlik, birga qatnashish, birga qayg'urish, birga ijod qilish, birgalikda boshqarish)da qabul qilingan umumiy jamoa hayotiy faoliyatida amalga oshadi.

**Hamkorlik pedagogikasining qo'yidagi to'rtta asosiy yo'nalishi mavjud (12-rasm):**



## 12-рasm. Hamkorlik pedagogikasining yo'nalishlari.

**Shaxsiy–insonparvar yondashuv:** shaxsga yangicha qarash ta'lim berishning maqsadi sifatida, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi; shaxs subyektdir, har bir bolaning qobiliyati bor va hokazo.

### **Pedagogik muloqotni insonparvarlashtirish va demokratiyalash:**

- bolalarga muhabbat, ularning taqdiriga qiziqish;
- boladagi umidli ishonch;
- hamkorlik, muloqot mahorati;
- To'g'ridan-to'g'ri majbur qilishni bekor qilish;
- ijobiy rag'batlantirishning muhimligi;
- bolalardagi kamchiliklarga sabrli bo'lish;
- o'qituvchi va o'quvchi huquqlarini tenglashtirish;
- bolaning erkin tanlash huquqi;
- xato qilish huquqi;
- shaxsiy qarashlarga bo'lgan huquq;
- bola huquqlari haqidagi konvensiyaga amal qilish;

O'qituvchi-o'quvchi munosabatlari usuli: ta'qiqdash emas, yo'naltirish; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyruq berish emas, tashkillashtirish; chegaralamaslik, erkin tanlashni yo'lga qo'yish.

Zamonaviy sharoitda natijalarga olib kelmaydigan to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan metod sifatida voz kechish:

- majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlik;
- tug'ma qiziquvchanlikni hisobga olib o'qitish;
- muvafaqqiyatsizlikka sabab bo'ladigan majburiy istakni almashtirish;
- bolalarning mustaqilligi va mustaqil faoliyatini o'rnatish;
- jamoa orqali bevosita talablarning qo'llanishi.

#### **Individual yondashuvning yangi talqini:**

- o'rta o'qiydigan o'quvchilarga yo'naltirishni bekor qilish;
- shaxsning eng yaxshi sifatlarini izlash;
- o'quv–tarbiya jarayonida shaxsning o'ziga xosliklarini hisobga olish;
- shaxs rivojini bashorat qilish(prognozlash);
- rivojlanishni, uni korreksiyalashning individual dasturlarini loyihalash.

#### **Didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua:**

- ta'lim mazmuni shaxs rivojlanishining mazmuni sifatida qaraladi;
- bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish va umumlashgan fikrlashga o'rgatish;
- maktab fanlarini integratsiyalash, umumlashtirishga o'tilishi;
- ta'limning variativligi va tabaqalashganligi;
- o'rgatishning ijobiy rag'batlaridan foydalaniladi.

#### **Tarbiya konsepsiyasi:**

- bilimlar maktabini tarbiya maktabiga almashtirish;
- barcha tarbiyaviy tizimlar markazida o'quvchi shaxsini qo'yish;
- tarbiyaga insonparvar yondashuv, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish;
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini, uning individualligini rivojlantirish;
- milliy va madaniy an'analarni tiklash;
- individual va jamoaviy tarbiyani hisobga olish.

**Atrof-muhitni pedagogizatsiyalash.** Oila, maktab va ijtimoiy borliq o'sib kelayotgan avlodni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institutlar sifatida aks etadi. Natijalar barcha uchta tarbiya manbalarining birgalikdagi harakatida aniqlanadi. Bundan bolalarni himoya qiluvchi ijtimoiy va davlat institutlariga ta'sir etuvchi ota-onalar bilan hamkorlik, omilkor boshqarish g'oyasi kelib chiqadi.

Pedagog hamkorlik asosida o'qituvchilarning o'zaro mahsuldor muloqotlari ham namoyon bo'ladi. Bunday hamkorlik bolalar bilan kattalar, bolalarning o'zaro hamda o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari, ota-onalar va o'qituvchilar orasida kuzatiladi. O'qituvchilar orasidagi hamkorlik qay tarzda amalga oshiriladi? degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Bunda birinchi navbatda fanlararo integratsiyaga e'tibor qaratish lozim. O'quvchilar muayyan bir darsda aniq tarixiy

davrga xos voqelik, adabiyot, san'at, madaniyatdagi rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar, fan, sanoat, iqtisodga oid munosabatlarni uyg'un tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu maqsadda fan o'qituvchisi yondaosh o'quv predmetlaridan dars beradigan o'qituvchilar bilan o'zaro hamkorlikka kirishadi. Natijada faoliyat xarakteridan kelib chiqqan holda o'qituvchilar orasida samarali faoliyat muhiti qaror topadi.

Shu nuqtaiy nazardan qaraganimizda, o'qituvchilik kasbi o'zining mazmuni va bajaradigan vazifalarining ko'lamiga ko'ra hissiy jihatdan mehnatning katta bosim ostida kechadigan turi hisoblanadi. Aksariyat o'qituvchilar o'z ish faoliyatlarini hissiy-intellektual jihatdan kuchli bosim ostida kechadigan harakat sifatida baholaydilar. Ko'pchilik o'qituvchilar bu bosimning doimiy ekanligini e'tirof etadilar. O'qituvchilarning kasbiy faoliyatlari muayyan darajadagi jismoniy yuklamani bajarishni ham talab qiladi. Bu esa kasbiy faoliyatning zo'riqish talab qilishini tasdiqlaydi. O'qituvchilarning kasbiy faoliyatidagi zo'riqish pedagogik hamkorlik jarayonida ziddiyatli vaziyatlarni ham keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatlarda vujudga kelgan ziddiyatlarni bartaraf etish zaruriyati kuchli. Aks holda bunday ziddiyatlarni bartaraf etmaslik natijasida shaxslararo munosabatlarda murakkab vaziyat vujudga kelib, ta'lim subektlari orasidagi muloqot va hamkorlik murakkablashadi. Vujudga kelgan turli-tuman nuqtai nazarlarni samarali muvofiqlashtirish va boshqarish uchun ularning har biri muayyan xulq-atvor strategiyalarini qo'llash orqali echilishi lozim. Buning uchun o'qituvchilar vujudga kelgan ziddiyatli vaziyatlarni har tomonlama chuqur tahlil qilish tajribasiga ega bo'lishlari kerak. SHundagina ziddiyatli jarayon ishtirokchilari o'zaro kelishuvga erishib, muammoga echim topishlari mumkin.

## **2. Hamkorlik strategiyalarining istiqbolliligi.**

Hamkorlik strategiyasi pedagogik jihatdan o'quv jarayonini samarali boshqarish san'atini anglatadi. Insonparvar pedagogikada o'qituvchi har doim o'z strategiyasining muallifi sifatida namoyon bo'ladi. SHu bilan bir qatorda bunday mualliflik tasodifiy ko'rinishga ega emas. Bunda kasbiy mahorat ko'p darajada zaruriyatdan kelib chiqqan holda tanlash ko'nikmasiga asoslanadi. Bunday ko'nikmalarni namoyon qilish uchun o'qituvchi juda katta pedagogik bilim va mahoratga ega bo'lishi lozim. Buning uchun o'qituvchilar pedagogikada mavjud tajribalar ustida ijodiy fikrlashlari, shubhalarga o'rin qoldirmasliklari, ilg'or pedagogik qarashlarni o'zlashtirishlari va o'z faoliyatlariga tatbiq eta olishlari, kasbiy faoliyatlarini shaxsga yo'naltirilgan vaziyatlarda o'quvchilarga ko'maklashishga qarata olishlari zarur. Xuddi mana shu tarzda o'qituvchining o'quv materiallari va o'quvchilarga nisbatan shaxsiy munosabati, taktikasi tarkib topadi.

Pedagogik hamkorlik strategiyalari o'qituvchi pedagogik faoliyatining yuqori darajada istiqbolga yo'naltirilgan shaklidir. U metodologik xarakterdagi kasbiy

ko'nikmalarda namoyon bo'ladi. Jumladan: mavjud hodisalarni chuqurroq anglash, uning haqiqiy mohiyatini tushunish, aniq va yashirin sabablarini anglab etish, nazariya va amaliyot orasida munosabat o'rnatish, jarayon maqsadini aniqlash, o'quv-tarbiya vazifalarini muayyan prinsiplarga asoslangan holda oydinlashtirish, pedagogik hamkorlik shartlari va vositalarini tanlash imkonini beradi.

Pedagogik hamkorlik strategiyalari qo'llanadigan usullarning samaradorligini ta'minlab, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan bevosita munosabatlarni o'rnatish imkonini beradi. Pedagogik hamkorlik strategiyalari o'qituvchilarning kasb mahoratini oshirishga yo'naltirilgan yopiq xarakterdagi bilish jarayonlarida kasbiy ongning faoliyatga asoslanmagan shakllarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Pedagogik hamkorlik strategiyalari yordamida o'qituvchilarning pedagogik ongi oddiy, to'g'ridan-to'g'ri, tezkor va tashqi tomondan samarali bo'lgan vositalar orqali o'quvchilar ongiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaziyatda ongning faoliyati qo'zg'almaydi, balki hissiy ta'sirlar amalga oshadi. SHuning uchun ham o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishdagi istiqbolli yo'nalishlardan biri ularning shaxsiy ongini pedagogik hamkorlik strategiyalari bilan boyitishdan iborat. Buning uchun o'qituvchilarning tanqidiy, yo'naltiruvchi, fikriy-ijodiy, nazariy-tahliliy ongini rivojlantirish nazarda tutiladi. Xuddi shunday kasbiy ongga ega bo'lgan o'qituvchilar faoliyati orqali pedagogik ijodkorlik jarayoni boshlanadi.

Chunonchi:

- a) pedagogik ta'sirning qimmatini aniqlash;
- b) o'quvchilar bilan munosabatda o'z mavqeiga ega bo'lish;
- v) dialogning ahamiyatini tushunib etish;
- g) o'quvchilarning shaxsiy o'ziga xosliklarini anglash kabilar.

Chunki bularning barchasi o'quvchilarga beriladigan ta'lim-tarbiyaning mohiyati, mazmuni hamda yo'nalishlarini oydinlashtirish imkonini beradi.

Hamkorlikdagi pedagogik jarayonning asosiy qadriyati o'qituvchi tomonidan ta'minlanadigan o'quvchilarda o'z faoliyatini mustaqil tashkil etish, rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lishdan iborat. O'qituvchilar hamkorlik strategiyalari yordamida o'quvchilar ongiga ta'sir ko'rsatish vositalarini tanlaydilar.



Ta'lim strategiyalari insoniy mohiyat kasb etadi. Chunki pedagogik strategiyalar pedagogik faoliyat turi sifatida o'qituvchi shaxsiyati bilan bevosita bog'liqdir. Ta'limning gumanistik strategiyalari o'qituvchi kasbiy faoliyatining dasturi hisoblanadi. U o'qituvchi shaxsining o'zligini kasbiy faoliyat jarayonida namoyon etishini ifodalaydi.

O'zaro pedagogik hamkorlik jarayonida vujudga keladigan ziddiyatlarni quyidagi strategiyalar yordamida yechish mumkin (13-rasm):

### **13-rasm. Hamkorlik pedagogikasining ziddiyatlarini yechish yo'llari.**

#### **Hamkorlik pedagogikasi va uning asosiy masalalari.**

Hamkorlik har ikkala tomonning o'zaro munosabatlari va majburlamaslik prinsipiga asoslanadi. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi barcha uchun umumiy bo'lgan muammolarni birgalikda muvaffaqiyatli yechish bilan echishdan iborat. Pedagogik hamkorlik jarayonini rivojlantiruvchi strategiyalar ichida eng samaradorlari o'zaro kelishuvga asoslangan strategiyalar, hamkorlik strategiyalari, chekinish va moslashish strategiyalaridir. Qo'llaniladigan strategiyalarning muvaffaqiyati hamkorlik jarayonining muayyan darajada insonparvarlik prinsiplariga tayangan holda amalga oshirilishiga bog'liq. Bunda hamkorlik jarayoni ishtirokchilarining qiziqishlari, ehtiyojlari, tayanadigan qadriyatlarini aniq hisobga olish talab etiladi.

Inson tabiatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, har bir o'quvchida o'ziga xos iqtidor va talant mavjud. Bu iqtidor va talant ota-onalar va o'qituvchilar bilan samarali hamkorlik natijasida ro'yobga chiqadi. Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi muayyan shart-sharoitni vujudga keltirganda o'quvchilardagi iqtidorni ro'yobga chiqarishga muvaffaq bo'ladi.

Hamkorlikdagi ijodiy pedagogik jarayonni tashkil qilishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyat o'quvchilarning badiiy ijodiy layoqatlarini ochishga xizmat qilib, bunda ularning ijodkorlik hamda yaratuvchilik layoqatlarini pedagogik qo'llab-

quvvatlash alohida ahamiyatga ega. Bunday faoliyat hamkorlik xarakteriga ega bo'lib, o'quv jarayonining tarkibiy qismini tashkil etishi kerak. Shunga ko'ra hamkorlikdagi pedagogik jarayonni loyihalash va tashkil etish o'qituvchi faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchilar bilim olish jarayonida voqelikni o'rganadilar, anglab etadilar va ijod qiladilar, yaratadilar. Ijodiy yaratuvchilik jarayoniga o'quvchilar o'ziga xos tarzda yondashadilar. O'qituvchi esa ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ijod qilishlari uchun qulay sharoit yaratishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchining muhim vazifalaridan biri – o'quvchilar bilan hamkorlik qilish, ularni samarali qo'llab-quvvatlash va ko'maklashishdan iborat.

**Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki,** aksariyat hollarda o'quvchilarning o'zlari ularning ijodiy faoliyatlari va yaratuvchilikka intilishlarini qo'llab-quvvatlash yo'llarini o'qituvchiga ko'rsatadilar. O'quvchilarning o'ziga xosliklarini qo'llab-quvvatlash uchun dastlab o'qituvchilar ular va ota-onalariga yo'naltiruvchi maslahatlar berishi lozim. Bu ko'mak va maslahatlar asta-sekin tizimli pedagogik hamkorlik va o'zaro yordam tusini olishi kerak.

Ta'lim bilan o'quvchilarning ruhiy rivojlanishi orasidagi mutanosiblik hamkorlikdagi o'quv faoliyati orqali ta'minlanadi. Chunki o'quv jarayoni pedagogik jihatdan maxsus yo'naltirilgan jarayon bo'lib, unda o'quvchilar hamkorlikdagi birgalikdagi o'quv faoliyatini amalga oshiradilar.

Ular o'quv harakatlarini aniq o'quv predmeti doirasidagi o'quv materiallari yordamida bajaradilar. O'quvchilarning ruhiy rivojlanishlari asosida ularning tashqi faoliyatlari bilan bog'liq harakatlari ichki rivojlanish imkonini beradi. SHu asosda ularda kognitiv faoliyat tajribasi, tafakkur, idrok rivojlanadi. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilarda bilish qiziqishlari shakllandi. Demak, o'quvchini rivojlantirish, birinchi navbatda, uning hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri tashkil etishni talab qiladi. SHuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga yo'naltirish ularning taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil bo'la oladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi hamkorlikni o'rnatishda pedagogning nutqi asosiy o'rin egallaydi. CHunki o'qituvchining nutqi o'zaro muloqot va hamkorlikning verbal ko'rinishdagi tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, noverbal muloqotning turli yo'nalishlari ham pedagogik hamkorlikning muhim vositasi sifatida xizmat qilishini mutaxassislar ta'kidlamodalar.

O'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabatlarda ular orasida bilish va asabiy baholash xarakteridagi axborot almashinib jarayoni kechadi. Bunday axborotlarni o'zaro bir-biriga uzatish verbal hamda noverbal usullarda amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikka kirishar ekan, axborotlarning ma'lum qismini ularning yuz ifodasi, xatti-harakatlari, ko'z qarashlaridan anglab



oladi. Xatti-harakatlar, ko‘z qarashlar, qiyofadagi ifodalar so‘zdan ko‘ra ko‘proq anglashimlilik xarakteriga ega.

**Muloqotning noverbal yo‘nalishlari** o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi munosabatlarni tartibga solish, o‘zaro aloqa o‘rnatishda muhim o‘rin egallaydi. Bu esa ham o‘qituvchilarning, ham o‘quvchilarning hissiy kechinmalari va holatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, pedagogik muloqotning mazkur yo‘nalishi mutaxassislar tomonidan yakka tartibda o‘rganilgan. Tajribali o‘qituvchilar uchun bu holatni hisobga olish o‘quvchilar bilan hamkorlik o‘rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchining qanday turishi, qanday o‘tirishi, ovozi qay darajada ko‘tarishi, tabassumi, ko‘z qarashlari o‘quvchilarning u bilan hamkorlikka kirishishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Noverbal muloqot vositalariga so‘nggi yillarda pedagoglar tomonidan alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘pgina o‘qituvchilar hanuzgacha uning mohiyatini to‘laligicha anglab etmaganlar. **O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarida noverbal muloqot bir qator yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:**

- xatti-harakatlar yordamida;
- dahldorlik asosida;
- jestlar, ohanglar yordamida;
- muloqotdagi masofa orqali;
- vizual xarakterdagi o‘zaro hamkorlik vositasida.

Biz o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari doirasida noverbal muloqotning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga harakat qildik. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligida nutqning noverbal vositalari muhim o‘rin egallashiga ishonch hosil qilish mumkin. O‘qituvchi o‘z ishini engillashtirish uchun o‘quvchilar bilan so‘zlashmasdan turib ham muloqotga kirishishi mumkin. Buning uchun o‘qituvchi nafaqat o‘quvchilarning nutq ohangiga balki har bir ishorasi, ko‘z qarashlari, harakatlariga e‘tibor qaratib shu asosda o‘zining ham noverbal vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib borishi lozim.

O‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda hamkorlikdagi vaziyatlarni tashkil etish metodidan foydalanish samaralidir. Hamkorlikdagi pedagogik vaziyatlarni tashkil etish metodi innovatsion metod sifatida alohida pedagogik qimmatga ega. Bu metod yordamida o‘quvchilarda muloqotga kirishuvchanlik, ishchanlik, etakchilik, keng ko‘lamli, aniq izchillikka ega bo‘lmagan materiallarni tartibga solish va tahlil qilish, axborotlar etarli bo‘lmagan sharoitlarda ularni to‘ldirish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati vujudga keladi.

**4. Hamkorlikdagi vaziyatlarni vujudga keltirish metodi** o‘quvchilarni tabiiylikka intilishga chorlaydi. Shu tariqa hamkorlikdagi vaziyatlarni vujudga

keltirish metodi quyidagilarni taqozo etadi:

- Verbal muloqot vositasida hamkorlikdagi vaziyatlarni bayon qilish;
- muayyan vaziyatlarni mustaqil o'rganish va sinfdoshlari bilan muhokama qilish;
- o'quvchilarning vaziyatlarni birgalikda muhokama qilish jarayonlarini o'qituvchi tomonidan boshqarish;
- muhokamalar jarayonida o'quvchilarga muamolarning echimlarini topish zarurligini anglatish kabilar.

Hamkorlik vaziyatlarida o'quv harakatlarini amalga oshirish uchun o'quvchilarning faolliklariga e'tibor qaratish asosida ularning diqqatlarini aniq voqelikni tushunish va muhokama qilishga jalb etish lozim. Bu shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati hisoblanadi. Mazkur jarayonda o'quvchilar mustaqil ishlash va tashabbus ko'rsatish tajribasini egallaydilar.

Hamkorlik vaziyatlarida muhokama predmeti aniq namoyon bo'lishi kerak. **Hamkorlikda ishlash vaziyatlarini vujudga keltirishda quyidagi qoidalarga tayanish talab etiladi.** Jumladan:

1. Hamkorlikdagi o'quv vaziyati ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun o'qituvchi tomonidan maxsus loyihalashtiriladi va tashkil etiladi. O'quv jarayoni maqsadidan kelib chiqqan holda o'qituvchi tashkil etiladigan hamkorlikdagi o'quv vaziyatiga metodik ishlov beradi. Buning uchun u o'quv vaziyatida amalga oshiriladigan muhokama jarayonini aniq maqsadga yo'naltirishi, ijodiy muhitni vujudga keltirishi va boshqarishi lozim.

2. Hamkorlikdagi o'quv vaziyati muayyan o'quv kursi yoki o'quv predmeti mazmunidan kelib chiqqan holda tashkil etilishi kerak. Mazkur o'quv vaziyatida o'quvchilarga aniq o'quv materiallari yordamida ilmiy dunyoqarash va muayyan ko'nikmalar shakllantiriladi, ularning bilish faoliyatlari kengaytiriladi.

3. Hamkorlikdagi o'quv vaziyatlari turli-tuman mazmunga ega bo'lishi mumkin, lekin ularning barchasi o'quvchilarda aniq axborotlarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, asosiy muammolarni ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirishi talab qilinadi.

**O'qituvchi muayyan o'quv maqsadini amalga oshirishga qaratilgan hamkorlikdagi vaziyatlarni vujudga keltirishda nimalarga e'tibor qaratishi lozim? degan savolga javob topishi muhim ahamiyatga ega. Bu savolga javob topish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:**

- hamkorlikdagi o'quv vaziyatlarida o'quvchilar oldiga aniq echimni talab qiladigan topshiriqlar qo'yish;
- o'quvchilar oldiga echimi qo'shimcha axborotlar izlashni talab qiladigan muammolarni qo'yish;

- hamkorlikdagi o'quv vaziyatini davom ettirish imkonini beradigan dolzarb muammolarga echim topishga o'quvchilarni undash;

- o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish uchun qulay bo'lgan tipik vaziyatlarni tashkil etish kabilar.

**Hamkorlikdagi vaziyatlarni o'quv jarayoni xarakteri bilan bog'liq holda uchta katta guruhga bo'lish mumkin:**

a) ko'rgazmali xarakterdagi hamkorlikdagi o'quv vaziyatlari;

b) tahliliy, mulohaza yuritishga undovchi o'quv vaziyatlari;

v) qarorlar qabul qilishga undovchi o'quv vaziyatlari.

O'qituvchi hamkorlikdagi vaziyatni loyihalashda o'zi ilgari qo'llagan vaziyatlarga o'xshatmaslikka harakat qilishi lozim. Hamkorlikdagi o'quv vaziyatlarini loyihalash o'qituvchidan ijodkorlikni talab qiladi. O'qituvchi o'quv vaziyatini loyihalashda uning mazmuniga alohida e'tibor qaratishi, kafolatlangan natija olishga intilishi, biroq natija uning uchun ham kutilmagan bo'lishini nazarda tutishi lozim. Har qanday holatda ham o'qituvchi o'quv vaziyatini loyihalashda aniq didaktik qoidalarga amal qilishi kerak.

### **3. Hamkorlik pedagogikasida ota-onalar, mahalla masalalari.**

Bugungi kunda ma'naviy etuk, jismonan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda maktab, oila va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki, barkamol avlodni tarbiyalashda bolani o'qitish, har tamonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda pedagogik hamkorlik jarayoni muhim o'rin tutadi. **Hamkorlik** – juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, bo'lib, unda maktab, oila, mahalla, jamoatchilik, davlat va nodavlat tashkilotlari, “Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati, jamg'armalar faol ishtirok etadi. Chunki, hamkorlik jarayoni – jamiyat taraqqiyotining asoschilari bo'lgan yoshlar kamolotining asosi hisoblanadi. Albatta bu ishlarni amalga oshirishda o'qituvchining har bir daqiqasi qimmatli hisoblanadi. Chunki, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchining diqqatini hisobga olgan holda o'quv materiallarini ularga tushuntiradi. Bunda o'qituvchi gaplashib o'tirgan o'quvchilarni tartibga chaqirishi, to'xtatishi kabi salbiy holatlarni bartaraf etish bilan ularga yangi mavzuni, yangi materiallarni tushuntiradi. O'quvchilar orasidan yangi mavzu bo'yicha kimlar javob berishini aniqlaydi. Albatta bunda bolaning oila va mahallada olgan tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Bunday holatlarda o'qituvchining yakka – yakka suhbat puxta, asosli va mantiqan boy bo'lsa, o'quvchilarning unga bo'lgan ishonchi oshadi. O'qituvchining erkin dil so'zlari, maslahati, o'zaro yordami tufayli hamkorlik holati vujudga keladi. Ushbu hamkorlikda o'qituvchi doimo ularga namuna bo'lishi kerak. O'qituvchi o'zining tashqi ko'rinishi, toza – ozoda, ixcham kiyinishi, ma'lumoti, chuqur bilim egasi, o'zining fanini puxta biladigan, yurt ravnaqi uchun jonini fido

qilishga tayyor, o'z shogirdlaridan bilimi, malakasini ayamaydigan, do'st, sirdosh, fidokor bo'lishi lozim. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'qituvchi ota – ona va o'quvchilar bilan yakka – yakka faoliyatni yo'lga qo'yish uchun ularning shaxsi, oilaviy ahvolini bilishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarni to'liq o'rganishi, maktab, oila va mahalla hamkorligida tarbiyaviy tadbirlarni mukammal, ta'sirchan uyushtirishi lozim.

O'quvchilarda shakllanib kelayotgan ijobiy fazilatlarni tavsiflash, ularni bilim olishga qiziqtirish, rostgo'y, ma'rifatli, mehrlil, o'z-o'zini boshqarish, mehnatga munosabatini, ruhiy holati va qobiliyatlarini rivojlantirish, ijobiy va salbiy o'zgarishlarni kuzatish va sababini o'rganish, yolg'on gapirish va boshqa salbiy sifatlarni aniqlash o'qituvchining mahorati, tashkilotchilik faoliyati va kasb ko'nikmasiga bog'liq.

**Tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun maktab, oila va mahalla hamkorligida quydagilarni amalga oshirish zarur:**

- tarbiya jarayonini boshqarishga maktab bilan jamoatchilik munosabatlarini rivojlantirish;

- tarbiyaviy ishlar bo'yicha samarali nazoratni tashkil etish.

Tarbiya jarayonini boshqarishda o'quvchilar, ota-onalar, jamoat tashkilotlari bilan o'qituvchi muloqotining oshkoralik tarzda amalga oshirilishi muhim hisoblanadi. Chunki, o'qituvchining har bir harakati yoki gapirgan gaplari jamoatchilik tomonidan baholanadi. O'quvchilar doimo o'qituvchilarning to'g'riligi, adolatparvarligi, sinfda uning yaxshi ko'rgan o'quvchisi bor – yo'qligiga e'tibor beradilar. Bu o'rinda oshkora muloqot qabul qilingan meyor va talablar asosida amalga oshishi, o'qituvchi o'zini u yoki bu vaziyatlarda, holatlarda qanday tutishi lozimligini hamma bilishi oshkorolikni tashkil etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki hamkorlik pedagogikasi amalga oshirishda oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy tashkilotlar o'rtasida mustahkam aloqani yuzaga keltirish ular o'rtasida doimiy ravishda axborot almashuvining yo'lga qo'yilishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaralganda bugungi kunda umumta'lim maktablaridagi pedagogik faoliyatning oila, mahalla bilan hamkorlikda olib borilayotganligi kutilgan samaralarni bermiqda. Shunday bo'lsada, bu boradagi ishlarni yanada jonlantirish, ta'lim muassasalarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini yanada kuchaytirish ustuvor vazifalardan sanaladi. Chunki tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi, mahallada, ya'ni jamiyatda kamolot bosqichiga ko'tariladi. Darhaqiqat, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Mahallaning xalq ma'naviyati bilan bog'liq jihatlari haqida so'z yuritib, ularni ko'z o'ngimizdan o'tkazib, atroflicha tahlil qilar ekanmiz, hech ikkilanmasdan aytish kerakki, biz har qaysi xonadon, butun el-yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi

bo'lsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko'rish imkoniga ega bo'lamiz".


Ta'lim muassasalarining oila va mahallalar bilan hamkorligini yanada yuksaltirish bugungi kunning talabi bo'lib qolmoqda. Ayrim ta'lim muassasalarida ba'zi tarbiyachilar tomonidan o'quvchining tarjimai holi, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish holati, oilaviy ahvoli, undagi ma'naviy-ma'rifiy muhit yuzaki o'rganiladi. Bunday ishlarga vaqtni qizg'anish yoki beparvolik bilan qarash holatlari kuzatiladi. Natijada oila-mahalla-ta'lim muassasasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik uziladi. Hamkorlikning uzilishi nimaga olib keladi? O'quvchining kundalik faoliyati haqida ota-ona, mahalla faollari va muassasasi kerakli ma'lumotga ega bo'lmaydi. E'tibor va nazoratdan chetda qolgan o'quvchi o'zboshimchalik bilan noto'g'ri yo'lga kiradi. Buning sababi esa har joydan qidiriladi. Bunday holatlarning oldini olish uchun ota-onalar farzandi tahsil olayotgan ta'lim muassasalaridagi o'quvchilarning ta'limi faoliyati, uning maqsad-vazifalari, pedagogik tarkib hamda tahsil oluvchilar jamoasiga oid umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishi, farzandining o'zlashtirishi, darslardagi ishtiroki, birga tahsil oluvchilarga munosabati, o'qituvchi va tarbiyachilar haqidagi fikrlaridan xabardor bo'lishi, faoliyatini to'liq nazorat ostiga olish, haftada bir marotaba tarbiyachining farzandi haqidagi fikrlarini eshitishi va unga munosabat bildirishi zarur. Bunda albatta oila, mahalla va maktab hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

***Bolani har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun ota-onadan yuksak masuliyat, mahalladan e'tibor, o'qituvchidan haqiqiy pedagogik odob va mahorat talab qilinadi.***

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari ilk hayotiy tushunchasi va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Shu o'rinda ajdodlar merosiga nazar soladigan bo'lsak, **A.Navoiy** laganbardorlik, xushomatgo'ylikni eng yomon sifatlardan deb biladi va u, ota-onalarni o'z bolalarini yosh avlodni chin insonga xos bo'lgan eng yaxshi fazilatlar egasi qilib tarbiyalashga da'vat etadi.

**Husayn Voiz al-Koshifiy** – bolaning fikrlash qobiliyatini o'stirish haqida ayniqsa, ota-onalar oldiga ma'suliyatli vazifalar qo'yadi, har bir ota-ona o'z farzandini tarbiyalashga jiddiy yondoshib, unga ijobiy xislatlarni o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki oiladagi muhitning ta'sirida tarbiyalanib boradi deb fikr bildiradi.

**Ahmad Donish** ijodida xotin-qizlarga munosabati, ota-onalar huquqi, madaniyati masalasi ham alohida o'rinda turadi. U ota-ona huquqini belgilash, ular bilan bolalari o'rtasidagi o'zaro aloqa haqida to'xtalib, o'z huquqlarini suiste'mol qilgan ota-onalar huquqini belgilash haqida gapirar ekan, ular bilan bolalari o'rtasidagi o'zaro aloqa haqida to'xtalib, o'z huquqlarini suiste'mol qilgan ota-



onalarni tartibga chaqirib qo‘yish lozimligini aytib, ularning huquqini chegaralashni taklif etadi. Ota-ona o‘z huquqlarini, bolalar o‘z huquqlarini bilishlari va bajarishlari kerakligini aytadi.

**M.Behbudiy** qarashlaricha, maktab tarbiyasi bilan oila tarbiyasi uzviy birgalikda olib borilishi lozim, aks holda fojealar ro‘y beradi, degan g‘oyani oldinga suradi. Maktab har qancha to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatsa-yu, ota-onalar bolasini boshqa tomonga tortadigan bo‘lsa, bola tarbiyasi tamoman izdan chiqadi.

O‘tmish boy merosimizdan foydalanib biz pedagoglar oila tarbiyasiga katta e‘tibor qaratishimiz kerak. Hech kim yomon xulqli bo‘lib tug‘ilmaydi, yoshlarning axloqiy sifatleri u tarbiyalanyotgan muhit va berayotgan tarbiyaga bog‘liqdir.

Barkamol avlodni tarbiyalashda “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” konsepsiyasi, “XXI asr mahallasi” konsepsiyasi, “Barkamol avlodni tarbiyalashda mahalla institutining roli” mavzusidagi tadbirlarining tashkil etilishi O‘zbekiston taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shmoqda. Ana shularni e‘tiborga olib “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning 30-moddasida “Voyaga etmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi olishlari uchun javobgardirlar” deyiladi. Har bir o‘qituvchi o‘zi boshqarayotgan sinf ota-onalari bilan hamkorlikda ish olib borib qonun va milliy dastur mohiyatini ota-onalarga tanishtirib, ular bilan hamkorlikda ish olib borishlari kerak.

Ta‘lim oldiga yangi maqsadlarning qo‘yilishi, ijtimoiy buyurtma ko‘lamining kengayishi, ta‘lim jarayonida o‘qituvchi, ota-ona va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning vujudga kelishiga asos bo‘ldi. Chunki o‘quvchi ta‘lim jarayonining faol subektiga aylandi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajalariga qo‘yiladigan “baho” o‘qituvchi, ota-ona va o‘quvchi o‘rtasidagi barcha pedagogik munosabatlarni tartibga solib turuvchi mezon hisoblanadi. Chunki o‘quvchiga qo‘yiladigan baho quyidagi vazifalarni bajaradi.

Baho, “o‘qituvchi-ota-ona”, “o‘quvchi-ota-ona”, ”o‘qituvchi-o‘quvchi” kontekstida tahlil qilinadi, o‘quvchi ta’lim jarayonida olgan bahosi orqali maktabni oila bilan, ota-onani o‘qituvchi bilan bog‘laydi. Natijada ota-ona uzluksiz ta’limning bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Shu asosda “O‘qituvchi-ota-ona-o‘quvchi”ni bir-biri bilan uzviy bog‘lab turuvchi yaxlit tizim vujudga keladi, bu esa subektlar orasidagi o‘zaro pedagogik xamkorlikni ta’minlaydi. Natijada baho orqali ota-onalar farzandlarining intellektual rivojlanishi, o‘quv faoliyati, xulqi, ma’naviy dunyoqarashidan xabardor bo‘lib turadilar. SHu nuqtai nazardan olib qaraganda baho obektiv hamda subyektiv xarakterga ega. Baho yordamida o‘quvchining xulq-atvori va o‘zlashtirish darajasi muayyan talablar va axloq meyorlariga qay darajada mos kelishi aniqlanadi. O‘qituvchilar va ota-onalar o‘quvchi faoliyatiga baho berishi natijasida uning ruhiyati hamda harakatlarida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, oilaning mahalla, maktab, maktabgacha ta’lim muassasasi, jamoat tashkilotlari bilan hamkorligining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi jamiyatimizda ko‘p yillardan buyon ko‘zda tutilgan va unga shart-sharoit yaratib berilayotgan jamiyat taraqqiyotini belgilovchi oilalarni shakllantirishga asos soladi. YUqoridagi fikirlardan kelib chiqib aytish joizki, ta’lim jarayonida hamkorlik pedagogikasiga tayanish – bu avvalo, o‘quvchida jamoaviylik, o‘z o‘rtoqlarining aqliy va axloqiy fazilatlarini bilan faxrlanish, jamoa tarkibida o‘zining munosib o‘rniga egaligi bilan g‘ururlanish tuyg‘usini tarbiyalash, uni jamoa tarkibida faol bilim olishga o‘rgatish demakdir.

## XII MAVZU: PEDAGOGIK TYUTORLIK, FASILITATORLIK QOBILIYATLARI ASOSIDA LOYIHAVIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI.

### Reja:

1. **Pedagogik fasiltatsiya tushunchasi va uning turlari.**
2. **Pedagogik fasiltatsiya asosida o`quvchilarning pedagogik qobiliyatini shakllantirish asoslari.**
3. **Fasiltatsiya faoliyatiga asoslangan o`zaro harakat qobiliyatining bo`lishi o`zida quyidagilarni tarkib toptiradi:**
4. **Pedagogik fasiltatsiya vositasida o`quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasi.**
5. **Pedagogik fasiltatsiya asosida o`quvchilarning mustaqil ishini tashkil etish bosqichlari.**

**Tayanch soʻz va iboralar:** *Tyutor, edvayzer, fasilitator, moderator, loyihalar ustida ishlash tartibi va qoidalari. individual loyiha ishlarini bajarishda tyutrning o`rni, guruhii loyihalarni amalga oshirish yo`llari va fasilitatorlik faoliyati, tanishuv, tushunish, analiz, sintez.*

Xorijiy ta'limda soʻnggi yillarda bir qator atamalar keng ishlatilmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator tushunchalari kiradi.

**TYUTOR** - (*Tutorem-lotinja*) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

**EDVAYZER (advisor)** - fransuzcha "avisen" ("o'ylamoq") tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

**FASILITATOR** - (ingliz tilida *facilitator*, lotinja *facilis* – yengil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

**MODERATOR** - qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.



Bizning ta'limda ushbu faoliyatlarning hammasini o'qituvchi bajaradi va pedagog yoki o'qituvchi deb yuritiladi.

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarda o'z aksini topmoqda. Bunday o'zgarishlar shak-shubhasiz, barkamol shaxsni tarkib toptirish bilan chambarchas bog'liq.

**Fasilitatsiya tushunchasi.** Zamonaviy sharoitda jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohadagi o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham yangiliklar kiritib borishni jadallashtirmoqda. Jumladan, ta'lim jarayonini tashkil etish shart-sharoitlarning shakl va mexanizmlarini o'zgartirishga ham zarurat tug'ilmoqda. Ayniqsa, mazkur holatni kasbiy ta'lim sohasida yaqqol kuzatish mumkin. Shu nuqtai nazardan fasilitatsion yondashuv masalasi pedagogika va psixologiyada tobora qiziqarli xarakter kasb etib bormoqda.

**Fasilitatsiya** so'zi **ingliz tilidan** olingan bo'lib, **facilitate** – yordam berish, engillashtirish, kuchaytirish degan ma'nolarni anglatadi.

**Fasilitatsiya** – talabaga ijobiy ta'sir etish yo'li bo'lib, guruhda ijobiy muhitni hosil qilish, ta'lim oluvchilarni o'z kuchlariga ishonishlariga erishish va mustaqil faoliyatlarida ularni qo'llab quvvatlashdir.

Hozirgi vaqtda fasilitatsiyaning **ijtimoiy va pedagogik** turlari ajratilib ko'rsatiladi. **Ijtimoiy fasilitatsiya** ijtimoiy psixologik fenomen hisoblanadi. Ijtimoiy fasilitatsiya lotin tilida - "socialis facilitar" – ijtimoiy qulaylashtirish degan ma'noni anglatadi.

**Pedagogik fasilitatsiya** esa ta'lim oluvchilarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash asosida ta'limning (o'qitish, tarbiya) samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda pedagog tomonidan alohida muloqot usulining kasbiy-pedagogik jarayonda qo'llanilishi natijasida sifat jihatdan rivojlanishga erishiladi.

Fasilitatsiyaning yuqorida aytib o'tilgan ikki turini ma'lum shart-sharoitlar bog'lab turadi. Ya'ni, fasilitatsiya har qanday faoliyat, shu jumladan pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi, shubhasiz. Fasilitatsiyaning bu ikki turi orasidagi asosiy farq shundaki, ijtimoiy sohada faoliyatni qo'llab-quvvatlashda sub'ektni xatti-harakatlari asos sifatida xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda esa, fasilitatsiya pedagogning talabalar bilan individual muloqot usuli va ta'lim oluvchi shaxsiga samarali ta'sir etish bilan bevosita bog'liq.


**Fasilitatsiya deganda eng avvalo**, guruhiy muammolarni hal etishning samarali texnologiyasi tushuniladi. Fasilitatsiya shunday jarayonni qamrab oladiki, bunda fasilitator barcha gurux a'zolariga ma'qul keladigan, neytral va qaror qabul qilishga haqqi yo'q, ya'ni u guruhiy muammolarni xal etishga ko'maklashadi. "Fasilitatsiya" tushunchasi anglanilgan va maqsadga yo'nalgan faoliyatning ko'rinishi bo'lib, pedagogning bevosita ishtirokini taqozo etadi.

**Fasilitatsion yondashuvning o‘ziga xosliklari.** Fasilitatsion yondashuvning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

**1. Faoliyat**– shaxsni rivojlanishidagi asosiy xal qiluvchi vositasi va odamni ko‘pqirrali faol maqsadga yo‘naltiradi. **A.N.Leontev** “Faoliyat hayotning birligidir va psixikaning asoslangan aksidir” deb ta’kidlaydi. **G.P.Shedrovitskiy** esa faoliyatga shunday ta’rif beradi: ”Faoliyatsiz ishlab chiqarish vositalari ham, belgilari ham, san’at namunalari ham yo‘qdir: faoliyatsiz insonlarning o‘zi ham yo‘q xisobi”.

Turli xil harakatlarda ishtirok etish bilan anglanilgan faoliyatda qatnashish turli xil narsalardir. Psixologiyada shaxsning muhim xususiyatlari sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi: onglilik (anglanganlik) va faollik; psixika-subyektivligi, faollik, moslashganlik; onglilik – qayg‘urish, bilim va munosabatlar; faoliyat – faollik, onglilik, maqsadga yo‘nalganlik, motivlarga egalik. Bu barcha xususiyatlar bilish jarayoniga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ammo an’anaviy ta’lim tizimida bu jihatlar hamma vaqt ham hisobga olinmaydi. **Psixologik adabiyotlarda ta’kidlanishicha**, bevosita faoliyat jarayonida, ya’ni o‘zida rejalashtirish, tashkillashtirish, natijalarni tahlil etish va referent guruhlar bilan muloqotni mujassamlashtirgan insongina ongli ravishda anglangan faoliyat ma’nosini tushunib etadi. Faqat ana shu asosga tayangan insonda g‘oyalarning paydo bo‘lishi, motivlar shakllanishi va munosabatga yo‘nalganlik kuzatiladi. Bu formulani **A.V.Shedrovitskiy** “yangi bilimlarni ishlab chiqish” deb ta’kidlab o‘tadi.

**Har qanday faoliyat, xususan bilishga oid faoliyat o‘zida o‘zaro bir-biri bog‘liq quyidagi tarkibiy qismlarni mujassam etadi:**



#### **14-rasm. Bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismlari.**

To‘g‘ri va qayta aloqalar shuni ko‘rsatadiki, bitta tarkibiy qismning o‘zgarishi, boshqalarining ham o‘zgarishga uchrashiga olib keladi. Bu o‘zgarishlar konstruktiv yoki destruktiv yo‘nalgan bo‘lishi mumkin. Mazkur holatda rivojlanish va faoliyatning susayishi yaqqol kuzatiladi.

Fasilitatsiya ta'limning androgen modelida pedagog pozitsiyasini o'zgarishini talab qiladi. Bunga pedagogika kollejaridagi o'qitish jarayonini ham kiritish mumkin. Operatsion-harakat bosqichi orqali harakat qilinsa o'qituvchi ratsionallikka asoslangan holda fasilitatsiyani amalga oshiradi, ya'ni talabalarni aniq faoliyatga yo'naltiradi, yordam beradi va boshqaradi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarni bilish faoliyatini faollashtiruvchi yangi pedagogik texnologiyalarni qidiradi yoki bo'lmasa, **pedagog ingibitor** (ingibitor lotin tilida, inhibere, Inhibitum-ushlab turmoq, to'xtatmoq ma'nolarini anglatadi) **roliga** kirishadi va ta'lim oluvchilarni faolligini pasaytiradi yoki to'xtatib turadi. Ingibitsiyani psixologik nuqtai nazardan ko'rib chiqilganda uni jarayon va ezilishning natijasi sifatida yoki bo'lmasa qandaydir reaksiyalar, jarayonlarni, faoliyatlarni, faollikni pasayishi, hattoki to'xtashi deb izohlash mumkin.

Shunday qilib, axborotlarga boy ta'lim muhitida asosiy figura ta'lim oluvchi bo'lib, u o'zining shaxsiy faoliyatida "o'z-o'zini tashkillashtiruvchi subyekt" sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi esa ta'lim muhitining imkoniyatlarini qo'llab, uni keyingi rivojlanish maqsadini ko'zlagan holda faoliyatga yo'naltiradi. Shu tarzda fasilitatsiya ta'limning androgen modelida pedagog faoliyatining maxsus ko'rinishidir. **Qadimgi yunonlarda** shunday **hikmatli so'z** bo'lgan: **"Uzoq yo'l nasihat orqali, qisqasi esa o'rnak, ibrat orqalidir"**. Aynan shu "qisqa yo'l"ni ko'rsatish fasilitatorning vazifalaridir.

**2. Faoliyat subyekt.** Fasilitatsion yondashuvda faoliyat sub'ektlariga o'z motivlariga javob bera oladigan, o'z faoliyati davomida uni maqsadga ko'ra amalga oshira oladigan individ, guruh va jamoani kiritish mumkin.

**3. Fasilitatsion yondashuvning funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- **faoliyatga qiziqtirish va faoliyatni rag'batlantirish;**
- **faoliyatning maxsus turi;**
- **zamonaviy pedagogikaning etakchi tamoyili;**
- **ta'lim jarayonini boshqarish tamoyili;**
- **faoliyat texnologiyasi;**
- **ijodiy ta'lim muhitini yaratish.**

Shuningdek, fasilitatsiyaga asoslangan munosabatlarni qo'llab-quvvatlovchi shaxslar har jihatdan kuchli va ma'suliyatlidirlar. **A.S.Belkinning fikricha**, muhitni o'zi "omad keltiruvchi vaziyatlarga" sharoit yaratib beradi. Aynan ma'lum muhitda shaxs ishonch qozonadi va qadriyat sifatida tan olinadi. O'z o'rnida muhit ta'lim oluvchilarni ijodiy faoliyatga rag'batlaydi. **K.Rodjersning fikricha**, "bu tarzda munosabatlar o'qitish jarayoniga mos kelib, har jihatdan samaralidir". Avvalo, fasilitatorning haqqoniy shaxs bo'lishi, har bir lahzani o'ylab, his etib yashashi lozim. Qachonki, bu haqqoniylik o'zida talabaga nisbatan qadriyatli munosabatni, g'amxo'rlikni, ishonch va hurmatni mujassam etsa samarali ta'lim olish muhiti paydo

bo'ladi. Shu bilan birga, mazkur jarayon o'zida hissiy va empatik idrok etishni jam etsa, haqiqatdan ham erkinlik muhiti mavjud bo'lib, ta'lim olishda tashabbuskorlik va ilgariylash yuzaga keladi.

**4. Motiv** – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sababdir. O'qituvchi faoliyati ta'lim oluvchilarning subyektiv talablarinigina asoslanib qolmay, balki obyektiv, bugungi kundagi va kelajakdagi ehtiyojlarni shakllantiradi va mustahkamlaydi.

**5. Maqsad** – natijaga erishishning ideal yo'li bo'lib, muvaffaqiyatga yo'nalgan harakatdir.

**6. "Faoliyat usuli"** -tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, ta'lim faoliyat sifatida o'zida bilim, ko'nikma, malakalar, qobiliyatlar, motivlarning dastlabki ko'rinishini o'zida aks ettiradi.

**7. "Faoliyat jarayoni"**- tushunchasi "subyekt", "predmet" va "natija" mazmunini ochib beradi. Shu bilan birga "jarayon" tushunchasining mazmunini "metod" va "vosita" kabilar ham ochib berishga xizmat qiladi. Keng ma'noda "vosita" so'zi ma'lum bir jarayonni predmetli qo'llab-quvvatlani aks ettiradi. Ta'lim vositalari xilma-xil bo'lib, pedagog faoliyat maqsadiga mos vositani tanlab olishi muhim ahamiyatga ega. Ana shundagina bunda faoliyat samaradorligi past bo'ladi. Ba'zida o'qishda shunday vaziyatlar bo'ladiki, faoliyat vositalari samarali bo'lsa ham kutilayotgan natijani bermasligi mumkin.

Turli xil fasilitatsiyalar ajratib ko'rsatiladi. Agar jarayonni fasilitator boshqarsa o'z nuqtai nazariga ko'ra guruxga yanada samarali bo'lgan fasilitatsiyani rivojlantirgan ish usullarini taqdim etadi. Bunda gurux a'zolari o'zlari muhokama va qarorlar qabul qilish jarayonini olib boradilar, fasilitator esa faqat korreksiyalab ya'ni muammoni tez va konstruktiv echish yo'llarini aytib turadi.

**Pedagogik fasilitatsiya konsepsiyasini XX asrning 50-yillari boshlarida K.Rodjers va boshqa gumanistik psixologlar tomonidan hamkorlikda ishlab chiqila boshlandi.** K.Rodjers misol sifatida avstraliyalik aborogenlarni misol qilib ko'rsatdi. Aborogenlar shunday odamlar guruhiki, 20 ming yil davomida eng og'ir ob-havo, iqlim sharoitlarida ko'nikib, kurashib yashab kelganlar. Zamonaviy insonlar esa bir necha kun ichida bunday sharoitda yashay olmay halok bo'lishlari mumkin edi. Aborogenlarning tarbiya jarayonining siri shunda ediki, ular yoshlarni qanday suv topish, o'ljani kuzatish, kenguruni qanday o'ldirish, cho'l orqali yo'l topish kabi bilimlarni berar edilar. Bunday bilim tajribasi urf-odatga aylangan holda avloddan-avlodga o'tib borar edi. Hech qanday novatorlik qobiliyati ham ma'qullanmas edi. Bunday ta'lim yosh avlodni har qanday o'zgarmas hayot sharoitida ham yashash uchun kurashishlarini talab etardi. Bu yondashuv har qanday muhitda ham ahamiyatga ega edi. Shuning uchun ham yuz yillar davomida bunday ta'lim va tarbiya hech qanday ikkilanishlarsiz davom etib kelgan. Ammo hozirgi vaqtda inson

shunday tez o'zgarib borayotgan sharoitlarda yashaydiki, hatto tabiat ham, sotsium ham tinmay almashib, o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, ushbu qonuniyatga aylangan holat professional sharoitda namoyon bo'lmoqda va malakali kadrlar tayyorlash xarakteriga ta'sir etmoqda. Ilmiy axborotlar shunchalik yangilanib tez suratda tarqalmoqdaki, talabalar vaqti kelib shu axborotlarni qo'llamoqchi bo'lsalar yanada yangilariga ehtiyoj seza boshlaydilar.

Xorij psixologiyasida pedagogik fasilitatsiyaga atalgan ishlarning hajmi unchalik ham ko'p emas (**E.F.Zeer, I.V.Jijina** va boshqalar). Bu fenomenni olimlar o'rganar ekanlar, undagi alohida tomonlari va rivojlanishdagi psixotexnologiyani alohida ta'kidlab o'tadilar. Ko'plab tadqiqotchilar pedagogik jihatidan o'rganganlar masalan, **R.S.Dimuxametov, E.Yu.Borisenko, L.N.Kulikova, E.G.Vrublevskiy**.

**E.Yu.Borisenko** o'z tadqiqotlarida quyidagi savollarni ko'rib chiqadi. Fasilitatsiya ish faoliyatida shakl va metodlar, talabalarni ekzistensial shaxsga yo'nalganligini, o'zlashtirishi past bo'lgan maktab talabalarni rivojlanishlarini o'rgangan.

**L.N.Kulikova va E.G.Vrublevskiy** o'z tadqiqotlarida fasilitatsion muloqotni pedagogik o'zaro harakat ko'rinishi sifatida va undagi subyektlarning intensiv; samarali o'zaro rivojlanishlarini ko'rsatib o'tgan. Fasilitatsion muloqot qadriyat sifatida unda qatnashayotgan talabalarni o'z-o'zlarini o'zgartirishlarini, mukammal bo'lishlarini ta'minlaydi. Bunday o'zaro harakatda o'qituvchi qobiliyatini rivojlanishini ta'minlashda, asosiy pedagogik sharoitlar ajratilgan.

**R.S.Dimuxametovning** tadqiqotlarida esa androgenik, sinergetik, qadriyatli-akmeologik yondashuvlar asosida fasilitatsion konsepsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, malaka sistemasini oshirish uchun nazariy fundament yaratib beradi. Mazkur taqdim etilayotgan fasilitatsiya texnologiyasi pedagogning yetakchi faoliyatini ta'minlab beruvchi, ongni, mustaqillikni rivojlantiruvchi, shaxsiy professional usulda yangi bilimlarni ishlab chiqish uchun tanlash huquqini beradi.

**O'qituvchining talabalarni boshqarishdagi harakat algoritmi ajratib ko'rsatilgan bo'lib, quyidagi "atribut uzuk" ko'rinishida taqdim etilgan:**

1. Fasilitatsiya faoliyatli motivni ifodalab beruvchi;
2. Fasilitatsiya maqsadni shakllantirishda;
3. Fasilitatsiya anglash predmetini izlashda;
4. Fasilitatsiya faoliyat metodini izlashda;
5. Fasilitatsiya anglash usulini izlashda;
6. Fasilitatsiya jarayonni amalga oshirishda;
7. Fasilitatsiya refleksiya sifatida.

Aytib o'tilgan ishlarga murojaat qilinar ekan, ularni analiz qilib xulosa qilish imkonini beradi, ya'ni pedagogik fasilitatsiya pedagogik jarayonga nisbatan,

o'qituvchi shaxsi va uni talabalar bilan o'zaro munosabatga kirisha olish qobiliyatiga bir qator talablarni qo'yadi.

**1. Fasilitatorlik faoliyatining didaktik imkoniyatlari.** Pedagogik fasilitatsiyaning professional ta'limdagi ahamiyati faol tayyorgarlikka ega mutaxassislarni shakllantirishga o'tish, bitiruvchiga oid standart bo'lmagan xulosalarni qabul qilish va mustaqil tahlil etish qobiliyatiga ega shaxsni shakllantirishda yorqin namoyon bo'ladi. Faol xulq-atvordagi ehtiyoj va motivlar ijro etishda emas, balki o'zaro xatti-harakatni mo'ljalga olishda to'liq namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra o'qituvchining vazifasi talabalarni hamkorlikda to'g'ri mo'ljalga olishlarini ta'minlash, ular bilan bir qator boshqaruv funksiyalarini bo'lishishi, ya'ni ularni fanga nisbatan chuqur qiziqishlarini uyg'otish maqsadida sharoitlar yaratish va haqiqiy mazmunga ega o'quv motivlarini paydo qilishdir. **Pedagogik fasilitatsiya** – bu yuqori sifatga ega bo'lgan, amaliyotdagi zamonaviy talablarga mos keluvchi mutaxassislarni o'qitish darajasidir. Talabada qancha ko'p savol tug'lsa, shuncha ko'p bilim egallaydi, bunda uning o'quv jarayonidagi faolligi ham nazarda tutiladi.

Materialning har qanday emotsional va mantiqiy mazmunga ega bo'lishiga qaramay, agar talabalar sust tinglovchilar bo'lsalar faqatgina ma'ruzada qatnashib, ma'ruza materialini va mazmunini avtomatik ko'chirib oladilar, xolos. **Fasilitatsiyali ta'limda** o'qituvchi dogmatik metodlar va usullarni emas, balki zarur ma'lumotlarni ijodiy egallash, fikr yuritishni shakllantirish, ma'lum materialdagi yangi muammolarni topish, imkoniga ega bo'ladilar. Bu jarayonda o'qituvchi shunday pozitsiyaga ega bo'ladiki, bunda "o'zimas" balki boshqa talabalar bilan "birgalikda" va "amaliyotda mavjud muammolarni bilmaslik", ya'ni kurs davomida talabalar tomonidan ikkilanishlarga sabab bo'lishi haqidagi ayblovdan qo'rqmasligi kerak. Shu tarzda u tadqiqotchi sifatida o'quv jarayonida o'z rolini yo'qotmaydi, o'quv dasturiga tegishli barcha savollarga javob beruvchi dogmatik-pedagog niqobiga o'ranmaydi. Bularning barchasi talabalarni har qanday sharoitda qiziquvchanliklarini va faol anglashlarini va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini tezlashtirib beradi. **Pedagogik fasilitatsiya konsepsiyasi bir qator sharoitlarni yaratishni amalga oshiradi.** Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: **a) talabalar uchun o'qishning ahamiyatli bo'lishi; b) o'qituvchining kongruentligi; v) psixologik xavfsizlik va psixologik erkinlik.**

Faqatgina talaba uchun ahamiyatli ta'limgina samarali hisoblanib, oddiygina bilimlarni o'zlashtirish emas, balki talabaning ichki hissiy-kognitiv tajribasini o'zgarishiga sabab bo'ladi.

**O'qituvchining kongruentligi** shunda namoyon bo'ladiki, u boshqa odamlarga, talabalarga nisbatan o'z munosabatini anglaydi, ya'ni birga ishlaydi, xususan o'zaro harakatlarni amalga oshiradi. Talabalarni qanday vaziyatda bo'lishiga qarab, o'zining haqiqiy munosabat hissini tushunib qabul qila oladi. Bu orqali

o'qituvchi ta'lim oluvchilar bilan ochiq munosabatda bo'lish imkoniga ega bo'ladi. Fasilitatsiya jarayonidagi psixologik xavfsizlik shaxsni qadriyat ekanligini tushunib etish va tashqi baholash mavjud bo'lmagang sharoitni yaratib bera olishda namoyon bo'ladi.

Psixologik mustaqillik talabalarni kreativligini va ularning o'zlarini ifoda eta olish xususiyatini shakllantirishni ta'minlaydi. Fasilitatsiya fikrlarni, hissiyotlar va xolatlarni ochilishiga imkon beradi. Bunda u samimiy ishonch, kutilmagan obraz uyg'unligi, ijodiy bo'lgan tushunish va anglashni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonidagi sharoitda fasilitatsiyani to'g'ri tashkillashtirishga rioya etish, quyidagi sifatlarni shakllanishiga turtki bo'ladi. Masalan, mustaqillik, faol anglash, kasbni egallashga yo'nalganlik va boshqalar. Bularning barchasi kelajakda talabalarni etakchi mutaxassis bo'lishlarida muhim rol o'ynaydi.

**O'qituvchi-fasilitator** guruhni hamkorlikda ishlash jarayonini qulaylashtirish hisobiga ta'limni samarasini oshiradi. Shunga ko'ra ichki guruhiy o'zaro harakatning shakl va usullari muhimdir: ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan qanday gaplashayotganliklari, muammoni umumiy tushunishlari, nizolarni hal qilib to'g'ri xulosani qabul qilishlari kerak bo'ladi.

Fasilitatsiya faoliyatiga asoslangan o'zaro harakat qobiliyatini rivojlanishi – pedagogik ta'limdagi pedagogik jarayonning dolzarb maqsadlaridan bo'lib, fasilitatsiya shaxsning mavjudligini, uni potensial imkoniyatlarini, jamiyatda shaxs birligini ta'minlaydi.

Falsafada fasilitatsiya tushunchasi mustaqil tushuncha sifatida ajratib ko'rsatilmaydi, lekin uni shaxsni tushunishdagi turli xil yondashuvlarni tahlil qilish asosida ko'rib chiqish mumkin.

Shaxsga falsafiy yondashuvlardan kelib chiqib, (F.Gegel, I.Kant, Suqrot) fasilitatsiya faoliyatiga asoslangan o'zaro harakat qobiliyati shaxsni aniqlab berishda uning ruhiy, ma'naviy jihatdan yuksalashini ta'minlaydi (V.Frankl, V.S.Solovyov, N.A.Berdyayev, M.M.Baxtin, M.Xaydegger, M.Xaydegger, J.A.Kogan, M.S.Kagan, M.M.Baxtin, L.P.Bueva, V.S.Bibler, M.Buber, M.Sheler, M.K.Mamardashvili, V.P.Zinchenko, M.Xaydegger, L.A.Kogan, N.A.Berdyayev).

**G.S.Batishea, N.A.Berdyayev, M.Bubera, N.O.Loskogo, F.Nitsshe, V.S.Solovyova, V.Frankla, M.Shelera** va boshqalarning falsafiy-nazariy tadqiqotlarini tahlil qilinganda fasilitatsiya faoliyatiga asoslangan o'zaroharakat qobiliyati insonning asosiy qadriyati ekanligini aniqlashga yordam beradi.

**N.A.Berdyayev, M.M.Baxtin, M.Veber, J.A.Kogan, M.S.Kagan** va boshqalarning asosan tadqiqotlarida aniqlanishicha, fasilitatsiya faoliyatiga asoslangan o'zaro harakat qobiliyatini rivojlanishida, aksiologik tomondan olib qaralganda ijodiy jarayon har doim tabiatga va ijtimoiy rivojlanishda, shaxsni o'z-

o‘zini rivojlanishidagi ehtiyojlarini amalga oshirish jarayoni, o‘zida javobgarlikni qabul qilishi ahamiyatga ega.

**B.G.Ananayev, A.N.Leontev, V.M.Myasimov, S.L.Rubinshteyn**larning psixologik tadqiqotlari fasilitatsiyaga qodir shaxs haqidagi tasavvurlarni beradi va mukammallik, individuallik, faollikni ochib beradi. Shuningdek, **L.N.Kulikova, G.A.Sukerman, B.M.Masterov, A.A.Uxtomskiylarning fikricha**, insonning ichki hayoti orqali – emotsiyalar, munosabatlar, qadriyatlarni qabul qilish, ko‘nikish, harakat qilish kabi o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi xislatlar paydo bo‘ladi.

**A.A.Bodaleva, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontevlar** o‘z tadqiqotlarida psixologik jihatdan fasilitatsiya faoliyatiga asoslangan o‘zaroharakatni boshqa odamlarning hayotiy dunyolariga kirib borish shakli sifatida, insonga nisbatan munosabatlarni qurishda qadriyat sifatida va “o‘z-o‘ziga nisbatan munosabat” shaklida shaxsni muloqotchanligi orqali amalga oshiriladi.

**B.G.Ananayev, L.I.Bojovich, B.S.Bratus, I.S.Kon, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn**larning tadqiqotlaridan kelib chiqib, fasilitatsiya faoliyatiga asoslangan o‘zaroharakat qobiliyatini etuk shaxsning yuqori rivojlanish darajasi sifatida qarash mumkin. Bunda hayotdagi motivatsiyali ma’noga ega bo‘lishi yuqori insoniy qadriyat bo‘lib, avvalo boshqa odamlarning shaxsiy imkoniyatlarini ularning sifatlarini ochib berishga va muvaffaqiyatli o‘zaroharakatni amalga oshirishga imkon beradi.

**Fasilitatsiyaga qobiliyatli bo‘lish** – bu shunday anglash sifatiki, shaxs bo‘lib etishish uchun ruhiy etuklik, emotsional barqarorlik, o‘z dunyosi bilan yangi ruhiy-amaliy birlashishi, yaxlitlik va bir xil o‘xshashlik sifatlariga ega bo‘lishdir.

**Fasilitatsiya faoliyatiga asoslangan o‘zaro harakat qobiliyatining bo‘lishi** o‘zida quyidagilarni tarkib toptiradi:

- **empatiya;**
- **qabul qila olish;**
- **qadriyatli o‘z-o‘zini qabul qila olish;**
- **refleksivlik;**
- **kreativlik;**
- **tolerantlik;**
- **boshqa odamlar bilan chuqur muloqotda bo‘lib, muloqot vaqtida yoqimli, psixologik iqlim yarata olish.**

Fasilitatsiya haqida so‘z ketganda, albatta **fasilitator faoliyati** e‘tiborga loyiqdir. Fasilitator trenerdan farqli o‘laroq ekspert hisoblanmaydi. U qatnashuvchilarni o‘qitmaydi, aksincha ularga guruxiy ishlash uchun maxsus texnologiyalarni taqdim etadi. **Fasilitator** guruhga yordam beradi, muammolar echimini topishga harakat qiladi. **Fasilitator** qatnashuvchilarni ishga yo‘naltirib



boradi va natijalarni muvofiqlashtirib boradi hamda taqdim etilgan topshiriqlarni qoidaga muvofiq qatnashuvchilar tomonidan bajarilishini kuzatadi.

**Fasilitator** – dars samaradorligini oshirish maqsadida guruhlarda guruh ishini tashkil etuvchi, olib boruvchi shaxs. Mashg‘ulotda reglament, norma va mashg‘ulot uchun qulay sharoit yaratuvchi. Guruh a‘zolarini jipslashtiruvchi, samarali ishlash muhitini yaratuvchidir. **Fasilitator** – davra suhbatlarini, munozara, mushoira, debat, seminar, treninglarni olib boruvchining yordamchisidir. **Uning maqsadi** – guruhda guruh a‘zolarini qo‘llash-quvvatlash, oldida turgan vazifani bajarishga yo‘naltirishdir. U guruh a‘zolarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishlariga qulay muhit yaratib beruvchi shaxs. Fasilitator guruhlarda o‘zaro borayotgan muloqot jarayonini olib boruvchidir.

Fasilitator guruhda ishni tashkil etish, uni amalga oshirish jarayonning samaradorligini ta‘minlaydi. Uning vazifasi guruhda hamkorlikni, hamfikrlilikni, ijodiy muhitni yaratish, guruhni jipslashtirish va vaqt reglamentini boshqarishdir. Fasilitator guruhlarning bir-birini qo‘llab-quvvatlashga, o‘zaro yordam berish muhitida ish yuritishga yo‘llovchidir.

Guruhlarda ishning muvaffaqiyatli kechishi, sessiyalarda ishning jonli muloqotlarga boy bo‘lishi fasilitatorning faolligi yoki befarqligi bilan belgilanadi. Guruhlarda sessiyalarni olib borishda ko‘p qirrali ishlar yo‘lga qo‘yilishi kerak, ruhiy holatni boshqarish, vaziyatlardan chiqqa olish, ko‘pchilikning diqqat-e‘tiborini yo‘naltira olish, jalb eta olish bilan belgilanadi.

**Guruhlarda ish olib borish jarayonida fasilitatorning funksiyalari quyidagicha bo‘lishi, ishning muvaffaqiyatli kechishiga olib keladi:**

**Birinchi.** U faoliyatga dirijyorlik qiladi. guruhdagi har bir a‘zoni payqashi, rivojlantirishi, eng kichik g‘oya o‘rtaga tashlansa ham darhol uni qo‘llashi kerak. E‘tiborni kam tashabbusli a‘zoga qaratib hammani shu g‘oyani rivojlantirish, xulosalarga kelishga undaydi.

**Ikkinchi.** Bu faoliyat fasilitatoridan “bashorat” qila olish qobiliyatini talab etadi. Ya‘ni guruhdagi tug‘ilayotgan vaziyatni payqay olish, qisqa vaqtda masalani echimi tomon burish. Erkin fikr yuritishga, tortinmasdan o‘z g‘oyalarini ayta olishga yo‘llaydi.

**Uchinchi.** Fasilitator vaqt kelganda (raqqos) o‘yinchi hamdir. Ya‘ni guruh ishini dadil, qo‘rqmasdan o‘z ketidan ergashtirish kerak. Guruhdagi vaziyatni sekinlashtirish, tezlashtirish, jonlantirish, goho ilgari ko‘zda tutilgan ssenariydan chiqishga ham borish mumkin. Tinib-tinchimay olg‘a bosish uning shioriga aylanmog‘i zarur.

**To‘rtinchi.** Tinib tinchimaydigan, izlanuvchi fasilitator tajriba sinov ishlarini yo‘l-yo‘lakay hal eta oluvchi, kerak bo‘lsa ilgari uchramagan, ko‘zda tutilgan yo‘llarni izlab topib nostandart yo‘llar bilan mantiqan o‘ylab katta g‘oyalar echimini topa oluvchidir.

**Beshinchi.** Olmosdek qayralgan inson sifatida guruhdagi ish jarayonini biror kichik g'oya tanlash, kutilmagan biror savol tashlash orqali sifatli, samarali kechishiga yo'naltiradi, maqsadga erishadi. Guruhda ijodiy, innovatsion faoliyat yarata oladi.

**Oltinchi.** Guruh ishining borishida u aktyorlik funksiyasini bajaradi. Agar fasilitator jarayonga jon jahdi va butun vujudi bilan kirishsa, guruh ishi jonlanadi, uyg'onish, intilish holatlari sodir bo'ladi.

**Yettinchi.** Fasilitator guruh ishlayotgan muxit himoyasida bo'lishi kerak. Guruhda ishlash jarayonida, a'zolar tomonidan bildirilayotgan g'oyalar (hatto u juda arzimas bo'lsa ham) qo'llab-quvvatlanib, e'tirozsiz ish tutilsa, gurux ishi muvaffaqiyatli kechadi. Har bir aytilgan fikr va g'oyani rivojlantirib, asosiy echim tomonga boriladi, guruhda yomon g'oya yo'q – unda biror fikr bor.

**Sakkizinchi.** Fasilitator qonun va qoidalar xizmatchisi. Undan ishchanlik o'yinlari jarayonida guruhlarda o'rnatilgan qoidalar, reglamentlarga qat'iy rioya qilishini yo'lga qo'yish talab etiladi.

**To'qqizinchi.** Fasilitator guruhlarda ish jarayonining dastyoridir. Ayrim fasilitatorlar guruhdagi ish jarayonida o'z mavqeidan foydalanadi, ya'ni ish jarayonini o'z qo'lga olmoqchi, g'oyalarini o'tkazmoqchi bo'ladi. O'zi o'ylagandek yo'lga burmoqchi bo'ladi. "Beminnat" xizmat qilishni mo'ljalga oladi. Bunday hollarda guruh a'zolari faol jalb qilinib, ish tutilganidagina o'ziga xos original echimlar qidirish zarur.

**O'ninchi.** Yumorni his qilish, uni tushunish fasilitatorning eng kuchli xislatlaridandir. Yumor guruhdagi psixologik to'siqlarni engishga yordam beradi.

### **Pedagogik fasilitatsiya vositasida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasi.**

Ma'lumki, pedagogik fasilitatsiyaning asosini o'quvchilarning guruhlarda hamkorlikda ishlash faoliyati tashkil etadi. Pedagogika kollejarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish bilan bog'liklikda individual, guruhli va jamoaviy ish shakllaridan foydalanishga keng e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, o'quvchilarning hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantirish orqali ularni pedagoglik kasbiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratiladi. Ana shu jihatni hisobga olgan holda, biz tadqiqot doirasida o'quvchilarning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilgan pedagogik fasilitatsiya asosida mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasini ishlab chiqdik.

**Texnologiyaning tasnifiy belgilari** sifatida **quyidagilar** aniqlab olindi:

**Qo'llanilishi darajasi va tavsifi:** lokal darajada qo'llanilish tavsifiga ega mezotexnologiya.

**Falsafiy asosi:** 1) antropologik; 2) ontologik; 3) dialogik.

**Metodologik yondashuvi:** insonparvar, algoritimli, amaliy yo‘naltirilgan, qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv.

**Rivojlanishning yetakchi omillari:** 1) sotsiogen; 2) psixogen.

**Tajribani o‘zlashtirishning ilmiy konsepsiyasi:** assosatsiativ-reflektorli + faoliyatli + rivojlantiruvchi + bixevioristik.

**Shaxsni rivojlantirish sohasiga yo‘nalganligi va tuzilishi:** BKM (bilim, ko‘nikma va malaka) + O‘zBMS (o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmi sohasi) + HAS (harakatli-amaliy soha).

**Mazmunli tavsifi:** kasbiy yo‘naltirilgan.

**Ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi:** ta‘limiy (didaktik), tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.

**Qo‘llaniladigan metodlari:** 1) dialogli; 2) vaziyatli; 3) bir-biriga tushuntirish; 4) bir-biriga o‘rgatish; 5) rolli-o‘yinli; 6) izlanishli-tadqiqotchilik.

**Tashkiliy shakllari:** 1) individual; 2) guruhli; 3) juftliklarda ishlash; 4) jamoaviy.

**Qo‘llaniladigan vositalari:** 1) tarqatma materiallar; 2) hujjatli filmlar; 3) badiiy adabiyotlar; 4) multimedia.

**Ta‘lim oluvchiga yondashuv va birgalikdagi o‘zaro harakat tavsifi:** faoliyatga yo‘naltirilgan.

**Modernizatsion yo‘nalishi va an‘anaviy ta‘lim tizimga munosabati:** birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatni kuchaytirish asosidagi pedagogik texnologiya.

**Qo‘llanilish toifasi:** pedagogika kolleji o‘quvchilari uchun.

Texnologiyaning mazmuni o‘zida motivatsion – kognitiv-operatsion – faoliyat birligi va ana shu bosqichlarni har birida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘luvchi mustaqil ishni amalga oshirish darajalari (tanishuv, tushunish, analiz, va sintez)ni aks ettiradi (20-rasm).

**Texnologiyaning motivatsion bosqichi quyidagi darajalarda namoyon bo‘ladi:**

1) **tanishuvga doir:** mustaqil ish topshirig‘i orqali o‘quvchida avval o‘rganilganlarini esgatushirishvaguruhlashtirish ehtiyoji shakllanadi;

2) **tushunishga doir:** o‘quvchida mustaqil ish topshirig‘ida bayon etilgan muammoni ichki ifoda etish rag‘bati hosil bo‘ladi;

3) **analizga doir:** o‘quvchida mustaqil ish topshirig‘ida aks etgan muammo echimini o‘ylab topishga qiziqish paydo bo‘ladi;

4) **sintezga doir:** o‘quvchida mustaqil ish topshirig‘ida aks etgan muammo echimini taklif etish istagi tarkib topadi.

**Texnologiyaning kognitiv-operatsion bosqichi** esa, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning to‘rt (tanishuv, tushunish, analiz va sintez) darajasi bilan bog‘liqlikda quyidagicha namoyon bo‘ladi:

**1) tanishuvga doir:** o'quvchi mustaqil ish topshirig'ida aks etgan asosiy tushunchalarni belgilab oladi;

**2) tushunishga doir:** o'quvchi mustaqil ish topshirig'ida bayon etilgan vaziyatni sharhlaydi;

**3) analizga doir:** o'quvchi mustaqil ish topshirig'ini bajaradi va o'zining fikrlarini boshqalarniki bilan taqqoslaydi;

**4) sintezga doir:** o'quvchi mustaqil ish echimini izlab topadi.

**Texnologiyaning faoliyatga doir bosqichi quyidagi o'ziga xos mazmunga ega:**

**1) tanishuvga doir:** mustaqil ish yechimini bayon etadi;

**2) tushunishga doir:** mustaqil ish topshirig'i echimini amalda ko'rsatib beradi;

**3) analizga doir:** mustaqil ish topshirig'idagi muammo mohiyatini ochib beradi;

**4) sintezga doir:** mustaqil ish topshirig'i bilan bog'liqlikda o'z xulosalarini taklif etadi.

Pedagogik fasilatsiya asosida o'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etish bosqichlari	Darajalari			
	Tanishuv	Tushunish	Analiz	Sintez
<b>Motivatsion</b>	Mustaqil ish topshirig'i orqali o'quvchida avval o'rganilganlarini esga tushirish va guruhlashtirish ehtiyoji shakllanadi	O'quvchida mustaqil ish topshirig'ida bayon etilgan muammoni ichki ifoda etish rag'batini hosil bo'ladi	O'quvchida mustaqil ish topshirig'ida aks etgan muammo yechimini o'ylab topishga qiziqish paydo bo'ladi	O'quvchida mustaqil ish topshirig'ida aks etgan muammo yechimini taklif etish istagi tarkib topadi

<b>Kognitiv-operatsion</b>	O'quvchi mustaqil ish topshirig'ida aks etgan asosiy tushunchalarni belgilab oladi.	O'quvchi mustaqil ish topshirig'ida bayon etilgan vaziyatni sharhlaydi	O'quvchi mustaqil ish topshirig'ini bajaradi va o'zining fikrlarini boshqalarniki bilan taqqoslaydi.	O'quvchi mustaqil ish yechimini izlab topadi.
<b>Faoliyatga doir</b>	Mustaqil ish yechimini bayon etadi.	Mustaqil ish topshirig'i yechimini amalda ko'rsatib beradi.	Mustaqil ish topshirig'idag i muammo mohiyatini ochib beradi.	Mustaqil ish topshirig'i bilan bog'liqlikda o'z xulosalarini taklif etadi.

**15-rasm. Pedagogik fasilitatsiya asosida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasi.**

Motivatsion bosqichda qo'llaniladigan mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiqishda erkin yozish, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi, asoslangan esse kabi metodlardan keng foydalaniladi.

**“Pedagogika fanini o'rganish nima uchun zarur?” mavzusida erkin yozish topshirig'i.**

**Topshiriq:** “Pedagogika fanini o'rganish nima uchun zarur?” mavzusida besh daqiqa mobaynida o'z fikrlaringizni daftarga yozing. O'ylagan fikrlaringizni hech qanday to'xtovsiz bayon eting.

**Erkin yozish ustida ishlashga doir ko'rsatma:**

1. O'quvchilardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozish so'raladi.

2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tuganganligi ma'lum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug'iladi.

3. O'quvchilardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to'rt talaba o'z yozganlarini o'qib bergach, o'qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o'xshamaydigan fikr kimda bo'lsa bildirishlarini so'raydi.

**Kognitiv-operatsion bosqichda** qo'llaniladigan mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiqishda o'qitish bo'yicha qo'llanma, tushunchalarni aniqlash, tushunchalar tahlili, ijodiy test, chalkashlikni aniqlang strategiyasi kabi metodlardan keng foydalaniladi.

**Dars va unga qo'yiladigan talablarning o'zlashtirilishiga doir ijodiy test topshirig'i:**

**1. Kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.**

... bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

**2. Gapni davom ettiring.**

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi quyidagi o'ziga xos belgilarga ega: ...

**3. Gapni tugallang.**

Darsga qo'yiladigan didaktik (yoki ta'limiy) talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish ...

**4. Kerakli so'zni topib qo'ying.**

O'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish kabilarning darsga qo'yiladigan ... talablarni o'zida aks ettiradi.

**5. Gapni davom ettiring.**

**Darsga qo'yiladigan rivojlantiruvchi talablarga** o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatleri, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va h.k. **Faoliyatga doir bosqichda** qo'llaniladigan mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiqishda muammoli vaziyat, muammoli savol, muammoli masala, keys-stadi, o'quv loyihasi kabi metodlardan keng foydalaniladi.

Texnologiyaning metodik ta'minoti pedagogika fasilitatsiya asosida pedagogika yo'nalishidagi o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish shakl, metod va vositalarini o'zida aks ettiradi (16-rasm).

<b>Texnologik bosqichlar</b>	<b>Shakllar</b>	<b>Metodlar</b>	<b>Vositalar</b>
<b>Motivatsion</b>	Individual,	Erkinyozish, Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi,	Darslik, ommaviy axborot

	juftliklarda ishlash, guruhli, jamoaviy,	asoslangan esse, o‘n minutlik esse	vositalari, o‘quv-uslubiy majmua,
<b>Kognitiv-operatsion</b>	trening, debat, auditoriya va auditoriyadan tashqari ish	O‘qitish bo‘yicha qo‘llanma, tushunchalarni aniqlash, tushunchalar tahlili, ijodiy test, chalkashlikni aniqlang strategiyasi	slyad-prezentatsiya, elektron doska, tarqatma
<b>Faoliyatga doir</b>		Muammoli vaziyat, muammoli savol, muammoli masala, keys-stadi, o‘quv loyihasi	materiallar, internet.

**16 – rasm. Pedagogik fasilitatsiya asosida o‘quvchilarni musataqil ishlarini tashkil etishning shakl, metod va vositalari.**

Umuman olganda, pedagogika fasilitatsiya asosida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o‘tkazish texnologiyasining mazmunli va metodik bloklarning aniq loyihalanganligi uning yuqori samaradorligini kafolatlaydi.

Bugungi kunda insoniyat jamiyati, shuningdek, mustaqil respublikamiz xalqi oldida turgan ijtimoiy-itisodiy, g‘oyaviy-siyosiy, ta’limiy-tarbiyaviy muammolarning yechimini topish tabiiy, ijtimoiy, texnik fanlarni o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro munosabatlariga bog‘liq. Chunki, ularning barchasi mohiyati, mazmuni, tabiati, shakli va ko‘lamiga ko‘ra tizimlilik xarakteriga ega bo‘lib, ularga aynan mos yondashuv yordamida tadqiq etilib, echimi topiladi. Bu o‘z navbatida ta’lim-tarbiya ishida ham tizimli yondashuvdan foydalanishni ko‘zda tutadi.

Ko‘p sonli manbalar, xususan pedagogik amaliyot sohalarining tahlili ta’lim-tarbiya jarayonining rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan muammolar mavjudligidan guvohlik beradi. Bular asosan, bizning fikrimizcha, o‘rganilayotgan obyektlarning ba’zi bir jihat va xususiyatlarini lavhalar (fragment) shaklida o‘rganish natijasida yuzaga kelib, mantiqan bog‘lanmagan va tizimlashmaganligidadir. Amaliyotdagi bunday holatlarni bartaraf etishda integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. **Fanda "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq G.Spenser tomonidan qo‘llanilishiga qaramay, unga davr taqozosiga ko‘ra yaqin paytlargacha yetarli ahamiyat berilgan emas.**

Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o‘zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. Taniqli **rus psixologik olimi G.S. Kostyukning fikricha:** "Tabaqalanish differentsiatsiya - ruhiy jarayonlar va holat (xususiyat)larni ko‘payishiga olib kelsa, integratsiya - tartibga keltirish, subordinatsiya va uning

natijalarini ma'lum ketmaketlikda joylashtirishga olib keladi. Integratsiyalash yo'li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo'ladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo'lgan elementlardan sintezlash yo'li bilan hosil qilinadi". Genetik jihatdan integratsiya – uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o'rganilayotgan o'quv predmetlari doirasida ma'lum didaktik birliklar orasida o'rnatilib, ularni o'rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, bundan farqli o'laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsiyalab o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. Bu o'z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi. Chunki u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar o'rganilayotgan ob'ektni barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab etish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo'lgan tabaqalashtirish (differentsiatsiya)ga tayangan holda rivojlanib boradi yoki aksincha.

**Integratsiya masalasini pedagog olimlar va amaliyotchilar quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etishni tavsiya etadilar:**

- a) o'quv predmetlari va fanlar turkumi doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish;
- b) turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;
- v) ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va shu kabilar.

Bu yo'nalishlarning har birining aniq o'z maqsadi bo'lib, uni amalga oshirish uchun mos shakl, metod, vosita va shart-sharoitlarni talab etadi. Amaliyotda ulardan uyg'un holda foydalanilgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini ham shu o'rinda eslatib o'tish lozim.

**Pedagogika fanida XX asrning 80- yillaridan boshlab integratsiya, "o'zaro aloqadorlik", "o'zaro ta'sir", "sintez" kabi tushunchalar qo'llanilgan ilmiy ishlar**



paydo bo'lib, ta'lim-tarbiya ishida integratsiya muammosining dolzarbligi sezila boshlangan. Hozirgi paytga kelib ta'lim-tarbiya ishiga integrativ yondashuv g'oyasi xususiy fanlar doirasida chegaralanib qolmasdan, umumpedagogik ahamiyatga ega masalaga aylandi.

**Integratsiya** (lot. Integeration – tiklash, to'ldirish, birlashtirish. Integer – yaxlit) sintezlab bir butun qilib birlashtirmoq, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq ma'nosida tushuniladi. Ta'lim mazmunini integratsiyalash deganda o'zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o'quv predmetlari mazmunini sintezlash, ya'ni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirishni tushunamiz. Integratsiya (mujassamlashtirish) va differensiatsiya (tabaqalashtirish) bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi, biri ikkinchisidan kelib ham chiqmaydi, balki ular har doim bir vaqtni o'zida o'rganilayotgan ob'ektning ikki tomoni sifatida namoyon buladi. Ilmiy bilishda ulardan biri vaqtinchalik ma'lum ustunlikka ega bo'lishi ham mumkin. Masalani ikki tomonini fan-texnika taraqqiyoti natijasida qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishida turli kasblarning paydo bo'lishi, ya'ni tabaqalanishini, mexanizatsiya, avtomatizatsiya va yana qo'shma kasblar yoki keng ixtisosli mutaxassislarning dialektik rivojlanishi ekanligini ko'rsatish mumkin. **Integratsiyalashtirish jarayonlari** hozirgi zamon ilmiy bilimlarining o'zaro ta'siridan farqli o'laroq quyidagi yo'nalishlarda kechishi mumkin:

— **alohida olingan fan doirasida ichki ilmiy rivojlanish sifatida;**

— **fanlararo o'zaro aloqadorlik doirasida, ya'ni bir yoki bir necha sohalar doirasida;**

— **maxsus yaxlit ilmiy bilimlar doirasida kabilar.**

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar uyg'unligini integrativ yondoshuv sifatida tasavvur etish mumkin. Ikki va undan ortiq nisbatan mustaqil qismlarda kechayotgan jarayonlarni birlashtirish - integratsiyalashtirishning natijasi bo'lishi mumkin.

Yaxlit tizimni tuzishda integratsiyalanuvchi aloqadorlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni ichki ilmiy aloqadorlik ham deb ataladi.

Tizimlashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad ichki ilmiy aloqadorlikni tartibga keltirish yo'li bilan yaxlitlikni yuzaga keltirishdan iboratdir. Bu jarayonda hosil bo'ladigan yaxlitlik yangi sifat ko'rsatgichlariga ega bo'ladi. Integratsiyalashtirishning mohiyati, nazariy sintez vositasi sifatida yangi darajadagi bilish natijalariga erishishdir.

**Mutaxassislikka oid fanlarni integratsiyalab o'rganish quyidagi masalalarni hal etishga qaratilgan:**

➤ mutaxassislikka oid fanlarni integratsiyalab o'rganishning mohiyati, mazmuni va uni amalga oshirish shart-sharoitlari va vositalarini o'rganish;

- turli fanlar mazmunini integratsiyalashtirishning ilmiy-nazariy va pedagogik-uslubiy asoslari bilan tanishish;
- tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faolligi, mustaqilligi va bilimlar darajasini integrativ oshirishda bilimlarning dolzarbligini isbotlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, ruhiy-pedagogik, texnik-texnologik bilimlarni sintezlash talablari, imkoniyatlarini aniqlash.

Ko'p hollarda ta'lim-tarbiya ishida integrativ, tizimli va majmuaviy yondoshuvlar sinonim sifatida talqin etiladi. Bu tushunchalarning umumiy tomonlarini o'rganilayotgan ob'ektlarning turli qirra, tomon va xususiyatlari tashkil etadi. Lekin ular bir-biridan mohiyatiga ko'ra ham farqlanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida integrativ yondoshuvni amalga oshirish tizim yoki mavjud shakldagi yaxlit ob'ektning ichki va tashqi aloqalari, uni tashkil etish va boshqarish qonuniyatlarini bilgan holda olib borilishi mumkin. Kichik mutaxassislarni tayyorlashda integrativ yondoshuv mutaxassislikka oid bilim, ish-xarakat usullari va shaxsiy safat hamda fazilatlarni yaxlitligini ta'minlash uchun qo'llaniladi.<sup>9</sup>

Integrativ yondashuv mazmunan tutash, aloqador, mantiqiy bir-birini taqozo etuvchi va bir-biriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o'quv fanlarini integratsiyalash uchun qo'llanilib, yaxlit mantiqiy mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishni ko'zda tutadi.

**"Pedagogika" o'quv predmeti integrativ fan sifatida quyidagi masalalar o'z yechimini qanday topganligiga bog'liq holda uning samaradorligi aniqlanadi:**

1. Integrativ o'quv predmeti tarkibiga kiruvchi har bir o'quv predmetining qanday vazifa echimini ta'minlashdagi roli;
2. Nisbatan tor doiradagi o'quv predmetlarining didaktik vazifalarini integratsiyalash jarayonida to'liq saklab qolgan holda umumiy maqsadga bo'ysundirilishi;
3. Integrativ o'quv predmetini o'rganish metodikasi, shakli, metodlari, vositalari va shart-sharoitlarini majmuaviy ishlab chiqish.

Yuqorida ko'rsatilgan fikrlarga xotima berib aytganda, tizimli, majmuaviy va integrativ yondashuvlarning umumiylik jihatlari mavjud bo'lib, o'ziga xos tafovutlarga ham egadir. Umuman olganda integrativ yondoshuvga tizimli va majmuaviy yondashuvlarning natijasi sifatida qarash mumkin.

Integratsiya muammosini didaktik jihatdan tadqiq etilishi – uni ta'lim prinsipi sifatida talqin etilishini talab etadi. Metodik nuqtai nazardan olib qaraganda

---

<sup>9</sup> И. Н. Зорников, Л. П. Волкова. Проблемы и перспективы международной интеграции высшего образования.-Воронеж, 2009.

integratsiya ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtiruvchi va ko'zlangan natijani kafolatlovchi shart-sharoit va usul deb tadqiq etilishidir.

Integrativ yondashuv ilmiylik, kasbiy yo'nalganlik, politexnizm, uzviylik, muntazamlik, tizimlilik, ko'rsatmalilik, tushunarlik, tabaqalashtirish kabi didaktik prinsiplar bilan aloqadorlik hamda uyg'unlikda amalga oshiriladi. O'z navbatida integrativ yondoshuv ham hech qachon boshqa didaktik prinsiplarga o'xshab o'qituvchiga biror tayyor retsept bermaydi, ammo undan foydalanilgan holda didaktik va metodik masalalar echimini aniqlaydi.

O'quv materiali mazmunini integratsiyalash didaktik jarayon sifatida ko'p qirrali, ko'p o'lchovli, tizim shaklidagi tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Uni tahlil qilish (o'rganish) tizimli-tuzilmaviy yondoshuvni talab etadi. Chunki uning funksiyasi, tarkibi, tuzilishi va shu kabi muhim xususiyatlarini o'rganish ko'zda tutiladi. Maxsus fanlarni integratsiyalashda ulardagi barcha xarakterli xususiyatlarni sintezlash emas, balki eng muhim va umumiy g'oyalar, muammolarni sintezlash ko'zda tutiladi.

Integratsiyalash alohida o'quv predmetlari chegarasida amalga oshiriladigan nazariy sintez vositasi sifatida va fanlararo sintez shaklida namoyon bo'lib, bevosita umumilmiy bilimlarni tarkib toptirishni ko'zda tutadi. **Integratsiya** – sintezning yuqori darajasi hisoblanadi. Bilish jarayonida, tahlil qismlarga ajratish, sintez esa ularni birlashtirish (umumlashtirish) sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejaları va dasturlariga o'tish davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllanish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

**Gegel** falsafasidagi uslubni mazmun harakatining shakli sifatida ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida turli hil tizimlar orqali o'qituvchi va u bilan birga o'quvchilar o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini deduksiya, induksiya, sintez, umumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash shaklida ifodalashadi.

Barcha mantiqiy jarayonlar uslubning mazmun bilan uzviy bog'langan ichki tomonini tashkil qiladi. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarining turli - tumanligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, atrof-muhitga jiddiy munosabatlar poydevori boshlang'ich sinflarda o'rgatiladi. Shuning uchun ta'limning natijasi maktab ta'limining 1-bosqichiga bog'liq. Yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining bilish faoliyati cheklanganligi haqida ilgarigi tushunchani ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang'ich ta'limning barcha tarkibiy qismlarini o'zgartirish va yangilashga asos yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir.

Bir qator ishlar boshlang'ich ta'limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bog'ishlangan. Bu muammolar o'quv fanlarini integratsiyalashga o'tishning yaqin rivojlanish sohasidir. Boshlang'ich maktab fanlari integratsion aloqalarining mohiyati haqida olimlar orasida qaramaqarshiliklar ko'p.

Integratsiya atama va uslubiy nuqtai nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik.

Integratsiya lotincha integration tiklash, to'ldirish, integer – butun so'zidan kelib chiqqan. **Bu borada ikki tushunchaga egamiz:**

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligini aks ettiradi. (tabiat-jamiyat-inson). U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarining ishlashi va o'rganish ob'ektining yaxlitligi tartibga solinadi. Zamonaviy didaktika va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqida tushunchani shakllanganligini, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni echa olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang'ich - tabiat haqidagi elementar bilimlarni birlashtirish; oraliq - fanlar bo'limlarini bo'lish integratsiyasi; yakuniy - tabiatshunoslikni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ta'limning oxirgi bosqichi integratsiyasi. SHu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta'limni to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi.

Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa bilimlarga nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Bu kichik maktab yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng soddasi tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganishi asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish, yangi dalil va tushunchalarning tanlanishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqala amalga oshiriladi. Bilimlarning eng oddiy umumlashtirishi sodir bo'ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo'lgan bilimlar bilan bog'lansa ayni muddao bo'lar edi.

Bunda o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga

keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlar tizimini bilishini ta'minlaydi (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi), o'rganilayotgan fan doirasida bilimlardan keng foydalanish kuzatiladi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog'lanishlarini aks ettiradi. Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilish imkoniyatini beradi. SHu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasidagi bo'shliqlarni chegaralashga imkon beradi.

Bayon qilingan psixologik dalillar yordamida boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktab ta'limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlash mumkin. **S.P.Baranov, L.R.Bolotin, V.A.Slasteninning** "Pedagogika" kitobida darslarda qo'llanadigan fanlararo bog'lanish ko'rsatiladi, lekin integratsiyalashgan ta'lim muammolari aks etmagan. Olimlar fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, integratsiya – differensiya jarayonlari bilan birgalikda fanlarni yaqinlashtirish va bog'lash jarayoni bo'lib, yangi, butun, yaxlit bo'limlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshiruvchi yuqori ko'rinishdir.

O'quv predmetlari orasida integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi va integratsiya tizimini takomillashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish yo'li bo'lib, predmetlar orasidagi aloqalar va bog'liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan bunday yondashuv – differensiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi.

Pedagogikaning maqsadi bir hil maqsad vazifalarga ega bo'lgan turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo'naltirilgan integratsiyani amalga oshirishda o'qituvchilarga yordam berishdir. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari, keyinchalik esa bitiruvchilar u yoki bu fanlarni o'rganib, boshqa fanlarni o'rganishga qiynaladi, ularda mustaqil fikrlash, olingan bilimlarga o'xshash yoki yangi vaziyatlarga ko'chira bilish ko'nikmalari etishmaydi.

Bularning hammasi dars jarayonida turli fanlar bo'yicha mashg'ulotlarning o'zaro kelishmovchiligi tufayli sodir bo'lmoqda. Bu holatda integratsiya bir predmet bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish va faoliyatning almashinishi emas, balki zamonaviy fanlar integratsiyasi yo'nalishlarini aks ettiruvchi yangi didaktik ekvivalentlarni yaratish jarayonidir. Qator olimlar maktab ta'limini integratsiyalashning muhimligiga e'tibor qaratsa, ba'zilar integratsiya darsni samarali tashkil qilish vositasi, predmetlar aloqalarini yangi pog'onalarga ko'tarish shakli, deb hisoblaydi.

Demak, **integratsiya** - o'quvchining turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish

manbaidir. Ular faoliyatning turli shakllarini almashib turishi orqali o'quvchilarning charchashi va asabiylashishini oldini oladi.

**Differensial ta'lim.** Rivojlangan mamlakatlarda ommaviy o'rta maktablarning yaratilishi ta'lim-tarbiya differensiyasi muammosini yanada keskinlashtirdi. Bunday holat umumiy ta'lim diversifikatsiyasining sifat darajasi boshqacha tizim zaruratini keltirib chiqardi. O'quvchilarning iqtidori, qiziqishi, o'zlashtirishiga ko'ra differensial tayyorgarlikni kuchaytirish va murakkablashtirish - zamonaviy maktabning global yo'nalishiga aylandi.

Differensiyaning asosiy shakllari - o'quv muassasalarini turli tiplarga bo'lish, bir maktab ichida potok va profillarga, sinfda guruhlariga ajratish nazarda tutiladi. Differensial ta'lim muammosi bir xil hal bo'lmaydi va qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiy tomondan differensiya ijtimoiy tanlov usuliga aylanadi. Pulli ta'lim va imtihonlar tizimi bunda tanlov vositasi bo'lib hisoblanadi. Odatda tabaqalanish (differensiya) boshlang'ich maktabni bitirgandan keyin boshlanadi. U turli tipdagi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Masalan: Angliyada grammatik va zamonaviy maktablarda, Germaniyada real bilim yurti, gimnaziya va asosiy maktablarda, Fransiyada texnologik, kasbiy va umumta'lim litseylarda, Rossiyada oddiy o'rta maktab, litsey, kollej, gimnaziyada va b. Bu o'quv muassasalarida differensiyaning asosiy o'ziga xos belgisi dasturlardir. Bir o'quv muassasasi doirasida differensiya keng yoyilgan. Masalan, AQSH va Yaponiya katta o'rta maktablarida 2 tipdagi umumta'lim va maxsus dasturlar mavjud. Ular turli qirralarda o'quvchilarning turli guruhlarini o'rganishadi. Germaniyada gimnaziya ta'limning 6 profilini taklif etadi, asosiy maktab esa differensiyani KKAM tizimi asosida amalga oshiradi. Unga ko'ra ta'lim dasturning quyidagi variantlariga ko'ra tashkil qilinadi: kasbiy kurs(K), kengaytirilgan kurs (K), asosiy kurs (A), moslashtirilgan kurs (M).

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Yo`ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg`or pedagogik texnologiyalar. – T.: O`qituvchi, 2004.
2. Monaxov, V.M., Baxusova, E.V., Oleynikova, I.A. Pedagogicheskaya texnologiya V.M.Monaxova ot A doYA: samouchitel proektirovaniya uchebnogo protsessa: Lipetsk: IRO, 2007.
3. Odaryonnye deti (Per. s angl.). – M.: Progress, 1991. – S. 177178.
4. Pedagogika nazariyasi / Darslik. Mual.: M.X.Toxtaxodjaeva va b. Prof. M.X.Toxtaxodjaeva tahriri ostida. – T.: “Iqtisod-moiya”, 2010. – 136-140-b.
5. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo`ll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog`omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.
6. Ochilov M. YAngi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000. 19. Ro`zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo`llanilishi / Met.qo`ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
7. Saveleva M.G. Pedagogicheskie keysy: konstruirovaniye i ispolzovaniye v protsesse obucheniya i otsenki kompetensiy studentov / Ucheb.-met.posobie. – Ijevsk: FGBOUVPO “Ud murtskiy universitet”, 2013. – S. 9.
- 8.Sayidaxmedov N.S. YAngi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.
- 9.Sbornik keysov dlya vuzov po dissiplinam gumanitarnogo i sotsialno-ekonomicheskogo sikla / Ucheb. met. posobie. – SPb.: Izd-o Sankt-Peterburgskogo universiteta upravleniya i ekonomiki, 2015. – S. 3
- 10.Sirotyuk F.S. Diagnostika odaryonnosti / Ucheb. posobie. – M.: Direkt-Media, 2014. – 1229 s.
- 11.Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006.
- 12.Turdieva M. Oliy ta`lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. – 38-42-b.
- 13.Utyomov V.V., Zinkovkina M.M., Gorev P.M. 3. Pedagogika kreativnosti: prikladnoy kurs nauchnogo tvorchestva / Ucheb.posboie. – Kirov: ANOO “Mejreginalnyy SITO”, 2013. – 212 s.
- 14.Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – o`qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi // Uzluksiz ta`lim j. – T.: 2006. 6-son. – 102-b.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarida magistrlarda pedagogik deontologiya va kompetentlikga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalarda nazariy o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi hamda egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi.

**“Pedagogik deontologiya va kompetensiya” fani bo'yicha amaliy mashg'ulot mavzulari tematikasi**

### ***I –AMALIY MASHG'ULOT. PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIK FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.***


**1-TOPSHIRIQ. “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalanib, quyidagi tushunchalar mazmunini izohlab tahlil qiling.**

<b>Tushunchalar</b>	<b>Tushunchalar mazmuni</b>
<b>Deontologiya</b>	
<b>Pedagogik deontologiya</b>	
<b>Etika</b>	
<b>Estetika</b>	
<b>Kompetensiya</b>	
<b>Kompetentlik</b>	
<b>Pedagogik kompetentlik</b>	
<b>Kasbiy kompetensiya</b>	

**2-TOPSHIRIQ. Pinbord texnikasi orqali muammoning yechimini toping.**

**Ko'rsatma:** Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashni amalga oshirish (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – doska) kollektiv tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.





- 1. O'qituvchining deontologik tayyorgarlik mezonlari qaysi jihatlarida namoyon bo'ladi?**
- 2. Pedagogik deontologiyaning kasbiy va shaxsiy sifatllari o'qituvchi faoliyatida o'rin qanday deb o'ylaysiz?**

O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtainazarlarini bayon qilishni sinaydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (Rag'batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda: **1.** Xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar; **2.** Ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: kollektivning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

**3-TOPSHIRIQ. Pedagogik "ESSE". "Pedagogik deontologiya - o'qituvchining kasbiy xulq-atvori".**

**Pedagogik mazmundagi esse uchun kalit so'zlar:** Deontologiya, pedagogik deontologiya, bo'lajak o'qituvchi, deontologiyaning vazifasi, etika, kasb, akmeologik yondashuv, muomala, kasbiy tayyorgarlik, deontologik kompetensiya


**II – AMALIY MASHG’ULOT.  
PEDAGOGIK KOMPETENTLIKDA METODOLOGIK  
YONDASHUVLAR.**

**1 – TOPSHIRIQ.** Mavzu yuzasidan berilgan nazorat savollariga javob yozing, o’z fikr-mulohazalaringizni yoritib bering hamda bilimingizni yanada mustahkamlang.

**NAZORAT SAVOLLARI**

1. Pedagogik deontologiya faniga metodologik asoslari haqida fikr –mulohazalar bildiring.
2. Inson kamolatida o`qituvchining deontologik xususiyatlarining tutgan o`rni.
3. Jamiyat taraqqiyotida o`qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo`yiladigan talablar.
4. O`quvchilarning odob-axloq va majburiyatlari haqida sizning fikringiz.
5. Pedagogik kompetentlikning jamiyat taraqqiyotidagi o`rni.
6. Yoshlar tarbiyasida o`qituvchi murabbiyning ibrat na`munasi. (Fikringiz)
7. O`zbekiston Respublikasi uzluksiz ta`lim tizimida olib borilayotgan islohotlar (fan nuqtai nazaridan yondashasiz).

**2 – TOPSHIRIQ.** O`qituvchining odobi-axloqi haqida Sharq (A.Forobiy, Ibn Sino, A.Navoiy va boshqalar) va G`arb (Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, A.Disterverg va boshqalar) mutafakkirlarining g`oyalarini “Veyn diagrammasi” orqali tahlil qiling.



**III – AMALIY MASHG’ULOT. KOMPETENSIYANING  
JAMIYATDAGI O’RNI VA PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH ASPEKTLARI.**

**1 – TOPSHIRIQ.** Quyida keltirilgan tushunchalarni tahlil eting.


<b>Tushunchalar</b>	<b>Mohiyati</b>
<b>Ta’lim tizimi</b>	
<b>Integratsiya</b>	
<b>Model</b>	
<b>Loyiha</b>	
<b>Xalqaro loyihalar</b>	

**2 – TOPSHIRIQ.** “Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’lim tizimi” mavzusidagi konseptual jadvalni to’ldiring.

<b>Iqtisodiy rivojlangan xorijiy Davlatlar</b>	<b>Ta’lim tizimi</b>			
	<i>Maktabgacha ta’lim</i>	<i>Umumiy o’rta ta’lim</i>	<i>O’rta maxsus ta’lim</i>	<i>Oliy ta’lim</i>
Amerika Qo’shma Shtatlari				
Germaniya				
Yaponiya				

**3 – TOPSHIRIQ. “Nima uchun?” sxemasi orqali quyidagi topshiriqni bajaring.**

## Nima uchun sxemasi



### IV – AMALIY MASHG'ULOT. O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH TIZIMI.

**1-TOPSHIRIQ.** *Quyidagi savollarga nazariy va amaliy jihatdan yondashishingizni va o'z fikr va munosabatingizni bildirib javob yozishingizni iltimos qilamiz.*

- 1.O'qituvchining axloqiy sifatlarini qanday tasavvur etasiz.
- 2.O'qituvchining kompetentligining shakllanishida Pedagogika va Psixologiya va boshqa fanlarning o'rni.
- 3.Pedagogika fanlari tizimini izohlab bering.
- 4.O'qituvchi kasbining dional va kasbiy sifatlarini izohlang.
- 5.Ta'lim tizimida uzluksizlik va uzviylik tushunchalarini qanday izohlaysiz.
- 6.O'qituvchining darsga nazariy va amaliy tayyorgarlik kompetentligi haqidagi fikrlaringiz.
- 7.O'qituvchi kompetentligining shakllanishida qobiliyatning o'rni.
- 8.O'qituvchi kompetentligidagi kasbiy sifatlarga munosabatingizni bildiring.

**2-TOPSHIRIQ.** Insonning muloqotga kirishuvchanlik imkoniyatlarini aniqlashga oid psixologik test keltirilgan, uni yechishga harakat qiling, natijangizni belgilang. Psixologik test.

**Muloqot jarayonida siz qandaysiz?**

Ushbu so'rovnoma psixolog va psixoterapevt Andrey Konovalov<sup>10</sup> tomonidan ishlab chiqilgan.

- 1. Sizni hamkasbingiz va tanishlaringiz qanday qabul qiladi?**
  - a) Eng yaqin insondek – 1
  - b) O'ziga ishongan insondek – 3
  - c) Xotirjam va og'irvazmin insondek – 1
- 2. Agar hamkasbingiz ish stolingizda so'roqsiz qandaydir narsangizni olsa, siz buni qanday qabul qilasiz?**
  - a) Juda ajablanasiz – 3
  - b) Olingan narsani joyiga qo'yib qo'yishini so'raysiz – 2
  - c) Sizga yana nimadir kerakmi? – deb so'raysiz – 1
- 3. Kelishmovchiliklardan keyin siz yarashish yo'llarini izlaysizmi?**
  - a) Har doim – 3
  - b) Ba'zida – 2
  - c) Hech qachon – 1
- 4. Hayotga nisbatan qarashingiz qanday deb o'ylaysiz?**
  - a) Vazmin va xotirjam – 1
  - b) Jiddiy emas – 2
  - c) Kesik – 3
- 5. Qaysi hayvon sizningcha yoqimliroq?**
  - a) Ayiq – 2
  - b) Yo'lbars – 1
  - c) Mushuk – 3
- 6. Bahslarga kirishingiz osonmi?**
  - a) Ha – 1
  - b) Yo'q – 3
  - c) Vaziyatga qarab – 2
- 7. Birorta ishni oxiriga yetkaza olmasangiz qanday yo'l tutasiz?**
  - a) Shu narsaga ko'nikaman – 3
  - b) Aybni boshqadan qidiraman – 1
  - c) Qayta va qayta harakat qilaman – 2
- 8. Sizga do'konda kimdir qo'pollik qilsa, o'zingizni qanday tutasiz?**
  - a) Sabr qilasiz, janjal ko'tarmaysiz – 2
  - b) Norozichilik bildirasiz – 3

---

<sup>10</sup> [http://psynavigator.ru/psihologi/konovalov\\_andrey\\_evgenevich](http://psynavigator.ru/psihologi/konovalov_andrey_evgenevich)

c) Siz ham javoban qo'pollik qilasiz – 1  
**9. Agar uchrashuvga kechikib kelsangiz o'zingizni qanday tutasiz?**

- a) Xotirjam – 1
- b) Juda asabiy va tajang – 2
- c) Biroz xavotirli - 3

**10. Avtomobil rulini o'tirganizda o'zingizni qanday tutasiz?**

- a) Xotirjam, shoshmay haydayman – 1
- b) Juda katta tezlikda yuraman – 2
- c) Tezlikni oshirgan holatda boshqa avtomobillarga yo'l bermaslikka

harakat qilaman – 3

**11. Agar suhbat paytida suhbatdoshingiz sizni eshitmasa o'zingizni qanday tutasiz?**

- a) Atrofdagilarga bildirmaysiz, lekin ichingizda jahlingiz chiqadi – 1
- b) Sizga kam e'tibor berayotganligi haqida odob bilan tushuntirasiz – 3
- c) Orqada qayrilasizda oldidan ketib qolasiz – 2

**12. Siz suhbatdoshingizni ha rdoim diqqat bilan tinglaysizmi?**

- a) Ha – 1
- b) Har doim emas – 3
- c) Kamdan kam – 2

**13. Siz diqqat markazda bo'lishni xohlaysizmi?**

- a) Har doim – 3
- b) Ba'zan – 1
- c) Siz uchun bu kerak emas – 2

**14. Agar sizning farzandingizni maktabga xafa qilishsa, qanday yo'l tutasiz?**

- a) O'qituvchi bilan gaplashasiz – 1
- b) Xafa qilgan inson bilan janjallashasiz – 2
- c) Farzandingizga qarshi javob berishni o'rgatasiz – 3

**15. Siz yon bosishga qodirmisiz?**

- a) Hech qachon – 3
- b) Ha – 2
- c) Vaziyatga bog'liq – 1

**24 ball va undan kam:** Siz bilan suhbatlashish ancha oson, lekin siz judayam tinchliksevarsiz. Sizga qat'iyatlilik yetishmaydi. O'zizga bunchalik darajada tanqidiy munosabatda bo'lmang.

**25 – 31 ball:** siz atrofdagilar bilan tez chiqishib keta olasiz, lekin siz murosa qilish judayam qiyin. Ko'pincha, sizning xatti-harakatingiz kayfiyatingizga bog'liq bo'ladi. Hissiyotlarga berilmang, sabrli bo'ling.

**32 – 45 ball:** siz suhbatda muvozanatni saqlay olasiz, ba’zida juda agressiv bo’lib ketasiz. Kundalik hayotda atrofdagilarning manfaatini chekkaga surib qo’yishingiz mumkin. Siz bila til topishish qiyin.

## V – AMALIY MASHG’ULOT. PEDAGOGIK MAHORAT VA KOMPETENSIYA MEZONLARI.

### 6-3-5 METODI

*Metodning maqsadi:* belgilangan mavzuda iloji boricha ko’proq miqdorda g’oyalarni kiritish, yozib qo’yish va sistemalashtirishga yordam beradi. O’quvchilarda jamoada ishlash ko’nikmasini, o’zaro hamjihatlik, bir-biriga hurmat tuyg’usini tarbiyalaydi.

1- **TOPSHIRIQ.** Pedagogik mahorat tushunchasi, uning vazifalari va komponentlarini izohlab, guruhlar bilan o’zaro fikr almashing.

#### **Ko’rsatma: Guruhda ishlash qoidalari**

- 6 ishtirokchidan har biri qog'oz va ruchka oladi, guruh dumaloq stol atrofiga o'tiradi;
- 5 daqiqa ichida muhokama qilinayotgan mavzu bo'yicha o'zining 3 ta g'oyasini qog'ozda bayon etishi zarur;
- chap tarafdagi ishtirokchiga g'oyalar ifodalangan varaq berilishi lozim;
- o'ng tarafdagi ishtirokchidan g'oyalar ifodalangan varaqni olib o'qigandan so'ng, ishtirokchi bayon etilgan voqealarni rivojlantirishi va o'zining yangi g'oyalarini yozishi kerak, bunday harakat hamma varaqlar to'lguniga qadar davom etaveradi;
- g'oya izlash har bir ishtirokchi o'zining dastlabki varag'ini olganidan keyingina to'xtatiladi;
- nihoyat hulosada hamma g'oyalar o'qilib, baholanadi.

## **2 – TOPSHIRIQ. “Aqliy hujum” metodi. Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Pedagogik mahorat deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik mahorat kategoriyalarini hayotiy misollar bilan izohlang.
3. O’qituvchilik kasbining tarixiy jihatlari va uning jamiyatda tutgan o’rni haqida mustaqil fikringizni bayon eting.
4. O’qituvchining pedagogik faoliyati tarkibiy qismlarini va komponentlarini sanab o’ting.
5. Bo’lajak o’qituvchilarda pedagogik mahoratning qaysi mezonlari bo’lishi kerak deb hisoblaysiz?

## **VI – AMALIY MASHG’ULOT. O’QITUVCHI MAHORATINI SHAKLLANTIRISH YO’LLARI VA STRATEGIYALARI.**

### **1 – TOPSHIRIQ. Diqqat! Jummalarni davom ettiring.**

1. “Kompetentlik” bu - ...
2. Kasbiy kompetentlik - ...
3. Kompetentlik quyidagi holatlarda namoyon bo’ladi: ...
4. Kasbiy kompetentlik sifatleri...
5. Ijtimoiy kompetentlik bu - ...
6. Maxsus kompetentlik negizida...
7. Psixologik kompetentlikning mohiyati ...




**2-TOPSHIRIQ. O'qituvchi mahorati va faoliyatiga doir assesment.**

<p style="text-align: center;"><b>Test</b></p> <p>O'qituvchi pedagogik mahoratiga tegishli bo'lmagan qatorni toping</p> <p>a) kasbiy bilimlar b) pedagogik qobiliyat c) pedagogik texnika d) barchasi to'g'ri</p>	<p style="text-align: center;"><b>Muammoli vaziyat</b></p> <p>Dars boshlandi. O'qituvchi xonaga kirishi bilan doskadagi tishlari so'yoq, burni katta, quloqlari shalpar, bir oyog'i kalta qilib chizilgan rasmga ko'zi tushdi. Eng achinarlisi u suratning tagiga o'z ismi yozilgan edi. O'qituvchini o'rnida bo'lganingizda siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?</p>
<p style="text-align: center;"><b>Simptom</b></p> <p>Pedagogik kasb..... Pedagogik mahorat.....</p>	<p style="text-align: center;"><b>Bilimlarni qo'llay olish</b></p> <p>Hozirgi kunda o'qituvchining kasb mahorati qanday bo'lishi kerak? Fikringizni asoslab bering.</p>

**VII – AMALIY MASHG'ULOT. PEDAGOGIK MADANIYAT MAZMUNI VA MOHIYATI.**

**1 – TOPSHIRIQ.** Sizningcha, pedagogik madaniyat nima? Uning tarkibiy qismlari qaysilardan iborat? O'zingizning mustaqil fikrlaringizni klaster (tarmoqlash) texnologiyasida ifodalab izohlang.



**2 -TOPSHIRIQ. Esse yozing. “O’zingizni bo’lajak pedagog sifatida shakllantirishda qaysi pedagogik komponentlarni shakllantirgan bo’lardingiz?” mavzusida yozilgan esseni yoritib bering.**



**VIII – AMALIY MASHG’ULOT. OLIY TA’LIM O’QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASPEKTLARI.**

**1 – TOPSHIRIQ. M.Snaydarning “Muloqot jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish”<sup>11</sup> nomli testi asosida tinglovchilarning kommunikativlik kompetentligiga egaliklarini aniqlash.**

**“Muloqot jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish” (M. Snayder testi)**

**Ko‘rsatma:** quyida berilgan holatlarni diqqat bilan qayta o‘rganib chiqing. Ularning har biriga bo‘lgan mulohazalaringizni “to‘g‘ri” (T) yoki “noto‘g‘ri” (NT) mazmundagi javoblar bilan belgilang va maqbul variantlarni doira ichiga oling.

<b>Holatlar</b>	<b>1</b>	<b>0</b>
Menimcha, boshqalarning xatti-xarakteriga taqlid qilish juda qiyin	NT	T
Boshqalar e’tiborini tortish yoki ularni kuldirish uchun jinnilik qilishim mumkin	T	NT
Mendan yomon aktyor chiqmagan bo‘lardi	T	NT
Mening holatim boshqalarga, garchi unday bo‘lmasa-da, nima haqidadir chuqur qayg‘urayotgandek taassurot qoldiradi	T	NT
Men do‘stlar davrasida kamdan kam e’tibor markazida bo‘laman	NT	T
Turli xil insonlar bilan muloqotda men o‘zimni turlicha tutaman	T	NT
Men faqat o‘zim qattiq ishongan yoki yaxshi bilgan narsalar to‘g‘risida baxslashishim mumkin	NT	T
Ishda va atrofingilar bilan muloqotda men o‘zimni ular xohlaganday	T	NT

<sup>11</sup> Snyder, M. (1974). Self-monitoring of expressive behavior// J. of Personality and Social Psychology, 30, 526-537.

tutaman yoki shunday bo‘lishga xarakat qilaman		
Men o‘zim yoqtirmaydigan kishilar bilan ham do‘stona munosabatda bo‘la olaman	T	NT
Men qanday bo‘lsam shundayman	T	NT

**Natijalarni hisoblash:** 1) birinchi ustunda doiraga olingan harflarni hisoblab chiqing (ularning har biri 1 ballga teng), natija Sizning yakuniy ballingizdir; 2) to‘plangan ballar tahliliga kirishing.

**Ballar miqdori quyidagilarni anglatadi:**

**0-3 ball** – Siz kirishimli emassiz, aksincha, cho‘rstkesarsiz va bundan faxrlanasiz. Siz biror kimsa yoki biror narsaga moslasha olmaysiz. Biroq, muloqot jarayonida muloyim va ochiqko‘ngilsiz. Ko‘pchilik Sizni shuning uchun yaxshi ko‘radi. Ayrimlar sizni “qo‘rs” inson deb biladilar. Bu o‘quvchilar bilan ishlashda noqulayliklar tug‘dirishi mumkin,

**4-6 ball** – Siz o‘rtacha darajada muloqot qilish layoqatiga egasiz. Muloqot chog‘ida etarlicha samimiy bo‘la olasiz va aytadigan so‘zlaringizni obdon o‘ylaysiz. Odatda muloqot jarayonida Siz uchun muammolar tug‘ilmaydi.

**7-10 ball** – Sizda muloqotni yuqori darajada nazorat qila olasiz va “Butun dunyo – teatr, insonlar esa – aktyorlar” degan fikrga to‘la qo‘shilasiz. Vaziyat o‘zgarishini xotirjamlik qabul qilasiz va atrofdagilarga ko‘rsatadigan ta’siringizni yaxshi his qilasiz. Ba’zan jo‘rttaga shunday qilasiz. Siz o‘zingizni qachon va qaerda qanday tutishni juda yaxshi bilasiz. Kasbiy muloqot siz uchun muammo emas, ammo gap chuqur munosabatlar haqida ketganda, Siz o‘zingizni odatiy niqoblaringizsiz noqulay sezasiz.

**2 - TOPSHIRIQ. Pedagogik (kommunikativ) ta’sir ko‘rsatish metodlarini “Tushunchalar tahlili” metodi asosida tushuntiring:**

<b>Tushunchalar</b>	<b>Tushunchalarning mazmun-mohiyati</b>
Talab	
Istiqbol	
Rag‘batlantirish va jazolash	
Jamoatchilik fikri	
Ishontirish	

**3 – TOPSHIRIQ. Pedagoglarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantiruvchi amaliy mashqlarni bajarish.**

**O‘qituvchining kommunikativ qobiliyatiga doir ijodiy test yechish**

**1. Kerakli soʻz yoki jumlani topib qoʻying.**

... bu pedagogik oʻzaro harakat sohasida maxsus koʻrinishga ega boʻlgan muloqotga qobiliyatligidir.

**2. Gapni davom ettiring.**

Talabalar faoliyatida va ularni tarbiyalashda oʻqituvchi shaxsining muomala tajribasi katta rol oʻynaydi. Oʻqituvchi muomala tajribasining ...

**3. Kerakli soʻz yoki jumlani topib qoʻying.**

... taʼlim-tarbiya jarayonida oʻqituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoyon boʻladi. Oʻqituvchining xatti-harakati oʻqituvchi tomonidan nazorat qilinadi, ijobiy tomonlari ragʻbatlantiriladi.

**1. Kerakli soʻzni topib qoʻying.**

Xulosa qilib aytganda, oʻz-oʻzini anglash pedagogda oʻzini va boshqalarning u haqidagi tasavvuri sifatidagi kasbiy “...”ning shakllanishiga olib keladi.

**IX-AMALIY MASHGʻULOT. OLIY TAʼLIM OʻQITUVCHISI  
MALAKSIGA EGA BOʻLISH UCHUN QOʻYILADIGAN  
TALABLAR. PROFESSIOGRAMMA.**


**1 - TOPSHIRIQ. Express-savollar. Quyidagi savollarga tezlik bilan ogʻzaki ravishda javob qaytaring.**

- 1. Jamiyatda oʻqituvchining tutgan oʻrni va vazifalari.**
- 2. Oʻqituvchiga qoʻyiladigan talablar.**
- 3. Oʻqituvchining kasbiga xos xislatlari.**
- 4. Pedagogik qobiliyat bu -**

**2 - TOPSHIRIQ. Oʻquv jarayoni faoliyatida oʻqituvchi va talabalar konfliktga duch kelsa, uni ijobiy hal etish usullaridan boxabarmisiz? “Piramida sxemasi” orqali vaziyatni izohlang.**

**Koʻrsatma:** Sxemani tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Yakka (juftlikda) sxema tuziladi: asosiy muammo (gʻoya, masala), kichik muammolar yoziladi, keyin muammo yoki masalaning ikkinchi darajali jihatlarini chuqurroq koʻrib chiqish uchun xizmat qiluvchi «kichik shoxlar» davom ettiriladi. Buning natijasida bitta gʻoya rivojlanishining barcha tomonlari yetarlicha chuqur oʻrganib chiqilishi mumkin.

Juftlarga birlashadi, o'z sxemalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi.  
**“PIRAMIDA” ierarxik sxemasi.**



**X – AMALIY MASHG’ULOT. PEDAGOGLIK KASBINING SATHLARINI TASHKIL ETUVCHI KOMPETENSIYALAR.**

3. Ta’lim sifatini oshirishda pedagoglarga qo’yilgan zamonaviy talablar.
4. Rahbarning boshqaruv kompetentligidagi ijobiy fazilatlar, salbiy xususiyatlar va ularni bartaraf etish yo’llari.

**1 – TOPSHIRIQ. Insert texnologiyasidan foydalanib amaliy topshiriqni bajaring.**

**Ko’rsatma:** Insert texnologiyasini qo’llash uchun dastlab o’quvchilarga ma’ruza matni bilan tanishib chiqish vazifasi yuklatiladi. Matni o’qish uchun o’qituvchi mavzu mazmuni ko’lamidan kelib chiqqan holda reglament belgilaydi. So’ngra jadval asosida mavzu yuzasidan savollarni keltiradi va o’quvchilarni jadval qatorlarini quyidagi belgilarni qo’yib chiqishni topshiradi.

1. O’qituvchining kasbiy kompetensiyasi deganda nimani tushunasizmi?
2. Pedagogik kompetensiyaning namoyon bo’lish usullarini bilasizmi?
3. Pedagogik texnikani egallash yo’llash yo’llaridan boxabarmisiz?

Mavzu savollari	√	+	-	?
1.				
2.				
3.				

Belgilar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

(√) - Bilaman.

(+) - Men uchun yangi ma'lumot.

(-) - Men bilgan ma'lumotni inkor qiladi.

(?) – Noaniq, mavhum (qo'shimcha aniqlikni talab qiladigan) ma'lumot.

**2-TOPSHIRIQ.** Kelajakda siz o'qitishingiz lozim bo'lgan o'quv qo'llanmadan foydalanib, 2-3 mavzu misolida o'quv predmeti orqali o'quvchilarni qanday kasblar bilan tanishtirish mumkinligini aniqlang. Ushbu topshiriqni bajarishda qo'yidagi sxemadan foydalaning:

Qo'llanmadagi o'quv mavzusi (bo'lim)	O'quvchilarni tanishtirish mumkin bo'lgan kasblar

## XI – AMALIY MASHG'ULOT. PEDAGOGIK KREATIVLIK MOHIYATI.

### 1 – TOPSHIRIQ. “AJIL” (“AMILIYOTDA JAMOAVIY IJODIY LOYIHALAR” ) TEXNOLOGIYASI

**Ko'rsatma:** mavzuning nazariy asoslarini o'rgangan holda 3 guruhga bo'linib, jamoa shaklida “**Bo'lajak pedagoglarning kreativligini oshirish va uni baholash mezonlari**” mavzusida yangi g'oyalar taklifini bildiring. Bildirilgan takliflarning o'quv jarayonida qo'llanishi haqidagi fikrlarizni izohlang.

**2–TOPSHIRIQ.** Pedagogik “ESSE”. Ushbu kalit so'zlar ishtirokida ilmiy-pedagogik esse yozing.

**Foydalaniladigan kalit so'zlar:** kreativlik, pedadod faoliyati, kreativ qobiliyatlar, bolalar kreativligini rivojlantirish, kreativ potensial, kreativ sifatlarni rivojlantirish yo'llari, kreativ tafakkur mezonlari.

### **3-TOPSHIRIQ. E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi bilan ishlash.**

Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko'rsatmalari bilan tanishish va u yuzasidan muhokama tashkil etish.

#### **Mashg'ulotning borishi:**

1. “To'ldirilgan hikoya” testi yordamida pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini o'rganish.


#### **“To'ldirilgan hikoya” testi**

Test har biri 8 ta rasmdan iborat ikkita to'plam asosida tashkil etiladi. Hikoyaning qahramoni – Ferdinand nomli shaxs. **Testning maqsadi** ta'lim oluvchilarning Ferdinandning odatiy kundalik hayotida ro'y bergan ikki hodisalarning mohiyatini qanchalik to'g'ri anglay olishlarini aniqlashdan iborat.

Ferdinand oilali, uning rafiqasi va o'g'li bor. U korxonalaridan birida rahbar bo'lib ishlaydi. Shu sababli ikkinchi hikoyada uning qo'l ostida ishlaydigan xodimlari ham ishtirok etadi.

Har ikki to'plam testlarida birinchi qatorda joylashgan to'rtta rasm orqali Ferdinandning hayotida ro'y bergan voqealarning izchilligi aks ettirilgan. Biroq, bu qatorda bitta rasm tushirib qoldirilgan. Sizlar ikkinchi qatorda berilgan yana to'rtta rasm orasidan birinchi qatordan tushirib qoldirilgan rasmni joyiga qo'yish talab etiladi. Tegishli rasm o'z joyiga qo'yilgach, Ferdinand bilan bog'liq voqeaning mazmuni to'la anglanadi.

**4-TOPSHIRIQ. Veyn diagrammasi asosida o'qituvchining pedagogik kompetentligi va kreativ kompetentligini o'zor to'ldiruvchi va takrorlanmas xususiyatlarini izohlang.**




**XII – AMALIY MASHG’ULOT. HAMKORLIK  
PEDAGOGIKASINING KONSEPTUAL G’OYALARI.  
HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING TASNIFIY BELGILARI.**

**LOYIHALAR” ) TEXNOLOGIYASI**

**Ko’rsatma:** mavzuning nazariy asoslarini o’rgangan holda 3 guruhga bo’linib, jamoa shaklida **“Hamkorlik pedagogikasining ta’lim sifatini oshirishdagi o’rni”** mavzusida yangi g’oyalar taklifini bildiring. Bildirilgan takliflarning o’quv jarayonida qo’llanishi haqidagi fikrlaringizni izohlang.

**2– TOPSHIRIQ. Hamkorlik pedagogikasining asosiy yo’nalishlarini “Klaster” texnologiyasi orqali tushuntirib bering.**



**3-TOPSHIRIQ. “Hamkorlik pedagogikasining iqtibolliligi”** mavzusida fikrlaringizni **FSMU texnologiyasi** yordamida, o’z shaxsiy fikringiz orqali yoritib bering.



F	<b>Fikringizni bayon eting</b>	
S	<b>Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating</b>	
M	<b>Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring</b>	
U	<b>Fikringizni umumlashtiring</b>	

**XIII – AMALIY MASHG'ULOT. PEDAGOGLIK TYUTORLIK, FASILITATORLIK QOBILIYATLARI ASOSIDA LOYIHAVIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI.**

**1- TOPSHIRIQ. “XULOSA” xaritasi asosida pedagogik fasilitatsiya xususidagi fikr-mulohazalarizni izohlang.**

<b>Fasilitatsiya deganda nimalarni tushunasiz hamda pedagogik fasilitatsiya o'quv jarayonida nima uchun ahamiyatli?</b>	<b>Pedagogik fasilitatsiya jarayonida fasilitatorning asosiy vazifalarini aytib o'ting?</b>	<b>Siz, fasilitator rahbarligida tashkil etilgan guruh mashg'ulotlarning qizg'in yurutishida qanday qo'shimcha takliflar kiritgan bo'lardingiz?</b>

**2 – TOPSHIRIQ.** Amaliy mashg'ulot darslari davomida siz fasilitator sifatida "Didaktika – ta'lim nazariyasi" nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir dars tashkil eting va uni boshqaring. O'zingizdagi fasilitatorlik qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga aniqlik kiriting.

**3 – TOPSHIRIQ.** Quyidagi "FIDBEYK" ("FEEDBACK") asosidagi savollarga mulohazalaringizni bayon eting.

- 1. Pedagogik fasilitatsiyani tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishdagi vosita sifatida e'tirof etasizmi?**
- 2. Fasilitator bo'lish salohiyati hozirgi zamonaviy pedagog xodimlarda mujassamlashgan deb o'ylaysizmi?**
- 3. Fasilitatorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun bugungi kun o'qituvchilarida qaysi qobiliyatlarni shakllantirish zarur deb o'ylaysiz?**

### TESTLAR

**1. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish tamoillari qaysilar?**

- A. Nazariy va amaliy bilimlar uzviyligi.
- B. Talabalar amaliy faoliyatini ko'rgazmaliligi.
- S. Lug'atlardan va ensklopediyalardan foydalanish.
- \*D. A va B.

**2. O'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatda ma'lum maqsadga erishish uchun o'qituvchilar...**

- \*A. Hamkorlik jarayoniga tortishi lozim.
- B. Professiogramma qoidalarini bilishi kerak.
- S. Kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi.
- D. To'g'ri javob yo'q.

**3. O'qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayoni ...**

- A. Pedagogik mahorat darajasidir.
- \*B. Harakat vositasidir.
- S. Kasbiy kompetentlik asosidagi faoliyatidir.
- D. O'quvchilarga BKM hosil qilish faoliyatidir.

**4. O'qituvchining pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobilyatlar tizimi qaysilar?**

- A. Nutq malakasi.
- B. Tashkilotchilik.
- S. Diqqatni taqsimlab olish.
- \*D. Barcha javoblar to'g'ri.

**5. Umumiy dunyoqarashning kengligi va pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lish va ta'limning boshqarishning ilmiy asoslari bo'yicha kasbiy bilimlarni egallaganlik...**

- \*A. Kasbiy kompetentlik.
- B. Hissiy imkoniyatlar.
- S. Eksterimal kompetentlik.
- D. To'g'ri javob yo'q.

**6. Faslitatsiya so'zining ma'nosi nima?**

- A. Tajiba, Qobilyat.
- \*B. Yordam berish, yengillashtirish, kuchaytirish.
- B. Kuchaytirish, tajriba.
- S. Yengillashtirish, kuchaytirish tajriba.
- D. Barchasi to'g'ri.

**7. Faslitatsiya turlari.**

- A. Ijtimoiy, iqtisodiy
- \*B. Ijtimoiy, pedagogik
- S. Ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik
- D. Ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik, ekologik

**8. Faslitatsiya deganda eng avvalo ... muammolarni hal etishning samarali texnologiyasi tushuniladi.**

- A. Individual
- B. Ta'lim muassasidagi
- S. Jamiyatdagi
- \*D. Guruhiy

**9. Faslitatsiya tushunchasi anglangan va maqsadga yo'nalgan faoliyatning ko'rinishi bo'lib, pedagogning ...**

- A. Qobilyat tarajasiga bog'liq bo'ladi.
- B. Irodaviy va xissiy sifatlariga bog'liq bo'ladi.
- S. Intellektual salohiyatini rivojlantiradi.
- \*D. Ishtirokini taqozo etadi.

**10. Faslitatsiya faoliyatiga asoslangan o'zaro harakat qobilyatining bo'lishi o'zida ... tarkib toptiradi?**

- A. Kreativlik,

- B. Tolerantlik
- S. Refleksivlik
- \*D. Barchasi.

**11. Fasilitator trenerdan farqli o'laroq ...**

- A. Psixolog bo'lishi ham lozim.
- B. Individual ish yuritadi.
- S. A va B
- \*D. Ekspert hisoblanmaydi.

**12. Pedagogik faslitatsiya asosida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish bosqichlari qaysilar?**

- \*A. Motivatsion, Kognitiv operatsion, Faoliyatga doir.
- B. Professiogramma, Hamkorlik, Motivatsion
- S. Kognitiv operatsion, psixologik
- D. To'g'ri javob yo'q.

**13. O'qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayoni ...**

- A. Pedagogik mahorat darajasidir.
- \*B. Harakat vositasidir.
- S. Kasbiy kompetentlik asosidagi faoliyatidir
- D. O'quvchilarga BKM hosil qilish faoliyatidir.

**14. ...bosqichida o'quvchi mustaqil ish topshirig'ida aks etgan asosiy tushunchalarni belgilab oladi.**

- A. Faoliyatga doir.
- B. Motivatsion
- S. Diqqatni taqsimlab olish
- \*D. Kognitiv operatsion

**15. ...bosqichida mustaqil ish yechimi bayon etiladi.**

- \*A. Faoliyatga doir.
- B. Motivatsion
- S. Diqqatni taqsimlab olish
- D. Kognitiv operatsion

**17. ... bosqichida mustaqil ish topshirig'i orqali o'quvchilarda avval o'rganilganlarni esga tushirish va guruhlashtirish ehtiyoji shakillanadi**

- A. Faoliyatga doir.
- \*B. Motivatsion
- S. Diqqatni taqsimlab olish
- D. Kognitiv operatsion

**18. ... tovush hajmi bo'lib uning chegarasi eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi.**

- A. Artikulyatsiya

- B. Jest
- S. Diktsiya
- \*D. Diapazon

**19. ...nutq organlarinig tovush hosil qilishdagi harakatlari holati.**

- \*A. Artikulyatsiya
- B. Jest
- S. Diktsiya
- D. Diapazon

**20. Faslitatsiya faoliyatiga asoslangan o‘zaro harakat qobilyatining bo‘lishi o‘zida ... tarkib toptiradi.**

- A. Kreativlik,
- B. Tolerantlik
- S. Refleksivlik
- \*D. Barchasi.

**21. Hamkorlik pedagogikasining nechta nechta asosiy yo‘nalishi mavjud?**

- A. 6
- B. 7
- \*S. 4
- D. 3

**22. Shaxsiy insonparvar yondashuv, didaktik faollashtiruvchi, tarbiya konsepsiyasi, atrof-muhitni pedagogizatsiyalash. Bu yo‘nalishlar ... pedagogikasi yo‘nalishlari.**

- \*A. Hamkorlik pedagogikasi
- B. Pedagogika va psixologiya
- S. A va B
- D. Pedagogika tarixi

**23. Hamkorlik pedagogikasi tasnifiga ko‘ra metodlarni qo‘llanilishi...**

- A. Didaktik, faollashtiruvchi, muammoli-izlanuvchan.
- \*B. muammoli-izlanuvchan, ijodiy, dialogli, o‘yinli.
- S. Didaktik, faollashtiruvchi, ijodiy, dialogli
- D. To‘g‘ri javob yo‘q.

**24. ... yaratilayotgan modelni dastlabki va yakuniy ko‘rinishida ishlab chiqish va uni amaliy qo‘llash darajasiga yetkazishdan iborat.**

- A. Pedagogik mahorat
- B. Muammoli o‘qitish modeli
- S. Texnologik o‘qitish jarayoni
- \*D. Pedagogik loyihalash.

**25. Tasvir, asoslanma, aniq hisob kitob, chizmalar shaklida aks etgan g‘oya nima?**

- A. Model
- B. Maket
- \*S. Loyiha
- D. Ava B

**26. Pedagogik kompetentlik fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda ...**

- A. Innovatsion texnologiyalardan foydalaniladi.
- B. Ensiklopediyalardan foydalaniladi.
- S. Lug‘atlardan foydalaniladi.
- \*D. Barchasi to‘g‘ri.

**27. Kasb tavsifnomasi bu...**

- \*A. Professiogramma
- B. Kompetentlik
- S. Kreativlik

**28. ... o‘z kasbini ustasi degan ma’noni bildiradi.**

- A. Pedagogik mahorat
- \*B. Kasbiy professionalizm
- S. Kasbiy kompetentlik
- D. Kreativlik

**29. Favqulotda vaziyatlar, pedagogik nizolar yuzaga kelganda to‘g‘ri qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga...**

- A. Shaxsiy kompetentlik.
- B. Kasbiy kompetentlik
- \*S. Eksterimal kompetentlik
- D. Ava B javoblar

**30. Izchil ravishda kasbiy o‘shish malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qila olish...**

- \*A. Shaxsiy kompetentlik.
- B. Hissiy imkoniyatlar
- S. Eksterimal kompetentlik
- D. To‘g‘ri javob yo‘q.

**31. Pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan BKMLar majmui ...**

- \*A. Pedagogik tajriba
- B. Pedagogik mahorat
- S. Kasbiy professionalizm
- D. Kasbiy kompetentlik

**32. Shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o‘quvchilarning psixik holatlarini tushuna olish qobiliyati...deyladi.**

- A. Ruhiy barqarorlik qobiliyati

\*B. Perseptiv pedagogik qobiliyatlar

S. Kasbiy professionalizm

D. Pedagogik tajriba

**33. Quydagilarning qaysi biri psixologik komponentlar**

A. Qiziqish

B. Qobilyat

S. Mayl

\*D. Barchasi

**34. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi asosiy omillar qaysilar?**

A. Motivatsion xislatlar,

B. Irodaviy va hissiy sifatlar

S. Intellektual salohiyat.

\*D. Barchasi.

**35. ... o'z kasbiga loyiq, yaroqli degan ma'noni bildiradi.**

\*A. Kompetensiya

B. Kasbiy professionalizm

S. Eksterimal kompetentlik

D. To'g'ri javob yo'q.

## GLOSSARIY

<p><b>Appersepsiya</b>  <b>Апперцепция</b>  <b>Apperception</b></p>	<p>idrokning inson o'tmishidagi tajribasiga va individual xususiyatlariga bog'liqligi.</p>	<p>это зависимость восприятия от прошлого опыта и индивидуальных особенностей человека.</p>	<p>is the dependence of perception on a person's past experience and individual characteristics.</p>
<p><b>Aхлоқ</b>  <b>Нравственность</b>  <b>Morality</b></p>	<p>shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biridir.</p>	<p>это система норм, определяющая долг человека перед обществом и другими людьми, правила духовного поведения, это одна из форм общественного сознания.</p>	<p>is a system of norms that defines a person's duty to society and other people, the rules of spiritual behavior, it is one of the forms of social consciousness.</p>
<p><b>Burch</b>  <b>Долг</b>  <b>The duty</b></p>	<p>muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.</p>	<p>почувствовать определенную моральную обязанность, понять ее необходимость.</p>	<p>The duty is to feel a certain moral obligation, to understand its necessity.</p>
<p><b>Gumanizm</b>  <b>Гуманизм</b>  <b>Humanism</b></p>	<p>1) insonning insonga bo'lgan mehri-muhabbati, uning sha'ni, qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlar uchun qayg'urish g'oyalari bilan sug'orilgan va kishilar o'rtasidagi</p>	<p>1) мировоззрение, основанное на принципах равноправия, честности, человеческих отношений между людьми, проникнутое идеями человеческой любви к человеку,</p>	<p>1) a worldview based on the principles of equality, honesty, human relations between people, imbued with the ideas of human love for man, respect for his honor and dignity, concern for the interests of man;</p>



	tenglik, halollik, insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan dunyoqarash; 2) insoniylik va insonparvarlik, insonlarning bunyodkorligiga ishonchi.	уважения его чести и достоинства, заботы об интересах человека; 2) Человечность и человечность, уверенность в творческих способностях человека.	2) Humanity and humanity, confidence in the creativity of man.
<b>Dunyoqarash</b> <b>Мировоззрение</b> <b>Worldview</b>	shaxsning tafakkur tarzi va yo'nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e'tiqod hamda fikr-o'yular tizimi.	это система взглядов, убеждений и мыслей, которая отражает образ мышления и направление человека.	A worldview is a system of views, beliefs, and thoughts that reflects a person's way of thinking and direction.
<b>Didaktika</b> <b>Дидактика</b> <b>Didactics</b>	ta'lim va o'qitish nazariyasi hamda o'qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.	Дидактика является составной частью теории преподавания и обучения и педагогики, которая отражает содержание образования в учебном процессе.	Didactics is an integral part of pedagogy that reflects the theory of teaching and learning and the content of education in the teaching process.
<b>Intellekt</b> <b>Интеллект</b> <b>Intellect</b>	shaxsning turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishini	Интеллект - это совокупность врожденных и приобретенных умственных	An intellect is a set of innate and acquired mental abilities that determine a person's

	belgilaydigan tug'ma va o'zlashma barcha aqliy qobiliyatlarni to'plami.	способностей, определяющих способность человека успешно осваивать различные виды деятельности.	ability to successfully master different types of activities.
<b>Kognitiv</b> <b>Когнитив</b> <b>Cognitive</b>	bilish jarayoni.	Когнитивный - это процесс обучения.	Cognitive is the process of learning.
<b>Konstruktiv faoliyat</b> <b>Конструктивная деятельность</b> <b>Constructive activity</b>	u o'zida konstruktiv mazmun (o'quv materiallarini tanlash va joy-joyiga qo'yish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv - operativ (o'zining va talabaning xatti-harakatlarini rejalashtirish), konstruktiv material (pedagogik jarayonning o'quv-material bazasini loyihalashtirish) ni birlashtiradi.	Конструктивная деятельность - включает в себя конструктивное содержание (подбор и размещение учебных материалов, планирование и организация педагогического процесса), конструктивно-операционное (планирование собственного и ученического поведения), конструктивно-материальное (проектирование учебно-материальной базы педагогического процесса).	Constructive activity - includes constructive content (selection and placement of teaching materials, planning and organization of the pedagogical process), constructive - operational (planning one's own and student's behavior), constructive - material (designing the educational material base of the pedagogical process).
<b>Konflikt</b>	qarama-qarshi	это конфликт	Conflict is a conflict

<b>Конфликт</b> <b>Conflict</b>	qarashlar, fikrlar to'qnashuvi, jiddiy ziddiyat, qizg'in bahs.	взглядов, конфликт идей, серьезный конфликт, жаркие споры.	of views, a conflict of ideas, a serious conflict, a heated debate.
<b>Kreativlik</b> <b>Креативность</b> <b>Creativity</b>	betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostandart echimlar qabul qiluvchi individning botiniy qobiliyati.	это внутренняя способность человека создавать уникальные ценности и принимать нестандартные решения.	Creativity is the inner ability of an individual to create unique values and make non-standard decisions.
<b>Motiv</b> <b>Мотив</b> <b>Motive</b>	ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.	это содержание внутренней активности человека, являющееся основой удовлетворения определенных потребностей.	Motive is the content of a person's inner activity that is the basis for meeting certain needs.
<b>Motivatsiya</b> <b>Мотивация</b> <b>Motivation</b>	shaxsni faol xatti-harakatlarga undovchi sabablar, asoslar to'plami bo'lib, u ayni zamonda kishi xulqini fiziologik va psixologik boshqarishning dinamik jarayonini ham bildiradi,	это совокупность мотивов, побуждающих человека к активному поведению, которая также отражает динамический процесс физиологического и психологического	Motivation is a set of motives that motivate a person to active behavior, which also reflects the dynamic process of physiological and psychological management of human behavior, determines the direction, activity, harmony and

	faoliyatning yoʻnalishi, faolligi, uygʻunligi hamda turgʻunligini belgilaydi.	управления поведением человека, определяет направление, активность, гармоничность и устойчивость деятельности.	stability of activity.
<b>Pedagogik malaka</b> <b>Педагогическая квалификация</b> <b>Pedagogical qualification</b>	muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega boʻlgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.	это уровень и вид профессиональной педагогической подготовки специалиста, способного решать определенную категорию задач.	Pedagogical qualification is the level and type of professional pedagogical training of a specialist who is able to solve a certain category of tasks.
<b>Pedagogik mahorat -</b> <b>Педагогические навыки</b> <b>Pedagogical skills</b>	pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S.Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.	Педагогические навыки - знание педагогического процесса, умение его организовать, умение действовать (А.С. Макаренко), синтез качества и особенностей личности, что определяет высокую эффективность педагогического процесса.	Pedagogical skills - knowledge of the pedagogical process, the ability to organize it, the ability to act (AS Makarenko), the synthesis of the quality and characteristics of the individual, which determines the high efficiency of the pedagogical process.
<b>Pedagogik</b>	taʼlim	- это	Pedagogical

<p><b>muloqot</b>  <b>Педагогическое общение</b>  <b>Pedagogical communication</b></p>	<p>oluvchilarning maqsadlari hamda ularning birgalikdagi Педагогическое общение faoliyatlari nmzmunidan kelib chiqadigan o‘zaro aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo‘llab-quvvatlashni tashkil etishning ko‘p qirrali jarayoni.</p>	<p>многогранный процесс построения отношений и понимания, взаимопонимания и поддержки, основанный на целях учащихся и характере их совместной деятельности.</p>	<p>communication is a multifaceted process of building relationships and understanding, mutual understanding and support based on the goals of learners and the nature of their collaborative activities.</p>
<p><b>Pedagogik takt – Педагогический такт</b>  <b>Pedagogical tact</b></p>	<p>bolalar faoliyatining turli doiralarda ular bilan muloqotda bo‘lishning pedagogik tamoyili, o‘lchovi, o‘quvchilar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘g‘ri muloqotda bo‘l olish malakasi.</p>	<p>Педагогический такт - педагогический принцип, мера общения с детьми в разных сферах деятельности, умение правильно общаться с учениками с учетом их индивидуальных особенностей.</p>	<p>Pedagogical tact is a pedagogical principle, a measure of the ability to communicate with children in different areas of activity, the ability to communicate properly with students, taking into account their individual characteristics.</p>
<p><b>Pedagogik texnika</b>  <b>Педагогическая техника</b></p>	<p>1) har bit ta’lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta’sir</p>	<p>Педагогическая техника - 1) набор навыков и умений, необходимых для</p>	<p>Pedagogical technique - 1) a set of skills and abilities necessary</p>

<b>Pedagogical technique</b>	o‘tkazishda samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar majmuasi; 2) har bir ta’lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta’minlash uchun zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar.	эффeктивного использования каждого бита в педагогическом воздействии на учащегося и сообщество; 2) навыки и компетенции, необходимые для педагогического обеспечения активного участия каждого учащегося и команды.	for the effective use of each bit in the pedagogical impact on the learner and the community; 2) the skills and competencies required to pedagogically ensure the active participation of each learner and team.
<b>Pedagogning kommunikativ madaniyati -</b>	pedagogning kishilar bilan qisqa muddatda muloqot o‘rnata olishi, ular bilan muloqot o‘rnatishga bo‘lgan doimiy intilishi.	Коммуникативная культура педагога - это умение педагога общаться с людьми в короткие сроки, постоянное желание общаться с ними.	The communicative culture of the educator is the ability of the educator to communicate with people in a short period of time, a constant desire to communicate with them.
<b>Refleksiv malaka- Рефлексивная компетентность Reflexive competence</b>	pedagogga nisbatan qo‘lanadigan nazorat - baholash faoliyati.	- это контрольно-оценочная деятельность, возложенная на учителя.	is a control-assessment activity imposed on a teacher.
<b>Refleksiya – Рефлексия – Reflection</b>	takrorlash, aks etish, o‘z harakatlari va holatlarini tahlil qilish.	повторение, рефлексия, анализ своих действий и ситуаций.	repetition, reflection, analysis of one's actions and states.

<p><b>Tafakkur – Мышление- Contemplation-</b></p>	<p>inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o‘rab olgan dunyodagi o‘zaro boglangan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolarni hal qilish, ma’lum bo‘lmagan voqea hodisalarni qidirish, kelajakni ko‘ra olish. Tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo‘ladi.</p>	<p>это высшая форма мыслительной деятельности человека, процесс познания взаимосвязанных вещей и событий в мире вокруг нас, ощущения важных жизненных процессов и решения проблем, поиска неизвестных событий, видения будущего. Это проявляется в формах мышления, понимания, суждения, заключения.</p>	<p>Contemplation is the highest form of human mental activity, the process of knowing the interconnected things and events in the world around us, feeling important life processes and solving problems, searching for unknown events, seeing the future. It is manifested in the forms of thinking, understanding, judgment, conclusion.</p>
<p><b>Evrastika – Эвристика - Heuristics</b></p>	<p>ilmiy tadqiqotning mantiqiy usullari va metodik qoidalari tizimi.</p>	<p>это система логических методов и методологических правил научного исследования.</p>	<p>is a system of logical methods and methodological rules of scientific research.</p>
<p><b>Modernizatsiya – Модернизация – Modernization</b></p>	<p>pedagogik ta’lim jarayoni va pedagogika fanini davr talablari asosida yangilash</p>	<p>процесс педагогического образования и образовательной науки на основе обновления периода</p>	<p>of pedagogical process and pedagogical science on the basis of time requirements.</p>
<p><b>Kompetensiya – Компетентность- Competence-</b></p>	<p>lotinchada “compete” – “erishayapman, munosibman,</p>	<p>это способность применять полученные знания, навыки и</p>	<p>is the ability to apply the acquired knowledge, skills and abilities in daily</p>

	loyiqman” degan ma’nomalarni anglatib, egallangan bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo’llay olish layoqati.	умения в повседневной и профессиональной деятельности, что в переводе с латыни означает «соревноваться» - «достигать, заслуживать, заслуживать».	and professional activities, which in Latin means "compete" - "achieve, deserve, deserve".
<b>Fasilitator – Фасилитатор- Facilitator -</b>	(guruh yetakchisi) guruhda ijobiy-psixologik muhit yaratadi dars samaradorligini oshirish maqsadida guruhlarda guruh ishini tashkil etuvchi, olib boruvchi shaxs. Mashg’ulotda reglament, norma va mashg’ulot uchun qulay sharoit yaratuvchi. Guruh a’zolarini jipslashtiruvchi, samarali ishlash muhitini yaratuvchidir.	(руководитель группы) человек, который организует и проводит групповую работу в группах с целью повышения эффективности урока, создания позитивной психологической среды в группе. Создание правил, норм и среды обучения в классе. Он объединяет членов команды и создает эффективную рабочую среду.	Facilitator - (group leader) A person who organizes and conducts group work in groups in order to increase the effectiveness of the lesson, creating a positive psychological environment in the group. Creating rules, norms and learning environment in the classroom. It unites team members and creates an effective work environment.
<b>Methodist - Методист - Methodist -</b>	ta’lim jarayonida talabalarning muammoni yechimlariga yordam beradi va	помогает и поддерживает студентов в решении задач учебного процесса.	helps and supports students in solving problems in the educational process.



	qo'llab-quvvatlaydi.		
<b>Tadqiqotchi-novator</b> <b>Исследователь-новатор</b> <b>Researcher-innovator</b>	yangilik yaratuvchi, muntazam ravishda o'z ustida ishlaydi, yangi g'oyalar yaratadi.	Исследователь-новатор - новатор, постоянно работающий над собой, создающий новые идеи.	Researcher-innovator - innovator, constantly working on himself, creating new ideas.
<b>Verbal nutq</b> <b>Вербальная речь</b> <b>Verbal speech</b>	<b>Verbal nutq</b> – o'g'zaki nutq, unda belgilar tizimi sifatida nutq ishlatiladi kommunikatsiya.	Вербальная речь - это устная речь, в которой речь используется как система знаков.	Verbal speech is oral speech in which speech is used as a system of signs communication.
<b>Noverbal nutq</b> <b>Невербальная речь</b> <b>Noverbal speech</b>	<b>Noverbal nutq</b> - unda nolisoniy belgilar tizimi ishlatiladi kommunikatsiya farqlanadi.	Невербальная речь - отличается от общения, в котором используется система невербальных знаков	Noverbal speech - differs from the communication in which a system of non-verbal signs is used.
<b>Imidj</b> <b>Изображение</b> <b>Image</b>	<b>Imidj</b> - (inglizcha "image") – siymo, imidj, qiyofa va "Obraz" ma'nosini bildirsa, mazmunan "joziba" maftunkorlik ma'nosini anglatishiga xizmat qiladi.	Изображение - (англ. Image) - означает изображение, изображение, внешний вид и «Образ», в то время как содержание «шарм» означает очарование. Образ учителя - это не	Image - (English "image") - means image, image, appearance and "Image", while the content "charm" means charm. The image of teachers is not only a means of informing others about their identity, but also a means of

	<p>O'qituvchilarning imidji ularning shaxsi to'g'risida atrofda talabalarga ma'lumot berib qolmay balki talabalarga samarali ta'sir ko'rsatish vositalaridan biri hisoblanadi.</p>	<p>только средство информирования других об их личности, но и средство эффективного воздействия на учеников.</p>	<p>effectively influencing students.</p>
<p><b>Qiyofa vizualizatsiyasi</b> <b>Визуализация лица</b> <b>Face visualization</b></p>	<p><b>Qiyofa vizualizatsiyasi - feysbilding ("facebuilding")</b> yuz gigiyenasi, kosmetologik tuzatish, makiyaj yoki vizaj, sochlarini parvarishlash va mos turmak tanlash.</p>	<p>Визуализация лица - фейсбилдинг, гигиена лица, косметология, макияж или макияж, уход за волосами и выбор правильного стиля.</p>	<p>Face visualization - facebuilding, facial hygiene, cosmetology, makeup or makeup, hair care and choosing the right style.</p>
<p><b>Refleksiya</b> <b>Рефлексия</b> <b>Reflection</b></p>	<p><b>(lot. "reflexio" - orqaga qaytish)</b> – "har tomonlama bar-kamol rivojlangan insonning o'z xatti - harakatlari va ularning qonuniyatlami anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir; inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos</p>	<p>(лат. Reflexio - возвращение) - это форма теоретической деятельности, направленная на понимание поведения разностороннего человека и его законов; это деятельность самопознания и понимания, которая</p>	<p>(Latin "reflexio" - return) - is a form of theoretical activity aimed at understanding the behavior of a well-rounded person and their laws; it is an activity of self-knowledge and understanding that reveals the hidden qualities of the human spiritual world".</p>

	yashirin hislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir”.	раскрывает скрытые качества человеческого духовного мира ».	
<b>Interiorizatsiya</b> <b>Интернализация</b> <b>Interiorization</b>	<b>Interiorizatsiya</b> – tashqi omillarning ichki omillarga o'tishishi haqidagi fikrlarni shakllantirish asosi.	Интернализация - основа для формирования представлений о переходе внешних факторов во внутренние.	Interiorization is the basis for the formation of ideas about the transition of external factors to internal factors.
<b>Deontologiya</b> <b>Деонтология</b> <b>Deontology</b>	so'zi deontos – “shart”, “burch”, logos – “ta’limot”, degan ma’noni anglatib, inson axloqi, etikasi haqidagi ilmiy fikrlar bayon qilingan.	Деонтология - слово deontos - «состояние», «долг», logos - «доктрина», а также научные представления о человеческой морали и этике.	Deontology - the word deontos - "condition", "duty", logos - "doctrine", and scientific ideas about human morality and ethics.
<b>Pedagogik deontologiya</b> <b>Педагогическая деонтология</b> <b>Pedagogical deontology</b>	o'qituvchining kasbiy burchini halol, vijdonan bajarishiga mos keladigan axloqiy, huquqiy tamoyillar va qoidalar majmuidir; vazifa muammolari va umuman olganda kerak bo'lgan (axloq talablarini	это совокупность этических, юридических принципов и правил, которые соответствуют честному и добросовестному выполнению профессиональных обязанностей учителем; это этическая часть,	Pedagogical deontology is a set of ethical, legal principles and rules that are consistent with the honest, conscientious performance of a teacher's professional duty; it is the ethical part that deals with task problems and

	retseptlar shaklida ifoda etadigan har bir narsa) bilan shug'ullanadigan axloqiy qismdir.	которая касается задач и всего, что необходимо в целом (все, что выражает этические требования в виде предписаний).	everything that is needed in general (everything that expresses ethical requirements in the form of prescriptions).
<b>Kompetentlik</b> <b>Компетентность</b> <b>Competence</b>	bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik sohasiga singdirib borish demakdir. O'z sohasining ustasi bo'lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir.	Компетентность означает привитие знаний, профессионализма, квалификации, опыта и ответственности в области лидерства. Быть мастером своего дела - значит знать все секреты своего дела во всех смыслах.	Competence means inculcating knowledge, professionalism, competence, experience and responsibility in the field of leadership. Being a master of your field means knowing the secrets of your field in every way

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>10</b>
<b>1. PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIK FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.....</b>	<b>12</b>
<b>2. PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIK FANINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....</b>	<b>24</b>
<b>3. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIKNING RIVOJLANISH.....</b>	<b>46</b>
<b>4. OLIY TA'LIM O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ASPEKTLARI.....</b>	<b>81</b>
<b>5. O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH TIZIMI.....</b>	<b>92</b>
<b>6. PEDAGOGIK MAHORAT VA KOMPETENSIYA MEZONLARI....</b>	<b>122</b>
<b>7. OLIY TA'LIM O'QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASPEKTLARI.....</b>	<b>151</b>
<b>8. OLIY TA'LIM O'QITUVCHISI MALAKASIGA EGA BO'LISH UCHUN QO'YILADIGAN TALABLAR. PROFESSIOGRAMMA.....</b>	<b>159</b>
<b>9. PEDAGOGIK KASBINING SATHLARINI TASHKIL ETUVCHI KOMPETENSIYALAR.....</b>	<b>179</b>
<b>10. PEDAGOGIK KREATIVLIK.....</b>	<b>197</b>
<b>11. HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING TASNIFIY BELGILARI.....</b>	<b>207</b>
<b>12. PEDAGOGIK TYUTORLIK, FASILITATORLIK QOBILIYATLARI ASOSIDA LOYIHAVIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI.....</b>	<b>224</b>
<b>13. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR.....</b>	<b>248</b>
<b>14. GLOSSARIY.....</b>	<b>272</b>
<b>15. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>286</b>

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘ll. - T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006. -159 b.
5. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma. -T.: BROK CLASS SERVIS, 2016. – 84 b.
6. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. O‘quv qo‘llanma. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2017. – 320 b.
7. Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. O‘quv qo‘ll.-T.: TIB-KITOB, 2009. -183 b.
8. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kopotentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
9. Muslimov N.A. va boshqalar. Professionalnaya kompetentnost budущego uchitelya: teoriya i texnologiya obucheniya Uchebnoe posobie . -T.: TDPU, 2014
10. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik-T.: Iqtisod-moliya, 2011. - 420 b.
11. Bolotov V.A., Serikov V.V. Kompetentnostnaya model: Ot idei k obrazovatelnoy programmoy. Pedagogika. 2003. № 3.
12. Bondorevskaya Ye.V., Kulnevich S.V. Pedagogika. 2004. № 10.
13. Drujilov S.A. Professionalnaya kompetentnosti i professionalizm pedagoga. Psixologicheskiy podxod. Sibir. Filosofiya. Obrazovanie. Almanax. S.O.RAO. IPK, g., Novokuznevsck –2005. № 8.
14. Bermus A.G. Проблемы i perspektivy realizatsii kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. [www.yeidoc.ru](http://www.yeidoc.ru). 2005, 09, 10.
15. Kuzmenix J.O. Proffessionalno pedagogicheskaya podgotovka budущix uchiteley v shkolax proffessionalnaya razvitiya v SShA. Yoshkar-ala. 2007.
16. Vdovina S.A. Professionalno pedagogicheskaya kompetentnost i yee struktura. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Perm – 2009.
17. Yelegina V.S., Poxlebaev S.M. Kompetentnosnyy podxod k organizatsii

obucheniya studentov v pedagogicheskim vuze. Fundamentalnoe issledovanie. 2012 № 3.

18. Lebedev O.Ye. Kompetentnosnyy podxod v obrazovanii. [www.nekrasovepb.ru](http://www.nekrasovepb.ru)
19. Zimnyaya I.A., I.A. Klyuchevnyx. Kompetensii – novaya paradigma rezultata obrazovaniya. [quality.petrso.ru](http://quality.petrso.ru)
20. Olsson, Thomas; Martensson Katarina and Roxa, Torgny. Pedagogical competence. Swedish, Division for Development of Teaching and Learning, Uppsala University, 2010.

#### **Axborot manbalari**

21. [www. tdpu. Uz](http://www.tdpu.Uz)
22. [www. pedagog. uz](http://www. pedagog. uz)
23. [www. Ziyonet. uz](http://www. Ziyonet. uz)
24. [www. edu. uz](http://www. edu. uz)